ISSN 2181-7839

XALQ TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:
O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2023

3-son
(May-Iyun)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

MUNDARIJA

		TAHRIRIYAT
	4	Yangilangan konstitutsiya – chinakam xalq konstitutsiyasi – O‘zbekiston – huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat
		TA’LIM VA TARBIYA NAZARIYASI
Z. Yulchiyeva	6	Yangi o‘zbekiston demokratik o‘zgarishlar jarayonida “kasbiy psixologiya” fanining o‘rni
R. Shermuxamedov	9	Oliy ta’lim tizimida tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning pedagogik zarurati
M. Sayidova	13	Talabalarda ijodiy va kreativ qobiliyatni shakllantirish masalalari
N. Berdikulova	17	Ta’limni tashkil etish jarayonida innovatsiya va integratsiya muammolari
I. Suyunov	20	Multimedia audio va video ko‘rinishidagi axborotlar bilan ishlash ko‘nikmalari
F.A. Berdibekova	25	Akmeologik yondashuv asosida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning nazariy-metodologik asoslari
M. Yakubova	29	Umumta’lim maktab o‘quvchilarida kreativlik kompetensiyalarni shakllantirish
N. Nosirov	32	Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchisining metodik kompetentligini takomillashtirish usullari
F. Rustamov	36	O‘zbek adabiyotining ingliz tilidagi tarjimalari
		TA’LIM VA TARBIYA METODIKASI
F. To‘rabekov	40	Bo‘lajak texnologiya o‘qituvchisini axborot ta’lim muhitida kasbiy faoliyatga tayyorlash modullari
Mukhtoriy Mohruy Sodirzoda	45	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda tildagi iboralarning o‘rni
M. Abdullaeva	48	Ta’lim metodlaridan samarali foydalanish natijasida ta’lim sifatini oshirish
M. Baymetov	51	Oliy ta’lim muassasalarida o‘quv amaliyotining ta’lim jarayonidagi o‘rni
D.B. Jabborova	54	Kimyo fanida “genetik bog‘liqlik” tushunchasini shakllantirish
B. Qosimov, G. Choriyeva	58	Birinchi sinfda matematikadan sodda masalalar va ularni yechishga o‘rgatish metodikasi
N. Mamaraximova	64	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ijodiy tafakkurini shakllantirish mazmuni
		ZAMONAVIY TA’LIM TEXNOLOGIYALARI
Sh. Bekchonova	69	Kiberpedagogikada nazariya va amaliyot
Z. Ismatova, M. Aslonova	74	Boshlang‘ich sinf tabiiy fanlar darslarini o‘qitishda vizual ta’lim usullaridan foydalanish
D. Farsaxonova, M. Danaeva	78	Boshlang‘ich sinflarda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish masalasi
		MILLIY TA’LIM TEXNOLOGIYALARI

K. Pardayeva	83	O‘quv jarayonida abdulla avloniyning ta’lim-tarbiyaga oid qarashlaridan foydalanishning interfaol metodlari
N. Bababekova	86	Milliy-ma’naviy qadriyatlarni o‘rganishning ijtimoiy asoslari va yo‘nalishlari
		TA’LIMDA MENEJMENT
E. Xudoyberdiyev	89	Maktab ta’limi sifatini oshirishda boshqaruv strategiyasining ahamiyati
T. Kalmuratov	94	Boshqaruv funksiyalari asosida davlat-xususiy sheriklik asosidagi nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini boshqarish mexanizmi
		JISMONIY TARBIYA VA SPORT
O. Odilov	99	Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarida tashkilotchilik kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik sharoitlari
A. Sultonov, M. Choriyeva	103	Belbog‘li kurash qoidalarining xususiyatlari
		MUSIQA VA SAN’AT TA’LIMI
U.Q. Shoymurotov	107	Tasviriy san’at va adabiyotning aloqadorlik ta’lim qonuniyatlarining amaliyotidagi holati
H. Mizamova	111	Musiqa metodikasini takomillashtirish pedagogik tamoyillar tizimida
		MAKTABGACHA TA’LIM
A. Yusupbayeva	114	Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiya darsiga tayyorlash
N. Mo‘minova, M. Abdulazizova	119	Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy harakat mashqlari
		ILM, MA’RIFAT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR
R. Isroilova	123	Raqamli ta’lim texnologiyalari asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish (Dolzarb metodik muammo sifatida)
		XALQ PEDAGOGIKASI
S. Muxammadiyeva	127	Ahmad yassaviyning asarlari orqali e’tiqod tarbiyasini talabalar ongiga singdirish
		ТЕОРИЯ ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ
И.И. Ганчеренок, Р.Г. Муллахметов, Н.М. Жабборов, Д.А. Конопацкий, С.С. Карпович, Юрик И.В	132	Когда дополнительное образование становится основным:совместные образовательные программы и компетентностно-кластерно-фрактальный подход
М. Матназарова	137	Понятие интеллектуальная мобильность современной студенческой молодежи и его сущность в педагогической науке
Н. Алимова	141	Проблемы формирования интереса к физической культуре в подростковом возрасте

YANGILANGAN KONSTITUTSIYA – CHINAKAM XALQ KONSTITUTSIYASI – O‘ZBEKISTON – HUQUQIY, IJTIMOIY VA DUNYOVIY DAVLAT

Davlat va jamiyatda tub o‘zgarishlar ro‘y berayotgan bir paytda tabiiy ravishda Konstitutsiyaga jiddiy o‘zgartirishlar kiritishni taqozo etdi. Har qanday demokratik islohotlar chin ma’noda xalqchil konstitutsiyaviy asosga ega bo‘lsagina, yanada bardavom bo‘ladi, ko‘zlangan ezgu maqsadlarga erishadi.

Davlatimiz rahbari aytganidek, yangilangan Konstitutsiyamiz “Xalq – qonunlar–ning yagona manbai va muallifidir” hamda “Barcha muhim qarorlar bevosita xalq bilan muloqot asosida va jamoatchilik fikrini hisobga olgan holda qabul qilinadi”, degan tamoyillarga asoslangan holda ishlab chiqildi.

2023-yilning 30-aprel sanasi mamlakatimiz buguni va tarixida unutilmas kun bo‘lib muhrlandi. Chunki shu kuni bizning haq-huquqimizni himoya qilib, kelajagimizning yanada farovon bo‘lishini, inson huquqlarining doimiy ustuvorligini qonun doirasida ta’minlanishini, farzandlarimizning bundan-da barkamol o‘sishini, qolaversa, vatanimizning tinch-totuv bo‘lishini o‘zining adolatli bandlarida kafolatlagan fahr va iftihormiz, baralla ovozimiz bo‘lmish Bosh qomusimizning yangilangan tahriri bo‘lib o‘tgan referendumda mamlakatimiz fuqarolari, ya’ni xalqimiz tomonidan ovoz berish orqali o‘z tasdiqini topdi va O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahriri 2023 yil 1 may sanasidan e'tiboran kuchga kirdi. Bo‘lib o‘tgan referendum natijalari shuni ko‘rsatadiki, 11 ta moddadan iborat tegishli qonun qabul qilindi va ushbu qonunning 1-moddasiga Konstitutsiyaning yangi tahriri ilova qilindi.

Aytish joiz, 1992-yildan buyon konstitutsiyaga jami 15 marta o‘zgartirishlar kiritilgan edi. Bu safar esa o‘zgarishlar ko‘lami kattaligi va e'tiborga olingan har bir bandning oqilona uylanganligi hujjatning yangi tahririning ko‘tarinki ruhda qabul qilinishiga sabab bo‘ldi. Yangi tahrir natijasida, bosh qomusdagi moddalar soni 128 tadan 155 taga, undagi normalar esa 275 tadan 434 taga oshdi. Bu esa shu kunga qadar amaldagi qomusimizning 65 foizga yangilanganini ko‘rsatadi.

Tahrirdan oldingi konstitutsiyaning 1-moddasida keltirilgan “O‘zbekiston – suveren demokratik respublika” jumlasi yuqoridagi kabi, ya’ni “O‘zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat” deb o‘zgartirildi.

Ta’kidlash kerak, yangi tahrirdagi konstitutsiyaning 1-moddasi bilan 154-moddasiga qoidalarni qayta ko‘rib chiqish mumkin emas, deb belgilandi. Jumladan, 154-moddada O‘zbekiston hech qachon demokratiyadan voz kechmasligi, huquqiy davlatchilikka sodiqligi, monarxiyaga yoki islomiy respublikaga aylanmasligini nazarda tutadi.

O‘zbekistonning yangi tahrirdagi konstitutsiyasida Davlat boshqaruvidagi o‘zgarishlari ham e'tiborga molik. Unga ko‘ra, Prezidentning vakolat muddati 5 yildan 7 yilga uzaytirildi. Va shuningdek, prezidentning “davlat boshlig‘i” maqomi, ayni bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq prezident bo‘lishi mumkin emasligi, prezidentning qasamyodi matni va prezidentga taalluqli boshqa aksariyat normalar o‘zgarishsiz qoldirildi. Ma’lumot uchun aytib o‘tish kerak, prezidentning vakolat muddati 2003-yilda ham 5 yildan 7 yilga uzaytirilgan edi va 2011-yilga kelib esa yana 7 yildan 5 yilga tushirilgan edi.

Yangi tahrirdagi konstitutsiyada qo‘shilgan yangi modda aynan o‘qituvchilar haqida

bo‘lib, bu esa nafaqat mamlakatimiz ustozlarining g‘urur va iftihorini, balki biz uchun ham alohida e'tiborga molik, desak mubolag‘a bo‘lmas. Binobarin, farzanlarimiz ta’limi, kerak bo‘lsa, tarbiyasiga mas’ul bo‘lgan soha vakillarining qadri va sha’ni bizning ham g‘ururimizdir. Va shuningdek, ushbu band bugungi kunda ta’lim tizimida olib borilayotgan tub islohotlarning yanada jadallashuvi va natijalari bugungidan ham ijobiy bo‘liishini anglatadi. Ushbu modda ikki banddan iborat bo‘lib, bular:

– O‘zbekiston Respublikasida o‘qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog‘lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma’naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e'tirof etiladi.

– Davlat o‘qituvchilarning sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o‘sishi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiladi.

E'tiborlisi shuki, o‘qituvchilar huquq sohasi vakili bo‘lmagan, lekin oliy qonunda alohida tilga olingan yagona kasb egalariga aylandi.

So‘z erkinligi bor joyda adolat bo‘ladi, insonning sha’ni ulug‘lanadi, huqiqi hurmat topadi. Ona yurt tinchligi yo‘lida adolatli qalami bilan qalqon bo‘ladigan, ayrim loqayd amaldorlar tili bilan emas, balki o‘zi va adolatpesh xalq tili bilan vatan ravnaqiga munosib xissa qo‘shayotgan, oddiy xalqning dardini o‘z dardi, deb biladigan jurnalistlar, ya’ni OAV hodimlari faoliyatiga to‘sqinlik qilish bundan buyon qonuniy javobgarlikka sabab bo‘ladi.

Tahrirdan oldingi konstitutsiyaning “Ommaviy axborot vositalari” nomli bobi bitta moddadan iborat edi. Unda: “Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axborotning to‘g‘riligi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar. Senzuraga yo‘l qo‘yilmaydi”, deyilgan bo‘lsa, bosh qomusimizning yangi tahririga ko‘ra, bu bob ikkita moddadan iborat bo‘ldi:

– Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ish olib boradilar. Davlat ommaviy axborot vositalari faoliyatining erkinligini, ularning axborotni izlash, olish, undan foydalanish va uni tarqatishga bo‘lgan huquqlari amalga oshirilishini kafolatlaydi. Ommaviy axborot vositalari o‘zi taqdim etadigan axborotning ishonchliligi uchun javobgardir.

– Senzuraga yo‘l qo‘yilmaydi. Ommaviy axborot vositalarining faoliyatiga to‘sqinlik qilish yoki aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo‘ladi.

Konstitutsiya to‘g‘ridan to‘g‘ri amal qiladi – bu fuqaroning nafaqat qonunlarga, balki konstitutsion haq-huquqidan kelib chiqib, o‘z huqularidan foydalangan holda ishlarini hal etishlari va muammolarini bartaraf eta olishlari uchun bemalol sudga murojaat qilishlariga imkon beradi. Shu o‘rinda keltirib o‘tish joiz, tahrirdagi konstitutsiyaning 15-moddasiga quyidagi qo‘shimcha jumlalar qo‘shildi: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to‘g‘ridan to‘g‘ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi.

Shuningdek, yangi konstitutsiyaning 19-moddasi (avvalgi 18-modda)da fuqarolarning jinsi, millati, mavqyeyi va hokazolardan qat'iy nazar qonun oldida tengligi haqida bo‘lib (“Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilanib qo‘yiladi hamda ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo‘lishi shart.”), ushbu moddaning 2-qismi quyidagicha o‘zgartirildi:

Aziz mushtariylar! Biz yuqorida Siz bilan yangi tahrirdagi bosh qomusimizning ayrim bandlari ustida to‘xtalib o‘tdik va kelgusida ham ushbu mavsuga yana qaytishni joiz, deb topdik. Endigi asosiy vazifamiz Bosh qomusimizning asosi qonun hamda qonunosti ishlashini nazorat qilishdan iborat.

Zulfizar YULCHIYEVA,
Toshkent davlat texnika universiteti, "Pedagogika va psixologiya" kafedrasi mudiri, dotsent

YANGI O'ZBEKISTON DEMOKRATIK O'ZGARISHLAR JARAYONIDA "KASBIY PSIXOLOGIYA" FANINING O'RNI

Annotatsiya

Maqolada kasbiy psixologiya fanining texnika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari o'qitilishining ahamiyati haqida bayon qilinadi. Shuningdek, talabalarga kasb klassifikasiyasi, kasblar olamida to'g'ri mo'ljall olish hamda bo'lajak kasbga psixologik moslashishlari borasidagi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashda kasbiy psixologiya fanining zarurati yoritilgan.

Kalit so'zlar. Psixologiya, kasbiy psixologiya, kasb, mehnat samaradorligi, ishlab chiqarish, mutaxassislik, shaxs, professiogramma, psixogramma, adaptatsiya.

В статье описывается важность обучения в высших учебных заведениях по техническому направлению учебной дисциплины "Профессиональная психология". Подчеркнута необходимость науки "Профессиональная психология" в приобретении у студентов знаний, умений и навыков по классификации профессий, постановке правильных целей в мире профессий, психологической адаптации к будущей профессии.

Ключевые слова. Психология, профессиональная психология, профессия, производительность труда, производство, специальность, личность, профессиограмма, психограмма, адаптация.

The article describes the importance of studying in higher educational institutions in the technical direction of the academic discipline "Professional Psychology". The necessity of the science "Professional psychology" in acquiring knowledge, skills and abilities from students in the classification of professions, setting the right goals in the world of professions, and psychological adaptation to the future profession is emphasized.

Key words. Psychology, professional psychology, profession, labor productivity, production, specialty, personality, professiogram, psychogram, adaptation.

Davlat va jamiyat hayotida ro'y berayotgan tub o'zgarish va islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi, avvalo, bozor iqtisodiyoti sharoitida mustahkam bilimga ega, O'zbekistonning bugungi tashqi va ichki siyosati yo'nalishlarini tushunadigan, tahlil eta oladigan yosh va tashabbuskor kadrlarni taqozo etadi.

2021-yil 17-avgust kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston" gazetasi bosh muharriri Salim Doniyorov savollariga javoblari yuzasidan "Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda" nomli intervyusi e'lon qilindi. Intervyuda 2016-2021-yillarda jamiyatning barcha sohalarida amalga oshirilgan islohotlar hamda oldimizda turgan ustuvor vazifalar haqida chuqur tahliliy ma'lumotlar aks ettirildi, ushbu ma'ruzada Yangi O'zbekistonda amalga oshirilgan keng ko'lamli ishlar va istiqboldagi dolzarb vazifalar aks ettirildi.

Shu ma'noda, ta'lim muassasalarida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan joriy yilning so'nggi ikki oyi davomida o'tkazilgan yirik xalqa-

ro va davlat tadbirlari hamda bayram tantanalarida so‘zlagan nutqlari, shuningdek, ommaviy axborot vositalari vakillariga bergan intervyusida “Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik!” shiori ilgari surildi.

Yangi O‘zbekiston demokratik o‘zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. Bunda mamlakatda faoliyat yuritayotgan mutaxassis kadrlarning salohiyati, bilimi, ko‘nikma va malakasi muhim.

Iqtisodiyotning jadal rivojlanishi, mutaxassisning kasbiy malakasi va shaxsiy resurslariga talablarning ortib borishi psixologiya fanining ma’lumotlaridan shaxsning turli sohalardagi hayotiy faoliyatida kengroq va har tomonlama foydalanishga o‘tishni nazarda tutadi.

Bugungi kunda o‘z kasbiy faoliyatini shaxsiy rivojlanish, hayotda muvaffaqiyatga erishish makoni deb hisoblaydigan ko‘p sonli odamlar o‘zlarini psixologik yordamga muhtojliklarini tan olishmoqda. psixologni qo‘llab-quvvatlash zarurati kasbiy niyat, kasb tanlashni shakillanishi holatidayoq yuzaga keladi va shaxsning butun kasbiy hayoti davomida dolzarb bo‘lib qoladi. Xodimni psixologik qo‘llab-quvvatlash nafaqat shaxiy ahamiyatga, balki ko‘p jihatdan ijtimoiy ahamiyatga ham ega muammo bo‘lib, professional-psixologik potentsialni ro‘yobga chiqarish, kasbiy o‘zini-o‘zi saqlashni ta’minlashning yakuniy natijasi o‘laroq kasbiy faoliyat samaradorligini oshirishda olib keladi.

“Kasbiy psixologiya” fanining o‘quv rejasiga kiritilishi, bizningcha, shaxsning kasbiy faoliyatining psixologik ta’minoti g‘oyasini amaliy ro‘yobga chiqarish vositalaridan biri hisoblanadi. “Kasbiy psixologiya” fani talabalarga kasbiy rivojlanish va qaror topish jarayonidagi qiyinchiliklarni mustaqil yengish hamda olingan bilimlar kasbiy o‘zini-o‘zi saqlash va rivojlantirish texnologiyalarini o‘zlashtirishni ta’minlab beradi.

“Kasbiy psixologiya” fani talabalarga kasbiy faoliyat, kasblar tasnifi, kasbiy yaroqlilik haqida tushunchlarni berish bilan birga kasbiy tanlovda “professiogramma”, “psixogramma” tushunchalarini ochib, psixologiyada tadqiqot usullari masalasini yoritib beradi. Shu bilan birga talabalarni mehnat subyekti sifatida inson rivojlanishining asosiy davrlari bilan tanishtiradi hamda “shaxs faoliyatining individual uslubi” qobiliyatlar shaxsning kasbiy samaradorligiga ta’sir qiluvchi omil sifatida tushuncha beradi.

Har bir shaxs o‘z kasriy faoliyati davomida kasbiy inqirozlarini boshidan kechirishi mumkin. Shu munosabat bilan bo‘lajak muhandislarni kasbiy inqirozlarining tipologiyasi haqida tushunchalar, kasbiy faoliyatdagi stress muammosi ochib beriladi, shaxsning kasbiy moslashuvi muammosi yoritiladi.

“Kasbiy psixologiya” o‘quv kursi texnik oliy ta’lim muassasalari ta’lim yo‘nalishi talabalarida kasbiy psixologik sifatlarini shakllantirish, ularni kasbga tayyorlashda muhim o‘rin tutadi. Zamonaviy sharoitda fanni o‘qitish talaba yoshlarni ilm-fan, texnika va texnologiya sohalarida erishilayotgan ilg‘or yutuqlar, umuminsoniy g‘oyalar, milliy qadriyatlarga tayangan holda tayyorlash, ularda ijtimoiy psixologik madaniyatni rivojlantirish, ijodiy-texnik tafakkurni tarkib toptirish, yetakchi faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish malakalarini hosil qilishga yo‘naltirilgan.

“Kasbiy psixologiya” fani talabalar ta’lim jarayonini samarali tashkil etish, yosh avlodda yuksak ma’naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalashga doir zamonaviy psixologik bilimlar, amaliy ko‘nikma va malakalarning zarur hajmini, muhandis shaxsda namoyon bo‘lishi zarur bo‘lgan umumiy kasbiy va shaxsiy fazilatlarni muvaffaqiyatli egallashlari lozim.

“Kasbiy psixologiya” fanida talabalarni psixologiyaining mohiyati, uning metodlari

va prinsiplari, shaxsning bilish jarayonlari, individual-tipologik xususiyatlari, faoliyati, muloqot va shaxslararo munosabatlar, muhandislik psixologiyasining nazariy va amaliy asoslari haqidagi bilimlarni uyg‘unlashtiradi. Shaxsning emotsional-irodaviy sohasi, hissiyotning umumiy turlari, kasblarning professiografik talablari masalasi talabalar ongiga singdirib boriladi.

Zamonaviy jamiyat ishlab chiqarishining favqulodda rivojlanishi, yangi turdagi uskunalar, aloqa vositalari, elektronika, avtomatlashtirishning keng qo‘llanilishi, tovush–dan yuqori tezlikda ishlaydigan yangi transport turlarining rivojlanishi va boshqalar bilan tavsiflanadi. Bularning barchasi zamonaviy texnologiyalar bilan shug‘ullanadigan odamning ruhiyatiga katta talablar qo‘yadi. Zamonaviy sanoatda, iqtisodiyotda, siyosatda, jamiyatning deyarli barcha sohalarida “psixologik omil” deb ataladigan tushunchani, ya’ni insonning aqliy bilish jarayonlarida mavjud bo‘lgan imkoniyatlarni – idrok etish, xotira, tafakkurni, shaxsiy xususiyatlarda – xarakter xususiyatlari, temperament, reaktsiya tezligi kabilarni hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, eng qisqa vaqt ichida mas’uliyatli qarorlar qabul qilish zarurati bilan bog‘liq bo‘lgan neyropsik kuchlanish sharoitida (zamonaviy tovushdan tez aviatsiya uchun, katta energiya tizimlarining dispetcher-operatorlari ishi uchun va boshqalarga xos bo‘lgan holatlar).

Kasbiy faoliyatni hech qanday maxsus xato va uzilishlarsiz amalga oshirishga imkon beradigan shaxsiy xususiyatlarning mavjudligi juda muhim bo‘lib boradi. Bu fazilatlarning yo‘qligi baxtsiz hodisalarga olib keladi. Kompyuter inqilobi psixologiyaning keyingi rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Inson ongining o‘ziga xos xususiyati hisoblangan bir qator funktsiyalar – axborotni to‘plash va qayta ishlash, boshqarish va nazorat qilish funktsiyalari elektron qurilmalar tomonidan bajarila boshlandi. Nazariy-informatsion tushunchalar va modellardan foydalanish psixologiyaga yangi mantiqiy va matematik usullarning kiritilishiga yordam berdi. Shu bilan birga, avtomatlashtirish va kibernetlashtirish elektron qurilma orqali o‘tkazib bo‘lmaydigan funktsiyalarni, birinchi navbatda, ijodiy qobiliyatlarni o‘rganish va ulardan samarali foydalanishga qiziqishni keskin oshirdi. Insoniyat kelajagi, shaxs va uning ruhiy tuzilishi uchun kompyuter inqilobining ahamiyati juda katta. Ammo elektron axborot texnologiyalari qanday mo‘jizalar yaratmasin, insonning shaxsiyati qanday o‘zgarmasin, u barcha belgilari bilan ruhiy xususiyatlarga ega bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O‘zbekiston, 2016.

2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017.

3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarliklar - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil yakunlari va 2020-yil istiqbollariga bag‘ishlangan majlisdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. Xalq so‘zi gazetasi. 2019-yil. 16-yanvar, №11.

4. Воробьёв М.А. Психология труда. Урал.гос.пед.ун-т. – Екатеринбург, 2015.

5. Луговский В.А., Кох М.Н. Психология профессионалной деятелности: учеб.-метод. пособие. - Краснодар : КубГАУ, 2015.

6. Yulchiyeva Z.N. Kasbiy psixologiya. O‘quv qo‘llanma. – T.: ‘‘Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi”, 2020.

Raxmatulla SHERMUXAMEDOV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
“Texnologik ta’lim” kafedrasi o‘qituvchisi

OLIY TA’LIM TIZIMIDA TARBIYAVIY ISHLARNI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK ZARURATI

Annotatsiya

Maqolada oliy ta’lim tizimida tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning pedagogik zarurati haqidagi fikr-mulohazalar bayon etilgan, shuningdek, oliy ta’lim jarayonida tarbiyaviy ishlarni tashkil etish mazmuni va mezonlari ilmiy manbalar asosida yoritilgan. O‘quv tarbiya jarayoni mazmuniga qo‘yiladigan talablar va tarbiyaviy ishlarni tashkil etish bo‘yicha metodik tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar. Tarbiya, g‘oyaviy, axloqiy, estetik, insoniylik, bag‘rikenglik, ma’naviyat, qadriyat, tamoyil.

В статье описываются взгляды на педагогическую необходимость организации воспитательной работы в системе высшего образования. Также на основе научных источников освещаются содержание и критерии организации воспитательной работы в процессе высшего образования. Даны требования к содержанию учебного процесса и методические рекомендации по организации воспитательной работы.

Ключевые слова. Воспитание, идеологическое, нравственное, эстетическое, гуманность, толирантность, духовность, ценности, принципы.

The article describes the views on the pedagogical necessity of organizing educational work in the higher education system. Also, on the basis of scientific sources, the content and criteria of the organization of educational work in the process of higher education are highlighted. The requirements for the content of the educational process and methodological recommendations for the organization of educational work are given.

Key words. Education, ideological, moral, aesthetic, humanity, tolerance, spirituality, values, principles.

Yangi O‘zbekistonda chuqur, keng qamrovli iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizning ma’naviy yuksalishi va yangilanishi sari yuz tutgan bir paytda Prezidentimizning 2017-yil 28-iyuldagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi PQ-3160-sonli Qarorida xususan, oila, mahalla va ta’lim muassasalarida yoshlar tarbiyasi, chekka hududlar va mahallalarda uyushmagan yoshlar bilan maqsadli g‘oyaviy-tarbiyaviy ishlarning yuzaki tarzda olib borilayotgani, jinoyatchilik, diniy ekstremizm va terroristik harakatlarga adashib qo‘shilib qolish, milliy qadriyatlarga e’tiborsizlik, erta turmush qurish, oilaviy ajralishlar kabi salbiy holatlarning oldini olishga qaratilgan targ‘ibot ishlarining aksariyat hollarda kutilgan natijani bermayotgani bu masalalarga jiddiy e’tiborni talab etmoqda.

Ana shu maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda, ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot ishlarining mazmun-mundarijasini tubdan yaxshilash, ularning ko‘lami va miqyosini kengaytirish, tizimda faoliyat ko‘rsatayotgan soha xodimlarining bilim va malakasini izchil oshirib borish, tuman (shahar) darajasidagi xodimlar mehnatiga haq to‘lashning barqaror tizimini yo‘lga qo‘yish, sohada faoliyat olib borayotgan muassasa va tashkilotlar ishini muvofiqlashtirish va ularning samarasini oshirish maqsadida” vazifalar belgilanganligi yosh avlod tarbiyasida ma’naviyatning ustuvorligini yana bir karra tas-

diqlaydi.

Xalqning ma’naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish – O’zbekistonda davlat va jamiyatning eng muhim vazifasidir. Ma’naviyat shunday qimmatbaho mevaki, u bizning qadimiy va navqiron xalqimiz qalbida butun insoniyatning ulkan oilasida o‘z mustaqilligini tushunib yetish va ozodlikni sevish tuyg‘usi bilan birgalikda yetilgan. Ma’naviyat insonga ona suti, ota namunasi, ajdodlar o‘giti bilan birga singadi. Ona tilining buyuk ahamiyati shundaki, u ma’naviyat belgisi sifatida kishilarni yaqin qilib jipslashtiradi. Tabiatga yaqinlik, jonajon o‘lkaning benihoya go‘zalligidan bahramand bo‘lib, ma’naviyatga oziq beradi, uni kuchaytiradi. Ma’naviyat o‘z xalqining tarixini, uning madaniyati va vazifalarini chuqur bilish va tushunib yetishga suyangandagina qudratli kuchga aylanadi.

Ma’naviyati yuksak shaxslar yurtni tanitadi. Shaxsni esa, uning ma’naviy qiyofasi tanitadi. Ma’naviyat – tarbiyadan boshlanadi. Ta’lim-tarbiyasiz ma’naviyatning bo‘lmasligi barchaga ayon haqiqatdir.

Yosh avlodni tarbiyalash masalasi ta’lim tizimining asosiy maqsadi hisoblanadi. Yangilanayotgan jamiyatimizning barcha bosqichlarida: g‘oyaviy-siyosiy, axloqiy-estetik tarbiya nuqtai nazaridan yosh avlodni tarbiyalab, voyaga yetkazish dolzarb sanaladi. Rivojlanayotgan davlatimizga zarur bo‘lgan malakali mutaxassislarni tayyorlash va tarbiyalash olib borayotgan islohotlarning majmuasini tashkil etadi.

Oliy ta’lim jarayonida tarbiyaviy ishlarni tashkil etish mazmunining maqsadga muvofiq tarzda tashkil etish, tanlash uchun mavjud muammolarning optimal yechimlarini topish lozim.

O‘zbekiston Respublikasining Ta’lim to‘g‘risidagi qonunida ta’lim sohasidagi asosiy tamoyillar tarkibiga ta’lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilganligi; ta’lim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyatga ega bo‘lishi belgilangan. Shu nuqtayi nazardan, yoshlarni tarbiyalash ularni qo‘llab-quvatlash har qanday yot g‘oyalardan saqlash, ma’naviy barkamol shaxs qilib tarbiyalash mazmunida quyidagi g‘oyalar yetakchi o‘rin tutadi:

– insonparvarlashtirish;
– millatlararo totuvlik;
– milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish va tarkib toptirish;
– vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash;
– insoniylik va bag‘rikenglik.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish mazmunini insonparvarlashtirish – bu ta’lim tizimi va butun ta’lim jarayonini, har bir inson huquqlarini hurmat qilish, pedagoglar o‘rtasida o‘zaro hurmatga asoslangan munosabatlarni rivojlantirish, ularning sog‘liqlarini saqlash va mustahkamlash, shaxsiy qadr-qimmatlarining his etishlarini ta’minlash va shaxsiy imkoniyatlarini rivojlantirishga va ma’naviy muhitni yaxshilashga xizmat qiladi.

Oliy ta’lim va tarbiya mazmunidan kelib chiqqan holda, o‘quv tarbiya jarayoni mazmuniga quyidagi talablar qo‘yiladi:

1. O‘quv tarbiya jarayoni mazmuni mavjud tarkibining boyligiga ko‘ra, umumiy ta’limiy va tarbiyaviy xarakter hamda kuchli muammoli va ko‘p hadli qurilishga ega bo‘lish kerak.

2. O‘quv tarbiya jarayoni mazmuni kelgusidagi ma’naviy, ahloqiy tarbiya uchun qulay sharoit yaratishi lozim. Bu esa bugungi kundagi tarbiya jarayoni mazmunining muhim jihatlaridan biridir.

Bunday yondashuv orqali o‘quv tarbiya jarayoni talabani ijtimoiylashtirishga

yo‘naltiriladi. Bu quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

– har bir talaba o‘zi egallagan bilim va tajribalari yordamida axborotlarni tanlaydi va ularni o‘zlashtiradi. Shunindek, talaba o‘zlashtirgan axborotlarini yangi tushunchalari doirasiga singdirishi kerak;

– o‘quv tarbiya jarayoni shunday tashkil etilishi kerakki, talabalar o‘qituvchilar yordamida o‘z maqsadlari va tashabbuslarini namoyon qila olsinlar;

– talabalarda tarbiya jarayoniga ongli munosabatni shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Tarbiya jarayonini rejalashtirishda talabalarning ijodiy faol faoliyatini yo‘lga qo‘yish quyidagilarni nazarda tutadi:

1. Tarbiya jarayonining mazmuni bir vaqtning o‘zida bir yoki bir nechta tarbiyalash metodlari va texnologiyalarini qo‘llash uchun imkoniyat berishi kerak.

2. Tarbiya jarayonining mazmuni dolzarb va qiziqarli bo‘lishi hamda hozirgi kishilik jamiyati uchun zarur bo‘lgan masalalarni hamda maqsadlarni qamrab olishi lozim.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda qator mezonlarga amal qilish maqsadga muvofiq:

1. Tarbiya jarayoni mazmunining birliklari, elementlari talabalarni tarbiyalash, o‘rganish, ularni yangi axborotlar bilan ta’minlash va vazifalarni yechishga undashi, buning natijasida ularda ijodiy faollik mayllarini hosil bo‘lishini ta’minlaydi.

2. Tarbiya jarayonining mazmunini shunday tanlanash kerakki, natijada talabalar mustaqil tarzda o‘z farazlarini ilgari sura olsinlar. Bu esa, ularning tashabbuskorligi va faolligi uchun imkoniyat yaratadi.

3. Tarbiya jarayonining elementlari atrof-muhit, moddiy borliqning muhim qismi sifatida namoyon bo‘lishi lozim. Buning natijasida talabalar o‘zi egallagan bilimlari va shaxsiy tajribalarini amaliy faoliyatlari davomida qo‘llay olishlari kerak.

Keyingi vaqtlarda ayrim oliy ta’lim muassasalarida yoshlar jamoat tashkilotlarining tashabbuskorligi susayib, ular faqat oylik badallarni yig‘ish bilan, ba’zi joylarda esa tadbirkorlik, deb savdo-sotiq ishlarini tashkil qilish bilan cheklanib qolganligi sezilmoqda. Professor-o‘qituvchilar va talabalar ma’naviyatini yuksaltirishda rahbariyat bilan yaqindan hamkorligi juda ham zarur. Asosiy tashkiliy ishlar ularning tashabbusi bilan amalga oshirilsa, yana ham maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Barcha o’quvchi va talabalar uchun xaftani bir (chorshanba) kuni darsdan so‘ng mutazam o‘tkazilib turiladigan quyidagi ma’naviy-ma’rifiy o‘quvlarini tashkil qilish:

1-chorshanba. Prezidentimiz asarlari va nutqlarini o‘rganish.

2-chorshanba. Prezident farmonlari, hukumat qarorlari va respublika qonunlarini o‘rganish.

3-chorshanba. Axloqiy-ma’rifiy o‘quvlaridan (bunda Qur’oni karim, hadis va din ilmining ko‘zga ko‘ringan namoyondalari asarlari ham kiradi) keng foydalanish.

4-chorshanba. Bozor iqtisodiyoti munosabatlari o‘quvini tashkil etish.

Ushbu o‘quvlar tasdiqlangan jadval asosida tarix, falsafa, iqtisodiy nazariya, siyosatshunoslik, etika va estetika, odobnoma, huquq kafedralari professor-o‘qituvchilarini to‘liq jalb qilgan holda, Qur’oni karim, hadis ilmi hamda islom tarixini yaxshi biladigan mutaxassislar ham ishtirok etgan holda o‘tkaziladi.

Barcha professor-o‘qituvchilar uchun har oyning juma kunlarida muntazam ravishda quyidagi ma’naviy-ma’rifiy o’quvlarni tashkil qilish:

a) Mustaqillik darslari (Prezident asarlari, nutqlari, farmonlari, qaror va qonunlar

o‘rganiladi);

b) bozor iqtisodi munosabatlari;

v) ma’naviyat darsi (talabalarga o‘qilayotgan ma’naviyat asoslari buyicha hamda islom tarixi va qonun-qoidalarini yaxshi biladigan mutaxassislarni ham jalb etgan holda);

g) sharq pedagogikasi;

d) sharq falsafasi

Ushbu ma’rifiy ishlarni uyushtirish uchun ma’naviyat va ma’rifat bo‘limi xodimlari mas’uldirlar. Ular dars mavzusi, reja va dasturlarni, dars jadvallarini, ma’ruzachi professor-o‘qituvchilarni, chetdan takif qilinayotgan ma’ruzachilar tayyorlashlari va ta’minlashlari lozim. Darslarni tashkil etishda esa fakultet dekanlarining o‘rinbosarlari bo‘lim xodimlariga yaqindan yordam qilishlari kerak.

Bularning barchasi ma’naviy va ma’rifiy ishlarning mazmuni va yo‘nalishini anglatuvchi tadbirlardir. Zero, ta’lim tizimidagi yoshlar orasida bo‘ladigan ma’naviy va ma’rifiy ishlarni shartli ravishda bir necha majmua (bloklar)ga bo‘lgandik. Ana shu majmualar bo‘yicha tuzilgan rejalar yoshlarga ma’naviy tarbiya berishning qanday saviyada ekanligini ko‘rsatuvchi mezondir. Mazkur majmualarning, deylik, birinchisi, talaba-yoshlarning bilim doirasi, umummadaniyati va saviyasini yuksaltirishga bag‘ishlangan viktorinalar, guruhlararo, kurslararo bilimdonlik va zukkolik yuzasidan musobaqalar tashkil etishdan iborat.

Ma’naviy va ma’rifiy ishlar yuzasidan o‘tkaziladigan tadbirlarning muayyan majmui xalqimizning tarixi, urf-odatlari, rasm-rusmlari asosida tayyorlanib, talaba-yoshlarda milliy qadriyatlarimizga hurmat uyg‘otish ruhida o‘tkazilishi muhimdir. Shuni ham aytish kerakki, bunda milliy o‘ziga xoslikka haddan tashqari e’tiborni qaratish, boshqa millatlarning an’analari, urf-odatlarini ozgina bo‘lsa-da kamsitish, behurmat qilish kabilarga mutlaqo yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Milliy qadriyatlar bo‘yicha tayyorlanadigan tadbirlar umuminsoniy qadriyatlar bag‘rida, u bilan ichki, uzviy aloqadorlik tarzida o‘tkazilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi Qarori. PQ-3160-son.

2. Mirziyoyev Sh. O‘zbekiston Respublikasining Ta’lim to‘g‘risidagi qonuni. – T., 2020-yil 23-sentabr, O‘RQ-637-son.

3. 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o‘rganish bo‘yicha Ilmiy-uslubiy risola. – T.: “Ma’naviyat”, 2017. – 416 b.

4. Alqarov I., Mamatqulova R., Norqulov X. Shaxs va oila tarbiyasining pedagogikasi. O‘quv qo‘llanma. – T., 2009. – 45 b.

5. Gulboyev T. Yangi pedagogik texnologiyalar va ularni ta’lim jarayoniga tadbiq etish. Navoiy 2001 y.

6. Mangal S.K., Mangal Uma. Educational texnologi. Dehli. – 2012.

7. Mavlonova R., Normurodova B., Rahmonqulova N. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O’quv qo’llanma. – T., 2010. – 336 b.

Muhtaram SAYIDOVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
“Texnologik ta’lim” kafedrasi o‘qituvchisi

TALABALARDA IJODIY VA KREATIV QOBILIYATNI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada talabalarning o‘quv faoliyati jarayonida ijodiy va kreativ qobiliyatlarini shakllantirish masalalari muhim ahamiyatga ega ekanligi o‘rganildi, shuningdek, talabalarda ijodiy tafakkur haqidagi tasavvurlarni kengaytirish zarurati hayotiy masala ekanligi ilmiy tahlil qilingan.

Kalit so’zlar. Ijodkorlik, kreativlik, bilim, ko‘nikma, malaka, ijodiy faoliyat, shaxs kreativligi, kasbiy ijodkorlik.

В данной статье рассматриваются вопросы формирования творческих и креативных способностей учащихся в процессе учебной деятельности, также был проведен научный анализ того, что необходимость расширения представлений о творческом мышлении у студентов является жизненно важным вопросом.

Ключевые слова. Творчество, креативность, знания, умения, совершенствование, творческая активность, личностное креативность, профессиональное творчество.

This article discusses the issues of formation of creative and creative abilities of students in the process of educational activity, there was also a scientific analysis of the fact that the need to expand the understanding of creative thinking among students is a vital issue.

Key words. Creativity, creativity, knowledge, skills, improvement, creative activity, personal creativity, professional creativity.

Har qanday shaxsning aqliy taraqqiyoti darajasi ilmiy yoki (bugungi kunda fan bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan) texnikaviy bilimi, ijodiy, kreativ fikr yurita olishi bilan belgilanadi. Inson nafaqat tashqi muhitda, balki o‘zida ham o‘zgarish yasaydi. Shuning uchun ham fan va texnika jadal rivojlanayotgan, ijtimoiy munosabatlar yangilanayotgan hozirgi zamonda yoshlarni kreativ faoliyat, ijodga o‘rgatish, ijodiy qobiliyatli shaxslarni shakllantirish masalalari ayniqsa, dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu nuqtai nazardan, oliy o‘quv yurtlari talabalarida ijodiy tafakkur, kreativ faoliyat yurita olishni rivojlantirish muammosini tadqiq etish masalasi hozirgi kunda yetarli darajada o‘rganilmagan.

Bo‘lajak mutaxassis kadrlar raqobatbardoshligini oshirish, jamiyatda ijodkor shaxslar sonini ko‘paytirish, ijodkor muhitni yaratishda talabalik davridanoq shaxsga psixologik-pedagogik ta’sir ko‘rsatish masalalari hozircha kam o‘rganilgan mavzu bo‘lib, zamonaviy ta’lim maqsadlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zida aks ettiradi. Oliy maktab ta’limi orqali talaba shaxsida ijodkorlik, kreativlikni shakllantirish, ijodiy tafakkur yuritishning psixologik asoslarini tadqiq etish, ilmiy, badiiy va texnik ijodkorlikning bo‘lajak mutaxassis uchun ahamiyatini yoritish, talabalarning ijodiy tafakkur yuritish darajasini psixologik tashxis etishdan iborat. Bugungi kunda axborot jamiyati davrida fan va innovatsion taraqqiyot jamiyat rivojlanishi, shu jumladan, uning moddiy, iqtisodiy negizi – ijtimoiy ishlab chiqarishning rivojlanishini belgilovchi omillar hisoblanadi. Talabalarda ilmiy fakt, g‘oya, gipoteza, konsepsiya, nazariya, ilmiy qonun, ilmiy bilish, degan

tushunchalar va ilmiy tadqiqotlar olib borish malakalarini hosil qilish uchun zamonaviy oliy ta’lim dasturi bunga javob bera olishi ham maqsadga muvofiq[1].

Badiiy ijodkorlik shakllari esa talabalarning yuksak ma’naviy hissiyotlari va tafakkur yuritish shakllariga bog‘liq bo‘ladi. ‘‘Falsafa fanlari ensiklopediyasi’’da Gegel fan tizimli xususiyatga ega ekanligini ko‘rsatar ekan, shu jumladan: ‘‘Fan – mohiyat e’tibori bilan tizimdir, chunki haqiqiylik konkretlik kabi o‘z ichida avj oluvchi birlikdir, ya’ni bir butunlikdir’’, deb qayd etadi[2]. Ilmiy fakt, g‘oya, gipoteza, konsepsiya, nazariya, ilmiy qonun, ilmiy bilish tizimining tarkibiy elementlaridir. Ilmiy ijod fan tizimidagi barcha tarkibiy elementlarning mazmunini rivojlantiradi va boyitadi. Ilmiy ijod – olim, tadqiqotchi, yaratuvchining qobiliyatlari va mahorati, irodasi, tirishqoqligi va qat’iyatining, yakuniy maqsad – yangi, haqqoniy, ilmiy bilim olishga intilishining ifodasidir.

Talabalarning ijodiy faoliyatiga tayyorligini yoki ularning o‘z bo‘lajak kasblariga ijodiy yondasha olishlarini psixologik jihatdan o‘rganishdan maqsad, talabalar muhiti, ularga ta’lim berish xususiyatlari, ularning ilmiy va badiiy ijod, kasbiy ijodkorlik va ijodiy faoliyat haqidagi tasavvurlari, talabalar jamoasi, bo‘lajak mutaxassis – talaba shaxsi ijodiy faoliyati uchun qulay psixologik shart-sharoitlar yaratishdir. Talabalarda ijodiy faoliyatga tayyorlik dinamikasi – o‘sib borish jarayonini bosqichma-bosqich o‘rganish natijasida talabalar ijodiy tafakkurining o‘ziga xos jihatlari namoyon bo‘ladi. Talabalarni o‘z kasbiga ijodiy yondasha olishi darajasida tayyorlash murakkab jarayon bo‘lib, u talabaning ehtiyojlari, qadriyatlari, hissiyotlari va intellekti hamda kasbiy va hayotiy motivatsiyasiga bog‘liq bo‘ladi.

Talabalarda ilmiy ijod va kreativlikni shakllantirishda oliy ta’limda eksperimental fanlar hajmini oshirish, fan va amaliyot integratsiyasi, talabalar tadqiqotlari natijalarini amaliyotda sinash va tatbiq etishni dolzarblashtirish tavsiya etiladi.

Ma’lumki, kasbiy tajriba – bilim, ko‘nikma va malakalarning integratsiyasi sifatida aks etadi. Biroq kasbiy-ijodiy faoliyat ko‘nikmalarining o‘zlashtirilishi nafaqat amaliy ko‘nikma va malakalarning integratsiyasi, balki mutaxassis sifatida faoliyatni samarali tashkil etish usul va vositalarini ishlab chiqishni, shu bilan birga, kasbiy ijodkorlik metodologiyasidan xabardor bo‘lish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish va kreativ xarakterga ega shaxsiy sifatlarning yetarli darajada o‘zlashtirilishini talab etadi. Kreativlik (lot., ing. ‘‘create’’ – yaratish, ‘‘creative’’ yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorligini tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma’nosini ifodalaydi[3]. Ijodkor shaxsning shakllanishini shaxsning o‘zaro mos tarzda bajarilgan ijodiy faoliyat va ijodiy mahsulotlarni yaratish borasidagi rivojlanishi sifatida belgilash mumkin. Ushbu jarayonning sur’ati va qamrovi biologik va ijtimoiy omillar, shaxsning faolligi va kreativ sifatlari, shuningdek, mavjud shart-sharoit, hayotiy muhim va kasbiy shartlangan hodisalarga bog‘liq. Zamonaviy sharoitda pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo‘lishi taqozo etiladi. Pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo‘lishi uning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvatini, kasbiy faoliyatni sifatli, samarali tashkil etishga yo‘naltiradi.

Har qanday ko‘nikmani shakllantirish mumkin bo‘lganiday, kreativ fikrlash qobiliyati yoki ko‘nikmasini ham rivojlantirish mumkin. Bu talabalarga ham taalluqli bo‘lib, kreativlik ustida ishlash talabalarga noodatiy tarzda fikrlashga yordam beradi. Biroq talabalarni ruhlantirish va kreativ bo‘lishga undash o‘qituvchining qay darajada malakali ekanligiga bog‘liq. Kreativlik bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar va kreativlik nazariyachilarining ishlari talabalarda kreativlik ko‘nikmasini shakllantirishda qo‘llanma sifatida xizmat qiladi. Bu auditoriyadagi muhit, talabalarda fikrlash tarzining shakllani–

shi, o‘qituvchining yondashuv va strategik elementlarini o‘z ichiga oladi”[4]. Talabalarda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishda o‘qituvchi alohida o‘rin tutadi. Vaholanki, o‘qituvchi auditoriyada talabalar o‘zini erkin seza oladigan va o‘z fikrlari, g‘oyalari bilan bo‘lisha oladigan muhit yaratishi lozim. Talabalar kreativlikni auditoriyada o‘z g‘oya va fikrlarini turli yo‘llar bilan ifoda etishlari lozim. Talabalar ongida yuz berayotgan jarayonlarni yanada faollashtirish uchun o‘rnatilgan qonun-qoidalar, standartlardan chetga chiqib, turli savollarga javob berishda erkin harakat qilishlari kerak. O‘qituvchi talabalardagi kreativlikni noodatiy g‘oyalarni o‘rtaga tashlash va ularni verbal va noverbal tarzda rag‘batlantirish orqali qo‘llab-quvvatlaydi. O‘qituvchining talabalar berayotgan kreativ g‘oyalariga nisbatan to‘g‘ri munosabati ularning mumkin bo‘lgan va mumkin bo‘lmagan shartlarni anglashida muhim ahamiyatga ega. Mazkur elementlarning barchasi o‘qituvchi-talaba munosabatining muhim qismi bo‘lib, talabalar muvaffaqiyatini ta’minlaydi.

So‘nggi yillarda rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ta’lim tizimida o‘qituvchi va talabalarda kreativlik sifatlarini shakllantirish masalasiga alohida, jiddiy e’tibor qaratilmoqda. Buni Bronson Merriyman, Ken Robinson, Fisher Frey, Begetto Kaufman, Ali, Treffinger va boshqalar tomonidan olib borilgan ko‘plab tadqiqotlar, ularning natijalarini ko‘rish mumkin. Qolaversa, bugun ko‘plab olimlar kreativlik asoslarini o‘rganishga jiddiy kirishganlar[5]. O‘qituvchilarda pedagogik faoliyatni kreativ yondashuv ko‘nikma, malakalarini shakllantirish hamda rivojlantirishga doir ko‘plab adabiyotlar chop etilyapti, o‘zaro hamkorlik asosida noan’anaviy darslar tashkil qilinmoqda va hokazo. Ammo shuncha salmoqli amaliy ishlar olib borilayotganligiga qaramay, bizda ko‘pchilik o‘qituvchilar va talabalar hali-hanuz shaxs (o‘zimizda hamda talabalarda) kreativlik sifatlarini qanday qilib samarali shakllantirish tajribasini o‘zlashtira olmayapti. Ta’lim tizimini boshqarish organlari har yil ta’lim muassasalarida yuqori samaradorlikka erishishga e’tibor qaratadi. Ana shu maqsadda, yangi o‘quv dasturlari ishlab chiqiladi va yangi o‘quv darsliklari yaratiladi. Olib boriladigan amaliy harakatlar talabalarda yutuqlarga erishish, olg‘a intilishga bo‘lgan ehtiyojni muayyan darajada yuzaga keltiradi, ularning o‘quv-bilish qobiliyatlarini bir qadar rivojlantirishga yordam beradi.

Hozirgi paytda jamiyatni demokratizatsiyalashtirish va gumanizatsiyalashtirish, insoniyat huquqlari va erkinliklarining kengayishi sharoitida, mustaqil faoliyat ko‘rsata oladigan yosh avlodni tarbiyalash juda muhimdir. Mustaqillik, tashabbuskorlik, ijodkorlik, maqsadga intiluvchanlik – insonning mustaqil fikrini shakllantirish uchun hozir va kelajakda hayotiy muhim muammolar bo‘yicha mustaqil yechimlar, qarorlar qabul qilishni takomillashtirish, rivojlantirish uchun zarur hisoblangan zamonaviy inson shaxsining muhim sifatlari hisoblanadi. Hozirgi sharoitda ijodiy faollik va mustaqillik zamonaviy mutaxassis uchun xarakterli hisoblanadi[6].

Ijodkor shaxsning shakllanishini shaxsning o‘zaro mos tarzda bajarilgan ijodiy faoliyat va ijodiy mahsulotlarni yaratish borasidagi rivojlanishi sifatida belgilash mumkin. Ushbu jarayonning sur’ati va qamrovi biologik va ijtimoiy omillar, shaxsning faolligi va kreativ sifatlari, shuningdek, mavjud shart-sharoit, hayotiy muhim va kasbiy shartlangan hodisalarga bog‘liq[7]. Patti Drapeau nuqtayi nazariga ko‘ra[8], kreativ fikrlash eng avvalo, muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash sanaladi. Har tomonlama fikrlash talabalardan o‘quv topshirig‘i, masalasi va vazifalarini bajarishda ko‘plab g‘oyalarga tayanishni talab etadi. Bundan farqli ravishda bir tomonlama fikrlash esa birgina to‘g‘ri g‘oyaga asoslanishni ifodalaydi. Mushohada yuritishda masala yuzasidan bir va ko‘p tomonlama fikrlashdan birini inkor etib bo‘lmaydi. Binobarin, bir va

har tomonlama fikrlash kreativlikni shakllantirishda birdek ahamiyat kasb etadi, ya’ni topshiriqni bajarish, masalani yechishda talaba yechimning bir necha variantini izlaydi (ko‘p tomonlama fikrlash), keyin esa eng maqbul natijani kafolatlovchi birgina to‘g‘ri yechimda to‘xtaladi (bir tomonlama fikrlash).

Talabalarning mustaqil ishlashi o‘qitish jarayonining ajralmas qismidir. Mustaqil ishlash tafakkur, ko‘nikma va malakalarning rivojlanishiga yordam beradi, shaxsning irodasini chiniqtiradi. Talabalarning mustaqil tahsili ularning o‘z bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish, mavjud malaka va ko‘nikmalarni takomillashtirish hamda ularning yangilarini o‘zlashtirishga bo‘lgan intilishi hisoblanadi. Mustaqil ishlarni bajarishda ta’lim-tarbiya jarayonida mustaqil fikrlashga ega bo‘lgan shaxslarni kamol toptirish bugungi kun oldida turgan asosiy vazifadir. Mustaqil fikrlash borliq, voqelikni idrok etish usuli sifatida tafakkur jarayonining mahsuli bo‘lishi lozim. U faoliyat bilan bog‘liq bo‘lib, mustaqil ish jarayonida shakllanadi. Shuning uchun o‘quvchining fikrlash qobiliyati uning fahm-farosati, aql-zakovati, zehnini oshirish uchun ta’lim-tarbiya jarayonini aynan shu masalani hal etishga qaratish kerak.

Yuqoridagilar asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, agar talabalarda ijodiy tafakkur haqidagi tasavvurlar kengaysa va kreativ faoliyati motivatsiyasi anglangan bo‘lsa, ularda ijodiy-kreativ tafakkur yuritishga tayyorlik darajasi izchil o‘sib boradi. Shuningdek, talabalar ilmiy-ijodiy izlanishlari, iqtidorli talabalarni qo‘llab-quvvatlash, fan olimpiadalari, talabalar ilmiy konferensiyalari, ilmiy va badiiy to‘garaklarning samaradorligi ham ularda ijodkorlikka qiziqish va motivatsiyani hamda tegishli malakalarning hosil bo‘lishiga sabab bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nishonova Z., Ergashev P. Oliy maktab psixologiyasi. – T., 2008. – 176 b.

2. Гегел Г. Энсиклопедия философских наук. Т. 1. – М.: Misl, 1974. – С.100 (tarjima muallifniki).

Shu boisdan pedagoglarning o‘quvchilarda kreativlik kompetensiyalarni tarbiyalashga e’tibor qaratishlari maqsadga muvofiq hisoblanadi. Buning uchun birinchi navbatda, kreativ tafakkur o‘qituvchining o‘zida mujassam bo‘lishi zarur.

Bugungi kunda dunyo ta’lim hamjamiyati, pedagogika va psixologiya oldida ta’lim muassasalarida shaxsni optimal rivojlantirish vazifasi turibdi. XXI asr yoshlarini bilimlarni o‘zlashtirishda ertangi jamiyatga tayyorlashda nafaqat an’anaviy, balki noan’anaviy kreativ tafakkurga ega bo‘lgan kadrlar qilib tayyorlashimiz zarur. Zero, zamonaviy ta’lim taraqqiyoti yangi bilim, malaka va g‘oyalar hisobiga rivojlanadi. Bu esa o‘z o‘rnida jamiyat taraqqiyoti, xalq farovonligi va davlatimiz ravnaqi uchun xizmat qiladi. Insonning ijtimoiy faolligi, qobiliyati barcha muvaffaqiyatlarining garovidir. Chunki har bir inson o‘z mehnati, g‘ayrati, intilishi bilangina faollashadi. O‘qituvchi qanchalik yaxshi o‘qitmasin yoki tarbiya bermasin, tarbiyalanuvchining o‘zi harakat qilmasa, rivojlanish muvaffaqiyatli kechmaydi. Zero, barcha ma’naviy-axloqiy kamchiliklarning asosiy sababi ham insonning o‘z faoliyatini to‘g‘ri yo‘lga qo‘ymaganligidadir.

Kreativlik muammo yoki ilmiy farazlarni ilgari surish, farazni tekshirish va o‘zgartirish, qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash, muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o‘zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta’sirchanlikni ifodalaydi. Boshqa har qanday sifat (fazilat) kabi kreativlik ham birdaniga shakllanmaydi. Kreativlik muayyan bosqichlarda izchil shakllantirib va rivojlantirilib boriladi. Ya’ni o‘quvchida kreativ tafakkur va kreativ fikrlash shakllantirilishi lozim.

Kreativ tafakkur jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichlarini ta’minlash uchun xizmat qiladigan noan’anaviy fikrlash qobiliyati va taraqqiyot omillarini ta’minlashga yo‘naltirilgan tafakkur hisoblanadi.

Kreativ tafakkur rivojlangan davlatlarni xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlarida eng quyi bosqichdan tortib eng yuqori darajalargacha kreativ tafakkur talab qilinadi. Chunki u jamiyat taraqqiyotida uning takomili, o‘sishi, rivojlanishi, kengayishi va mo‘tadil saqlanishining vositasi hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan pedagogik faoliyatda shunday

o‘qitishni tashkil etish kerakki, o‘quvchi kreativ fikrlovchi, kelgusida zamonaviy jamiyat va ishlab chiqarishda muhim rejalashtirish, tashkillashtirish, tahlil qilish, asoslash, motivatsiyalash, nazorat qilish kabi funksiyalarni kreativ tashkil etish imkoniyatiga ega bo‘lsin.

Kreativ tafakkur inson ma’naviyati, tarbiyasi, bilimi, intellekti, iqtidori kabilarni ishlata olish qobiliyatini o‘z ichiga qamrab oladi. Demak, har bir fan o‘qituvchisi o‘quvchilarda mana shu xislatlarni pedagogik diagnostika metodlari orqali aniqlagan holda, uni shakllantirish va rivojlantirishi zarur.

Buning uchun o‘qituvchi o‘quvchilarni ong, tafakkur va aqlni barcha yo‘nalishlarda istiqbolni ko‘rish va anglashga o‘rgatish, ularda tafakkur aqlning peshqadamligi, tafakkurning noan’anaviyligi, oldindan bashoratlay olish, ya’ni prognoz qila olish kabi xususiyatlarni pedagogik jarayonda qo‘yidagicha maqsadli shakllantirilishi kerak:

– har qanday muammoning yechimi bo‘yicha bir emas bir nechta yechimlarni ko‘rsata olish, hamda ularning barchasini o‘ziga xos ijobiy va salbiy tomonlarini har tomonlama asoslab berish, ko‘pchilik o‘ylab ko‘rmaydigan masalaning boshqa jihatlarini ham ochib berish kabi aql peshqadamligiga ega bo‘lish;

– zamonaviy taraqqiyot uchun yangi yo‘nalishlar va yo‘llarni ko‘ra bilish, ularni tafakkur qila olish va shakllantira bilish, faoliyatni yangilash, faoliyatdagi masalalar yechimini yangi yo‘nalishlarini topa bilish kabi noan’anaviy tafakkurga ega bo‘lish;

– o‘z mehnat faoliyati sohasidagi istiqbol o‘zgarishlarning mohiyati, zaruriyati, amalga oshirilish muddatlarini tafakkur orqali oldindan anglash kabi prognoz, bashorat qila olish kabi xususiyatlar uzluksiz ta’lim jarayonida shakllanishi va takomillashishi o‘qituvchining ta’lim-tarbiya jarayonini qanday tashkil etishiga bog‘liq.

“Texnologiya” fani o‘quvchilarga qiyinchiliklarni yengib o‘tishda yordam beradi hamda ularning bilimlarini va butun ta’lim jarayonini tashxis qiladi. O‘z navbatida o‘quvchilarning faoliyati o‘quv jarayonida o‘rganishga, bilim, ko‘nikma hamda malakalarni egallashga, o‘zini jamiyatga foydali faoliyatga tayyorlashga yo‘naltiradi Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning faoliyati ko‘p qirrali yo‘nalgan harakatni ifodalaydi va bu harakat bilishga doir vazifalarni hal qilishda ularga katta yordam beradi.

Shu sababli “Texnologiya” fanini o‘qitish sifatini yaxshilash, samaradorligini oshirish, o‘qituvchi va o‘quvchilar, o‘quvchi va o‘quvchilar guruhi, shuningdek, jamoa o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni qaror toptirish, g‘oyaviy va ruhiy birlikka erishish, yagona maqsad sari intilish, har bir ta’lim oluvchining ichki imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, shaxs sifatida namoyon bo‘lishi uchun zarur shart-sharoit hamda muhitni yaratishda katta imkoniyatlarga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi O‘zbekistonning 2020-yil 6-noyabrdagi “Yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-sonli farmoni. www.lex.uz

2. Yakubova M.Yu. Umumta’lim maktablari o‘quvchilarida kreativ kompetensiyalarni takomillashtirish/ Муғаллим-республика илмий-амалий журнали, 2020 йил. 1/1-сони, – 69-71 b. (ISSN 2181- 7138)

3. Torrance E.P. Torrance Tests of Creative Thinking. – Scholastic Testing Service, Inc., 2004.

4. Белогуров А.Ю. Реализация компетентностного подхода в образовательномпроцессе // Педагогика. 2012. No 12. – С. 6-13.

Nodirbek NOSIROV,
Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti o‘qituvchisi

BO‘LAJAK TEXNOLOGIYA FANI O‘QITUVCHISINING METODIK KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISH USULLARI

Annotatsiya

Maqolada bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining metodik kompetentligini oshirishga qaratilgan hamda olimlarimizning olib borgan ilmiy izlanishlari haqida fikrlar yuritilgan. Mavjud ishlar tahlili bizga texnologiya fani o‘qituvchilarining metodik kompetentligi, strukturasidagi komponentlarni ajratish imkonini berilishi aytib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. Psixologik-pedagogik, kasbiy-pedagogik, metodik va shaxsiy kompetentlik, hamkorlikdagi kasbiy-metodik faoliyat, metodlar, shakllar, vositalar, individuallik, komponent.

Статья направлена на повышение методической компетентности будущих учителей технологии и посвящена научным исследованиям, проводимым нашими учеными. Анализ существующих работ позволил выделить в структуре методической компетентности учителей технологии следующие компоненты: психолого-педагогическая, профессионально-педагогическая, методическая и личностная компетентность.

Ключевые слова. Психолого-педагогическая, профессионально-педагогическая, методическая и личностная компетентность, совместная профессионально-методическая деятельность, методы, формы, средства, индивидуальность, компонент.

The article is aimed at improving the methodological competence of future teachers of technology and discusses the scientific research conducted by our scientists. The analysis of existing works allowed us to distinguish the following components in the structure of methodological competence of technology teachers: psychological-pedagogical, professional-pedagogical, methodical and personal competence.

Key words. Psychological-pedagogical, professional-pedagogical, methodological and personal competence, cooperative professional-methodical activity, methods, forms, tools, individuality, component.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, mahrifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” 2020-yil 2-martdagi PF-5953-son farmonlarida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaroriga asosan 2020-2021-o‘quv yilidan boshlab Respublika Oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o‘tkazish tartibi joriy etildi. Ushbu qonunga asosan kadrlar tayyorlash sifatiga, ta’lim mazmuniga qo‘yiladigan umumiy talablarni, ta’lim oluvchilar tayyorgarligining zarur va yetarli bilim darajasi hamda Oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilariga qo‘yiladigan umumiy malakaviy talablarni, o‘quv yuklamasining hajmini, ta’lim muassasalari faoliyati va kadrlar tayyorlash sifatini baholash tartibotlari hamda mexanizmini belgilaydi.

Bugungi kunda yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga tez moslasha oladigan o‘qituvchilarga talab tobora ko‘paymoqda. Ish beruvchilar xodimlarning malakasiga emas, balki ularning kompetentsiyalari, guruhda ishlash qobiliyati, tashabbuskorligi va kasbiy vaziyatlarni muvaffaqiyatli uddalay olish qobiliyatlari qiziqtirmoqda. Qobiliyatga asos-

langan yondashuv, shuningdek, o‘quv jarayonining boshqa tarkibiy qismlariga, mazmuni, uslublari, pedagogik texnologiyalar va pedagogik jarayonni tashkil etishga o‘z talablarini yuklaydi. Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining metodik kompetentligini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlarini ishlab chiqish uchun, avvalo, talabalarda metodik kompetentlik shakllanganligining mezonlari, ko‘rsatkichlarini belgilash va dastlabki darajalarini aniqlash zarur. Mazkur vazifani hal etish uchun texnologiya fani o‘qituvchisi metodik kompetentligining asosiy strukturaviy komponentlarini aniqlash talab etiladi.

Texnologiya fani o‘qituvchisi metodik kompetentligining strukturasida kompetentlikning quyidagi komponentlariga ajratadi: metodologik, psixologik-pedagogik va kasbiy kompetentlik. Bunda mazkur kompetentliklarning tashkiliy strukturasi shundayki, muallifning fikriga ko‘ra, metodologik kompetentlik tayanch, psixologik-pedagogik-bazaviy va kasbiy-maxsus kompetentlik hisoblanadi. Bunda kompetentliklardan har birini tavsiflab, tayanch kompetentlik – ixtiyoriy kasbiy faoliyatda zarur, u fanlararo ko‘p funksional, ahamiyatli intellektual rivojlanishni talab etilishi va o‘qituvchi uchun u axborotni topish, u bilan ishlash va uning asosida kasbiy vazifalarni hal qilishda ifodalanishini ko‘rsatadi. Texnologiya fani o‘qituvchisi uchun bazaviy kompetentlik – ularning yosh xususiyatlariga mos bo‘lgan, o‘qitish uchun axborot komunikatsion texnologiyalaridan foydalanishdir.

Texnologik ta’lim yo‘nalishi uchun maxsus fanlarning asoslarini va boshqa bo‘limlarini o‘rgatish kelajakdagi texnik yoki muhandis tomonidan loyihalash jarayonida ta’lim olishga ta’sir qiluvchi bir qator o‘ziga xos xususiyatlarga egadir. Metodik kompetentlik - kasbiy tsiklning umumiy kasbiy intizomlariga tegishli bo‘lib, talabaga kerakli miqdordagi bilimlarni beradi, shu asosda boshqa texnik fanlarni, shuningdek, fanlararo kurslarga kiritilgan kasbiy modullarni muvaffaqiyatli o‘rganish mumkin. Shunday qilib, fanning mazmunini o‘rganayotganda o‘rganilayotgan bilimlarning muayyan amaliy xarakatlarni bajarish uchun qo‘llanilishini, boshqa umumiy kasbiy intizomlarni va kasbiy modullarni o‘rganish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni, shuningdek, muammolarni hal qilishni ko‘rsatish kerak. Asosan fanni o‘qitish uchun eng mos keladigan muammoli ta’lim texnologiyasini qo‘llashdan iborat. Yanada samarali o‘qitish uchun boshqa texnologiyalarning elementlari, masalan, o‘yin texnologiyasi va guruhli o‘qitish texnologiyasi pedagogik jarayonga kiritilishi kerak. O‘qitish jarayonida ko‘plab tadqiqotchilar, o‘zbek olimlari izlanishlar olib bormoqda, ushbu izlanishlar asosan ta’lim jarayonining ijtimoiy ehtiyojlarini o‘rganishga va oshirishga qaratilgan bo‘lib bo‘lajak o‘qituvchilarning metodik kompetentligini takomillashtiradi.

Bo‘lajak o‘qituvchilar faoliyatining metodik sohasini ifodalovchi maxsus kompetentlik, o‘qituvchi uchun talabalarni axborot komunikatsion texnologiyalaridan foydalanib o‘qitish qobiliyatiga qarab ifodalanadi. Biz bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining metodik faoliyati va xususiyatlarini o‘rganib, texnologiya fani o‘qituvchisi uchun quyidagilar xosligi to‘g‘risidagi xulosaga keldik:

- ❖ o‘quvchilar va ularning psixofiziologik xususiyatlari to‘g‘risida bilimlar tizimiga ega bo‘lishi;
- ❖ gumanitar va tabiiy sohalaridagi axborotlar tashuvchisi egallanganligiga;
- ❖ boshlang‘ich ta’limning zamonaviy vositalarini erkin tushunadigan;
- ❖ boshlang‘ich ta’lim fanlarini o‘qitishning turli metodlari va usullarini egallagan bo‘lishligi;
- ❖ o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga qarab qobilyatlarini hisobga olinishini.

Natijada bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchisining metodik kompetentligi strukturasidagi quyidagi komponentlarni ajratish imkonini berdi: psixologik-pedagogik, kasbiy-metodik va shaxsiy kompetentlik. Psixologik-pedagogik kompetentlik texnologiya fani o‘qituvchisi uchun uning kasbiy faoliyati asosi hisoblanadi. O‘qituvchi ko‘pgina o‘quv fanlarini o‘rganish uchun asos hosil qiladi va dunyoqarashni, o‘ziga, atrof-muhitga, o‘quv mehnatiga munosabatni shakllantiradi va uning yosh, individual xususiyatlari, rivojlanishning ijtimoiy omillari to‘g‘risidagi bilimlar tizimisiz amalga oshirib bo‘lmaydi. Ko‘plab tadqiqotchilar psixologik-pedagogik kompetentlik ostida o‘z mehnatining eng asosiy qadriyati sifatida o‘quvchiga yo‘nalganlikni hamda quyidagilarni bilishni tushunadilar:

- ❖ o‘quvchilarning ta’lim-tarbiyasi, psixologiyasi, texnologiya fani o‘qituvchisining pedagogik faoliyati;
- ❖ o‘quvchilar bilimi, rivojlanishi va tarbiyasining o‘zaro aloqadorligi;
- ❖ o‘quvchining fiziologik va psixik rivojlanish xususiyatlari;
- ❖ o‘quvchilarning “tug‘ma” qobilyatlari, psixologik jarayonlari;
- ❖ texnologiya fanining qonuniyatlari va tamoyillari;
- ❖ hunar o‘rganishda ta’lim-tarbiyaning maqsadi va vazifalari;
- ❖ o‘quvchilarning mustaqil ijodiy rivojlanishishi va qobilyatlarini namoyon qilishi.

Psixologik-pedagogik kompetentlik, o‘quv-tarbiyaviy jarayonni loyihalashda hamda o‘quvchilarining rivojlanishida ham mazkur bilimlarni qo‘llash ko‘nikmalarini qamrab oladi. Bundan tashqari psixologik-pedagogik kompetentlik texnologiya fani o‘qituvchisini keyingi uslubiy tayyorgarligining umumnazariy asosi hisoblanadi va keyingi mustaqil ta’lim uchun ham ilmiy-nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi, mazkur bilimlar bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarida pedagogik tafakkurning rivojlanishini, shaxsning metodik-pedagogik sifatlarining shakllanishini ta’minlaydi, ular pedagogik-metodik kompetentligining shakllanishini ta’minlovchi uning metodik tayyorgarligining asosi hisoblanadi.

Bundan tashqari, metodik kompetentlik aniq ifodalangan amaliy xususiyatga ega va o‘z mohiyatiga ko‘ra u yoki bu fanni o‘qitishning aniq qurish masalalari bo‘yicha kengaytirilgan bilimlar tizimini aks ettiradi. Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchisining o‘qitish metodikasini yaxshi egallagan, turli metodik tizimlarga o‘zining munosabatini aniq belgilaydigan va o‘qitish uslubida o‘zining individual uslubiga ega bo‘lgan o‘qituvchini metodik kompetentli deb atashimiz mumkin. Texnologiya fani o‘qituvchisining kasbiy kompetentligi strukturasida metodik kompetentlik kabi komponentni alohida ajratamiz u quyidagi bilimlar majmuasini aks ettiradi:

- ❖ o‘quvchilarni o‘qitish uslubining nazariy asoslari;
- ❖ milliy o‘qitish nazariyasining rivojlanish tendensiyalari;
- ❖ pedagogik jarayonda boshlang‘ich ta’limning mohiyati va roli;
- ❖ maxsus fanlarni o‘qitishning didaktik va metodik asoslari;
- ❖ fanda integratsion jarayonlarning metodologik asoslari;
- ❖ fanlararo aloqadorligini amalga oshirishning mohiyati, ahamiyati, ko‘rinishlari va yo‘llari to‘g‘risida;
- ❖ o‘quvchi shaxsining individual xususiyatlari;
- ❖ umumlashgan kasbiy ko‘nikmalari: pedagogik fikrlash va harakat qilish ko‘nikmasi;
- ❖ hodisalar va dalillarni o‘rganish, ifodalash, tushuntirish;
- ❖ kasbiy asoslangan qarorlar qabul qilish, pedagogik vazifalarni yechish;

- ixtiyoriy o‘quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etish;
- pedagogik muloqot ko‘nikmalari va malakalari;
- shuningdek: kasbiy xulq va muloqotning uslubi malakalari;
- aloqali o‘zaro munosabat texnikasini egallash.

O‘quv faoliyatining barcha turlari, ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar, uslubiy ko‘rsatmalar, bo‘limlar bo‘yicha sinovlarni o‘z ichiga qamrab oladigan o‘quv-elektron darsliklar bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. Texnologiya fani bo‘yicha bunday o‘quv-elektron darsliklar talabalarni ma’lumot qidirishdan butunlay ozod qiladi, ularning fanga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. O‘quv-elektron darslik o‘qituvchi ishida katta ko‘mak bo‘lib, u fanni o‘qitish uchun ko‘proq imkoniyatlar yaratadi. Samaradorlikning eng muhim sharti – bu ma’lum bir mavzuning muvaffaqiyatli rivojlanishiga baho berishga imkon beradigan operatsion teskari aloqa mavjudligi. Shu maqsadda nazorat tadbirlari amalga oshiriladi: yozma so‘rov, test nazorati, individual topshiriqlarning bajarilishi. Olingan natijalar talabalar va o‘qituvchilarga o‘z harakatlarini o‘zgartirishga imkon beradi.

Xulosa qilib aytganda, metodik kompetentlikning quyidagi asosiy xususiyatlarini aytish mumkin: o‘qitish jarayonida ta’lim-tarbiyaning an’anaviy va zamonaviy metodlari, shakllari, vositalari, usullari, texnologiyalarini bilish, ularni qo‘llay olish, ijodiy qayta o‘zgartirish ko‘nikmalariga egalik. Bunda tashxis metodlari va vositalarining samarali bo‘lishi muhim ahamiyatga egadir. Biroq, shaxsning muayyan sifatlarga egaligini tashxislashda, eng avvalo, uning mavjudligi yoki rivojlanganligini baholash imkoniyatini ta’minlovchi mezonlar hamda daraja ko‘rsatkichlarini aniq belgilab olish pedagogik-psixologik faoliyatni to‘g‘ri, oqilona tashkil etish, natijalarni xolis baholashga yordam beradi. Shu bois ham bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarida muayyan sifatlarga egalikni baholovchi mezonlarni asoslash muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi”, 1-ilova 9-bandi.

2. Muslimov N.A., Qo‘ysinov O.A., Abduraxmonov Sh., Abdullayeva Q.M., Gaipova N.S. “Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarining metodik kompetentligini shakllantirish texnologiyalari”. Metodik qo‘llanma. – T., 2014 y. – 32-36 b.

3. Nosirov N.V. “Bo‘lajak texnologik ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlashda pedagogik-psixologik omillardan foydalanishning ahamiyati” Central asian research journal for inter disciplinary studies (sarjis) ISSN: 2181-2454. Volume 2 |ISSUE 4| 2022. DOI:10.24412/2181-2454-2022-4-81-85 O‘zbekiston 4-son 82-85 betlar. 2022 yil.

4. Nosirov N.V. “Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarida kasbiy va metodik kompetentlikni shakllantirishda integratsion jarayondan foydalanish” “Муғаллем ҳем узлуксиз билимлендиў” Илмий журнали. Нукус №5/2. 2022 йил. –129-134 b.

5. Muslimov N.A., Gaipova N.S. “Kasb ta’limi o‘qituvchilarini amaliy kompetentligini shakllantirishda individual psixologik xususiyatlar”. O‘qituvchilarning zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalar bo‘yicha kompetentligi: muammo va yechimlar. Vazirlik tizimidagi oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari miqyosida ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – T.: TDPU. 2012-yil. –12-15 b.

Farhad RUSTAMOV,
Toshkent shahridagi Belarus-O‘zbekiston qo‘shma tarmoqlararo amaliy texnik kvalifikatsiyalar instetuti, v.b. dotsenti

O‘ZBEK ADABIYOTINING INGLIZ TILIDAGI TARJIMALARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada asar va insholarning o‘zbek tilidan ingliz tiliga tarjimasi haqida so‘z boradi, shuningdek, o‘zbek adabiyotini adabiyot darajasigacha olib chiqqan adabiyotchilarimiz, shoirlarimiz va yozuvchilarimizning ingliz tarjimon olimlari tomonidan qilingan tarjimalarini hamda jahon tilshunos olimlarining tarjimalari va ilmiy izlanishlarini tahlil qilamiz.

Kalit so‘zlar. Adabiyot, tarjima, pyesalar, roman, bastakor, tahlil, ilmiy muloqot, ilmiy nuqtai nazar.

В данной статье рассказывается о переводе произведений и сочинений с узбекского на английский язык, а также мы анализируем переводы наших писателей, поэтов и писателей, выведших узбекскую литературу на уровень литературы английскими учеными-переводчиками, а также переводы и научные исследования языковедов мира.

Ключевые слова. Литература, перевод, пьесы, роман, композитор, анализ, научная коммуникация, научная проблематика.

This article talks about the translation of works and essays from Uzbek to English, and we also analyze the translations of our writers, poets and writers who brought Uzbek literature to the level of literature by English translation scientists, as well as the translations and scientific research of world linguists.

Key words. Literature, translation, plays, novel, composer, analysis, scientific communication, scientific perspective.

Insoniyat borki, har bir jarayonga o‘z munosabatini, fikrini va tahlilini namoyon etadi. Zero, B. Paskalning shunday gapi bor: “Ilimni o‘rgana turib, uch maqsadni ko‘zda tutish mumkin: uni izlab topishimiz; topgandan so‘ng isbotlashimiz; nihoyat, ilimni izohlayotganda uni sohtalikdan ayira bilishimiz darkor”.

Shulardan, Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni Lug‘otit–Turk” asarini Amerikalik olimlar Robert Dankoff va Djeyms Kelli o‘rgangan va “Turkiy Kompedium Dialekti” deb nomlangan tadqiqot ishlarini kitob xolatda nashr qilishadi.

Yusuf Xos Xojibning “Kutadg‘u bilig” asarini Amerikalik olim Dankoff tarjima qilgan va uni “Donolikning shohona mashhurligi” (Wisdom of Royal Glory), deb nomlaydi.

Amerika Qo‘shma Shtatlarida Indiana universitetida faoliyat ko‘rsatayotgan Kara Xalim ham A.S. Cho‘lpon haqida dissertatsiya yozgan (Reading Abdulhamid Sulaymon Cho‘lpon from postcolonid perspective. 2000) va uni himoya qilgan.

1974-yil Ottavada Xalqaro Konferensiyada Amerika Qo‘shma Shtatlarining Brgaxemyansk universiteti professori David Montgomeri yuqori saviyada o‘tgan halqaro konferensiyada o‘zbek shoiri Hamid Olimjon haqida ma’ruza qildi va keyinchalik ushbu mavzuda dissertatsiya ishi himoya qilgan.

Amerikaning Karolina universitetida faoliyat ko‘rsatayotgan professor Adib Xolid ham o‘zbek adabiyoti namoyondalari asarlarini tarjima qilgan: Munavvar Qorining “Islax ne demakdir” (What`s reform), A.S. Cho‘lponning “Doktor Muhammadyor” (Doctor Muhammadyar), Behbudiyning “Padarkush” asarini qisqrtirilgan holatda tarjima qilgan. Adib Xolid o‘zbek adabiyoti namunalarini hozirda ham tarjima qilib inglizabon kitobxonlar qo‘liga yetkazib bermoqda.

Vashington universitetida faoliyat ko‘rsatayotgan tarjimon Karolin Vei o‘zbek adabiyoti asarlaridan parchalar tarjimasini bergan. Ulardan Oybekning “Bolalik” (“Chilhood”) (1963 y), Said Ahmadning “Tungi sarguzashtlar” (“Evening Incident”) hikoyasini, O‘tkir Hoshimovning “Ikki afsona” (“Two Legends”) hikoyasini, Abdulla Qahhorning “O‘tmishdan ertaklar” (“Fairytales from the Past”) (1965 y), “O‘tmishdan ertaklar” to‘plami ichiga “Indamas” (“Silent”) hikoyasini tarjimasi kiritilgan. Karolin Vei adabiyotimizni bir necha drammalarini ham tarjimasi bilan mashhurdir.

Amerikalik sharqshunos olimlardan biri Viliyam Xannavey ham Abdurauf Fitratning “Hindistonda bir farangi ila Buhoroli mudarrisning jadid maktablari xususida munozarasi” (Debate between a teacher from Bukhara and a European) asarini ingliz tiliga tarjima qilgan.

Amerikada bir necha yillar davomida yashab ijod qilib kelgan O‘zbek yozuvchisi Muhammad Alining “Men ko‘rgan Amerika” essesida u yerdagi muhitni, sharoitni va munosabatni yoritishga intilgan va munosabat bilan turli suhbatlar o‘tkazgan:

Kelib chiqishi o‘zbek bo‘lgan, lekin Amerikaning Nyu–Jersi shtatining Trenton shahrida ijod qilgan shoir Ergash Uchqun bilan suhbatda shu narsa ma’lum bo‘ladi, u kishi aytadilar: ***“Sizlarning she’rlaringiz obrazlarga, ramzlarga chulg‘angan bo‘ladi, bizlarniki esa ochiq, yalang‘ochroq, aytadigan fikrimizni sharta aytamiz”.***

Shunday suhbatlardan biri AQShdagi Vashington universitetida 1996-yil 3-aprelda bo‘lgan. Bu yili YUNESKO rahnamoligida butun jahonda Amir Temurning 660 yilligi keng nishonlangan. Bunday ulug‘ kun AQShda ham keng nishonlangan. AQShdagi Vashington universitetida bunday kechaning tashkiltochisi Vashington universitetining Markaziy Osiyo tillarini o‘rganish bo‘yicha yetakchi professori Ilza Sirtautas va Muhammad Alilar bo‘lgan. Ushbu kechada Muhammad Ali o‘zining “Amir Temur siymosi badiy adabiyotida” deb nomlangan maruzasi bilan ishtrok etgan va maruzasida Sohibqironing siymosining O‘zbek adabiyotida qanday yaratilgani xususida so‘z borgan. Abdurauf Fitrat, Oybek, Bo‘riboev, Ahmedov, Abdulla Oripov, Odil Yoqubov singari adiblarning turli davrlarda yozilgan asarlarini tahlil etishgan. Maruzada ko‘p savollar tushgani ma’lum va savollarning aksariyati Amir Temur shaxsi, hayoti va hotinlari haqida bo‘lgan.

Adabiyotimizni boyitgan, yurtimizni dunyoga tanitgan “Temur tuzuklari” XV asrdayoq ingliz olimlarining diqqatini o‘ziga tortgan edi. Ingliz sharqshunos olimi Mayor Devi Hinditsonda xizmatda bo‘lgan vaqtida “Temur tuzuklari”ning Abu Tolib Al-Husayniy tomonidan forschaga qilingan tarjimasi bilan tanishadi va Buyuk Britaniyaga qaytgach, asarni ingliz tiliga o‘girib, uni Jozef Vayt degan olim tayyorlagan forscha matni bilan bir muqovada 1783-yilda Oksfordda nashr etadi. Ushbu nashr “Temur tuzuklari”ning dunyo bo‘ylab tarqalishida katta ahamiyatga ega bo‘lgan.

1996-yil Muhammad Alining AQShning Vashington shahridan “Sentral Eysha monitor” (Central Asia monitor) jurnalida “Amir Temur haqida so‘z” (Some word about Amir Temur) nomli maqolasi chop etilgan. Maqolani ingliz tiliga tarjimasini Muhammad Alining shogirdi Jamoliddin Nasafiy amalga oshirgan.

AQShning Massachusets shtatida Muhammad Ali Ahmedovning “O‘z–o‘zingni anglab yet” essesini Hasan Paqsoy tomonidan ingliz tiliga tarjimasi amalga oshirilgan va tarjima ikki marotaba AQSh va Franitsyada nashr qilingan. Birinchisi, 1989-yilda, ikkinchisi, 1991-yilda nashr qilingan. Hasan Paqsoy tarjima asnosida unga 61 ta izoh havola qilgan.

O‘zbek adabiyotini Amerikada o‘rganuvchilardan yetakchisi professor Edvard Ollvort bo‘lgan desak, yanglishmagan bo‘lamiz, chunki ushbu Amerikalik professor o‘z-

bek adabiyotining barcha nodir asarlarini o‘rganib tahlil qilgan olimlardandir. U o‘zbek adabiyotini ellik, oltmish yildan buyon izchil izlab borayotgan, umrini o‘zbek adabiyotini o‘rganishga bag‘ishlagan olimlardan biri, ehtimol Amerikaliklar ichida o‘zbek adabiyotini o‘rganishda eng zabardasti hamdir. Edvard Ollvort Abdurauf Fitratning “Shaytonning tangriga isyoni” va “Qiyomat” asarlarini ingliz tiliga tarjima qilgan. 1986-yili Behbudiyning “Padarkush” (The Patricide) asarini tarjima qilib, Ural Oltoy yilnomasining 84-93 betlarida bosilib chiqqan Edvard Ollvort bu asarni (Murder as metaphor in the first Central Asian drama) Qotillik xuddi uydirmadek O‘rta Osiyodagi birinchi dramma deb hisoblaydi. “Haqiqat izlab: fitratona uslub” (Bril, 2002) nomli kitobi, “Zamonaviy Turkiston teatrlarining asos negizlari”, Slavyan vaqtlari jurnali, 1964, №4. “Dastlabki o‘zbek dramalarida islohat va inqilob” Markaziy Osiyo yilnomasida chiqqan ilmiy risolalarni xalqaro miqyosda tan olingan.

Undan tashqari Edvard Ollvort “Zamonaviy o‘zbeklar, 14 asrdan to hozirgacha” (Modern Uzbeks: Uzbek people from four thenth to the present) asarining muallifi hamdir. Edvard Ollvort bu asarida o‘zbek xalqinini ijtimoiy, madaniy hayotini tadbiq qilgan va har bir sohada chuqur izlanish olib borishga intilgan.

Edvard Ollvort Toshkentga bir necha bor tashrif buyurgan, til va adabiyot instituti olimlari, oliy o‘quv yurtlaridagi adabiyotshunos mutaxasisislar bilan uchrashgan, ulardan tajribalar o‘rgangan, o‘z tajribalari bilan o‘rtoqlashgan. O‘z vaqtida mafkuraviy jihatdan muxolifatda, ziddiyatda bo‘lishga qaramay, nihoyata madaniy, kamsuqum va hushyor zehnli “qariya” har kelganida Toshkentning go‘zal manzaralarini sayr qilishni sevar, ilmiy muloqot, bahslarida biror marta munozaraga bormas, ilmiy nuqtai nazarda, mening fikrim to‘g‘ri qabilada yo‘l tutmas, lekin yozgan ishlarida doimo o‘z e’tiqodida mustahkam turuvchi kishidir.

Amerikalik turkshunos olima, tarjimon, Vashington universiteti professori Ilza Sirtautas ham butun dunyoda o‘zbek adabiyotini, tilini, madaniyatini targ‘ib etibgina qolmay, balki adabiyotimiz namunalarini ingliz va nemis tillariga tarjima qilish bilan ham shug‘ullanib keladi. Olimaning 1980-yilda Visbaden shahrida nashr etilgan “Xrestomati of Modern Litrerari of Uzbek” (Hozirgi zamon o‘zbek adabiy tili xrestomatiyasi) kitobi o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lgan qimmatli majmuadir. Kitob o‘zbek tilini o‘rganuvchilarga mo‘ljallangan bo‘lsa-da, tilning materiali adabiyot ekanligidan, muallif o‘z kitobiga qisqa-qisqa xalq ertaklaridan namunalar, Oybek, Abdulla Qahhor, G‘afur G‘ulom, Uyg‘un, Hamid Olimjon, Said Ahmad, Pirimqul Qodirov, Saida Zunnunova, Shukrullo, O‘lmas Umarbekov kabi taniqli adiblar qalamiga mansub asarlardan parchalarni asliyatda beradi va ulardagi so‘zlar, iboralar, idiomatik birikmalar, timsollarning inglizcha ekvivalent tarjimalarini havola qiladi. Kitobda 128 sahifa glossariylar berilganligi ham diqqatga sazovordir.

O‘zbek adabiyotining fidoyisi bo‘lgan Ilza Sirtautas xonim keyingi paytlarda o‘zbek she’riyati namoyandalari ijodidan qator tarjimalarni amalga oshirdi. Jumladan, u Abdulhamid Cho‘lponning “Kulgan boshqalardir, yig‘lagan menman...”, Erkin Vohidov–ning “Barcha shodlik senga bo‘lsin...” kabi she’rlarini, Abdulla Oripov va Muhammad Ali kabi shoirlarning turkum she’rlarini ham inglizchaga tarjima qilgan.

1997-yil Ilza Sirtautas tashabusi bilan AQShning Vashington universitetida O‘zbek adabiyoti namoyondalarining hikoyalarini tarjima qilishga kirishildi va bunda quyidagi talaba shogirdlar ishtrok etgan:

Erdog‘ Go‘knor, Michigan shtatidan, Vashington universitetining aspiranti. U Abdulla Qahhorning “Bemor” va “Anor”, G‘afur G‘ulomning “Mening o‘g‘rigina bolam” hikoyalarni ingliz tiliga tarjima qilgan.

Iman Mansur, San-Fransiskodan, Vashington universitetining talabasi. U Saida Zunnunovaning “Qo‘llar” hikoyasini ingliz tiliga tarjima qilgan.

Roj Parek, Nyu-Yorkdan, Kolumbiya universitetining talabasi. U Mirkarim Osimning “Shiroq” hikoyasini ingliz tiliga tarjima qilgan.

Professor Ilza Sirtautasning o‘zi esa Abdulla Qahhorning “1816-yil yodgori” voqyeiy hikoyasi, A.S.Cho‘lponning “Qor qo‘ynida lola”, Said Ahmadning “Ot” va “Sarob”, O‘tkir Hoshimovning “Kitob” va “Surat”, O‘lmas Umarbekovning “Soat” va “Dutor”, Hurshit Do‘stmuhammadning “Saf”, Qamchibek Kenjaning “Baliq ovi”, Hayriddin Sultonning “Onamning yurti” hikoyalarini tarjima qilgan.

Barcha tarjimalar har tomonlama mukammal qilingan, tarjimalarda faqatgina til orqali emas, balki madaniyat va muhit e’tiborga olingan.

Professor Ilza Sirtautasni fikricha, barcha tarjima aniq bo‘lishi kerak. Sho‘rolar tarjima maktabi aniq tarjima emas, balki adaptatsiya – moslashtirishdan iborat. Shuning uchun ham o‘zbek shoirlarining she’rlari rus tilida jarang bermaydi, ular tarjima emas adaptatsiya xolos...

Yuqorida tarjima qilingan barcha hikoyalar AQShda “Yuniversiti of Vashington press” (University of Washington press) nashriyotida bitta kitob bo‘lib nashr etilgan.

Yuqoridagi tarjimalarda qandaydir kamchiliklar bo‘lishi mumkin, albatta. Chunki har qanday tarjima, bizning nazarimda, amalga oshirib bo‘lmaydigan muammoni hal etishga tirishqoqlik bilan urinishdek ko‘rinadi. Negaki, har bir tarjimon ikki to‘g‘anoqning biriga, ya’ni o‘z xalqining tili va uslubiga haddan tashqari amal qilgani oqibatida asliyatga yoki asliyatga ortiq darajada amal qilgani natijasida o‘z xalqining o‘ziga xos xususiyatiga borib urilishi kerakdek go‘yo. Ikkalasining orasida o‘rtamiyona narsaga erishish nafaqat qiyin, balki chindan ham buning imkoni yo‘q. Har bir xalq bir narsani aytish uchun boshqa narsa haqida sukut saqlaydi. Zero hamma narsani aytib bo‘lmaydi. Tarjimaning o‘ta qiyinligi ham fikrimizcha shu tufaylidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Voronsov V. Tafakkur gulshani. – T.: “G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at”, 1981.

2. Diwan Lugat at-Turk by Kashgarli Mahmud (written in 1070s), was translated as A Compendium of the Turkic Dialects by Robert Dankoff in collaboration with James Kelly, (Cambridge, MA: Harvard University Press, 1982.

3. Kutadgu Bilig by Balasagunlu Yusuf. completed in 1077. translated by Dankoff as. Wisdom of Royal Glory. Chicago, 1983.

4. http://www.cessw.com

5. http://www.pelters–leuven.be

6. www.Uzbek-CarolynWei.com

7. Ahmedov M. The term about Amir Temur. //Central Asia monitor. Washington, 1996. №31.

8. Edward A. Allworth. The Modern Uzbeks: From the Fourteenth Century to the Present, Hoover Institution Press, Stanford University, California, 1990. (397 P.)

9. Nazarov B. “Ijodiy xamkorlik”. //Jahon adabiyoti jurnali, №8. T.: 2009. – 107-109 b.

10. http://www.ziyo.uz

Farxod TO'RABEKOV,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
"Innovatsion ta'lim" kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

BO'LAJAK TEXNOLOGIYA O'QITUVCHISINI AXBOROT TA'LIM MUHITIDA KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH MODULLARI

Annotatsiya

Maqolada axborot ta'lim muhitida bo'lajak texnologiya o'qituvchisini kasbiy faoliyatga tayyorlash modullari yoritib berilgan. Muallif bu modullar axborot ta'lim muhitida texnologiya o'qituvchilarini kasbiy tayyorlash mazmunini amalga oshirishga yordam berishini ta'kidlagan.

Kalit so'zlar. Axborot ta'lim muhiti, texnologiya o'qituvchisi, kasbiy faoliyat, modullar.

В статье описаны модули подготовки будущего учителя технологии к профессиональной деятельности в информационно-образовательной среде. Автор отметил, что данные модули помогают реализовать содержание профессиональной подготовки учителей технологий в информационно-образовательной среде.

Ключевые слова. Информационная среда обучения, учитель технологии, профессиональная деятельность, модули.

The article describes the modules for preparing the future technology teacher for professional activity in the information education environment. The author noted that these modules help to implement the content of professional training of technology teachers in the information learning environment.

Key words. Information learning environment, technology teacher, professional activity, modules.

Axborot ta'lim muhiti (ATM)da bo'lajak texnologiya o'qituvchisini kasbiy faoliyat uchun tayyorlash mazmuni pedagogik ta'limni modernizatsiya qilish sharoitida texnologiya o'qituvchilarini tayyorlash darajasiga qo'yiladigan talablarni amalga oshirishga qaratilgan bo'lib, o'qituvchining kasbiy standartida belgilangan. Bo'lajak texnologiya o'qituvchisini ATMda kasbiy faoliyatga tayyorlash mazmunini ishlab chiqishda jamiyat va ta'limni axborotlashtirish sohasidagi ilmiy tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlari, yagona axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)ni ishlab chiqish, "Texnologiya" fanining mazmunida aks ettirilgan texnologik ta'lim natijalariga qo'yiladigan talablar muhim ahamiyatga ega. ATM da bo'lajak texnologiya o'qituvchisini kasbiy faoliyatga tayyorlash mazmuni pedagogika, psixologiya, fiziologiya, axborot texnologiyalari, o'qitish texnologiyasi nazariyasi va metodikasi sohasidagi bilimlarga asoslanadi.

Texnologiya o'qituvchilarini tayyorlashni takomillashtirish muammolari bo'yicha U.N. Nishonaliyev, A.R. Xodjabaev, N.Sh. Shodiyev, N.A. Muslimov, X.I. Ibragimov, E.I. Ro'ziyev, O'.Q. Tolipov, N. Sayidahmedov, D. Ergashev, Sh.S. Sharipov, O. Abduquddusov, E.T. Choriyev, P.T. Magzumov, R.M. Sarsenboeva, S. Axmadaliyev, B. Doniyev, A. Parmonovlar va boshqa ko'plab vatanimiz olimlar tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan.

A.R. Xodjabaev tomonidan umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus va professional ta’lim, oliy pedagogik ta’lim islohotlari talablari asosida texonologiya ta’limi va umumtexnika fanlari o‘qituvchilarini tayyorlash o‘quv-metodik kompleksini yaratishning ilmiy-pedagogik asoslari ishlab chiqilgan.

O. To‘raqulov o‘z tadqiqotlarida axborotlashtirilgan ta’lim muhitida bo‘lajak kichik mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning o‘quv-dasturiy-didaktik ta’minotini yaratish; ilmiy-metodik ta’minotni takomillashtirishga imkon beruvchi innovatsion texnologiyalar, modellashtirish metodlarini ishlab chiqish kabi masalalarni o‘rgangan.

Maqolaning metodologiyasi ilmiy va tobora ommalashib borayotgan manbalarni tahlil qilishdan boshlab, axborot ta’lim muhitida bo‘lajak texnologiya o‘qituvchilarini kasbiy faoliyati, texnologik salohiyati, o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalaridan foydalanish ahamiyati va rolini tahlil qiladi.

Axborot ta’lim muhitida bo‘lajak texnologiya o‘qituvchilarini kasbiy kompetensiya tarkibini tahlil qilish usullari, axborot ta’lim muhitini rivojlantirish bo‘yicha ishchi dasturlar va qo‘llanmalar, zamonaviy veb-vositalardan foydalanish bo‘yicha ilmiy umumlashtirish, ushbu tadqiqot muammosi bo‘yicha bo‘lajak texnologiya o‘qituvchilari bilan suhbatlar usullari ham qo‘llanildi.

ATM da texnologiya o‘qituvchilarini kasbiy tayyorlash mazmunini amalga oshirishga quyidagilar yordam berishi kerak:

– ta’limni axborotlashtirish sohasida asosiy tushunchalarni shakllantirish, yagona axborot ta’lim muhitini va texnologik ta’limning axborot muhitini rivojlantirish;

– rivojlanayotgan ATM kontekstida “Texnologiya” fanini amalga oshirishda o‘quv jarayonini loyihalash va amalga oshirish qobiliyatini shakllantirish;

– bo‘lajak texnologiya o‘qituvchisining kasbiy faoliyatida interaktiv, tarmoq, mobil va multimedia texnologiyalariga asoslangan zamonaviy AKT vositalarini qo‘llash ko‘lamini kengaytirish;

– bo‘lajak texnologiya o‘qituvchisini texnologik ta’limning jadal rivojlanayotgan axborot muhitida kasbiy faoliyatini amalga oshirishga moslashtirish;

– “Texnologiya” fan sohasini amalga oshirishda AKT vositalaridan foydalangan holda umumiy didaktik va alohida uslubiy muammolarni hal qilishda kasbiy harakatlarni amalga oshirish usullarini shakllantirish.

Biz bo‘lajak texnologiya o‘qituvchisini ATMda kasbiy faoliyatga tayyorlash mazmunini ushbu trening maqsadiga muvofiq loyihalashtiramiz va uni bir nechta modullarga ajratamiz.

“Axborot ta’lim muhiti” birinchi modulining mazmuni bo‘lajak o‘qituvchilarga ATMda kasbiy faoliyatni rag‘batlantirish texnologiyasi va mohiyati hamda uning tuzilishi haqida bilimlarni beradi.

“ATMda ta’lim jarayoni va pedagogik o‘zaro hamkorlik” ikkinchi moduli bo‘lajak texnologiya o‘qituvchisining ATMda o‘quv jarayoni, metodlari, shakllari va pedagogik o‘zaro hamkorlik vositalari haqidagi bilimlarini shakllantirishga qaratilgan mazmunni o‘z ichiga oladi.

“Bo‘lajak texnologiya o‘qituvchisining kasbiy faoliyati ATM fani sifatida” uchinchi moduli bo‘lajak texnik o‘qituvchilarni bilim, ko‘nikma va kasbiy faoliyatni amalga oshirish usullari va texnologiyalarini shakllantirishni ta’minlaydi.

Axborot ta’lim muhitining mohiyatini nazariy o‘rganish natijalariga ko‘ra, “Axborot ta’lim muhiti” birinchi moduli quyidagi mazmunni o‘z ichiga oladi:

1-mavzu. Axborot ta’lim muhiti asosiy ta’lim dasturini amalga oshirishning zaruriy

sharti sifatida.

2-mavzu. Axborot ta’lim muhitining ierarxik tuzilmasida ATMning o‘rni va joyi.

3-mavzu. “Axborot ta’lim muhiti” tushunchasining mohiyati.

4-mavzu. ATMning tuzilishi va uning asosiy tarkibiy qismlari.

5-mavzu. ATMning rivojlanish xarakteriga ta’sir etuvchi omillar.

6-mavzu. ATMni yaratish va rivojlantirish dasturi.

Birinchi modulning mazmuni bo‘lajak texnologiya o‘qituvchisiga quyidagi maqsadlarga qaratilgan o‘quv vazifalarini bajarishda ATMTning mohiyati, uning tuzilishi haqidagi bilimlarni beradi:

– O‘zbekiston Respublikasida ATM faoliyati va rivojlanishi bo‘yicha me’yoriy hujjatlarni tahlil qilish);

– ma’lum bir ta’lim muassasasining ATMni shakllantirish va rivojlantirish dasturini tahlil qilish;

– tarkibiy qismlarni taqsimlash asosida ATM modelini ishlab chiqish;

– ATMning tarkibiy qismlarini (axborot infratuzilmasi, zamonaviy AKT vositalari, ta’lim jarayonini boshqarish va ta’lim sub'ektlarining o‘zaro hamkorligini tashkil etish vositalari) o‘rganish;

– axborot infratuzilmasini tadqiq qilish (zamonaviy texnik jihozlar, aloqa va axborot vositalari, o‘qituvchining avtomatlashtirilgan joyi, talabaning avtomatlashtirilgan joyi, dasturiy ta’minot);

– AKT (tarmoq ta’lim xizmatlari, ETR, elektron darsliklar) asosidagi zamonaviy o‘quv qo‘llanmalarini o‘rganish;

– ta’lim jarayonini boshqarish va ta’lim subyektlarining pedagogik o‘zaro hamkorligini tashkil etish vositalarini o‘rganish (maktabning o‘quv veb-sayti, o‘qituvchining veb-sayti / blogi, Davlat axborot tizimi, xavfsizlik tizimi).

Bizning fikrimizcha, birinchi modulning kasbiy yo‘nalishi bo‘yicha o‘quv vazifalarini bajarish jarayonida bo‘lajak texnologiya o‘qituvchisi axborot ta’lim muhitining yaxlit ko‘rinishini shakllantiradi.

ATMda bo‘lajak texnologiya o‘qituvchisini kasbiy faoliyatga tayyorlash mazmunining ikkinchi moduli “ATMda ta’lim jarayoni va pedagogik o‘zaro hamkorlik” talabalarning ATMda ta’lim jarayoni, pedagogik o‘zaro hamkorlik usullari, shakllari va vositalari haqidagi bilimlarini rivojlantirishga qaratilgan mazmunni o‘z ichiga olishi kerak.

Biz ushbu modulning mazmunini quyidagicha tuzishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

1-mavzu. ATMda o‘quv jarayonining tuzilishi.

2-mavzu. “Texnologiya” fan yo‘nalishini amalga oshirishda ATMda o‘quv jarayonini tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari.

3-mavzu. O‘quv faoliyati turlarining ATMda ta’lim usullari, zamonaviy vositalari va interaktiv shakllari bilan o‘zaro bog‘liqligi.

4-mavzu. ATMda talabalarning auditoriya va auditoriyadan tashqari faoliyatining integratsiyalashuvi.

5-mavzu. Texnologiya bo‘yicha o‘quv jarayonini tashkil etishda ATMga qo‘yiladigan talablar.

6-mavzu. ATM subyektlarining pedagogik hamkorligi.

Ikkinchi modulning mazmuni bo‘lajak o‘qituvchiga o‘quv jarayonini tashkil etishning uslubiy asoslari texnologiyasi va o‘quv vazifalarini bajarishda pedagogik o‘zaro hamkorlikka oid bilimlarni beradi:

– ATMni ishlab chiqish sharoitida texnologiya nuqtai nazaridan ta’lim jarayoni strukturasini tahlil qilish;

– ATMda texnologiya bo‘yicha o‘quv jarayoni komponentlar o‘rtasida tarkibiy va funksional aloqalarni o‘rnatish;

– ta’limni tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash;

– ATMda “Texnologiya” fan yo‘nalishini joriy etish jarayoni;

– ATMda o‘quv faoliyati turlarining metodlar, zamonaviy vositalar va interaktiv ta’lim shakllari bilan aloqasini o‘rnatish;

– ATMda talabalarning auditoriya va auditoriyadan tashqari faoliyatini integratsiyalashuvini amalga oshirish usullari va shakllarini aniqlash;

– ATM subyektlari o‘rtasidagi pedagogik hamkorlikni tashkil etish vositalari va shakllarini aniqlash;

– o‘quv jarayonini texnologiya bo‘yicha tashkil etishda ATMga qo‘yiladigan talablarni aniqlashtirish;

– ATM sharoitida texnologiya bo‘yicha o‘quv jarayonini loyihalash natijalarini tahlil qilish va baholash.

Shunday qilib, ushbu modulning mazmunini o‘zlashtirishda bo‘lajak texnologiya o‘qituvchisi ta’lim jarayonini tashkil etish va ATMda pedagogik o‘zaro hamkorlikni amalga oshirishning yaxlit ko‘rinishini ishlab chiqadi.

“Bo‘lajak texnologiya o‘qituvchisining kasbiy faoliyati ATM predmeti sifatida” uchinchi moduli bo‘lajak texnologiya o‘qituvchilarini bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish uchun zarur bo‘lgan tarkibni o‘z ichiga olishi kerak. Bunda ular AKT vositalaridan foydalangan holda umumiy didaktik va alohida uslubiy vazifalarni hal qilish orqali kasbiy harakatlarni amalga oshiradi.

Bo‘lajak texnologiya o‘qituvchisi o‘qitish usullari, vositalari va shakllarini tanlashda fan sohasini amalga oshirish maqsadlarining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olishi kerak.

Uchinchi modul quyidagi tarkibni o‘z ichiga oladi:

1-mavzu. Bo‘lajak texnologiya o‘qituvchisi ATM o‘quv predmeti sifatida, uning ATMda o‘quv jarayonini tashkil etishdagi roli.

2-mavzu. ATMda o‘quv jarayonini tashkil etishda umumiy didaktik masalalarni yechish.

3-mavzu. ATMda o‘quv jarayonini tashkil etishning alohida uslubiy muammolarini hal qilish.

4-mavzu. ATMda talabalar bilan pedagogik hamkorlikni tashkil etish.

5-mavzu. ATMda bo‘lajak texnologiya o‘qituvchisining malakasini oshirish.

6-mavzu. ATMda texnologiya o‘qituvchilari bilan kasbiy hamkorlik.

Uchinchi modulning mazmuni ATMda bo‘lajak texnologiya o‘qituvchilarining quyidagi maqsadlarga qaratilgan o‘quv vazifalarini bajarishda asosiy kasbiy faoliyatni amalga oshirish usullarini ishlab chiqishlarini ta’minlaydi:

 axborot jamiyatining rivojlanish bosqichida pedagogik ta’lim yo‘nalishidagi me’yoriy hujjatlar va pedagogik kadrlar tayyorlash tizimi, shartlari, darajasiga qo‘yiladigan talablarni tahlil qilish;

 ATMda o‘z kasbiy faoliyatini va o‘zini ushbu muhitning sub'ekti sifatida aks ettirish va o‘zini o‘zi baholash;

 ATMda o‘quv jarayonini tashkil etishda umumiy didaktik vazifalarni hal etish;

 ATMda o‘quv jarayonini tashkil etishda alohida uslubiy muammolarni hal qilish;

 ATMda talabalar bilan pedagogik hamkorlikni amalga oshirish;
 ATMda texnologiya o‘qituvchilari bilan professional hamkorlikni amalga oshirish;
 ATM sharoitida malaka oshirish yo‘llari va vositalariga ega bo‘lish.

Uchinchi modulning o‘quv vazifalari ko‘proq talabalar tomonidan kasbiy testlarni bajarish va topshirish jarayonida amalga oshiriladi hamda pedagogik amaliyot va ATM sharoitida asosiy kasbiy harakatlarni bajarish usullarini shakllantirishga hissa qo‘shadi.

Shunday qilib, tadqiqot jarayonida bo‘lajak texnologiya o‘qituvchisini ATMda kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonining mazmuni aniqlandi. Kontentni loyihalashda biz ATMda bo‘lajak texnologiya o‘qituvchisi kasbiy faoliyatining umumiy tarkibiy elementlarini aks ettirishga harakat qildik:

 kasbiy faoliyatning motivlari va maqsadlari;
 kasbiy faoliyat bosqichlari va asosiy kasbiy harakatlar;
 kasbiy faoliyatning shartlari, vositalari va natijalari.

Shuningdek, mazmunni loyihalashda ushbu faoliyat obyekti – axborot ta’lim muhitini rivojlantirish kontekstida o‘quv jarayonini hisobga olishga katta e'tibor berildi. Shu munosabat bilan, biz taklif etilayotgan tarkib bo‘lajak texnologiya o‘qituvchisining ATMda kasbiy faoliyatga tayyorligini shakllantirishga yordam beradi, deb hisoblaymiz.

Yuqorida aytilganlarga asoslanib, bo‘lajak texnologiya o‘qituvchilarini ATM bo‘yicha kasbiy faoliyatga tayyorlashda tarmoqni ta’minlashning quyidagi shartlarini aniqlashimiz mumkin:

– axborot ta’lim muhitining, shu jumladan, tarmoq ta’lim resurslarining mavjudligi;
– ta’lim jarayoni ishtirokchilarining faol birgalikdagi faoliyati;
– tarmoq ta’sirini faollashtiruvchi vositalar va texnologiyalar.

Tarmoqli o‘zaro hamkorlik o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi shaxsga yo‘naltirilgan o‘zaro hamkorlik sifatida o‘quv jarayonini tashkil etish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan bo‘lishi kerak va talabalarning shaxsiy rivojlanishiga va ATMd kasbiy faoliyatni amalga oshirish usullarini shakllantirishga yordam berishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Avazboev A. Kasbiy pedagogika. – T., 2014
2. Нишоналиев У.Н. Формирования личности учителя трудового обучения: проблемы и переспективы. – Т.: Фан, 1990. – С. 85.
3. Muslimov N.A. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirish. Monografiya. –T.: Fan. 2014. 128-bet
4. Taylaqov N.I. Ta’lim tizimida zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning istiqbollari // “Ta’lim va tarbiya”. IMJ. – T., 2002. - №1-2.- 27-30 b.
4. Tolipov O‘.Q. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – T., 2006 yil
5. To‘raqulov O. “Axborotlashtirilgan ta’lim muhitida kichik mutaxassislar tayyorlashning ilmiy-metodik ta’minotini takomillashtirish”. / ped. fanlari doktori dissert. – T., 2017.
6. Sarsenbaeva R.M. O‘quv mashg‘ulotlarini tahlil qilish metodikasi. – T., 2016-yil
7. Parmonov A. Kompetensiyaviy yondashuv yordamida o‘quvchilar fazoviy tasavvurini rivojlantirish. – T., 2020 yil
8. Sharipov Sh.S., Koysinov A.A., Taxirov O‘.A., Texnologiya darsligi. – T., 2021.

Mukhtoriy Mohruy Sodirzoda,
Farg‘ona davlat universiteti, “Ijtimoiy-gumanitar” fanlar kafedrasi o‘qituvchisi

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING ILMIY DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDA TILDAGI IBORALARNING O‘RNI

Annotatsiya

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tafakkuri rivojlanishida tildagi ma’lum iboralarning ma’nosini tushunishi orqali ularning tafakkur darajasi o‘sib borishi va shu iboralar orqali o‘quvchilarda nutqiy kompenentlarni shaklantirib, dunyoqarashini kengaytirishning yo‘l va usullari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar. Boshlang‘ich sinf, tafakkur, tasavvur, mnemotexnik usul, ibora, ma’no, visual tasvirlar, tushuncha, metod, metodika, til, ong, nutq, og‘zaki nutq, yozma nutq.

В данной статье в развитии мышления учащихся начальной школы повышается уровень мышления за счет понимания значения тех или иных выражений в языке, а также раскрываются пути и способы формирования речевых компонентов и расширения мировоззрения учащихся посредством этих выражений.

Ключевые слова. Начальный класс, мышление, воображение, мнемотехнический метод, словосочетание, значение, наглядные образы, понятие, метод, методика, язык, сознание, речь, устная речь, письменная речь.

In this article, in the development of thinking of elementary school students, the level of thinking increases by understanding the meaning of certain expressions in the language, and the ways and methods of forming speech components and expanding the worldview of students through these expressions are revealed.

Key words. Elementary class, thinking, imagination, mnemonic method, phrase, meaning, visual images, concept, method, methodology, language, consciousness, speech, oral speech, written speech.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning fikrlash darajasi uularning ona tilini qay darajada o‘zlashtirganligiga bog‘liqdir. Yosh o‘quvchilar nutqi ravon hamda fikrini o‘z o‘rnida ifoda eta oladigan bo‘lsa, ularning fikrlari og‘zaki va yozma nutqi orqali to‘liq ifoda etilishi mumkin. Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning til haqidagi bilimlari ularning nafaqat ilmiy qarashlariga, balki kundalik turmush tarzida ham zaruriydir.

Til ijtimoiy hodisa bo‘lib, uning tafakkur, ijtimoiy ong bilan aloqasi nihoyatda uzviy, chambarchasdir. Til belgilari – so‘zlar, so‘z birikmalari va gaplar – moddiy shakllar bo‘lib, ularda ongning ideal mahsullari – aniq tasavvurlardan tortib eng mavhum va umumlashtiruvchi tushunchalar yoki hukmlargacha obyektiv tarzda o‘z aksini topadi. Til nafaqat fikrni ifodalash yoki fikr almashish vositasi, balki ijtimoiy ongda fikrlarni shakllantirish va mustahkamlash vositasi ham hisoblanadi. Til – jamiyat boyligi, u jamiyat a’zolarining o‘zaro aloqasini amalga oshiradi, insonning moddiy va ma’naviy turmushida ro‘y beradigan barcha voqea-hodisalar haqidagi bilimlarni jamlaydi va ulardan xabardor qiladi. Til ayni ma’noda asrlar mobaynida shakllanadi va mavjud bo‘ladi. Tafakkur tilga qaraganda birmuncha tezroq rivojlanadi va yangilanadi, lekin tilsiz tafakkurni tasavvur etib bo‘lmaydi.

Tafakkur tilsiz mavjud bo‘lmas ekan, til ham tafakkursiz yashay olmaydi. Biz o‘ylab turib gapiramiz va yozamiz, o‘z fikrlarimizni tilda aniqroq va tushunarliroq bayon etishga harakat qilamiz. Insondagi fikrlar til negizida paydo bo‘ladi va unda mustahkamlanadi, til va tafakkur bir butunlikni tashkil etadi.

Shunday ekan o‘quvchilarga til haqidagi tushunchalar chuqurroq singdirilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki, o‘quvchilar til orqali tengdoshlari bilan hamfikr bo‘ladi, o‘yin faoliyatida ishtirok etadi hamda o‘zga shaxslarni tinglash orqali ma’lumot ham oladi va muloqotga kirishadi.

Nutq faoliyati – odam tomonidan ijtimoiy-tarixiy tajribani o‘zlashtirish va avlodlarga berish yoki kommunikasiya o‘rnatish, o‘z harakatlarini rejalashtirish maqsadida tildan foydalanish jarayonidir. Muloqot esa inson hayoti va faoliyatining muhim shartidir. Muloqot jarayonida inson xulq-atvorining muayyan obraz va modellari shakllanib, keyinchalik ular insonning ichiga kiradi. Shaxsning tafakkuri, olamni va o‘zining obrazini tahlil qilish hamda baholash qobiliyati muloqot jarayonida shakllanadi. Mazkur muammoga atroflicha baho bergan polshalik psixolog Ye.Melibruda quyidagilarni ta’kidlaydi: “Muloqot shaxslararo munosabatlarda biz uchun havodek ahamiyatga egadir”. Shu bois, bolani boshang‘ich sinflardayoq muloqot jarayoniga tayyorlah lozim. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning nutqida ko‘plab so‘zlarning ma’nolarini tushunib-tu–shunmay qo‘llashh holatlariga duch kelamiz. Bu o‘quvchilar tafakkurida tildagi muayyan so‘zlarning ma’nolari to‘liq anglashilmaganligidan dalolat beradi. O‘quvchilar dars mashg‘ulotlarida iboralarning ma’nolarini to‘la tushuna oolmaydilar, chunki iboralar ko‘chma ma’noda qo‘llanilib, muqobili bir so‘zga teng bo‘lgan brikmalardir. Ushbu brikmalarni kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning yod ilishi murakkab jarayondir. Bunga mnemotexnik usullar orqali yondashilsa jarayon biroz yengillashadi.

1-metodika: “Bir yoqadan bosh chiqarib” iborasining ma’nosini o‘quvchiga biror bir qiziqarli mashg‘ulot orqali tushuntirish o‘quvchi ongida ma’noning saqlanishiga yordam beradi. Bunda o‘quvchilar guruhlarga bo‘linib mashg‘ulot bajarayotgan davrda guruh birlashib “Hamjihat bo‘lib” va “Birgalikda” harakat qilib, berilgan savollarga bitta fikr bildirishlari kerakligini qayta qayta ta’lkidlash orqali ibora ma’nosi tushuntirilsa, amaliyot bilan bog‘liqligi o‘quvchi yodida qoladi.

2-metodika: “Bir yoqadan bosh chiqarib” iborasining muqobiliga mos rasm berib ma’nosi shu rasm asosida tushuntirlsa, o‘quvchilar ongida rangli tasvirlar quruq so‘zga nisbatan yaxshiroq saqlanadi.



Bu suratda qo‘lni qo‘lga berishlik hamma jamoadagilarning birdamlikda harakatlanayotganligi va hamfikr bo‘layotganligini ko‘rsatadi.

NATIJALAR

№	Sinflar kesimida	O‘quvchilarning so‘z ma’nolarini tushunishi	
		So‘z orqali	Ko‘rsatilgan metodika orqali erishilgan natija
1	1 sinf	40 %	59%
2	2 sinf	44 %	62%
3	3 sinf	58%	75%
4	4 sinf	73%	89%

Olingan natijalardan ko‘rinib turibdiki, o‘quvchilar “Bir yoqadan bosh chiqarib” iborasining ma’nosi “Hamjihat bo‘lmoq” so‘ziga teng keladi degan ma’lumotdan ko‘ra rasm asosida yoki biror bir amaliy topshiriq bajarish jarayonida ibora ma’nosini o‘rganishi osonroq bo‘ladi va bu ma’noning xotirada yaxshiroq saqlanishiga olib keladi.

Ona tili tafakkur shakllanishida alohida xizmat o‘taydigan birinchi tildir. Ruhshunoslar e’tirofiga binoan ‘‘tafakkur – verbal’’, ya’ni fikrlash so‘z bilan chambarchas bog‘liq, so‘z – tushuncha ifodalovchisi.

Xulosa qilib aytganda, maktab ta’limi o‘quvchi shaxsini kamol topishida muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tafakkuri bevosita til bilish darajasiga bog‘liqdir. O‘quvchilar boshlang‘ich ta’limdayoq tilning imkoniyatlarini chuqur o‘rgansalar, jamiyatda o‘z o‘rnini topishda va shaxslararo muloqot jarayonida qiyinchilikka duch kelmaydilar. Bu uchun tildagi tushunilishi qiyin bo‘lgan so‘z va iboralarning ma’nosi o‘quvchi ongiga o‘qituvchi tomonidan singdirilib borishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xaydarov F.I., Xalilova N.I. Umumiy psixologiya. Bakalavriat yo‘nalishi: 5140800-pedagogika va psixologiya talabalari uchun darslik. –T., 2009. – 78-82 b.

2. Jamol Jalolov, Chet til o‘qitish metodikasi. Chet tillar oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik ,,O‘QITUVCHI“ Nashriyot-matbaa ijodiy uyi. – T., 2012. – 3 b.

3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Til

Muborak ABDULLAYEVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
“Texnologik ta’lim” kafedrasi o‘qituvchisi

TA’LIM METODLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH NATIJASIDA TA’LIM SIFATINI OSHIRISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘quvchilarning mustaqilligini, shuningdek, turli pedagogik vaziyatlardan chiqish ko‘nikma va qobiliyatlarini rivojlantirish uchun qo‘llaniladigan yangi zamonaviy ta’lim usullari muqaddaslanadi.

Kalit so‘zlar. Ta’lim, tarbiya, metodlar, sifat, axloqiy, estetik, insoniylik, ma’naviyat, tamoyil, fan, texnika, axborot.

В данной статье освящены новые современные методы образования, используемые с целью развития самостоятельности студентов, а также их навыков и умений выходить из различных педагогических ситуаций.

Ключевые слова. Воспитание, обучение, методы, качество, нравственность, эстетика, человечность, духовность, принцип, наука, техника, информация.

In this article wrote a new and contemporary methods formation to use with order to devolepment independence in our students and they will tcach that go out from different situation.

Key words. Education, training, methods, quality, moral, aesthetic, humanity, spirituality, principle. science, technology, information.

Bugungi kunda oliy ta’lim tizimida ilg’or tajribalarni ta’lim jarayonining hamma bosqichlariga tatbiq etish, fan, texnika, ilg’or texnologiyalar yutuqlaridan foydalanish asosida shaxsni tarbiyalash, uzluksiz ta’lim tizimi ta’lim muassasalarining hamma shakli va turlarida ilg‘or pedagogik ta’limlarga tayangan holda amalga oshiriladi. Oliy ta’limning eng muhim vazifalaridan biri zamonaviy o‘quv dasturlari asosida yuqori natijali o‘qitish va malakali kadrlar tayyorlashni ta’minlash hisoblanadi.

Uzluksiz ta’limning mustaqil turi bo‘lgan oliy ta’lim tizimi oldiga qo‘yiladigan davlat ta’lim standartlari talablariga muvofiq mazkur ta’lim muassasasi ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish, ilm-fanning so‘nggi yutuqlarini amaliyotga joriy etish orqali ijodkor, ijtimoiy faol, yuksak ma’naviyatli yetuk mutaxassis, ijodiy va mustaqil fikr yurita oladigan, davlat, jamiyat va oila oldida o‘z burchi va javobgarligini his etadigan barkamol shaxsni kamolga yetkazish, ularning ongi va qalbiga milliy istiqlol g’oyasini singdirish kabi muhim vazifalarni amalga oshirish nazarda tutiladi.

Oliy ta’lim tizimidagi o‘quv jarayoni shakllariga ma’ruza, seminar va amaliy mashg‘ulotlar, laboratoriya mashg‘ulotlari, o‘quv anjumanlari, maslahatlar, sayohatlar, o‘quv ishlab chiqarish amaliyoti, pedagogik amaliyoti, kurs va diplom ishlari, talabalarning mustaqil tahsilini kiritish mumkin.

Oliy ta’lim tizimidagi o‘qitish metodlari oldiga quyidagi talablar qo‘yiladi:

– ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan metodlar tizimi ta’limiy funksiyaga ega bo‘lishi lozim. Bu didaktik maqsadlar va o‘qitish vazifalariga erishishning eng qulay usulidir;

– ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan metodlar tizimi tarbiyaviy hamda rivojlantiruvchi funktsiyalariga ega bo‘lishi lozim, bunda talabalarning mustaqil ishlari, vazifalari, ularning ishga ijodiy yondashuvi hal qilinadi, talabalarning shaxsiy sifatlari, bilim, malaka

va ko‘nikmalar egallashga bo‘lgan ehtiyojlari shakllanadi, ularning diqqati, irodasi, hissiyoti, xotirasi, tafakkuri o‘sadi.

Dars jarayonida yangi bilimlarni talabalarga yetkazish nazariy darsning dastlabki 20 daqiqasida amalga oshirilishi kerak. Shundan so‘ng interfaol metodlarni: bahs-munozara, kichik guruhlarda ishlash, loyihalash, musobaqa, tadqiqot va boshqa shu kabi amalga oshirib, talabalarning bilimlarini mustahkamlash zarur. Har qanday holatda ham nazariy dars jarayonida ma’ruza o‘qiladigan vaqt taxminan 20 daqiqadan oshmasligi kerak. Chunki o‘rganishning dastlabki 20 daqiqasi eng samarali hisoblanadi, 20 daqiqadan keyin esa talabalarda o‘rganishni davom ettirish motivatsiyasi pasaya boshlaydi. Shu bois, talabalarning faolligi, qiziqishlarini saqlash va oshirish maqsadida interfaol metodlarni mavzuni takrorlash yoki mustahkamlash bosqichlarida qo‘llash maqsadga muvofiq.

Dars jarayonida an’anaviy metodlar qo‘llanilganda, talabalarning ma’lumotni eslab qolish ko‘rsatkichining eng yuqori darajasi 30 foizni tashkil etar ekan. An’anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda unga talabalar faolligini oshiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish orqali talabalarning o‘zlashtirish darajasini ko‘tarishga erishish zarur. Buning uchun dars jarayonini oqilona tashkil etish, ya’ni o‘qituvchi tomonidan talabalarning qiziqishini orttirilishi, ularning faolligini hamma vaqt rag‘batlantirib turilishi, o‘quv materialini kichik bo‘laklarga bo‘lib, ularning mazmunini ochishda turli faollashtiruvchi metodlarning qo‘llanishi va amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga yo‘naltirishini amalga oshirib turish kerak. Bunday metodlarni qo‘llashda, o‘qituvchi talabalarni faol ishtirok etishga chorlaydi. Talabalar butun mashg‘ulot davomida ishtirok etadi. Bunday metodlarga aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, muammoli vaziyat, yo‘naltiruvchi matn, charxpalak, rolli o‘yin, ishbilarmonlik o‘yini, musobaqa, munozara va shu kabi boshqa metodlar kiradi.

Zamonaviy sharoitlarda samarali texnik yechimlarni ishlab chiqish uchun nafaqat axborot va ma’lumotlardan, balki fandagi eng yangi qarashlardan ham foydalanish zarurati yuzaga keladi. Yangi axborot texnologiyalari vositasidan foydalanish aqliy mehnat sarfining tejamkor texnologiyasini ishlab chiqish, yangi ilmiy-texnikaviy axborotlar, eng yangi ma’lumotlar bilan tezkor tanishib borish, ularni qidirish va tahlil qilishning samarali usullarini joriy qilish, amalga oshirilgan vazifani boshqa bir izlanuvchi tomonidan qayta bajarilishini bartaraf qilish imkonini beradi. Shuning uchun talabalarning mustaqil ishlashlarini tashkil qilish kerak. Talabaga berilgan topshiriqni bajarishi uchun global internet tizimidan foydalanish yo‘llari ko‘rsatiladi. Topshiriq muammolarini hal qilishda odatdagi usul yozma manbaalardan foydalanib bajarilganda, katta hajmdagi axborotlarni qayta ishlashni va juda ko‘p vaqt sarflashni talab etadi. Shuning uchun katta hajmdagi axborotlarni avtomatlashtirilgan o‘quv axborot tizimidan foydalanib, qayta ishlanganda esa ijodkorlik faoliyati yuqori saviyada bo‘lishiga, samarali texnika va texnologiyalarni ishlab chiqishda qabul qilinadigan texnik yechimlarning tuzilmaviy va faoliyat mezonlari jihatidan ilmiy asoslanishiga sarflanadigan vaqtning tejamliligiga erishiladi.

Bu o‘rinda talabalarga taklif qilinadigan bilimlar banki tom ma’nodagi o‘quv qo‘llanmasi ko‘rinishida bo‘lmaydi va uni almashtirish uchun ham xizmat qilmaydi. Bilimlar banki – ma’lum vazifani bajarishga oid bo‘lgan va ishlash mezonlari, ketma-ketligiga ko‘ra tizimlangani, uzluksiz ravishda boyitib boriladigan axborot va ma’lumotlar majmui sifatida ishlab chiqiladi. Bunda beriladigan ma’lumotlar imkon darajasida qisqa va lo‘nda ifodalanganligi, tegishli bilimlarga joylashtirilganligi sababli axborot jamla-

malarining juda ixcham bo‘lishiga erishiladi. Yaratilgan bilimlar bankining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri uning uzluksiz ravishda yangi ma’lumotlar bilan boyitib borilishidir. Ilmiy-texnika ijodkorligi samaradorligi tobora ko‘proq darajada axborotlar bilan ishlash tezligi va unumdorligiga bog‘liq bo‘lib borayotganligini hisobga olib, bilimlar bankini ishlab chiqishda quyidagi mezonlarga amal qilinadi:

1. Axborotlarni jamlash. Katta hajmdagi axborotlar ichidan samarali texnika va texnologiyalarni ishlab chiqishning istiqbolli yo‘nalishlari haqida xulosa chiqarish uchun axborotlardan to‘laroq foydalanish.

2. Axborotlarni saralash va eng ahamiyatlisini ajratib olish. Saralangan axborotlar bilan ishlashning texnik yechimini ishlab chiqish.

3. Ahamiyatli axborotlarni tasniflash. Bu har bir ma’lum holat uchun sarflanadigan vaqtni tejaydi va uning yuqori texnik-texnologik darajada bo‘lishiga xizmat qiladi.

4. Axborotlarni tabaqalash. Axborotlarni samarali texnika va texnologiyalarni ishlab chiqish nuqtai nazaridan tabaqalash ularning tahlilini tadqiqotning har bir bosqichida eng qimmatli ma’lumotlardan boshlash imkonini beradi.

5. Tasniflangan axborotlarni tizimlash. Tarqoq holdagi aralash dalillarni tahlil qilishdan ko‘ra, muammoning umumlashgan ko‘rinishi bilan ishlash texnika va texnologiyalarni ishlab chiqish hamda foydalanish samaradorligini oshirish imkonini beradi.

6. Tizimlangan axborotlar ko‘rgazmaliligini oshirish, ya’ni matn holidagi axborotlardan turli ko‘rinishdagi grafik tasvirlarga o‘tish lozim. Bunda yangi, samarali texnika va texnologiyalar ishlab chiqish bilan shug‘ullanayotgan barcha talabalar uchun axborotlar majmuasidan foydalanish imkoni ortadi.

7. Axborotlardan kompyuterlar yordamida foydalanish. Tadqiqotchilik faoliyatida tahlil qilinishi lozim bo‘lgan axborotlar hajmi ortib borayotganligi tadqiqotchilar aqliy mehnatini yengillashtirishda zamonaviy axborot texnika-texnologiyalaridan foydalanishni taqozo etadi. Demak, ma’lumotlar bankidan foydalanish samaradorligi, uning bo‘limlari majmuasini kompyuterga kiritilishi va hosil qilingan tizimdan o‘rinli foydalanilishi natijasida, birmuncha yuqori bo‘ladi. Bu holda bilimlar banki va ma’lumotlar bankining umumiy muammoni yechish tizimi bilan birga qo‘llanilishi talabaga muammoli holatlarni alohida sodda qismlarga bo‘lib o‘rganish va tahlil qilish imkonini beradi.

Yuqoridagi ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, mashg‘ulotni olib borishda maqbul tanlangan metodlar nafaqat o‘quv maqsadidan, balki o‘quv material mazmuniga va bu mavzuning murakkabligiga bog‘liq. Bundan tashqari metodlarni tanlashda talabalarning soni, ularning o‘quv imkoniyatlari, o‘quv-moddiy sharoitlar va o‘qituvchining mahoratiga bog‘liq. Bunday metodlarni tanlashda talabalarning o‘quv imkoniyatlarini hisobga olish juda muhim. Shu bilan birga o‘qituvchining ta’lim metodlarini to‘g‘ri tanlay olishi ham uning metodik malakasining darajasini ko‘rsatib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayeva Q.M. Maxsus fanlarni o‘qitishda bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishning metodik asoslari (Kasb ta’limi - “Servis” yo‘nalishi misolida). Ped.nom.diss. –T., 2006. – 209 b.

2. Avliyoqulov N.X. Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari. – Buxoro: Matbaa, 2001. – 68 b.

3. Muslimov N.A. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchisini kasbiy shakllantirish. –T.: Fan nashriyoti, 2004. –130 b.

Muxammadali BAYMETOV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
“Texnologik ta’lim” kafedrasi o‘qituvchisi

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA O‘QUV AMALIYOTINING TA’LIM JARAYONIDAGI O‘RNI

Annotatsiya

Maqolada pedagogika sohasida oliy ta’lim muassasalarida o‘quv amaliyotining ta’lim jarayonidagi o‘rni va amaliyotlarning samaradorligini oshirish yollarini rivojlantirish masalalari yoritilgan, shuningdek, egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarning mustahkamligi amaliyotning samaradorlik ko‘lamini yanada oshirishi ko‘rsatib berilgan.

Kalit sozlar. Amaliyot, talaba, kasbiy ko‘nikma, amaliyot rahbari, rivojlantirish, samaradorlik, mehnat, mustaqil.

В статье описывается роль учебной практики в образовательном процессе в педагогических вузах и вопросы разработки путей повышения эффективности практик.

Ключевые слова. Практика, студент, профессиональные навыки, руководитель практики, развитие, эффективность, работа, самостоятельная.

The article describes the role of educational practice in the educational process in pedagogical higher educational institutions and the issues of developing ways to increase the effectiveness of practices.

Key words. Practice, student, professional skills, practice manager, development, efficiency, work, independent.

Oliy ta’lim muassasalarida tashkil etiladigan o‘quv amaliyotlari talabalarda kasbga qiziqishni kuchaytirishga, ijodiy ishlanishga va erkin fikr yuritishga, mustaqil bilim olishga yo‘naltirilishi hamda bugungi kunda fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlaridan foydalanishni nazarda tutishi lozim. Bizning fikrimiz–cha, bu borada o‘quv amaliyotining ta’lim jarayoniga ta’sirini o‘rganish muhim.

O‘quv amaliyoti jarayonida talabalar umumiy talablarga javob beruvchi bilim, malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘lib, ular ilmiy-texnik o‘zgarishlar ta’siriga mos kelishi lozim. Egallangan bilim, ko‘nikma va malakalar kasbiy bilimlarga asos bo‘lib, uning mustahkamligi amaliyotning samaradorligiga olib keladi. Mazkur jarayonda talabalar egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar uning kelajakdagi faoliyati, mehnat turi va ishlab chiqarishda egallaydigan o‘rniga bog‘liq bo‘ladi. Asosiy bilim berish jarayoni maxsus bilim berishning negizi bo‘lib xizmat qiladi, shuning uchun, talaba ko‘rsatilgan fanlar bo‘yicha nazariy va amaliy mashg‘ulotlarni mustahkam egallab bormog‘i lozim.

O‘quv amaliyoti jarayoni – amaliyot tanlangan kasbga yo‘naltirish bo‘yicha olib borilib, shu sohadagi texnik va texnologik rivojlanish talablariga javob berishi kerak, ammo markazlashtirilgan tartibda ishlab chiqilgan amaliyot dasturi ta’lim muassasalari yoki korxona talablariga javob bera olmaydi, chunki, bir sohada texnologik jihozlarning bir turi o‘rganilsa, ikkinchi turida mutaxassislarni tayyorlashda turli sohalar bo‘yicha o‘quv amaliyotini o‘tkazish afzaldir. Bu jarayonda talabalarni ta’lim muassasasi yoki korxonaning xususiyatlari bilan aniq va mukammal tanishtirish, uning ta’lim muassasasi yoki korxonadagi hamma ish turlarida egallagan bilim va malakasini amalda qo‘llay olishni ta’minlash lozim. Talabalar o‘quv amaliyotidagi texnik va texnologik jarayonlar,

qurilma va moslamalar haqida bilim olib amalda qo‘llay bilishlari kerak. Bunda amaliyot rahbari quyidagilarga erishmog‘i lozim:

– talabani hozirgi zamon texnika jarayoni va zamonaviy metodlar hamda qurilmalarda ishlashga o‘rgatish;

– mehnatni tashkil etish metodi ham talabani zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalariga, kasbiy malakasiga qarab, turli ish operasiyalarini bajarishni zamonaviy texnologiya talabiga javob beruvchi o‘quv amaliyotini tashkil etish;

– talabani ish me’yorini bajarishga yondashishga o‘rgatish;

– ta’lim muassasasi yoki korxonadagi ish chizmalarini to‘g‘ri o‘qishga, texnologik hujjatlardan to‘g‘ri foydalanishga o‘rgatish;

– ta’lim muassasasi yoki korxona jamoasida talaba ishidan muhim tarbiya sifatida foydalanish;

– talabani mehnat, ishlab chiqarishdagi va yong‘in xavfsizligi talablariga amal qilishga o‘rgatish;

– talabaning ongiga ish o‘rni va mehnat qurollariga nisbatan javobgarlik va qadrlash hissini singdirish;

– talabaga ish madaniyati haqida taassurot berish, ish joyini to‘g‘ri tashkil qilishni o‘rgatish.

Umuman olganda, bugungi kunda shunday mutaxassis kadrlarni tarbiyalashga erishish kerakki, u anglagan holda ish unumdorligini oshirishga o‘z hissasini qo‘shsin. Ularni ishlayotgan ta’lim muassasasi yoki korxonaning obro‘si, ish sifatini oshirish, mehnat intizomiga qat’iyan rioya qilish ruhida tarbiyalash lozim.

Tayyorgarlik davrida talabalar aniq ish turlari bilan tanishadilar va quyidagi masalalarni hal qiladilar: ish o‘rnini tashkil etish, mehnat xavfsizligiga rioya qilish, o‘quv amaliyotida intizomli bo‘lish, ish qurollarini asrab-avaylash, shaxsiy gigiyena va sanitariya qoidalariga rioya qilish va boshqalar. Talabalarning vazifalari ish jarayonida texnik hujjatlarni o‘rganish, moslamalarni sozlash, ish o‘rnini ishga tayyorlash, ishlab chiqilgan mahsulotning sifatini tekshirishdan iborat bo‘lib, ular oddiy ish jarayonlarini o‘rganib boradilar.

Kasbni o‘zlashtirish davrida ish jarayonlarini o‘rgangandan so‘ng olingan bilim va malakalarni mukammallashga o‘tiladi. Buning uchun shunday ishlar tanlanadiki, ish jarayonida yangi o‘rnatilgan mavzu va undan oldingilari qamrab olinadi. Shunda talabalarda egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarning shakllanish xususiyatlari rivojlanadi.

Nazorat qilish va yakunlash davrida faqatgina olingan bilim va malakalarni mustahkamlab qolmay, balki ularni zamonaviy moslama va qurilmalardan foydalangan holda mukammallashib boradi. Ishlab chiqarish ilg‘orlari va faxriylarining ishlarini o‘rganish, o‘zlashtirib olish talabada o‘quv amaliyoti jarayonida mustaqillik hissini shakllanib borishiga yordam beradi. Ular mehnat jamoasi oqimiga kirib, jamoada tarbiyalanib, shaxs sifatida shakllanib boradilar.

O‘quv amaliyoti jarayonida inson omilini ta’minlovchi amaliyot rahbarlarining shaxsiy fazilatlari: talabchanlik va adolatlilik, fidoyilik va halollik, xayrixohlik, kirishimlilik, hazil-mutoiba hisi va jiddiylik. Ushbu fazilatlar ularni ustoz darajasiga ko‘taradi, talabalar oldida obro‘-izzatini oshiradi, uning ta’lim berish va tarbiyalay olish mahoratiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarining bilim va ko‘nikmalarini obyektiv nazorat qilish va baholay olish mahorati, ishlab chiqarish amaliyoti jarayonining samarasini belgilovchi natijaviy sifat ko‘rsatkichidir. Amaliyot rahbarlari talabalar bilimini nazorat qilishning obyektiv va subyektiv metodlarini mukammal bilishi, qo‘llay olish,

reyting tizimini joriy etish mahoratiga ega bo‘lishi lozim. Mavjud tadqiqotlarga tayangan holda oliy ta’lim muassasalari amaliyot rahbarlari muhim kasbiy sifatlarini olim, pedagog, tarbiyachi nuqtayi nazaridan tavsiflash mumkin.

O‘quv-pedagogik faoliyat o‘quv jarayonining tashkil etilishiga yo‘naltirilgan. O‘quv jarayoni uchun barcha pedagogika oliy ta’lim muassasalaridagi kabi o‘quv va ilmiy-tad–qiqot jihatlarni uzviy bog‘lash, tinglovchilarning faolligini va mustaqilligini, shaxs sifatida ijodiy salohiyatini ta’minlash xarakterlidir. Pedagog faoliyatida yangi qonuniyatlarni ochish bilan bog‘liq nazariy hamda aniq vaziyatlarni yuzaga keltirish, pedagogik vazifalar tizimi yechishga qaratilgan amaliy faoliyat qo‘shilib ketadi. O‘qituvchi aniq predmet bo‘yicha o‘qitish maqsadi va vazifalarini aniqlaydi, o‘qitishning mazmunini saralaydi, faol metodlarni tinglovchilarning bilish faoliyatiga mos holda tanlaydi, nazariy turini aniqlaydi.

Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalari barkamol shaxs, malakali mutaxassisni yetishtirishda muhim bo‘g‘in bo‘lib hisoblanadi. Ularning amaliyot jarayoni ilg‘or, zamonaviy texnika va o‘quv jihozlari, malakali pedagog xodimlar bilan ta’minlangan. Bu esa ishlab chiqarish amaliyoti samaradorligini oshirishda muhim o‘rin tutadi. Ishlab chiqarish amaliyoti bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarini kasb bo‘yicha umumkasbiy va maxsus fanlarni ongli va puxta o‘rganishga tayyorlash, ularning tanlangan mutaxassislik bo‘yicha amaliy kasb layoqati va ko‘nikmalarini egallashi uchun o‘tkaziladi.

Ishlab chiqarish amaliyoti yakunida talaba o‘z hisobotini oliy ta’lim muassasasi tomonidan tayinlangan komissiya oldida himoya qiladi. Ishlab chiqarish amaliyoti natijasi bahosi talabaning kursdan kursga o‘tishda hisobga olinadi. Amaliyot yakuni oliy ta’lim muassasasining uslubiy kengashida muhokama qilinadi. Oliy ta’lim muassasasi ilmiy kengashida amaliyotning natijalariga yakun yasaladi. Amaliyot dasturini bajarmagan, ishi haqida qoniqarsiz taqriz yoki hisobot himoyasida qoniqarsiz baho olgan talaba ta’til vaqtida o‘z hisobidan qayta amaliyot o‘tishga jo‘natiladi.

Belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan ish talaba tomonidan rahbarga taqdim etiladi. Rahbar, ish talab darajasida bajarilganligiga ishonch bildirgandan so‘ng, ishni o‘z taqrizi bilan birga kafedra mudiriga taqdim etadi. Taqrizda talabaning faolligi, qabul qilingan qarorlardagi yangiliklar va ishning boshqa ijobiy topgan materiallar asosida, ishni talaba tomonidan himoya qilishga kiritish haqida qaror qabul qiladi. Agar kafedra mudiri talabaning ishini himoyaga kiritish mumkin emas, deb hisoblasa, masala kafedra majlisida, rahbar ishtirokida muhokama etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Baymetov M.M. (2021) Kasb-hunar maktablarida o‘quv amaliyotlarini tashkil etish va samaradorligini oshirish yo‘llari. – Academic Research in Educational Sciences, VOLUME 2 | ISSUE 4 | 2021 1190-1195.

2. Baymetov M.M. O‘quv va ishlab chiqarish amaliyotlari integrasiyasini ta’min–lashning didaktik tamoyillari. – Mug‘allim hyem uzliksiz bilimlendirio‘. №1/1 2022.

3. Xamidov J.A., Baymetov M.M. Kasb-hunar maktablaridagi amaliyotlar bilan ishlab chiqarish jarayoni klasterini ta’minlashning nazariy metodik asoslari. - ‘‘Экономика и сосиум’’ №12(91) 2021.

4. Хамидов Ж.А. “О некоторых вормах методах трудового воспитания младших школников” – Academic Research in Educatinal Sciences №2(81)2021.

D.B. JABBOROVA,
Qarshi muhandislik iqtisodiyot
instituti o‘qituvchisi

KIMYO FANIDA “GENETIK BOG‘LIQLIK” TUSHUNCHASINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada ta’riflarni o‘zlashtirish jarayonlarini shakllantirishda, psixologik-pedagogik xususiyatlarini tahlil qilishda “irsiy bog‘lanish” tushunchasining o‘ziga xos belgilari aniqlanib, talabalar tomonidan uni muvaffaqiyatli o‘zlashtirish uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlar shakllantirilishi ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar. Organik, kimyo, irsiy, bog‘lanish, tushuncha, birikma, shakllantirish.

Анализ психолого-педагогических особенностей процессов формирования и усвоения дефиниций выявлены специфические признаки понятия “генетическая связь” и сформулированы условия, необходимые для успешного овладения им учащимися.

Ключевые слова. Органический, химический, генетический, связь, понятие, соединение, образование.

Analysis of the psychological and pedagogical features of the processes of formation and assimilation of definitions revealed specific signs of the concept of “genetic connection” and formulated the conditions necessary for the successful mastery of it by students.

Key words. Organic, chemical, genetic, connection, concept, compound, formation.

Organik birikmalar sinflari o‘rtasidagi strukturaviy-mantiqiy munosabatlarga urg’u berilgan kimyoviy tajribalarni to‘g’ri tanlash bilan “yordamchi” sifatida eksperiment kimyoviy jarayonni (reaksiyani), bir sinfdagi moddani boshqa sinfdagi moddaga aylantirishni namoyon etadi. O‘rganilayotgan tushunchani birikmalar o‘rtasida emas, balki sinflar o‘rtasida aniq shakllantirish maqsadga muvofiqligini yuqorida aytib o‘tgan edik.

“Genetik aloqa” ta’rifini maqsadli shakllantirish uchun organik kimyo bo‘yicha maktab kursining asosiy boblarini o‘z ichiga oladigan va uni muntazam ravishda emas, balki doimiy ravishda o‘rganish davomida amalga oshirishga imkon beradigan o‘quv eksperimentidan foydalangan holda o‘rganilayotgan muammo bo‘yicha o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini oshirishga hissa qo‘shadigan yaxlittizim kerak.

O‘quv eksperimentida o‘qituvchining faoliyati ko‘rgazmali ko‘rgazmalar o‘tkazish, laboratoriya ishini bajarish uchun laboratoriya jihozlari va ko‘rsatmalarini yaratish, va o‘quv tadqiqoti natijalarini muhokama qilishdan iborat; talabaning faoliyati ko‘rgazmali ishlarni kuzatish, laboratoriya ishlarini bajarish va o‘quv tadqiqotlari doirasida mustaqil ravishda eksperiment o‘rnatishdan iborat. Ushbu kontsepsiyani samarali shakllantirish uchun o‘quv eksperimenti o‘qituvchi va o‘quvchining barcha sanab o‘tilgan faoliyatini ta’minlashi kerak.

Boshqacha qilib aytganda, u o‘rganish parametrining yetarlicha yuqori qiymatiga ega bo‘lishi kerak. Ushbu integral parametr miqdoriy komponentlarni o‘z ichiga oladi:

1) o‘qitishda kimyoviy eksperimentga bo‘lgan ehtiyoj, ya’ni uning fundamental mohiyati, ilmiy xarakteri va qiziqishi; 2) o‘qitishda tajribadan foydalanish imkoniyati, ya’ni didaktikligi, xavfsizligi, foydalanish mumkinligi; 3) o‘rganish metodikasining rivojlanishi, ya’ni uning ko‘rgazmaliligi, individualligi, mustaqilligi.

O‘quv jarayonida eksperimentdan foydalanishda biz uni “obyektiv qonuniyatlarni ochish uchun o‘zgartiruvchi vositalar orqali ta’sir qilish orqali o‘rganilayotgan obyekt haqida ikkilamchi sifatli va miqdoriy ma’lumotlarni olishdan iborat bo‘lgan subyektning maqsadli tashkil etilgan faoliyati” deb qaraymiz.

Bizning tadqiqotimizda organik birikmalar o‘rtasidagi genetik aloqalarni isbotlovchi biron bir yangi maktab kimyoviy eksperimentini (MKE) ishlab chiqish vazifasini qo‘ymadik, balki o‘z oldimizga tuzilmani takomillashtirish va hozirgi vaqtda mavjud o‘quv eksperimentini tizimga kiritishni maqsad qilib qo‘ydik, ya’ni mavjud dasturlar va darsliklar tahlili shuni ko‘rsatdiki, aslida, mualliflar bu haqida o‘ylamaganlar. Bundan tashqari, tizimli va mantiqiy munosabatlarni vizual tarzda aniqlashga yordam beradigan o‘quv vositasi sifatida foydalaniladi. Shu munosabat bilan, maktab kursidagi uning mazmuni va hajmi bizga sezilarli darajada qiyinchilik tug‘diradi. Yangi tajribalarni kiritish orqali kimyoviy eksperiment hajmini sezilarli darajada kengaytirish joiz emas deb hisoblaymiz, chunki bu boshqa o‘quv maqsadlariga erishish samaradorligi bilan bog‘liq muammolarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun biz organik kimyoni o‘qitish metodikasi bo‘yicha ko‘pchilik mualliflik dasturlari va qo‘llanmalarida ko‘rsatilgan miqdorda kimyoviy tajribaning har xil turlaridan foydalandik.

Ta’lim standarti, ilmiy, uslubiy va o‘quv adabiyotlari talablarini tahlil qilish bizga “genetik bog’liqlik” tushunchasini shakllantirishga yordam beradigan o‘quv kimyoviy eksperimentidan foydalangan holda tizimni ishlab chiqishda asos bo‘lishi kerak bo‘lgan didaktik tamoyillarni shakllantirishga imkon beradi. Zamonaviy ilm-fanda tamoyillar har qanday nazariyaning asosiy, boshlang‘ich qoidalari, yetakchi g‘oyalari, asosiy xatti-harakat qoidalari hisoblanadi.

Pedagogik jarayon tamoyillari pedagogik faoliyatni tashkil etishning asosiy talablarini aks ettiradi, uning yo‘nalishini ko‘rsatadi va pirovardida pedagogik jarayonni yaratishga ijodiy yondashishga yordam beradi. Pedagogik prinsip nazariy umumlashtirish sifatida o‘rnatilgan va amaliyotda sinab ko‘rilgan ijtimoiy yo‘riqnomalarni, muntazam aloqalarni, ta’lim jarayonini tashkil etishning bog‘liqligini, shuningdek, turli xil faoliyat turlariga pedagogik rahbarlikni aks ettiradi.

Bizning metodologik tizimimiz va maktab kimyoviy eksperimentini (MKE) quyi tizimi ikki tamoyil guruhiga asoslanadi: didaktik va o‘ziga xos. Ularning qurilishi ta’limning quyidagi tamoyillariga asoslanadi: ilmiy va ochiq, tizimlilik va barqarorlik, o‘rganishning hayot bilan bog’liqligi, o‘quvchilarning ko‘rinishi, ongi va faolligi, o‘qituvchining yetakchi roli bilan ta’lim, tarbiya va rivojlanish natijalarining kuchi, xabardorligi va samaradorligi. Keling, asosiylarini ko‘rib chiqaylik:

1. Fan nazariyasi va metodiga teng e’tibor berish talabi sifatida talqin qilinadigan ta’limning ilmiyligi tamoyili. Shu bilan birga, birinchisi shartli ravishda ilmiy bilimlar bilan, ikkinchisi esa ushbu fan o‘rganadigan muammolarni hal qilishda amaliy ko‘nikma va malakalar bilan bog‘liq. Maktab kimyo kursida empirik va nazariy munosabat o‘rtasidagi samarali bog‘liqlikni ta’minlash orqali induksiya va deduksiyani deduksiya ulushini bosqichma-bosqich oshirish bilan birlashtirish mumkin. Organik birikmalar sinflarini o‘rganish organik birikmalarning tuzilishi nazariyasi asosida deduktiv tarzda amalga oshiriladi. O‘quv jarayonida kimyoning asosiy qoidalarini isbotlashda yetakchi o‘rinni kuzatishlar va kimyoviy tajribalar egallaydi.

2. Bilish usulining ustuvorligi tamoyili yoki muayyan fanni o‘qitish metodining uning bilish usulidan kelib chiqishi. Agar tabiatshunoslikda kuzatish va eksperiment muhim rol o‘ynasa, bu fanlarni o‘rganishni ushbu usullardan foydalanmasdan tasavvur qilib

bo‘lmaydi.

3. Yaqqollik tamoyili. Noorganik va organik birikmalar o‘rtasidagi genetik aloqani ochib berishdagi muammomizga, shuningdek, kimyoning rivojlanish g’oyasiga kelsak, vizualizatsiya vositalaridan biri sifatida kimyoviy tajribaning roli katta. O‘quvchi kimyoviy tenglamalarni tuzish qoidalarini va kimyoviy birikmalarning kimyoviy xossalarini bilgan holda, hech qanday maxsus his-tuyg’ularsiz o‘qituvchi tomonidan taklif qilingan yoki hatto u tuzgan transformatsiyalar zanjirini amalga oshiradi.

Ammo uning amaliy amalga oshirilishi unutilmas taassurot qoldiradi, chunki ko‘pincha oddiy o‘zgarishlar orqali o‘quvchi turli xil birikmalar sinfiga mansub bo‘lgan rangi, hidi, fizik holati jihatidan farq qiladigan tobora ko‘proq yangi moddalarni bilib oladi. “Zanjir”dagi o‘qlar bilan ko‘rsatilgan narsa birdaniga “jonlanadi” va boshqariladigan haqiqatga aylanadi, bu haqiqatan ham kimyoviy birikmalarning turli sinflarining genetik bog‘liqligini tasdiqlaydi.

4. Barqarorlik tamoyili. Maktab kimyoviy eksperimenti (MKE) dan foydalangan holda biz taklif qilayotgan tizim ta’limning asosiy tamoyillaridan biri – izchillik tamoyiliga qurilgan. Fanda “tizim” va “tizimli yondashuv” tushunchalari keng tarqalgan. Tizimlarning umumiy nazariyasini rivojlantirishga katta hissa qo‘shgan V.N. Sadovskiy, B.G. Yudin, izchillik va tizimli yondashuvning falsafiy tamoyillarini ochib bergan. Har qanday tizim bir qator o‘ziga xos xususiyatlar bilan tavsiflanadi. Kimyoviy tajriba quyi tizimiga nisbatan asosiylarini ko‘rib chiqish mumkin:

Organik birikmalarni tasniflash, o‘rganilayotgan sinflarning asosiy bloklarini va ular o‘rtasidagi munosabatlarni topish asosida kimyoviy tajriba asosida tizimimiz tuzilishining xususiyatlari ochib berildi.

B. Ierarxiyalilik. Tizimning har bir komponenti, o‘z navbatida, quyi tizim sifatida qaralishi mumkin.

Biz taklif qilgan kimyoviy tajribaning quyi tizimi o‘rganilayotgan ta’rifni shakllantirish uchun yanada murakkab modelning tarkibiy qismidir. O‘z navbatida, kimyoviy eksperimentning quyi tizimida biz kichikroq tarkibiy qismlarni – uning har xil turlari va tashkil etish shakllarini ajratamiz.

D. Ta’riflarning ko‘pligi. Har bir tizimning asosiy murakkabligi tufayli uning yetarli bilimi juda ko‘p turli xil modellarni qurishni talab qiladi, ularning har biri tizimning faqat ma’lum bir tomonini tavsiflaydi.

Tadqiqotimizda biz kimyoviy tajribaga asoslangan tizimni va uning asosida organik birikmalarning genetik bog‘lanishlari konsepsiyasini shakllantirish modelini taklif qildik.

D. Tizim va muhitning o‘zaro bog‘liqligi. Tizim o‘zaro ta’sirning yetakchi faol komponenti bo‘lgan holda, atrof-muhit bilan o‘zaro ta’sir qilish jarayonida o‘z xususiyatlarini shakllantiradi va namoyon qiladi. Biz ishlab chiqqan tizim nafaqat ushbu konsepsiyani, balki organik kimyo kursining bir qator boshqa fundamental ta’riflarini va o‘z navbatida, o‘quvchilarning kimyoviy, psixologik, pedagogik, uslubiy bilimlar blokini maqsadli shakllantirishga yordam beradi.

Kimyoviy eksperimentning qo‘llaniladigan quyi tizimining muhim ko‘rsatkichi shundaki, unda o‘quvchilarning mustaqilligini bosqichma-bosqich oshirish tamoyili qo‘llaniladi: hodisalarni ko‘rsatishdan o‘qituvchi rahbarligida frontal laboratoriya tajribalarini o‘tkazish orqali amaliy mashg‘ulotlarni bajarish va eksperimental muammolarni yechishdan mustaqil ishlashgacha.

Organik kimyo kursida “genetik bog‘lanish” tushunchasini shakllantirish vositasi vazifasini bajaradigan kimyoviy tajribaning quyi tizimi 5-sxemada ko‘rsatilgan.

U har qanday tizimning qurilishi va ishlashiga xos bo‘lgan yuqoridagi barcha xususiyatlarni ko‘rsatadi.

Bizning tizimimizni va maktab kimyoviy eksperimentini (MKE) quyi tizimini qurishning o‘ziga xos tamoyillari quyidagilar hisoblangan:

Amaliy yo‘naltirish tamoyili. Organik kimyoni o‘qitishda nazariya va amaliyot o‘rtasida optimal muvozanatni o‘rnatish zarur.

Maktab kimyo fani kursini o‘rganish jarayonida organik birikmalarning genetik aloqalari haqida g‘oyalarni shakllantirishda har xil turdagi kimyoviy tajribalardan foydalanish kerak, chunki faqat undan foydalanish tushunchani yanada ongli va chuqurroq o‘zlashtirishga olib keladi. Tizimli va mantiqiy o‘zaro konversiyalarni aks ettiruvchi vaqt o‘tishi bilan uzoq muddatli kimyoviy tajribalar auditoriya yoki tanlov darslarida o‘tkazilishi mumkin; bu konsolidatsiyaga va shakllanayotgan konsepsiyani yanada chuqurroq tushunishga olib keladi.Davomiylik va izchillik tamoyili. O‘quvchilarning eksperimental va uslubiy tayyorgarligi maktabda o‘qishning butun davri davomida amalga oshiriladi. Noorganik kimyo kursida olingan malakalar yuqori sinflarda organik kimyoni o‘qitishda bosqichma-bosqich takomillashtiriladi va shakllanadi.

Kimyoviy tajriba texnologiyasi va usullarining o‘zgaruvchanligi tamoyili. Eksperimentning u yoki bu turini tanlash quyidagi fikrlar bilan belgilanadi:

1) bu o‘qitish usulini qo‘llashning vazifalaridan biri o‘quvchilarda eksperimental va uslubiy ko‘nikma va malakalarni singdirishdir, chunki ular bilimlarni o‘zlashtirish jarayoniga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi, bu esa o‘z navbatida tushunchalarni shakllantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratadi;

2) ko‘rgazmali yoki laboratoriya tajribalari o‘quvchilarga savollar berish, ularning e’tiborini obyektlarning muhim tomonlariga yo‘naltirish, ularni fikrlash va mulohaza yuritish, solishtirish, ya’ni mantiqiy fikrlashni rivojlantirish.

Shuning uchun dastlab ko‘rgazmali tajribalar o‘tkazishda o‘quvchilarni hodisalarni to‘g‘ri kuzatishga o‘rgatish, so‘ngra aqliy faoliyatni rivojlantiruvchi va amaliy ko‘nikmalarni oshiruvchi laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Грибакина Л.В. Исследование функций химической символики как фактора активизации познавательной деятельности учащихся. автореф. дисс. ... канд. пед. наук.– Л., 1987. – С. 24.

2. Давыдов В.В., Варданян А.У. Учебная деятельность и моделирование. - Ереван: Луйс, 1981.– 256 с.

3. Кузнецова Н.Е. Теоретические основы формирования системы понятий в обучении химии: автореф. дисс. ... д- ра пед. Наук. – Л.,1986.– С.45.

4. Yoriyev O.M., Ixtiyarova G.A. Umumiy va anorganik kimyo. Elektron darslik. // № DGU 01493. - 2008. – C.158.

5. Ixtiyarova G.A., Jo‘raqulova N.X., Ayupova M.B., Aripdjanova M.A.“Noorganik kimyo”dan elektron darslik. № DGU 06464. 19.04.2019.

6. Jabborov F.B. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilarda kimyo fani mazmunida umumlashtiriladigan ko‘nikmalar. ‘‘Xalq ta’limi” O‘zbekiston respublikasi xalq ta’limi vazirligining ilmiy-metodik jurnali № 4. 2021.

7. Jabborov F.B. Kimyoviy o‘quv-belgili modellarining didaktik funksiyalari. // O‘z-MU xabarlari. –T., 2020. – B. 54-58 (13.00.00; №15).

Baxriddin QOSIMOV,
Surxondaryo viloyati Qumqo‘rg‘on tumani ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasasi agentligi matematika fani o‘qituvchisi
Gulbahor CHORIYEVA,
Qumqo‘rg‘on tumani 3-o‘rta ta’lim maktabi boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi

BIRINCHI SINFDA MATEMATIKADAN SODDA MASALALAR VA ULARNI YECHISHGA O‘RGATISH METODIKASI

Annotatsiya

Ushbu maqolada boshlang’ich sinf o‘quvchilariga matematika darsligida juda ham ko‘p uchraydigan masalalar va ularning yechimlarini topish haqidagi ma’lumotlar, 1-sinfdayoq ularga o‘rgatib, ulardagi bilish va fikrlash qobiliyatini o‘stirib borishimiz juda ham muhimligi, o‘qituvchi o‘zining asosiy e’tiborini matnli masalalar mazmunini matematika tiliga ko‘chirishga qaratmog’i lozimligi haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, mukammal matematik tushunchalrni shakllantirish, ularning dasturda belgilab berilgan nazariy bilimlarni o‘zlashtirishlarida favqulodda muhim ahamiyatga ega ekanligi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar. Boshlang‘ich sinf, matematika, qobiliyat, matnli masalalar, natural sonlar, arifmetik amallar, noma’lum sonlar, ko‘paytma.

В этой статье приведены сведения о задачах и их решениях, которые очень часто встречаются в учебнике по математике для учащихся начальных классов, что очень важно для обучения их в 1-м классе и для развития их знаний и мыслительных способностей, что учителю следует сосредоточить внимание на переводе содержания текстовых задач на язык математики, а также на формировании совершенного математического понятия, что крайне важно для овладения им указанными в программе теоретическими знаниями.

Ключевые слова. Начальный класс, математика, способности, текстовые задачи, натуральные числа, арифметические действия, неизвестные числа, умножение.

In this article, the information about the problems and their solutions that are very common in the mathematics textbook for elementary school students, it is very important to teach them in the 1st grade and to grow their knowledge and thinking ability. It is said that the teacher should focus on transferring the content of the textual problems to the language of mathematics, as well as the formation of a perfect mathematical concept, which is extremely important for their mastery of the theoretical knowledge specified in the program.

Key words. Primary grade, mathematics, ability, word problems, natural numbers, arithmetic operations, unknown numbers, multiplication.

Mustaqil huquqiy demokratik jamiyat qurish haqida fikr yuritganda, bu jamiyatda uning to‘laqonli a’zosi shaxs qanday bo‘lish kerakligi va unda ta’lim jarayoni qanday rol o‘ynashi haqida jiddiy o‘ylash lozim bo‘ladi.

Yangi o‘qitish metodikasida o‘quvchilarga berilayotgan materiallarni qayta kod–lashtirish va o‘zlarining modelini yaratish masalalari yuklanmaydi. Bu o‘qitish metodikasida o‘quv materiallari matn va formula ko‘rinishi bilan bir qatorda, obrazlar ko‘rinishida ham taqdim etiladi. Bu ma’noda axborot texnologiyalari asosida o‘quv materiallarini obrazli ko‘rinishda taqdim etishda ularga har xil ko‘rinishdagi ranglar, harakat, ovoz kabi elementlarni kiritish o‘quvchilarning o‘quv materiallarini qabul qilish jarayoni

samaradorligini oshirish bilan birga, berilayotgan materiallarni tahlil qilish, taqqoslash hamda abstraksiyalash kabi muhim sifatlarni rivojlantiradi. O‘quv materiallarini obrazlar ko‘rinishida taqdim etish uchun ularni axborot texnologiyalaridan foydalanib, elektron-didaktika asosida elektron kitob, darslik, kurs va virtual stend ko‘rinishida yaratish yuqorida qo‘yilgan masalalrni ijobiy hal etishga olib keladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga matematika darsligida juda ham ko‘p uchraydigan masalalar va ularning yechimlarini topish haqidagi ma’lumotlarni biz 1-sinfdayoq ularga o‘rgatib, ulardagi bilish va fikrlash qobiliyatini o‘stirib borishimiz juda ham muhimdir. Masala yechishga o‘rgatishning muhimligi shundan iboratki, o‘qituvchi o‘zining asosiy e’tiborini matnli masalalar mazmunini matematika tiliga ko‘chirishga qaratmog’i lozim. Avvalo, mukammal matematik tushunchalrni shakllantirish, ularning dasturda belgilab berilgan nazariy bilimlarni o‘zlashtirishlarida favqulodda muhim ahamiyatga ega. Masalan, agar biz o‘quvchilarda qo‘shish haqida to‘g‘ri tushuncha shakllantirishni xohlasak, buning uchun bolalar yig‘indini topishga doir yetarli miqdorda sodda masalalrni deyarli har gal to‘plamlarni birlashtirish amalini bajarib borishi lozim. 1-sinfda bir va ikki amalli masalalar o‘rgatiladi. Masalalar yechishdagi hisoblash ishlari sonli masalalarni yechish malakalarini shakllantirish mashq qilishga nisbatan kamroq vaqtni talab qiladi.

Masalalalarni yechishning jadval usuli, masalalar va ularni taqqoslashni 2-sinfda o‘rgatiladi. Bu davrda o‘quvchilrning fikrlash doirasi yanada kengayadi, ularni jadvalga qarab masala tuzishga, o‘zaro teskari masalalar tuzishga va ularni taqqoslashga undaydi. Boshlang‘ich sinflarda o‘rganiladigan masalalar yechishning u yoki bu nazariy materiallarni o‘zlashtirish jarayonidagi muhim o‘rnini ta’kidlab, dasturda shunday deyiladi: “Natural sonlar arifmetikasi, nolni o‘rganish maqsadga muvofiq masalalar va amaliy ishlar sistemasi asosida tuziladi. Bu esa so‘z har bir yangi tushunchani tarkib toptirish va har doim bu tushuncha ahamiyatini tushuntirishga yordam beradigan, uning qo‘llanishini talab qiladigan u yoki bu masalani yechish bilan bog‘lanadi”. Sodda masalalar o‘quvchilarni matematik munosabatlar bilan tanishtirishning muhim vositalaridan biri bo‘lib xizmat qiladi. Sodda masalalardan ulushlar, qator geometrik tushun–chalar va algebra elementlarini o‘rganishda ham foydalaniladi. Sodda masalalar o‘quvchilarda murakkab masalalarni yechish uchun zarur bo‘ladigan bilimlar, malakalar va ko‘nikmalarni tarkib toptirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ta’lim maqsadlarida ko‘pincha obstrakat vaziyatlardan foydalaniladi va muhim masalalar deb ataluvchi masala hosil qilinadi. Masalan: 8 ni hosil qilish uchun 12 dan qaysi sonni ayirish kerak? Biz ko‘p marta arifmetik masalalarni ko‘rib chiqdik. Ularda qanday umumiylik bor?

Avvalo har bir masala berilgan va noma’lum sonlarni o‘z ichiga oladi. Masaladagi son to‘plamlar sonini yoki miqdorlarning qiymatini harakterlaydi, munosabatlarini ifodalaydi yoki berilgan mavhum sonlar bo‘ladi. Masalan 1-masalada 15 soni olma ko‘chatlari to‘plamini sonini xarakterlaydi. 2-masalada 56 soni miqdor uzunlikning qiymatidir. 3-masalada 2 soni ikki sonning munosabatini 2 va 1-bo‘lakdagi chitning bahosini ifodalaydi. 4-masalada 12, 8 mavhum sonlar berilgan bo‘lib , bular mos ravishda kamayuvchi va ayirmadir. Har bir masalada shart va savol bo‘ladi. Masala shartida berilgan sonlar orasidagi va berilgan sonlar bilan izlanayotgan sonlar orasidagi bog‘lanish ko‘rsatiladi, bu bog‘lanishlar tegishli arifmetik amallarni tanlashni belgilab beradi. Savol esa qaysi son izlanayotgan son ekanligini bildiradi.

Masalan, 2-masalaning sharti: yengil mashina yo‘lda 4 soat bo‘ldi va soatiga 56 km tezlik bilan bosib o‘tdi? Masalani yechish bu masala shartida berilgan sonlar va

izlanayotgan son orasidagi bog‘lanishni ochib berish va bu asosda arifmetik amallarni tanlash, keyin esa ularni bajarish hamda masala savoliga javob berish demakdir.

Yuqorida keltirilgan masalaning yechilishini ko‘ramiz. 1-masala sharli olma va olxo‘ri ko‘chatlari to‘plamlar birlashmasi amalini aniqlaydi. Masala savoli mazkur to‘plamlar birlashmasi amali masala yechilishi uchun zarur bo‘lgan berilgan sonlarni qo‘shish amaliga mos keladi. 15+10=25 masala savoliga javob: yosh tabiatshunoslarga 25 tup ko‘chat ajratilgan.

1-masala shartidan mashinaning tezligi va uning harakat vaqti ma’lum. Mashina bosib o‘tgan yo‘lni topish talab etiladi. Bu kattaliklar orasidagi mavjud bog‘lanishdan foydalanib masalani yechamiz: 56-4=224 masala savoliga javob: mashina 224 km yo‘l bosgan.

2-masalani yechishimiz uchun 2 marta ko‘p ifodani ma’nosini bilishdan foydalaniladi. 18-2=36 masala savoliga javob: 2-bo‘lak 36 so‘m turadi.

Ko‘rib turibmizki, hayotiy vaziyatdan arifmetik amallarga o‘tish turli masalalarda berilgan sonlar va izlanayotgan son orasidagi turli bog‘lanishlar bilan belgilanar ekan.

Sodda masalalarni qanday amal yordamida yechilishiga qarab (qo‘shish, ayirish, ko‘paytirish, bo‘lish bilan yechiladigan sodda masalalar) yoki ularning yechilishi davomida shakillantiriladigan tushunchalarga bog‘liq ravishda turlarga ajratish mumkin.

Masalalar yechish jarayonining o‘zi ma’lum metodika o‘quvchilarning aqliy rivojlanishiga ancha ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, chunki u aqliy operatsiyalarni analiz va sintez, konkretlashtirish va abstraklashtirish, taqqoslashi, umumlashtirilishi talab etiladi. Masalan, o‘quvchi istalgan masalani yechayotganida analiz qiladi, savolni masala shartida ajratadi, yechish planini tuzayotganida sintez qiladi, bunda aniqlashtirishdan (masala shartini hayolan chizadi) so‘ngra abstraklashdan foydalanadi (konkret situatsiyadan kelib chiqib arifmetik amalni tanlaydi) biror bir turdagi masalalarni ko‘p marta yechish natijasida o‘quvchi bu turdagi masalalarda berilgan va izlanayotgan sonlar orasidagi bog‘lanishlar haqidagi bilimni umumlashtiradi, buning natijasida bu turdagi masalalarni yechish usuli umumlashtiriladi.

Masalalarni yechish uquvida o‘quvchilar egallashi lozim bo‘lgan markaziy zveno berilgan sonlar va izlanayotgan son orasidagi bog‘lanishni o‘zlashtirishdir. Bolalarning masalalr yecha olish uquvlari va bu bog‘lanishlarni qanchalik yaxshi o‘zlashtirganliklariga bog’liqdir. Shuni hisobga olgan holda boshlang‘ich sinflarda yechilishi berilgan sonlari va noma’lumlar orasidagi bir xil bog‘lanishlarga asoslangan konkret va mazmuni va soni berilganlari bilan esa farq qiluvchi masalalar gruppasi bilan ish ko‘riladi. Bunday masalalar gruppasini bir turdagi masalalar deb ataymiz.

Masalalar ustida ishlash o‘quvchilarni avval bir turdagi masalalarni yechishga, so‘ngra boshqa turdagi masalalarni yechishga, so‘ngra boshqa turdagi masalalarni yechishga majburlashga olib kelinishi kerak emas. Uning asosiy maqsadi o‘quvchilarni turli hayotiy vaziyatlardagi berilgan sonlar va izlanayotgan son orasidagi ma’lum bog‘lanishlarni ularni murakkablashib borishini ko‘zda tutgan holda aniqlay olishga o‘rgatishdir. Bunga erishish uchun o‘qituvchi bu turdagi masalalarni yechishni o‘rgatish metodikasida ma’lum maqsadlarni ko‘zlaydigan bosqichlarni ko‘zda tutish lozim.

Birinchi bosqichda o‘qituvchi ko‘rilayotgan turdagi masalalarni yechishga tayyorgarlik ishini olib boradi. Bu bosqichda o‘quvchilar mazkur masalalarni yechishda tegishli amallarni tanlash uchun asos bo‘ladigan bog‘lanishlarni o‘zlashtirishlari lozim.

Ikkinchi bosqichda o‘qituvchi ko‘rilayotgan turdagi masalalarni yechilishi bilan o‘quvchilarni tanishtiradi. Bunda o‘quvchilar berilgan sonlar va noma’lum son orasidagi

bog‘lanishni aniqlash, buning asosida arifmetik amallarni tanlashni o‘rganadilar, ya’ni masalada ifodalangan aniq, vaziyatdan tegishli arifmetik amallarni tanlashga o‘tishni o‘rganadilar. Bunday ishlarni olib boorish natijasida o‘quvchilar ko‘rilayotgan turdagi masalalarni yechish usuli bilan tanishadilar.

Uchinchi bosqichda o‘qituvchi ko‘rilayotgan turdagi masalalarni yechish uquvini shakllantiradi. O‘quvchilar bu bosqichda ko‘rilayotgan turdagi istalgan masalani uning aniq mazmunidan qat’iy nazar yechishni o‘rganishlari kerak, ya’ni bu turdagi masalalarni yechish usullarini umumlashtirishlari lozim.

Masalani yechishga o‘rgatishning asosiy bosqichlari.

Masalalar yechishga o‘rgatishda quyidagi etaplarga rioya qilish maqsadga muvofiqdir:

1-etap – masala mazmuni bilan tanishtirish;

2-etap – masala yechimini izlash;

3-etap – masalani yechish;

4-etap – masala yechimini tekshirish.

Ajratilgan etaplarga bir-biri bilan uzviy bog‘langan va bu bosqichning har bir etapida ish asosan o‘qituvchining rahbarligida olib boriladi.

Har bir etapda ishlash metodikasini batafsil ko‘rib chiqamiz.

1. Masala mazmuni bilan tanishtirish. Masala mazmuni bilan tanishtirish uni o‘qib, masalada aks ettirilgan hayotiy vaziyatni ko‘z oldiga keltirish demakdir. Masalani odatda bolalar o‘qiydilar.

Masala matni bolalarda bo‘lmagan taqdirda yoki ular hali o‘qishni bilamagan holda, masalani o‘qituvchi o‘qiydi. Bolalarni masalani to‘g’ri o‘qishga o‘rgatish juda muhimdir. Amalni tanlashni belgilab beradigan „bor edi”, „jo‘nab ketdi”, ‘‘qoldi”, ‘‘baravardan bo‘ldi” kabi so‘zlarga va sonli ma’lumotlarga urg‘u berib o‘qish, masala savolini intonatsiya bilan ajratib o‘qish. Agar masala tekstida tushunarsiz so‘zlar uchrasa ularni tushuntirish yoki masalada gap ketayotgan predmetni, masalan, buldozer, o‘rish ma–shinasi va hokazoni ko‘rsatish mumkin.

Masalani bolalar bir-ikki marta, ba’zan bir necha marta o‘qiydilar, biroq masalani bitta o‘qiganda esda qolishga ularni asta-sekin o‘rgatib borish kerak, chunki bu holda ular masalani ko‘proq diqqat bilan o‘qiydilar.

Masalani o‘qiganda, bolalar masalada aks ettirilgan hayotiy vaziyatni tasawur qila olishlari lozim. Shu maqsadda bolalar masalani o‘qib bo‘lishganidan keyin masalada nima to‘g‘risida gap ketayotganini tasavvur qilib ko‘rishlari va hikoya qilib berishlarini taklif qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

2. Masala yechimini izlash. Masala mazmuni bilan tanishgandan so‘ng uning yechimini izlashga o‘tish mumkin o‘quvchilar masalaga kirgan kattaliklar, berilgan sonlar va izlanayotgan sonni ajratib ko‘rsatishlari, berilgan sonlar va izlanayotgan son orasidagi bog‘lanishni aniqlashlari va buning asosida tegishli arifmetik amalni tanlashlari kerak.

Yangi turdagi masalalarni kiritilayotganida masala yechimini izlashga o‘qituvchi rahbarlik qiladi, keyinchalik o‘quvchilar buni mustaqil bajaradilar. U holda ham bu holda ham kattaliklar, berilgan sonlar va izlanayotgan sonni ajratish, ular orasidagi bog‘lanishlarni aniqlashda bolalarga yordam beradigan maxsus usullardan foydalaniladi. Bunday usullar jumlasiga masalani ilyustratsiyalash, masalani takrorlash, masalani tahlil qilish va eshitish planini tuzish kiradi. Bu usullarning har birini ko‘rib chiqamiz:

Masalani ilyustrasiyalash – bu masalaga kirgan kattaliklar berilgan va izlanayot-

gan sonlarni ajratish va ular orasida bog‘lanishni, aniqlash uchun ko‘rsatmali qurollardan foydalanish demak.

Illyustratsiya predmetli yoki semantik bo‘lishi mumkin. Birinchi holda masalada aytilayotgan predmetlardan yoki bu predmetlarning rasmlaridan illyustratsiya sifatida foydalaniladi, ular yordamida predmetlar ustida tegishli amallar ilyustratsiya qilinadi.

Qisqa yozuvni jadval ko‘rinishida yoki, jadvalsiz, shuningdek, chizma formasida bajarish mumkin. Misollar ko‘raylik, 1-masala: Baliqchi 10 ta cho‘rtanbaliq, cho‘rtanbaliqlardan 8 ta ko‘p tangabaliq tutdi. Baliqchi qancha cho‘rtanbaliq va tangabaliq tutgan? Bu masalani jadvalsiz qisqa yozib olish: Cho‘rtanbaliq - 10 dona

Tangabaliq – ?, 8 dona ortiq.

2-masala. Traktor 6 soat ish vaqtida 48 litr yoqilg‘i sarfladi. Yoqilg‘i soatiga o‘sha normada sarf bo‘lganda 12 soatda traktorga qancha yoqilg‘i kerak bo‘ladi? Bu masalani jadvalda yozib olgan yaxshi.

Yoqilg‘i sarf bo‘lish normasi	Ish vaqti	Sarf bo‘lgan jami yoqilg‘i	
Bir xil	6 soat 12 soat	48 litr	?

Keltirilgan misoldan ko‘rinib turibdiki, jadval formada kattaliklarning nomini ham ajratib yozish talab qilinadi.

Ko‘p masalalarni chizma yordamida namoyish qilish mumkin: o‘quv yilining boshida o‘quvchi uchun kostyum, botinka va shapka sotib olindi. Kostyum 2400 so‘m turadi. U botinkadan 3 marta qimmat. Xarid qilingan narsalarning hammasi qancha turadi?

Chizma formasida namoyish qilishni kattaliklar qiymatlarining munosabatlari berilgan masalalarning yechilishida (katta, kichik, shuncha), shuningdek harakat bilan bog‘liq masalalarning yechilishida foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Sanab o‘tilgan illyustratsiyalarning har birini bolalarning o‘zlari bajarganlari taqdirdagina bu illyustratsiyalar masala yechimini topishga yordam beradi, chunki faqat shu holdagina ular masalani o‘zlari analiz qilishlari mumkin. Demak bolalarni illyustratsiyalarni o‘zlari bajarishlariga o‘rgatish zarur. Avval yangi turdagi masala bilan tanishtirilayotganda qisqa yozuvchi o‘qituvchi rahbarligida bolalarning o‘zlari bajarishadi, so‘ngra u masala yechimini topishga yordam beradilar taqdirda mustaqil bajarishadi.

Illyustratsiyalarni bajarish vaqtida ba’zi bolalar masala yechimini topadilar, ya’ni ular masalani yechish uchun qaysi amallarni bajarish zarurligini biladilar. Biroq bolalarni bir qismi berilgan sonlar va izlanayotgan son orasidagi bog‘lanishni hamda tegishli arifmetik amalni faqat o‘qituvchi ‘‘masalani tahlili’’ deb ataluvchi maxsus suhbat o‘tkazadi.

3. Masalaning yechilishi. Masalaning yechilishi bu yechim plani tuzilayotganda tanlangan arifmetik amallarni bajarish demakdir. Bunda har bir amalni bajara turib nimani topayotganimizni tushuntirish shart.

Matematik masalalar sodda va tarkibli masalalarga ajratiladi. Sodda masalalar bitta amal bilan yechish mumkin bo‘lgan masalalar jumlasiga kiritiladi. Bir nechta sodda masaladan tuzilgan va shu sababli ikki yoki undan ortiq amal yordamida yechiladigan masalalar tarkibli masalalar deyiladi.

Har qanday sodda masalaga doir ikkita teskari masala tuzish mumkinki, ularning har biriga o‘sha syujet bo‘yicha izlanayotgan son sifatida esa to‘g‘ri masala shartida

ma’lum bo‘lgan son qatnashadi. Masalan: hovlida 5 ta qiz o‘ynayotgan edi. Ularning 2 tasi uyga ketdi. Hovlida nechta qiz qoldi? Masalaga 2 ta teskari masala tuzish mumkin. Birinchisi, „Hovlida bir nechta qiz o‘ynayotgan edi. 2 ta qiz uyiga ketgandan so‘ng, hovlida 3 ta qiz qoldi. Hovlida jami nechta qiz bor edi? 2- hovlida 5 qiz. Bir nechta qiz uyiga ketgandan so‘ng hovlida 3 ta qiz qoldi. Nechta qiz uyiga ketgan?” Bu masala berilgan 1-masalaga nisbatan, shuningdek, 2-masalaga nisbatan ham teskari masala sifatida qarash mumkin.

Bundan tashqari, sodda masalalar orasidan bilvosita ifodalangan masalalar ajratiladi. Masalan, quyidagi masala shunday masalalar jumlasiga kiradi: ‘‘Stol ustida 7 ta qalam bor. Bular qutidagi qalamlardan 4 ta ortiq. Qutida nechta qalam bor?” Bu masala shartida ‘‘ortiq” deyilgani uchun ayirish bilan yechiladi.

(7-4 = 3).

Sodda masalalarning asosiy turlarini quyidagicha taqsimlash boshlang‘ich maktablarida qo‘llanish uchun qulay:

1. Arifmetik amallar mazmunini ochishga doir masalalar : yig‘indini qoldiqni topishga doir masalalar, bir xil qo‘shiluvchilar yig‘indisini topishga doir masalalar, bo‘lishga (mazmuniga ko‘ra bo‘lishga va eng qismlarga bo‘lishga) doir masalalar.

2. Amalning noma’lum komponentlarini (qo‘shiluvchi, kamayuvchi, ayriluvchi, ko‘paytuvchi, bo‘linuvchi, bo‘luvchi) topishga doir masalalar.

3. Bir necha birlik (yoki bir necha marta ortiq yoki kam) munosabati bilan bog’liq masalalar sonni bir nechta birlik (yoki bir nechta marta) orttirish 9 yoki kamaytirishga doir bevosita (yoki bilvosita) ifodalangan masalalar, sonlarni ayirmali (yoki karrali) taqqoslashga doir masalalar.

4. Kattaliklarning proportsional bog‘lanishlariga doir masalalar.

Matematika o‘qitishda tashkil etilgan sodda masalalarni yechish o‘quvchilarning matematik bilimlarini chuqurlashtirish va kengaytirish, misol va masalalarni yechishni mashq qilish, matematikaning hayot bilan bog‘liq bo‘lgan tomonlarini tushunishlariga imkon beradigan faoliyat turlaridan biridir.

Shuni nazarda tutish kerakki, hamma hollarda ham qisqacha yozishni bajarish bilan birga masala sharti analiz ham qilinadi. Qisqacha yozishning vazifasi ana shundan iborat. Haqiqatdan, masalani qisqacha yozish o‘quvchi xotirasiga tayanch bo‘lib, sonli ma’lumotlarni tushunish va yaratish imkonini beradi, bu ma’lumotlarni masalada nima berilganligini va nimani izlash kerakligini aniqlashga yordam beradi. Shunday qilib, matematik masalalar yechish o‘quvchilarning matematik bilimlarini rivojlantirish usullaridan biri sifatida qaralishi lozim. Shu bilan birga murakkab va qiziqarli masalalar o‘qitish samaradorligini oshirishning eng yaxshi usullaridan biri sifatida bo‘lishi ham mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alixonov S. “Matematika o‘qitish metodikasi’’. –T.: O‘qituvchi, 2001-yil.

2. Alixonov S., “Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi”, – Namangan: “Maruzalar to‘plami”, 2010-yil.

3. Bikboyeva A.U., Yangiboyeva E., “Matematika 1-4 sinflar uchun’’. – T., 2003-yil

4. Matematika. 3-sinf. N.U. Bikbayeva, E. Yangabayeva. 2010-yil.

5. M.E. Jumayev, Z.G’. Tadjiyeva, O. Toshmetova, Z. Yunusova “Boshlang‘ich sinflarda matematikadan fakultativ darslarni tashkil etish metodikasi”. – T., 2005-yil.

Nafisa MAMARAXIMOVA,
A. Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARI IJODIY TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISH MAZMUNI

Annotatsiya

Hozirgi globallashgan sharoitda o‘quvchilardan talab qilinadigan asosiy vazifa bu badiiy matn va uni tushunib anglashdir. Mazkur maqolada boshlang‘ich ta’limda ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida badiiy matn asosida ijodiy tafakkurini shakllantirish mazmuni haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar. Tafakkur, ijodiy tafakkur, matn, badiiy matn, qiziqish, tasavvur, PIRLS, TIMSS, TALIS, PISA, EGRA, EGMA.

В нынешних условиях глобализации основная задача, требуемая от учащихся, - это правильное понимание и анализ художественного текста. В данной статье рассматривается содержание формирования, повышения творческого мышления на основе художественного текста на уроках родного языка и грамотного чтения в начальном образовании.

Ключевые слова. Мышление, творческое мышление, текст, художественное текст, интерес, воображение, PIRLS, TIMSS, TALIS, PISA, EGRA, EGMA.

In today’s globalized environment, the main task required of students is the literary text and its comprehension. This article discusses the content of creative thinking on the basis of artistic text in mother tongue and reading literacy classes in primary education.

Key words. Thinking, creative thinking, text, artistic text, interest, imagination, PIRLS, TIMSS, TALIS, PISA, EGRA, EGMA.

Mamlakatimizda yosh avlod ta’lim-tarbiyasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘g‘il-qizlarning zamonaviy bilim olishi, yuksak ma’naviyatli bo‘lib ulg‘ayishlari uchun zarur sharoitlar yaratilmoqda.

Ta’limni isloh qilish borasidagi huquqiy-me’yoriy hujjatlarda ta’lim tizimini tubdan isloh qilish asosida intellektual salohiyatli, ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash davlat ahamiyatidagi dolzarb masalaligi ta’kidlangan, o‘zbek xalqining boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar hamda fan va texnologiyalarning yutuqlari asosida yosh kadrlar tayyorlashning zamonaviy tizimini shakllantirish dolzarb masala ekanligi alohida qayd etilgan. Bu esa, kuchli va yuqori darajadagi bilimlarni egallagan malakali pedagogik kadrlar tayyorlash, ularning faoliyatida o‘zaro raqobatga asoslangan muhitni yaratish, o‘quv, ilmiy adabiyotlarining mazmuni, shakli, ko‘rinishini zamonaviy talablarga muvofiq sifatli yaratish va ta’lim-tarbiya jarayonini ilg‘or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish kabi qator vazifalar ijrosini ta’minlash bilan xarakterlanadi. Shuningdek, uzluksiz ta’lim muassasalari, jumladan, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari zimmasidagi mas’uliyatni yanada oshiradi.

Boshlang‘ich ta’lim bosqichi nafaqat o‘qitish, tarbiyalash, balki ta’limni shaxs qobiliyatlarini namoyon bo‘lishiga yo‘naltirish, kishining intellektual va ma’naviy rivojlanish imkoniyatlarini jamiyatning shaxsga qo‘yayotgan, ijtimoiy jihatdan taqazo etilgan talablarga javob berishi, ularning o‘qishga, bilishga bo‘lgan imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish uchun qulay shart-sharoitlar yaratib, har tomonlama rivojlanishiga ko‘maklashadi. Ijodiy tafakkurini shakllantirish jarayonida o‘qituvchi o‘z o‘quvchilariga o‘zbek tilining tuzilishi, tarkibi bilan nutqning uzviyligini tushuntirishi maqsadga muvofiqdir.

Demak, odamlar o‘zining turli-tuman faoliyatlarida – fikr almashish, bir-biriga ta’sir

ko‘rsatishda tafakkur orqali aloqada bo‘ladilar. Bundan tashqari, tafakkur orqali aloqaga kirishish jarayonida har bir kishi o‘z bilimlarining ko‘p qismini boshqa kishilardan til vositasi yordamida oladi. Ta’lim jarayonida to‘plangan tajriba va bilimlar til vositasi asosida amalga oshiriladi. Til va tafakkur yordami bilan fikr almashadilar, odamlar mehnat faoliyatlarini tashkil etadilar. Shuning uchun ham ijodiy tafakkur barkamollik mezoni sifatida o‘quvchilar ongida shakllantirish g‘oyat ahamiyatlidir.

Ma’lum fikr so‘zlar bilan ifoda etilganida tafakkur jarayoni amalga oshiriladi. Fikrni so‘z bilan ifoda etish – ifodalash motivi (nutqiy maqsad), ichki nutq, fikrni tashqi tomondan nutqiy ifodalash kabi bosqichlaridan iborat bo‘lgan murakkab jarayon.

Tafakkur – insonlarning aqliy faoliyatining va ongli xatti-harakatlarining yuksak shakli hisoblanib, ijtimoiy muhitni, mavjud jarayonlarning vujudga kelish sabablarini va voqelikni anglash vositasi, shuningdek, barcha insonlarning ehtiyojlarini qondirish yo‘nalishidagi faoliyatlarini muvofiqlashtiruvchi fikrlar, g‘oyalar va qarashlar natijasida vujudga kelgan xulosa va qabul qilingan qaror.

“Falsafa: qomusiy lug‘at”da “tafakkur” tushunchasiga quyidagicha ta’rif berilgan:

· “Tafakkur (arab. – fikrlash, aqliy bilish) – predmet va hodisalarning umumiy, muhim xususiyatlarini aniqlaydigan, ular o‘rtasida ichki, zaruriy aloqalar, qonuniy bog‘lanishlarni aks etadigan bilishning ratsional bosqichi.

· Tafakkur – bu narsalar mohiyatini ochib beruvchi g‘oyalar harakati. Uning natijasi obraz emas, balki ma’lum bir fikrdir. Tafakkur – bu kiritilgan yo‘nalishli – tadqiqiy, qayta o‘zgarishli va bilish xususiyatiga ega bo‘lgan harakatlar va muolajalar tizimini taxminlovchi alohida turga ega bo‘lgan nazariy va amaliy faoliyat.

· Tafakkur moddiy olam qonuniyatlari, tabiat va ijtimoiy-tarixiy hayotdagi sabab – oqibat aloqalari, insonlar psixikasi qonuniyatlarini tushunish imkonini beradi. Aqliy faoliyat natijalarini qo‘llash sohasi bo‘lgan amaliyot tafakkur faoliyatining manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Psixologlar tomonidan tafakkurning ikkita turi o‘rganilgan – empirik va nazariy. Nazariy tafakkur quyidagilar bilan tavsiflanadi:

– refleksiya, ya’ni bola tomonidan o‘z harakatlari va ularni masala shartlariga mos kelishini anglanishi;

– masala mazmunini umumiy yechimini topish maqsadida tahlil qilinishi, so‘ngra boshqa shunga o‘xshash masalalar sinfiga tadbiq etish uchun o‘tkazilishi;

– ularni rejalashtirish va ongda bajarish uchun ichki harakat rejasini tuzish;

– taqqoslash, umumiy belgilarini aniqlash natijasida amalga oshiriladi.

Tadqiqotlar natijasida aniqlanganki, maktabda ta’lim olish jarayonida bolaning bilim olishi boshqa ko‘rinishdagi tafakkur natijasida amalga oshishi mumkin va u empirika nomini olgan. Empirik tafakkur asosida bilimlarni o‘zlashtirish, atrof-olamdagi predmet va hodisalarning tashqi o‘xshashliklarini

Fikrlash jarayonida inson atrof-olamni o‘ziga xos aqliy operatsiyalar vositasida o‘rganadi. Asosiy fikrlash operatsiyalariga analiz va sintez, taqqoslash, abstraksiya va umumlashtirish, aniqlashtirish, tasniflash va tizimlashtirish kiradi.

Hozirgi kunda fanda tafakkurni rivojlantirish masalasiga alohida e’tibor qaratilgan. Bu esa o‘qituvchidan katta mehnat va mas’uliyat talab etadigan jarayondir. O‘qituvchi o‘quvchining xohish-istagiga, biror narsani o‘z tushunchasi bilan tasvirlashning oldini olmasligi, bolalar ijodiyligiga bo‘lgan munosabat, ya’ni aniq baholash tizimini qo‘llash emas, balki boshqa bolalar bilan taqqoslamasligi, bolaning g‘ayrioddiy tasvirlari, so‘zlari yoki harakatlariga kulmaslik (chunki bu tanqidiy kulgi xafagarchilikni keltirib chiqa-

rishi mumkin), bolaning xayoli mantig‘ini tushunishga va unga qo‘shilishga harakat qilish, bolalarga nisbatan turli xil ijodiy faoliyatga imkon berish (masalan, bir xillikni haddan tashqari oshirib yuborish va ortiqcha ishlashga imkon berish), sinf xonalarida va bolalarning xushchaqchaqligi, xotirjamlik va quvonch, do‘stona his-tuyg‘ularga bo‘lgan ijobiy hissiyotni his qildirish, sinflardagi rang-baranglik, xilma-xillik, bolalarning harakatlari, tovushlar, vizual rasmlar, ta’mlar, xushbo‘y hislar, rivojlanish bo‘yicha mashqlar bilan shug‘ullanish uchun bolalarning keng tarqalgan qobiliyatlarini o‘rganish muhimdir. Bundan tashqari o‘quvchilarni ijodiy faollikka chorlash, bunda o‘qituvchi o‘quvchilarni taqdim qilinayotgan o‘quv materialiga qiziqtirish uyg‘otishi zarur. Buning uchun u asosiy mavzuni bayon etishda o‘quvchilarni qanday yo‘l bilan qiziqtirishi mumkinligini bilishi zarur. Oddiy bo‘lmagan ma’lumotlarni so‘zlab berish, barcha o‘quvchilarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri taalluqli bo‘lganlarni gapirib berish, so‘zlash jarayonida xolisona va aniqlashtirilgan ma’lumotlarni taqdim qilish, obrazli solishtirishlardan unumli foydalanish kerak.

Birinchi sinf o‘quvchilarining tafakkur haqidagi bilimlari, malakalari dastlab darslarda namoyon bo‘ladi. Ular o‘qish, so‘zlab berish natijasida nutq madaniyatining dastlabki ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar. Ularda o‘qishga bo‘lgan qiziqish shakllanib boradi. Xususan, o‘qishga tayyorgarlik jarayonida tafakkur haqidagi bilim, ko‘nikmalar bilan birga boshlang‘ich ta’lim bosqichi davlat ta’lim standartlarida ko‘rsatilgan axloqiy sifatlar ham shakllanadi. Bu sifatlar esa bolaning xatti-harakatida, sinfdoshlariga bo‘lgan munosabatida aks etadi. O‘qish jarayonida nutq haqidagi bilimlar bola ongiga singib boradi.

Kuzatishlarga qaraganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy qobiliyati ularni kelajakda shaxs sifatida rivojlanishining muhim jihatlaridan hisoblanadi.

Ijodiy qobiliyat – bu yangilik yaratish zarurligi va mumkinligini tushunish, muammoni ifodalay olish, g‘oya farazini ilgari surish uchun kerak bo‘ladigan bilimlarni ishga sola bilish qobiliyatlari, farazni nazariy va amaliy tasdiqlash, muammoni hal qilishni izlash hamda topish, natijada yangi original mahsulotlar yaratish (ilmiy kashfiyot, ixtiro, san’at asari, tavsifnoma va h.k.) qobiliyatlaridir.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijodiy tafakkurni shakllanishiga ta’sir etadigan ijtimoiy pedagogik omillarning barchasini sanab chiqish qiyin. Muammoning e’tiborga loyiq tomoni shuki, boshlang‘ich ta’lim bosqichi nafaqat o‘qitish, tarbiyalash, balki ta’limni shaxs qobiliyatlarini namoyon bo‘lishiga yo‘naltirish, kishining intellektual va ma’naviy rivojlanish imkoniyatlarini jamiyatning shaxsga qo‘yayotgan, ijtimoiy jihatdan taqazo etilgan talablarga javob berishi, ularning o‘qishga, bilishga bo‘lgan imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish uchun qulay shart-sharoitlar yaratib, har tomonlama rivojlani–shiga ko‘maklashadi.

Ijodiy tafakkurning namoyon bo‘lish bosqichi quyidagilarni o‘z ichiga oladi: mustaqillik, o‘quvchining qayta shakllangan faoliyati, o‘z oldilarida turgan muammolarning yangicha yechimlarini ta’minlovchi usullarni qo‘llash, o‘z ijodiy layoqatlarini namoyon qilish kabilar.

Ijodiy tafakkur – bu ichki aqliy bir-biriga bog‘liq bo‘lgan omillar asosidagi yangi tafakkurga ega bo‘lishning mantiqiy ketma-ketligi mahsulidir. Ijodiy tafakkur – ma’naviy va intellektual kamolotga erishishda muhim asoslardan biri bo‘lib, uning yordamida shaxs faolligi, aql quvvatini ishga sola bilish, borliqqa o‘zgartirish kirita bilishdek qobiliyatlarni shakllantirish kabi ijodiy jarayonni amalga oshirish mumkin bo‘ladi. Ijodiy tafakkur yangi ijodiy darajaga erishishni, yangi tafakkurga ega bo‘lishni va ijodiy faoliyatning faol, fidoyi ishtirokchisi bo‘lishni ta’minlay oladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari badiiy ijod qilishni juda yaxshi ko‘radilar. Bu bolaga o‘z shaxsiyatini eng to‘liq erkin shaklda ochib berishga imkon beradi. Barcha badiiy faoliyat faol tasavvurga, ijodiy fikrlashga asoslanadi. Ushbu funksiyalar bolaga dunyoning yangi, g‘ayrioddiy ko‘rinishini beradi. Ular tafakkurni, xotirani rivojlantirishga hissa qo‘shadi, uning individual hayotiy tajribasini boyitadi, bu esa tasavvur va ijodiy tafakkurni rivojlantirishga yordam beradi. Badiiy ijod bilishga qaratilgan jarayon. Badiiy ijod dunyoqarash bilan bog‘liq tarzda kichadi.

Boshlang‘ich ta’limning asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarda ijodiy tafakkurni shakllantirishdan iborat. Bu muhim masalalardan biri bo‘lib, o‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berish va ularning aqliy rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi. Ijodiy tafakkur o‘quvchilarning faol tarzda o‘quv-biluv faoliyatini o‘zlashtirishlariga yordam beradi. Bilishga oid qiziqishlar o‘quvchilarda tashabbuskorlikni uyg‘otadi. Bu jarayonda o‘quvchining o‘zi yangi bilimlarni o‘zlashtirish usullarini izlab topadi. Natijada ta’lim-tarbiya rivojlanish samaradorligi oshadi. Faol bo‘lmagan va hech narsaga qiziqmaydigan o‘quvchilarga o‘qituvchilar tomonidan kuchli ta’sir o‘tkazilib, ularning bilishga oid qiziqishlarini muayyan maqsadga yo‘naltirishlari kerak.

Qiziqishlar o‘quvchilarda yorqin his-tuyg‘ularni vujudga keltirish imkoniyatiga ega. O‘quvchilar o‘z qiziqishlarini qondirish uchun obyektiv borliqni chuqurroq o‘rganishlari, uning o‘ziga xos jihatlarini anglab yetishlari talab qilinadi. O‘quvchilarning qiziqishlari qondirilishi natijasida ularda quvonch hissi, ko‘proq bilishga intilish mayllari kuchayadi. Agar o‘quvchilar o‘zlari qiziqqan muayyan narsani o‘rgana olmasalar ularda salbiy his-tuyg‘ular, o‘z kuchlariga ishonmaslik vujudga keladi. Bilishga oid qiziqishlar o‘qishning asosiy motivlaridan biri hisoblanadi. Buni o‘quvchilar boshqalardan ko‘ra ko‘proq xis etadilar. Bu o‘quvchilar o‘zlari uchun nima qiziqarliyu, nima qiziqarli emasligini aniqlab olgan vaqtlaridan boshlanadi. Bunday narsalar sirasiga dars, o‘quv predmeti yoki muayyan kitoblarni kiritish mumkin. Bunga misol qilib hozirgi kunda Milliy dasturga asosan Yangi avlod darsliklari, ya’ni boshlang‘ich sinflar uchun Ona tili va o‘qish savodxonligi darsligini olishimiz mumkin. Bu darslik o‘quvchilar faoliyatining asosiy maqsadini ifodalab, o‘quv jarayonining oson, samarali, yorqin, xis-tuyg‘ularga boy bo‘lishini ta’minlab ularning darslarda toliqmasliklariga asos yaratadi. Yangi avlod darsliklari o‘quv faoliyatining turli mayllari bilan o‘zaro aloqador bo‘lib, o‘quvchi dunyoqarashini har tomonlama boyitishga ko‘maklashadi. O‘quvchilarda ba’zi hodisalarga nisbatan qiziqishning shakllanishi natijasida ularda o‘quv jarayoniga nisbatan ongli munosabat hosil bo‘ladi. Bu esa o‘z navbatida o‘quvchilarning o‘z shaxsiy o‘quv-biluv faoliyatlarini boshqarishlari, qo‘yilgan maqsadga erishish yo‘llari va maqsadlarini aniq anglab olishlariga ko‘maklashadi. Shu bilan bir qatorda o‘zlari qiziqqan sohadagi bilim, ko‘nikma, malakalarining muntazam boyishini ta’minlaydi.

Boshlangich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini PIRLS xalqaro baholash dasturi asosida o‘rganish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biriga aylandi. Xalqaro baholash asosini ijodiy fikrlash tashkil etadi. Ijodiy fikrlash – yangi bilimlar, innovatsion g‘oyalar tug‘ilishining asosidir, kreativ fikrlashga odatlanish ijtimoiy, ma’naviy rivojlanishga hamda ishlab chiqarish rivojiga borgan sari sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Kreativ o‘ylash va fikrlash odati – o‘quvchining shaxs sifatida rivojlanishi uchun eng muhim manbadir. Kreativ fikrlash qobiliyati bilim va tajribaga asoslanadi va aniq bir maqsadga qaratilib, o‘quvchilarning shaxs sifatida shakllanishini ko‘zda tutadi. Kreativ fikrlash bu:

– innovatsion (yangi, novator, original, nostandart, noodatiy va hokazo…) va sa-

marali (amaliy, natijaviy, tejamli, optimal va hokazo) yechimlarni topish;

– yangi bilimlarni egallash;

– tasavvurni ta’sirchan (kuchli taassurot uyg‘otadigan, ilhomlantiradigan, hayratomuz, ajoyib tarzda) ifodalashga qaratilgan g‘oyalarni ishlab chiqish, baholash va takomillashtirish jarayonida samarali ishtirok etish qobiliyatidir.

Shunday qilib, ijodiy fikrlovchi yosh avlodni tarbiyalash murakkab pedagogik muammo bo‘lib, o‘zida ko‘plab omillar va yo‘nalishlarni mujassamlashtiradi. Nutq o‘stirish, lug‘at ustida ishlash orqali o‘quvchida ijodiy tafakkurni shakllantirishda muhim vositadir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijodiy tafakkur ko‘nikmalarini shakllantirish o‘qituvchidan qo‘shimcha o‘quv topshiriqlarini ishlab chiqish va ularni samarali metod va usullarda amalga oshirishni talab etadi. Boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish uchun turli shart-sharoitlarlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun ta’lim talablarini aniqlash va shu talablar asosida uning ustuvor yo‘nalishlarini izlanuvchi ta’lim, muammoli vaziyatlar yaratish va ta’limga texnologik yondashuv asosida tashkil etilishi o‘quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirish–ning samaradorligiga zamin tayyorlaydi. Boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilari bilim olishining poydevori hisoblanar ekan, mazkur sinfdan boshlab, o‘quvchilarda ijodiy faoliyatni rivojlantirishni taqozo etadi. Shunday ekan o‘quvchilarda ijodkorlik, ijodiy faoliyatni rivojlantirish lozimligi kun tartibidagi muammo bo‘lib qoldi. Zero, 1- 4-sinf o‘quvchilarida ijodiy tafakkurni rivojlantirishda o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini e’tiborga olish, ta’limni samarali tashkil etishda darslarni noan’anaviy tarzda o‘tkazish, darslarda innovatsion metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. O‘quvchilarida ijodiy tafakkurni rivojlantirish ularni har tomonlama yetuk bo‘lishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azimova M. Sinfdan tashqari o‘qish. – T.: Avloniy XTXQTMOMI, 2002. – 20 b.

2. Hasanboyeva J. va boshq. Pedagogika fanidan izohli lugat. –T.: Fan va texnologiya, 2009, 151 b.

3. Hasanboyeva J. va boshq. Pedagogika fanidan izohli lugat. –T.: “Fan va texnologiya”, 2009, – 149 b.

4. Hasanboyeva J. va boshq. Pedagogika fanidan izohli lugat. –T.: “Fan va texnologiya”, 2009, – 490 b.

5. Mustaqillik: izohli ilmiy-ommabop lug‘at. Ikkinchi nashr. –T.: Sharq, 2000. – 144 b.

6. Mingbayeva B.U. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitobxonlik vositasida badiiy adabiyot namunalariga qiziqishni shakllantirish: pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy). ...diss. – T., 2022. – 12 b.

7. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari /darslik/. – T.: ‘‘Innovatsiya Ziyo”, 2020, – 43 b.

Shoira BEKCHONOVA,
Yangi asr universiteti, "Umumta'lim fanlar"
kafedrasi mudiri, dotsent

KIBERPEDAGOGIKADA NAZARIYA VA AMALIYOT

Annotatsiya

Ushbu maqolada XXI raqamli asrda kiberpedagogikani o'qishdan maqsad raqamli ta'lim muhitida pedagogika fani sifatida kiberpedagogikaning maqsadi, vazifalari, nazariy-metodik asoslari va dars jarayonlarida mavzuni yoritishda qo'llaniladigan texnologiyalari yoritilingan.

Kalit so'zlar. Kiberpedagogika, ta'limda kiberontologik yondashuv, kibersotsializatsiya, ta'limni raqamlashtirish, pedagogik texnologiyalar.

В данной статье выделены цель изучения киберпедагогики в XXI цифровом веке как педагогической науки в цифровой образовательной среде, цель, задачи, теоретико-методические основы и технологии, используемые для освещения предмета в учебных процессах.

Ключевые слова. Киберпедагогика, киберонтологический подход в образовании, киберсоциализация, цифровизация образования, педагогические технологии.

In this article, the purpose of studying cyber pedagogy in the XXI digital century as a pedagogical science in the digital educational environment, the purpose, tasks, theoretical-methodical foundations and technologies used to illuminate the subject in the course processes are highlighted.

Key words. Cyberpedagogy, cyberontological approach in education, cybersocialization, digitization of education, pedagogical technologies.

Bugun, XXI asr boshida insoniyat Yer yuzida ongli ravishda mavjud bo'lgan davrda, buyuk ta'lim inqilobining birinchi bosqichi – Ma'rifat inqilobi nihoyat g'alaba qozondi.

Odamlar, asosan, savodli va ma'rifatli bo'lib, ya'ni o'qishni, yozishni va hatto hisoblashni o'rgandilar. Buni amalga oshirish uchun insoniyatga deyarli 500 yil kerak bo'ldi (matbaa paydo bo'lganidan to kompyutergacha). Bunga parallel ravishda shaxsni o'qitish va tarbiyalash fani pedagogika ham shakllana boshladi.

Uning markazida har qanday ta'lim shaklida ham o'qituvchi turadi, uning butun diqqat-e'tibori unga qaratilgan, pedagogika fani unga yordam berishga harakat qilmoqda. Agar uzoq vaqt davomida uyushgan ta'lim paydo bo'lishining dastlabki qadamlaridan, bog'cha va maktabdagi birinchi darslardan to zamonaviy universitetdagi so'nggi ma'ruzagacha talaba o'z ta'limida o'zligini shakllantirish va takomillashtirishga erishayotgan bo'lsa, bu raqamli muhitdagi ta'lim tizimi, ya'ni pedagogik tizimda ta'lim samardorligi oshishiga erishilmoqda degani. Biz bunday ta'limga, ya'ni o'qituvchi tomonidan o'z faoliyatini engillashtirish va biroz faollashtirish uchun hozirgi raqamli asrda barcha oliy ta'lim muassasalarining xonalarida mavjud bo'lgan barcha raqamli texnologiyalardan foydalangan xolda boshqarish va erishish mumkin deb hisoblaymiz.

Insonning har qanday samarali mehnati qo'l mehnatidan boshlanadi. O'qitishda shaxs qo'l quroli sifatida aniq va ongli nutqdan foydalanadi. Ushbu bayonotning aha-

miyatsizligiga qaramay, shuni yodda tutish kerakki, insoniyatning buyuk sanoat inqiloblari jarayonida faqat o‘qituvchilik faoliyati na uning jarayonlarini mexanizatsiyalash, na qo‘shimcha ravishda ularni avtomatlashtirishga duchor bo‘lmagan.

Sanoat va energetika inqiloblarining inson hayotining eyforik bo‘ronida pedagogik faoliyatning g’alati ko‘rinadigan eksklyuzivligi va statik tabiati har qanday inqilob muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun tegishli sohani rivojlantirishning obyektiv va inkor etilmaydigan nazariyasiga asoslanishi kerakligi bilan izohlanadi.

Tabiiy fanlar asoslarining ko‘pgina asosiy fanlari, jumladan, fizika va matematika amaliy jihatdan shakllandi va ular asosida inqiloblarning texnik asoslarini qurish uchun zarur bo‘lgan amaliy texnika fanlari yetuklashdi.

Kiber pedagogika – bu pedagogika fanining yangi tarmog‘i bo‘lib, u o‘qituvchi tomonidan ‘‘qo‘lda’’ o‘rganishga intuitiv rahbarlik qilish usulini hisobga olgan holda, asrlar davomida rivojlangan an’anaviy pedagogikadan farqli o‘laroq, kompyuter yordamida o‘rganishni avtomatik dasturiy boshqarish metodologiyasini belgilaydi.

Etakchilik va menejment o‘rtasidagi muhim farq – bu talabaga uning o‘rganishdagi muvaffaqiyati haqida xabar beradigan qayta aloqa signallarining chastotasi. Etakchilik ostida ular kamdan-kam uchraydi va o‘z-o‘zidan paydo bo‘ladi. Boshqarilganda, ular ishlaydi va ma’lum bir dasturga amal qiladi.

Inson va kompyuter, elektron, raqamli texnologiyalarning o‘zaro ta’sirini tahlil qilish asosida ta’limda kiber-ontologik yondashuv quriladi, bunda insonni o‘qitish va tarbiyalash uning mavjudligi, hayoti va o‘zaro ta’siri sharoitlari bilan belgilanadi. Kiberpedagogika kompyuter texnologiyalari bilan, boshqa odamlar va butun dunyo bilan, ikkita makonning integratsiyasiga asoslangan: haqiqiy va virtual.

Bu erda ta’lim samaradorligini oshirishda kibermuloqotining aniqlangan xususiyatlari va tamoyillari Internet-dizayn kontekstida, shuningdek, boshqa faol o‘qitish usullaridan foydalanganda o‘qituvchining talabalar bilan o‘zaro munosabati uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kiberontologik yondashuv zamonaviy axborot-kommunikatsiya, kompyuter, raqamli, elektron va internet texnologiyalarini qo‘llash sohasidagi ilmiy bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirishga mo‘ljallangan psixologik-pedagogik fikrning innovatsion tarmog‘i – kiberpedagogikaning asosi hisoblanadi.

Mualliflar ta’limning raqamli transformatsiyasi, kiberijtimoiylashuv masalalariga bag‘ishlangan, kiberpedagogikaning kelib chiqishi, shakllanishi va rivojlanishi masalalarini ochib beruvchi adabiyotlarning nazariy tahlilini o‘tkazdilar.

Kiberpedagogikaning nazariy va amaliy ahamiyati tadqiqotlar uchun, shuningdek, tegishli ta’lim texnologiyalarini yaratish va ulardan foydalanish uchun pedagogik fan sifatida kiberpedagogikaning muhim pozitsiyalarini shakllantirishdadir.

XX-XXI asrlar oxirida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, texnologik o‘sish va insoniyatning faol kibersotsializatsiyasi ta’limning raqamli transformatsiyasining global tendentsiyasining paydo bo‘lishiga va kiber-ontologik yondashuvning paydo bo‘lishiga asos soldi.

O‘z navbatida, ushbu tendensiya bir qator muammolarni ochib berdi, ularning yechimi an’anaviy pedagogika fanidan tashqariga chiqadi. Shu bilan birga, fan va amaliyotning turli darajalarida ta’limning raqamli transformatsiyasi muammolari paydo bo‘ladi: nazariy va uslubiydan xususiy metodologikgacha.

Ularning barchasi beshta asosiy guruh bilan ifodalanadi:

1. Zamonaviy inson hayotining haqiqiy parallel muhiti sifatida kibermakonning

imkoniyatlari va cheklovlaridan foydalanishni hisobga olgan holda ta’limning nazariy va uslubiy asoslari, paradigmalari, munosabatlari, maqsad va vazifalarini qayta ko‘rib chiqish muammolari.

2. Kiberontologiyaning yangi voqeliklari va ta’limni raqamlashtirish uchun mustahkam huquqiy asos yaratish zarurligini nazarda tutuvchi tartibga solish xarakteridagi muammolar, ta’lim munosabatlarining barcha ishtirokchilarining faoliyatini, huquq va majburiyatlarini tartibga solish.

3. Ilmiy-texnika taraqqiyotining oqibatlari bilan bog‘liq psixologik-pedagogik muammolar.

Bir tomondan, “hayotiy faoliyatni gadjetlashtirish” – ko‘pincha kompyuterlar, smartfonlar, planshetlar va boshqa texnik vositalardan tartibsiz va ongsiz foydalanish – “virtual autizm” klip fikrlash, nutq, e’tibor va xotira buzilishining salbiy oqibatlariga olib keladi. Boshqa tomondan, bu jarayon ijobiy imkoniyatlarni ham beradi (ommaning o‘zini namoyon qilish, o‘quv mustaqilligini oshirish, nisbatan xavfsiz tajriba, operativ vizual modellashtirish, faoliyatga asoslangan dizayn, ishlash natijalarini raqamlashtirish, tarmoqni o‘rganish, yangi sharoitlarga tez va moslashuvchan javob berish va boshqalar).

4. Ta’lim munosabatlaridagi barcha ishtirokchilarning roli va pozitsiyalarini ko‘rib chiqish muammolari. O‘quv faoliyatini individuallashtirishga qaratilgan kurs ommaviy ta’lim uchun yaratilgan amalda o‘zgarmagan sharoitlarda davom etadi va o‘quvchining subyekt sifatidagi faoliyatiga e’tibor beriladi. Shuningdek, o‘qituvchi rollarining ko‘pligi va moslashuvchan o‘zgarishi tendentsiyasi mavjud. U dars jarayonida ham o‘qituvchi, ham ustoz, ham repetitor, ham kurator, ham yordamchi, moderator, koordinator va hakam, kuzatuvchi hamda ma’no yaratuvchisi va boshqalar bo‘lishi kerak.

5. To‘g‘ridan-to‘g‘ri aniq ta’lim faoliyati bilan bog‘liq alohida uslubiy muammolar. Birinchi navbatda, mavjud uslubiy materiallarni elektron raqamli formatga moslashtirish va yangilarini ishlab chiqish muammosi; ta’lim faoliyati va natijalarining yuqori samaradorligini ta’minlaydigan texnologiyalar, usullarni tanlash yoki yaratish muammosi; texnologiyalar uchun texnologiyalarni qo‘llash muammosi, texnik qiyinchiliklar va boshqalar.

Turli universitetlar va ilmiy tashkilotlar aniqlangan asosiy masalalarni va aniqroq masalalarni hal qiluvchi tadqiqotlar sonini ko‘paytirdi, masalan: masofaviy ta’limning mavjudligi va sifati, masofaviy ta’limning stressli tabiati, pedagogik usullar va texnologiyalarning maqsadga muvofiqligi, onlayn shaxsni tasdiqlash imtihonlari.

Bu va boshqa ko‘plab tadqiqotlar u yoki bu tarzda kiberpedagogika sohasiga tegishli. Biroq, muammo bor: kiberpedagogikaning asosiy pozitsiyalari va nazariy-uslubiy asoslari yetarli darajada belgilanmagan, bu esa ushbu ilmiy yo‘nalishning tadqiqot va amaliy missiyasini tushunishda ko‘plik, xilma-xillik va ko‘pincha ikkilanishni keltirib chiqaradi.

Shuning uchun kiberpedagogikaning asoschilaridan bo‘lgan V.P. Bespalko va V.A. Pleshakovlar tomonidan tadqiqotning maqsadi sifatida kiberpedagogikaning e’lon qilingan maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, toifalari, subyektlari, tamoyillari, nazariy va uslubiy asoslari, texnologiyalarini aniqlashtirish va tavsiflash qo‘yilgan. Ilmiy bilimlar tizimi, uni tadqiqot, uslubiy va o‘quv-amaliy faoliyatda qo‘llashning cheklovlari va imkoniyatlarini belgilash kiritilgan. Tadqiqot usuli sifatida adabiyot tahlili tanlangan.

Tadqiqotni tashkil etish va ishning borishi. Bu maqsadni amalga oshirish uchun, birinchi navbatda, psixologik-pedagogik fikrning yangi tarmog‘i bo‘lmish kiberpedagogikaning paydo bo‘lishi, shakllanishi va rivojlanishining shart-sharoitlari tarixiy tahlil

qilindi.

Pedagog va psixologlar ijobiy kiberijtimoiylashuv, ongli shaxsiy rivojlanish va yosh avlodni samarali ijtimoiy tarbiyalash uchun kibermakon imkoniyatlari va resurslaridan foydalanadilar. XXI asrning psixologik va pedagogik muammolariga kiberpedagogika haqiqiy javob deb hisoblaymiz. “Kiberpedagogika XXI asrning birinchi o‘n yilligi o‘rtalarida tasvirlangan asoslar, toifalar, tezaurus va texnologiyalar bilan bir qatorda o‘ziga xos manifestdir.”

An’anaviy pedagogika asosida kadrlar tayyorlash sivilizatsiya tarixidagi hech bir avlodning hayoti va amaliyoti talablarini qondirmagani va qondirmasligi allaqachon aksiomaga aylangan. O‘qituvchilar insonning ishlab chiqarish va ijtimoiy hayotining barcha sohalarida yosh avlodni hayot va amaliyotga tayyorlash sifatini oshirish bo‘yicha doimiy ravishda qoniqarsiz talabga duch kelmoqdalar.

Pedagogik universitetlarda Internet-dizaynning maqsadi zamonaviy raqamli texnologiyalar, shu jumladan, Internetdan foydalangan holda talabalarning umumiy madaniy, umumiy kasbiy va kasbiy kompetensiyalarini, shuningdek, kiber kompetensiyalarini shakllantirishdir. Pedagogik universitetda Internet-dizaynning vazifalari:

– ta’limni samarali axborotlashtirish, bunda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosiy o‘quv qo‘llanmalarini takrorlaydigan tashkiliy-axborot resursigina emas, balki talabalarni kasbiy tayyorlash va rivojlantirish vositasidir;

– kasbiy vazifalarni bajarishda talabalarning subyektiv pozitsiyasini, aks ettirish va o‘z-o‘zini samaradorligini aktuallashtirish;

– ishbilarmonlik aloqasi vositasi va kasbiy o‘zini o‘zi tasdiqlash uchun makon sifatida Internetga munosabatni shakllantirish.

Veb-dizayn nima?

Internet-dizayn – bu “muayyan ijtimoiy yoki kasbiy muammoni hal qilishga qaratilgan tematik Internet-resursni rejalashtirish, bosqichma-bosqich yaratish va sifatli rivojlantirish jarayoni”.

Internet-loyiha – bu “aniq ijtimoiy yoki kasbiy muammolarni hal qilish va sifatli rivojlanish potentsialiga ega bo‘lish maqsadida yaratilgan mavzuli Internet-resurs”.

Internet loyihasi uchun mezonlar to‘plami.

1. Muayyan mavzu bilan chegaralangan.

2. Internet-loyiha, maqsadlar va maqsadli auditoriya markazida ijtimoiy va (yoki) kasbiy muammoning mavjudligi.

3. Tizimli tarkib. Internet loyihasi shunchaki ma’lum bir mavzu bo‘yicha par–cha-parcha ma’lumotlar bilan to‘ldirilgan resurs emas. U mualliflar va maqsadli auditoriya tomonidan foydalanish uchun qulay tuzilishga, shuningdek, materiallarni qo‘shish tizimiga ega bo‘lishi kerak. Internet-loyihaning tuzilishi tematik bo‘limlar to‘plami asosida tuzilishi yoki hashtaglar va boshqalar yordamida tashkil etilishi mumkin. Internet-loyiha tuzilmasining har bir elementi mualliflar tomonidan belgilangan tartibda va hajmdagi ma’lumotlar bilan to‘ldiriladi.

4. Sifatni rivojlantirish salohiyati. Ushbu mezon vaqt o‘tishi bilan va uni ishlab chiqish jarayonida Internet-loyihaning yangi maqsad va funktsiyalarining paydo bo‘lish imkoniyatini tavsiflaydi.

Internet dizayn mavzulari.

1. Ishtirokchilar (internet-loyihalar mualliflari) – Internet loyihalarini yaratish bilan bog’liq fanni o‘rganadigan OTMning bir yoki bir nechta guruhlari talabalari.

Ish Internet-loyihalarni amalga oshirishning butun davri davomida 3-5 kishidan

iborat juftlik yoki mikroguruhlarda amalga oshiriladi. Tashkilotchi(lar) bilan kelishilgan holda yakka tartibda ishlashga ruxsat beriladi.

2. Tashkilotchi(lar) (Internet-dizayn kurator(lar)i) – o‘qituvchi(lar), talabalar birlashmalari rahbar(lar)i.

3. Hamkorlar – internet-loyiha bilan bog‘liq, uni ishlab chiqishdan manfaatdor bo‘lgan va uni ishlab chiqishda ishtirok etuvchi shaxslar (universitet xodimlari, mijozlar va homiylar, maslahatchilar - Internet-loyiha mavzusidagi ekspertlar va boshqalar).

4. Maqsadli auditoriya – internet-loyihasi amalga oshirilayotgan ehtiyojlarini qondirish uchun odamlar.

Internet-loyihalar mualliflarining vakolatlari.

Ishtirokchilar hech qanday maxsus tayyorgarlikka muhtoj emas, ularga faqat foydalanuvchi darajasida AKT bilimi kerak.

Internet-dizayn tashkilotchilarining vakolatlari.

Internet-dizayn tashkilotchisi asosiy kompyuter, internet va media savodxonligiga ega bo‘lishi kerak.

Bundan tashqari, u Internet dizaynida qanday elektron xizmatlar va Internet resurslaridan foydalanish mumkinligini tushunadi deb taxmin qilinadi. Internet-dizayn kuratorning yoshlar jamoasi – internet-loyihalar mualliflari bilan o‘zaro munosabatini ham o‘z ichiga olganligi sababli, u guruhda ishlash, maslahat berish, maslahat berish ko‘nikmalarini ishonchli egallashi, analitik va ijodiy fikrlashga ega bo‘lishi kerak.

Biz kibermakon qonunlarini qabul qilishimiz va pedagogik tamoyillarimizni zamonaviy yondashuvlar va innovatsion amaliyotlar prizmasidan o‘tkazishimiz yoki har qanday avlod uchun ishonchliligi va mustahkamligini isbotlagan konservativ va faqat an’anaviy pedagogik qarashlarning tarafdorlari bo‘lib qolishimiz mumkin. Tanlov har birimizga bog‘liq. Biroq, hech qanday texnologiya o‘qituvchilarning o‘rnini bosa olmaydi, ammo texnologiyani o‘zlashtirgan o‘qituvchilar tez orada texnologiyani o‘zlashtirmagan o‘qituvchilarning o‘rnini egallaydilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Психолого-педагогические проблемы современного социума: коллективная монография/К.А. Абульханова, Я.А. Баскакова, Н.П. Болотова; под ред. Е.А. Левановой, А.В. Мудрика. – М.: МПГУ, 2018. – С. 298.

2. Воинова О.И., Плешаков В. А. Киберонтологический подход в образовании: монография. Норильск: НИИ, 2012. – С. 244.

3. Социокультурные и психолого-педагогические проблемы социализации молодёжи: монография/С.Б. Серякова, Л.В. Тарабакина, С.И. Ушаков; под ред. Е.А. Левановой, А.В. Мудрика. – М.: МПГУ, 2019. – С. 298.

4. Петракова А.В., Канонир Т.Н., Куликова А.А. Особенности психологического стресса у учителей в условиях дистанционного преподавания во время пандемии COVID-19 // Вопросы образования. 2021. № 1. – С. 93-114.

5. Вербицкий А.А. Цифровое обучение: проблемы, риски и перспективы// Электронный научно-публицистический журнал «Homo Cyberus». 2019. № 1 (6).

6. Плешаков В.А. Об условиях обеспечения реализации и интеграции деятельностного, компетентностного и киберонтологического подходов в киберпедагогике // Электронный научнопублицистический журнал «Homo Cyberus». 2019. № 2 (7).

Zulayxo ISMATOVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat
pedagogika universiteti dotsenti, PhD
Mehriniso ASLONOVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat
pedagogika universiteti magistranti

BOSHLANG‘ICH SINF TABIIY FANLAR DARSLARINI O‘QITISHDA VIZUAL TA’LIM USULLARIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Maqolada o‘qitishning vizual metodlari o‘quvchilarni dunyoni, dunyodagi hodisalarni vizual darajada tanishiga qaratilgan. Vizual ta’lim metodlari asosida darslarni tashkil etish darsni jonlantiradi, unga jonli tafakkur kiritadi va o‘quvchilarda tasavvur va tushunchalarning oshishiga olib kelishi aytib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. Vizual ta’lim, vizual metodlar, tasvirlash usuli, ko‘rsatish usuli, video usuli, laboratoriya ishlari, amaliy ishlar, didaktik o‘yinlar, ekranli texnik vositalar.

Визуальные методы обучения направлены на то, чтобы учащиеся познавали мир и события в мире на наглядном уровне. Организация занятий на основе визуальных методов обучения оживляет урок, вносит в него живое мышление, ведет к увеличению воображения и понимания учащихся.

Ключевые слова. Визуальное обучение, визуальные методы, метод изображения, метод отображения, видео метод, лабораторные работы, практические работы, дидактические игры, экранная техника.

Visual teaching methods are aimed at ensuring that students learn about the world and events in the world at a visual level. The organization of classes based on visual teaching methods enlivens the lesson, introduces lively thinking into it, leads to an increase in the imagination and understanding of students.

Key words. Visual learning, visual methods, image method, display method, video method, laboratory work, practical work, didactic games, screen technique.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qitishning vizual metodlari asosida o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha o‘quvchilarni qiziqtirishning eng yaxshi usuli hisoblanadi. Ularni qo‘llash orqali o‘qituvchi ba’zi hodisalar haqida gaplashibgina qolmay, uning imidjini ham namoyish etadi.

Hozirgi kunga kelib maktablarimizda texnik jihozlari ko‘payganligi sababli, darslardagi proektorlar, videofilmlar, televizorlar, kompyuterlar va boshqa video jihozlardan foydalanish imkoniyati paydo bo‘ldi, natijada video metodikasi “vizual ta’lim usullari” ning katta guruhidan mustaqil usul bilan ajralib chiqdi. Bu kitoblar va boshqa bosma manbalar bilan ishlashga ham tegishli. Uslubga quyidagilarni kiritish mumkin: matnni chizish, yozish, tasdiqlash, rejani tuzish, izoh berish, ko‘rib chiqish, sertifikat tuzish kabilar.

Bu ta’lim jarayonida ko‘rinish darsni jonlantiradi, unga jonli tafakkur kiritadi va o‘quvchilarda tasavvur va tushunchalarning oshishiga olib keladi. O‘qitishning vizual usullari juda samarali bo‘lib, bunda ta’lim mavhum rasmlarga emas, balki aniq va tu–shunarli ko‘rinishlarga asoslangan. Bunday usullar yordamida o‘quvchilarda muayyan

mavzudagi aniq bir g‘oya yaratish mumkin.

O‘qitishning vizual metodlari o‘quvchilarni dunyoni, dunyodagi hodisalarni va hokazolarni vizual darajada tanishiga qaratilgan. Ushbu usulda ikkita asosiy kichik tip farqlanadi:

– tasvirlash usuli (pedagogik natijalarga erishish uchun jadvallar, diagrammalar, rasmlar, xaritalar qo‘llaniladi);

– namoyish uslubi (o‘quv jarayonida o‘quvchilarga turli tajribalar, qurilmalar, ilmiy va ta’limiy filmlar bilan taqdim etilganda).

Bilamizki o‘qitishning amaliy uslublari turli vazifalar (laboratoriya ishi, amaliy mashg‘ulotlar, didaktik o‘yinlarda ishtirok etish) davomida o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan.

Yangi bilimlarni taqdim etish, xususan, bevosita kuzatish mumkin bo‘lmagan juda sekin jarayonlar (o‘simliklarning o‘sishi, suyuqlikning tarqalishi fenomeni, tog‘ jinslarining nurashi va boshqalar), shuningdek bevosita kuzatish hodisaning mohiyatini ochib bera olmaydigan tez jarayonlar (elastik jismlarning ta’siri, moddalarning kristallanishi va boshqalar) vizual metodlar orqali tushuntirilishi o‘quvchilarda aniq tasavvur va tushunchalarni hosil bo‘lishida yaxshi samara beradi.

Vizual usullar pedagogik jarayonning barcha bosqichlarida qo‘llaniladi. Ularning vazifasi o‘quvchilarni har tomonlama, xayoliy idrok etishni ta’minlash, fikrlash uchun tayanch bo‘lib xizmat qilishdir.

Vizual o‘qitish usullari deganda, o‘quv materialini o‘zlashtirish o‘quv jarayonida qo‘llaniladigan ko‘rgazmali qurollar va texnik vositalarga sezilarli darajada bog‘liq bo‘lgan usullar tushuniladi. Vizual usullar og‘zaki va amaliy o‘qitish usullari bilan birgalikda qo‘llaniladi va o‘quvchilarni hodisalar, jarayonlar, ob’ektni tabiiy ko‘rinishdagi yoki ramziy tasvirdagi barcha turdagi chizmalar, reproduksiyalar, diagrammalar va boshqalar yordamida vizual va hissiy jihatdan tanishtirish uchun mo‘ljallan bo‘ladi. Maktablarda bu maqsadda ekranli texnik vositalar keng qo‘llaniladi.

Vizual o‘qitish usullarini shartli ravishda uch guruhga bo‘lish mumkin:

1. Tasvirlash usuli.
2. Ko‘rsatish usuli.
3. Video usuli.

Tasvirlash usuli o‘quvchilarga illyustrativ qo‘llanmalar, plakatlar, jadvallar, rasmlar, xaritalar, doskadagi eskizlar, yassi maketlar va boshqalarni ko‘rsatishni nazarda tutadi.

Namoyish usuli odatda qurilmalar, eksperimentlar, texnik qurilmalar, plyonkalar, filmlar va boshqalarni namoyish qilish bilan bog‘liq.

Boshlang‘ich maktabda vizualizatsiya usulining vazifalari quyidagilar: bolalarning bevosita hissiy tajribasini boyitish va kengaytirish; kuzatuvni rivojlantirish; obyektlarning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish; abstrakt fikrlashga o‘tish uchun sharoit yaratish; mustaqil o‘rganishni qo‘llab-quvvatlash va o‘rganilayotgan narsalarni tizimlashtirish.

Ko‘rgazmalilik asosan o‘rganilayotgan hodisalarning dinamikasini ochishga xizmat qiladi, lekin u obyektning tashqi ko‘rinishi, uning ichki tuzilishi yoki o‘xshash obyektlar qatoridagi joylashuvi bilan tanishish uchun ham keng qo‘llaniladi. Tabiiy obyektlarni namoyish qilishda ular odatda tashqi ko‘rinishdan (hajmi, shakli, rangi, qismlari va ularning munosabatlari) boshlanadi, so‘ngra ichki tuzilishga yoki alohida ta’kidlangan individual xususiyatlarga o‘tadi.

Namoyish yaxlit tajriba bilan boshlanadi. Bu usul faqat faol kognitiv jarayon amal-

ga oshirilgandagina samarali bo‘ladi, ya’ni bolalarning o‘zlari obyektlar, jarayonlar va hodisalarni o‘rganadilar, zarur harakatlarni bajaradilar va bog‘liqliklarni o‘rnatadilar.

Namoyish jarayoni quyidagicha tuzilishi kerak: barcha o‘quvchilar ko‘rsatilgan obyektni yaxshi ko‘rishlari; ular buni faqat ko‘zlar bilan emas, balki barcha hislar bilan imkon qadar ko‘proq idrok etishlari; obyektning to‘g‘ri tomonlari o‘quvchilarda eng katta taassurot qoldirishi va maksimal darajada e’tiborni tortishi.

Illyustratsiya obyektlar, jarayonlar va hodisalarni ularning ramziy tasvirida plakatlar, xaritalar, portretlar, fotosuratlar, chizmalar, diagrammalar, tekis modellar va bosh–qalar yordamida ko‘rsatish va idrok etishni o‘z ichiga oladi.

Zamonaviy boshlang‘ich maktabda yuqori sifatli tasvirni taqdim etish uchun ekran texnologiyasidan keng foydalaniladi.

O‘qitishning amaliy usullari o‘quvchilarning amaliy faoliyatiga asoslanadi. Amaliy ko‘nikma va malakalar ana shu usullar yordamida shakllanadi. Amaliy usullarga quyidagilar kiradi: mashqlar, laboratoriya va amaliy ishlar, didaktik o‘yinlar.

Amaliy ishlarni bajarishda o‘qituvchi rahbarligida ishlar olib boriladi. Bajarilishi oson bo‘lganlari o‘quvchilar o‘zlari bilan olib boriladi. Masalan, 1-sinfda berilgan gul ekish amaliy ishini bajarish orqali o‘quvchilar o‘zlari ketma-ketlik jarayonlarini o‘rganadi, xulosalar qilishadi.

O‘quv-tajriba maydonchalarida olib boriladigan amaliy ishlarda ham o‘quvchilar o‘zlari faol ishtirok ettishlari, amaliy bajarib ko‘rib tegishli xulosalarga kelishlari mumkin.

Laboratoriya ishlari-o‘qitishning amaliy usullaridan biri bo‘lib, u o‘qituvchining ko‘rsatmasi bo‘yicha o‘quvchilar tomonidan asboblar, asbob-uskunalar va boshqa texnik vositalardan foydalangan holda tajribalar o‘tkazishdan iborat. Laboratoriya ishi jarayonida kuzatishlar, kuzatish ma’lumotlarini tahlil qilish va taqqoslash, xulosalarni shakllantirish amalga oshiriladi. Bu yerda aqliy operatsiyalar, jismoniy harakatlar bilan birlashtiriladi, chunki o‘quvchilar texnik vositalar yordamida o‘rganilayotgan moddalar va materiallarga ta’sir qiladi, ular uchun qiziqarli hodisalar va jarayonlarni o‘rganadi, bu esa kognitiv jarayonning mahsuldorligini sezilarli darajada oshiradi.

Laboratoriya ishlarini bajarish orqali o‘quvchilar tasviriy ravishda o‘z tajribalarida o‘qituvchi tomonidan ilgari ko‘rsatilgan narsalarni takrorlashadi, tadqiqot rejasida, o‘quvchilarning birinchi marta o‘zlariga qo‘yilgan kognitiv vazifani yechishadi va tajribalar asosida ular uchun mustaqil ravishda yangi xulosalarga kelishadi.

Laboratoriya ishini bajarish olingan ma’lumotlarni qayd etish va o‘rganilayotgan hodisa va jarayonlarni eksperiment bo‘yicha hisobot shaklida grafik tasvirlash bilan birga keladi.

Masalan, tuproq mavzusida berilgan laboratoriya ishlarida berilgan nazariy ma’lumotlarni amalda o‘quvchilar bilan tuproqning tarkibini laboratoriya ishlarini bajarish orqali o‘rganadilar, tahlil qilib hulosaga keladilar.

Suvning tabiatda aylanishi mavzusida ham labaratoriya ishi bajarish orqali ko‘rsatib tushintirib berish mumkin.

Kognitiv (didaktik) o‘yinlar – bu voqelikni taqlid qiluvchi maxsus yaratilgan vaziyatlar bo‘lib, talabalar undan chiqish yo‘lini topishga taklif qilinadi.

Boshlang‘ich maktabda zamonaviy didaktik o‘yinlar asosan qoidalar bo‘yicha o‘yinlardir. O‘yinlar juda ko‘p xususiyatlarga ega:

– kognitiv jarayonlarni faollashtirish;

– bolalarning qiziqishi va e’tiborini oshirish;

– qobiliyatlarni rivojlantirish;

– bolalarni hayotiy vaziyatlar bilan tanishtirish;
– ularni qoidalarga muvofiq harakat qilishga o‘rgating;
– qiziqish, e’tiborni rivojlantirish;
– bilim va ko‘nikmalarni birlashtirish.

To‘g‘ri tuzilgan o‘yin fikrlash jarayonini individual his-tuyg‘ular bilan boyitadi, o‘zini o‘zi boshqarishni rivojlantiradi va bolaning irodasini mustahkamlaydi. O‘yin uni mustaqil kashfiyotlarga, muammolarni hal qilishga olib boradi.

O‘quv jarayonida faqat didaktik o‘yin elementlari – o‘yin vaziyati, texnika, mashqdan foydalanish mumkin. Didaktik o‘yinning umumiy tuzilishi quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi:

1. Motivatsion – bolalarning o‘yinda ishtirok etish istagini belgilaydigan ehtiyojlar, motivlar, qiziqishlar.

2. Taxminan – o‘yin faoliyati vositalarini tanlash.

3. Ijro etuvchi – belgilangan o‘yin maqsadini amalga oshirishga imkon beradigan harakatlar, operatsiyalar.

4. Nazorat va baholash – o‘yin faoliyati faoliyatini tuzatish va rag‘batlantirish.

4-sinf Tabiatshunoslik darsligida “Vatanimiz bo‘ylab sayohat bobida” respublikamiz viloyatlari haqida ma’lumotlarni berishda har bir hududda uchraydigan foydalai qazilmalarimiz haqida ham aytib o‘tiladi. Xaritalar bilan ishlashadi. Foydali qazilmalarni tushuntirishda ularning berilgan shartli belgilarini o‘quvchilarning o‘zlari bilan kartonga chizib, kesib olinib, xaritalarda joylashgan o‘rniga qo‘yish orqali didaktik o‘yinlar tashkil etish mumkin.

Bundan tashqari yozuvsiz xaritalar bilan ishlashda yerning rel’ef shakllarini ranglarda farqlarini topish va tahlili berilishi mumkin. Masalan, sinf ikki yoki uch guruhga bo‘linadi va ularga yozuvsiz xarita beriladi. Viloyatlar haqida ma’lumotlar berishda tabiiy xaritada berilgan bir rangning o‘z ifodasi borligini bilishlari va topishlari kerak bo‘ladi. Demak, o‘qitishning vizual metodlari o‘quvchilarni dunyoni, dunyodagi hodisalarni va hokazolarni vizual darajada tanishiga qaratilgan. Vizual ta’lim metodlari asosida darslarni tashkil etish darsni jonlantiradi, unga jonli tafakkur kiritadi va o‘quvchilarda tasavvur va tushunchalarning oshishiga olib keladi. O‘qitishning vizual usullari juda samarali bo‘lib, bunda ta’lim mavhum rasmlarga emas, balki aniq va tushunarli ko‘rinishlarga asoslangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Исматова З.А. Влияние экологических факторов на распространение и развитие водорослей р.Сангзар // ‘‘Исследование различных направлений современной науки’’ сборник материалов XXXVI международной научно-практической конференции. – М., 2018. – С. 25-29.

2. Ismatova Z.A. Development of the Algae Flora of the Middle Sangzor River under the Influence of Environmental Factors // Journal of Geography and natural Resources. 1 (01), 11-15. DOI: https://doi.org/10.37547/jgnr-01-03

3. Ismatova Z.A. Training and experimental site and organization of training based on an integrative approach. Евразийский журнал академических исследований 3 (1 Part 5), – С. 73-79.

4. Пакулова В.М., Кузнецова В.И. Методика преподавания природоведения. − М.: Просвещение, 1990. − С. 192.

Dilafro‘z FARSAXONOVA,
A. Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti, PhD
Mahbuba DANAYEVA,
A. Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti magistranti

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH MASALASI

Annotatsiya

Mazkur maqolada boshlang‘ich sinflarda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish to‘g‘risida fikr yuritiladi, boshlang‘ich ta’limda qo‘llaniladigan interfaol metodlardan namunalar keltiriladi.

Kalit so‘zlar. Boshlang‘ich ta’lim, dars, ta’lim, tarbiya, metod, interfaol metod, ta’lim texnologiyasi, ta’lim metodlari, ta’lim vositalari.

В данной статье рассматривается использование современных педагогических технологий в начальных классах, приводятся примеры интерактивных методов, применяемых в начальном образовании.

Ключевые слова. Начальное образование, урок, обучение, обучение, метод, интерактивный метод, образовательная технология, образовательные методы, средства обучения.

This article discusses the use of modern pedagogical technologies in primary classes, gives examples of interactive methods used in primary education.

Key words. Primary education, lesson, education, training, method, interactive method, educational technology, educational methods, educational tools.

Mamalakatimiz ta’lim tizimida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish va uning vositasida sifatli ta’limga erishish amalga oshirilmoqda. Bunda “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da qo‘yilgan sifatli ta’limga erishish vazifalari asos bo‘lmoqda[1]. Shu jihatdan boshlang‘ich sinflarda ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish masalasini o‘rganish dolzarb bo‘lib turibdi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar – bu eng so‘nggi yutuqlarga asoslangan ta’lim berish vositalari, uslublari va imkoniyatlari majmuidir[2]. Shu sababli pedagog olimlar zamonaviy pedagogik texnologiyalarning quyidagi jihatlariga e’tibor berishadi:

1) texnologiyalarning yangi asoslarga egaligi;

2) texnologiyalarning qulayligi va maqbulligi;

3) texnologiyalarning murakkab xususiyatga ega bo‘lmasligi.[3]

Shu sababli zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda boshlang‘ich ta’limni amalga oshirish zaruriyat hisoblanadi. Mazkur zaruriyatning asosiylari quyidagilardan iborat:

1. Pedagogik ehtiyoj. Bugungi kunda boshlang‘ich sinflarda eng so‘nggi ma’lumotlarga asoslangan bilim berish, o‘quvchilarni hozirgi zamon talablari asosida tarbiyalash

[1] Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. // www.ziyonet.uz.

[2] Hasanboyev J. va boshq. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. – T., 2009.

[3] Бордовская Н., Реан А. Педагогика. – Санкт-Петербург, 2001.

va ularni amaliy faoliyatga yo‘naltirish muhim pedagogik ehtiyoj hisoblanadi. Chunki boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan o‘qitish jarayoni quyidagi talablarga javob berishi kerak:

– taqdim etilayotgan bilimlarning nazariy asoslarga egaligi;

– o‘qitilayotgan bilimlarning metodologik asoslarga egaligi;

– bilimlar vositasida o‘quvchilarni faoliyatga tayyorlash omillariga egaligi.

Shu sababli mazkur masalalar boshlang‘ich ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish zaruriyatini belgilaydi.

2. Ta’limiy ehtiyoj. Boshlang‘ich sinflarda amalga oshirilayotgan o‘qitish jarayonini kuchaytirish va unda maqbul zamonaviy pedagogik texnologiyalarga tayanish ta’limiy ehtiyoj hisoblanadi. Shu jihatdan, ta’limiy ehtiyojning asosiylarini quyidagilar tashkil etadi:

– ta’lim vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijtimoiy ongi, dunyoqarashi va tafakkurini shakllantirish;

– ta’lim vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodkorlik, mustaqil fikrlik va ko‘nikmalik malakalarini tarkib toptirish;

–ta’lim vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini faoliyatga nazariy jihatdan tayyorlash.

Bunday yondashuv ta’limiy ehtiyojlarning asosini tashkil etadi. Shu sababli boshlang‘ich ta’lim jarayonida eng so‘nggi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish zaruriyat hisoblanadi.

3. Tarbiyaviy ehtiyoj. Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning tarbiyaviy jarayoni eng so‘nggi yutuqlar asosida amalga oshirilishi va unda eng muhim pedagogik qonuniyatlarga asoslanilishi tarbiyaviy ehtiyoj hisoblanadi. Shu sababli mazkur tarbiyaviy ehtiyojlarning asosiylarini quyidagilar tashkil etishini ta’kidlab o‘tish joiz:

– o‘quvchilarni g‘oyaviy shakllantirish va tarbiyalash;

– o‘quvchilarda insoniy fazilatlarni tarkib toptirish;

– o‘quvchilarni ahloqiy jihatdan faoliyatga tayyorlash.

Bularning barchasi boshlang‘ich ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish zaruriyatini belgilaydi. Shu sababli bu o‘rinda tarbiyaviy jarayonning texnologik asoslaridan xabardor bo‘lish taqozo etiladi.

Boshlang‘ich ta’lim jarayonida foydalaniladigan va keng tarqalgan pedagogik texnologiyalar quyidagilar:

· o‘yinli texnologiyalar;

· tanqidiy fikrlashni o‘stirishga xizmat qiladigan texnologiyalar;

· hamkorlikda o‘qitish texnologiyalari;

· o‘qitishning tabaqalashtirilgan va induvidual texnologiyasi;

· o‘qitishning jadallashtirish texnologiyasi;

· programmalashtirilgan o‘qitish texnologiyasi va bir qancha texnologiyalardir.

Boshlang‘ich ta’limda foydalanish mumkin bo‘lgan texnologiyalarni alohida ko‘rib chiqamiz:

O‘yinli texnologiyalar. O‘yinli texnologiyalardan foydalanishning asosini o‘quvchilarning faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyati tashkil etadi. O‘yin olimlar tadqiqotlariga ko‘ra mehnat va o‘qish bilan birgalikdagi faoliyatining asosiy turlaridan biri hisoblanadi. O‘yinli faoliyat muayyan quyidagi vazifalarini bajarishiga bag‘ishlangan bo‘ladi:

– maftunkorlik;

– o‘z imkoniyatlarini amalga oshirish;

– davolovchilik;
– kommunikativlik;
– tashxis;
– millatlararo muloqot;
– ijtimoiylashuv.

O‘yin ijodiyligi bilan ajralib turadi. U mumkin qadar boy, faol xarakter ‘‘ijod maydoni’’ga ega bo‘ladi. Tatqiqotchilar o‘yinga faoliyat, jarayon va o‘qitish metodi sifatida qaraydilar. O‘yinlar turli maqsadlarga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Ular didaktik, tarbiyaviy, ta’lim faoliyatini rivojlantiruvchi va ijtimoiylashuv maqsadlarida qo‘llaniladi.

O‘yinning didaktik maqsadi – bilimlar doirasi, bilish faoliyati, amaliy faoliyatda bilim, malaka, ko‘nikmalarni qo‘llash, mehnat ko‘nikmalarini rivojlantirishni kengayti–rishga qaratilgan bo‘ladi.

O‘yinning tarbiyaviy maqsadi – mustaqillik, irodani tarbiyalash, ma’naviy estetik va dunyoqarashini shakllantirishda hamkorlikni, jamoaga kirib keta olishni, birdamlikni tarbiyalashga qaratilgan bo‘ladi.

Faoliyatni rivojlantiruvchi maqsadi – diqqat, xotira, nutq, tafakkur, qiyoslash malakasi, solishtirish, o‘xshashni topish, xayol, ijodiy qobiliyat, o‘quv faoliyatini motivatsiyalashni rivojlantirishga qaratilgan.

Ijtimoiylashuv maqsadi – jamiyatning me’yorlari va qadriyatlariga jalb qilinishi, ehtiroslarni nazorat qilish, o‘z-o‘zini boshqarish va muloqotga o‘rgatishni nazarda tutadi.

Pedagogik o‘yinlar asosida o‘quvchilarni o‘quv faoliyatiga yo‘llovchi o‘yinlli usullarni vujudga keltirish yotadi.

Biz quyida ana shunday interfaol usullarini o‘zida mujassamlashtirilgan o‘yinlarni qanday qilib rejalashtirish mumkinligi haqida tavsiyalar berib o‘tamiz:

“Maqollarda antonimlar”

Ma’lumki, o‘zbek xalq maqollarida antonimlar ko‘proq uchraydi. Shu bois, bu shartda o‘quvchilar navbatma-navbat antonimlar ishtirok etgan maqollaridan aytadilar. Masalan, ‘‘yaxshiga yondash, yomondan qoch’’, ‘‘do‘st achitib gapirar, dushman kuldirib gapirar’’, ‘‘kattaga hurmatda bo‘l, kichikka izzatda’’ va x.k.

“Zinapoya” usuli”

O‘quvchilar ikki guruhga bo‘linadi. So‘ng xattaxtaga ushbu shaklda ‘‘zinapoya’’ chiziladi.

Ma’lumki, antonimlar o‘z juftliklariga ega. Shundan kelib chiqib, ushbu juftlikning bittasi ‘‘zinapoya’’ ga yozib qo‘yiladi, ikkinchisini esa guruhlardagi o‘quvchilarning o‘zlari topadi, ular zinalardan bosh zinaga chiqib borishadi. Bunda o‘quvchilarda tezkorlik talab etiladi. Chunki qaysi guruh o‘quvchilari birinchi bo‘lib bosh zinaga chiqsa, ular g‘olib bo‘ladi. Sinfda nechta o‘quvchi bo‘lsa, zinalar soni shuncha bo‘ladi.

“Izohli lug‘at”

Buning uchun o‘quvchilar ikki guruhga bo‘linadilar. 1-guruh ishtirokchilari so‘z birikmasi, frazeologik birikma yoki tasviriy ifodalarni aytadilar. 2-guruhdagi o‘quvchilar esa 1-guruhdagilar aytgan so‘z va birikmalar ma’nosini tezkorlik bilan izohlab beradilar. Shartni bajara olmagan guruh mag‘lub hisoblanadi. Bu o‘yin quyidagicha amalga oshiriladi:

O‘zbekning shoh taomi: palov
Ertalabki ovqatlanish: nonushta
Ilonning yog‘ini yalagan: ayyor

Dala malikasi: makkajo‘xori

Aql gimnastikasi: shaxmat

Tog‘ malikasi: archa va x.k.

Bu o‘yinlarni ona tili darslarida 4-sinflarda o‘tkazish maqsadga muvofiq. Bunday o‘yinlar faqat bir mavzu doirasida cheklanib qolmay bir qancha mavzularda, ko‘proq takrorlash darslarida o‘tkazilishi mumkin.

O‘qish darslarida ‘‘Rolli o‘yinlar’’ usulini qo‘llash mumkin.

‘‘***Rolli o‘yinlar’’*** – har bir ishtirokchi o‘quvchi biror asardagi qahramon rolini o‘ynar ekan, shu persanajni fikrlarini aniq anglashi va o‘sha qahramon o‘rnida so‘zlashi shart. Shu o‘yin orqali o‘quvchi ma’lum ibrat va xulosalar chiqarishi mumkin.

Demak, interfaol usullarni ona tili va o‘qish darslarida qo‘llash natijasida o‘quvchilar hozirjavoblikka o‘rganadi, ularning lug‘at oyligi oshadi, ilmiy-nazariy bilimi yanada mustahkamlanadi. O‘yin asosida tashkil qilingan dars albatta, o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishlarini orttiradi, qiziqish esa intilishga, bilimlarni puxta o‘rganishga olib keladi.

O‘yinli texnologiyalarni amalga oshirish o‘qituvchining ijodiy faoliyatini rivojlantirish metodlaridan foydalanishni taqozo qiladi. Ijodiy faoliyatning rivojlantirish metodlari G.S. Alttshuller, O.G. Bagdanova, A.V. Brushlinskiy, G. Melxorn, B. Mironov, P. Yakobson va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan. Bu metodlarni ko‘rib chiqamiz:

‘‘***Kubik’’ usuli***

‘‘Kubik’’lar – bu dars o‘qitish usuli bo‘lib, mavzuni o‘rganishni osonlashtiradi. Har tomonlama 4 talablar berilgan kubiklardan foydalaniladi, kubikni biror bir qutichaga olib yoniga qog‘ozlar yopishtirish bilan yasash mumkin, tomonlari 15-20 sm bo‘lgani yaxshi. Kubikning 6 ta tomoniga quyidagi ko‘rsatmalar yoziladi:

1 - nomi

2 - tuzilishi

3 - taqqoslang

4 - o‘xshating

5 - vazifasi

6 - yaxshi, yomon tomonlarini yoriting

7 - aytingchi, siz u bilan nima qila olasiz?. Undan qanday foydalanish mumkin?. Buning uchun sabablarni asoslab bering.

O‘quvchilar o‘z fikrlarini aytadi va sherigiga nima yozganini o‘qib beradi.

‘‘***Sinkveyn’’ usuli***

Axborotlarni qisqacha bayon qilish, murakkab fikrlarni, sezgilarni, tasavvurlarni bir necha so‘zlar vositasida bayon qilish imkoniyati muhim malakadir. Bu boy tushunchalar zahirasi asosidagi o‘ylangan tahlilni talab qiladi. Sinkveyn – bu she’r bo‘lib, u biror voqyea munosabati bilan yoziladigan qisqa ifodalarda axborot va materiallarning sintezlanishni talab qiladi. Senkveyn so‘zi fransuzcha so‘z bo‘lib, ‘‘besh’’ degan ma’noni beradi. Demak, sinkveyn 5 qatordan iborat she’rdir.

Sinkveyn yozib chiqish qoidasi quyidagicha:

a) birinchi qatorda bir so‘z bilan mavzu yoziladi (odatda ot turkimidagi oid so‘z bilan);

b) ikkinchi qatorda mavzu ikki so‘z bilan izohlanadi (sifat so‘z turkimiga oid ikki so‘z bilan);

v) uchinchi qatorda ushbu mavzu bo‘yicha xatti-harakatlar 3 so‘z bilan tasnif etiladi (fe’l so‘z turkimiga oid uch so‘z bilan);

g) to‘rtinchi qatorda temaga aloqadorlikni ko‘rsatuvchi 4 so‘zdan iborat gap yoziladi (yoki ibora);

d) beshinchi qator mavzu mohiyatini takrorlavchi bir so‘zdan iborat mavzu mohiyatiga yaqin so‘z (sinonim).

‘‘***Guruhlar bilan ishlash***’’ usuli

Sinfdagi o‘quvchilar guruhlarga bo‘linadi. Har bir guruhga muayyan nom beriladi. Mavzu e’lon qilinib, vaqt belgilanadi. O‘quvchilar mavzu yuzasidan bahslashadilar, o‘z fikrlarini bildiradilar. Mavzu bo‘yicha belgilangan vaqt yakunlangach, o‘qituvchi guruh a’zolarini almashtiradi. Yangi guruhda avvalgi guruhdan 1 ta vakil qoladi va u mavzu yuzasidan o‘z guruhining chiqargan xulosalarini guruhning yangi a’zolariga tushuntiradi. Yangi guruh a’zolari avvalgi guruhning fikr va xulosalarini o‘rganadi, unga o‘z munosabatini bildiradi. Shu tariqa qisqa vaqt ichida o‘quvchilar tomonidan mavzu yuzasidan fikrlar ularning o‘zlari tomonidan tahlil qilinadi va baholanadi.

Sinfdagi o‘quvchilarni kichik guruhlarga bo‘lib ishlash uchun quyidagi shartlarga amal qilish kerak:

· guruhlar o‘qituvchi tomonidan belgilanadi;

· guruhda rahbarlik qila oladigan o‘quvchi sardor etib tayinlanadi;

· har bir guruhda zehnli va qobiliyatli bolalar bo‘lishga, bo‘shroq o‘zlashtiradigan o‘quvchilarni ham imkon qadar teng taqsimlashga harakat qilinadi. Guruhlar bir-biriga munosib a’zolar bilan to‘ldiriladi va vazifalar belgilanadi;

· guruh sardori va a’zolarining vazifalari tushuntiriladi;

· har bir guruh doira shaklida o‘tirishi, uning har bir a’zosi bir-birini ko‘rib turishi shart;

· ish jarayonida har bir guruhning faoliyatiga, g‘oyalariga e’tibor berib boriladi va yaxshi g‘oya egalari rag‘batlantiriladi.

Ushbu usulning samarasi shundaki, mashg‘ulotlarda barcha o‘quvchilar qatnashadi, erkin bahs muhiti vujudga keladi. O‘quvchilar o‘z fikrlarini mustaqil bayon qilishadi, munozara madaniyatiga o‘rganishadi.

Xulosa shuki, hamkorlikda o‘qitish negizida musobaqa emas, balki o‘quvchilarning hamkorlikda aqliy mehnat qilib, mustaqil va ijodiy ishlab tahsil olish jarayoni yotadi. Bunday usullardan foydanib, dars o‘tish o‘quvchilarning nutq boyligini oshiradi, ular o‘z fikrlarini o‘zlari erkin ifodalay oladigan, mustaqil puxta ilm olib boradigan bo‘lishadi. Natijada bugungi jamiyatimiz talabiga mos yoshlar shakllanib boradi va hayotda munosib o‘rinlarini topadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ilm-fan va ta’lim-tarbiya sohalarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. // www.ziyonet.uz

2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. –T., 2022.

3. Azizxodjayeva N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T., 2006.

4. Bordovskaya N., Rean A. Pedagogika. – Sankt-Peterburg, 2001.

K. PARDAYEVA,
A. Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti, "Umumiy pedagogika" kafedrasi katta o'qituvchisi

O'QUV JARAYONIDA ABDULLA AVLONIYNING TA'LIM-TARBIYAGA OID QARASHLARIDAN FOYDALANISHNING INTERFAOL METODLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Abdulla Avloniyning ta'lim-tarbiyaga oid qarashlaridan o'quv jarayonida interfaol metodlar orqali foydalanish jarayoni haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, Allomani umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus ta'lim va oliy ta'lim bosqichlarida o'rganish jarayonida turli xil hamda ayrim shaklan bir xil yoki o'xshash, mazmunan farqli texnologiya va metodlardan foydalanishning samarasi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar. Ta'lim, "Klaster", "Bumerang", "Aqliy hujum", "Insert", "Ven diagrammasi", metod va texnologiyalar.

В этой статье рассказывается о процессе использования взглядов Абдуллы Авлани на образование с помощью интерактивных методов в процессе обучения. Также анализируется эффективность использования различных, а также различных по содержанию технологий и методов в процессе изучения Аллома на этапах общего среднего образования, среднего специального образования и высшего образования.

Ключевые слова. Обучение, "Кластер", "Бумеранг", "Мозговой штурм", "Вставка", "Венская диаграмма", методы и технологии.

This article talks about the process of using Abdullah Avloni's educational views through interactive methods in the educational process. Also, the effectiveness of the use of different technologies and techniques in the process of studying Alloma at the stages of general secondary education, secondary special education and higher education is analyzed, and some form is the same or similar, different in content.

Key words. Education, "Cluster", "Boomerang", "Mental attack", "Insert", "Ven diagram", method and technology.

Ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishda pedagogik texnologiya, interfaol metodlardan foydalanish har bir yo'nalish, har bir fanga xos xususiyatlardan kelib chiqqan holda tanlanadi. Bunda o'quvchi-talabaning yosh va fiziologik, o'zlashtirish xususiyatlari inobatga olinishi ham talab qilinadi. Aytish joiz, Abdulla Avloniyning hayoti va ijodini o'rganishga bag'ishlangan darslar ham ushbu tamoyillarni qamrab oladi. Allomani umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus ta'lim va oliy ta'lim bosqichlarida o'rganish jarayonida turli xil hamda ayrim shaklan bir xil yoki o'xshash, mazmunan farqli texnologiya va metodlardan foydalanish mumkin.

Bunda "Klaster", "Bumerang", "Aqliy hujum", "B.B.B.", "Insert", "Ven diagrammasi", "6x6x6" (3x3x3, 4x4x4) kabi metodlar har qanday ta'lim bosqichi va yo'nalishi uchun ham eng faol, ta'sirchan va qulay metodlar sanaladi. Bu texnologiyalar asosan adibning hayotiy va ijodiy faoliyati bilan bog'liq ma'lumotlarni o'zlashtirish jarayonida nihoyatda samarador ahamiyatga ega. Chunonchi, "Aqliy hujum" va "B.B.B." metod-

lari orqali o‘qituvchi dars avvalida talabalarning Abdulla Avloniy bilan bog‘liq qanday ma’lumotlarni bilishi va nimalarni o‘rgatishi lozimligini aniqlab oladi hamda shu asosda keyingi jarayonlarni maqsadli tashkil qiladi.

Jumladan, Abdulla Avloniyning hayoti va faoliyatini o‘rganish jarayonida “Aqliy hujum” uchun quyidagi savollarni tavsiya qilishimiz mumkin:

1. Abdulla Avloniy kim? U haqda qanday ma’lumotlarni bilasiz?
2. Abdulla Avloniy qanday faoliyatlar bilan shug‘ullangan?
3. Adib sifatida qanday asarlar yaratgan?
4. Avloniy pedagogik faoliyatining ustuvor jihatlari?
5. Abdulla Avloniyning ma’rifatparvarligi nimalar bilan belgilanadi?
6. Avloniy o‘zbek teatr san’ati rivojiga qanday hissa qo‘shgan? kabilar.

Shuningdek, “B.B.B.” texnologiyasi asosida ham o‘quvchi-talabalarning Abdulla Avloniy hayoti va serqirra faoliyati to‘g‘risida nimalarni bilishlarini va yana qanday ma’lumotlarni o‘zlashtirishga qiziqishlarni aniqlab, bevosita yangi bilimlarni o‘zlashtirishga imkoniyat yaratish mumkin.

№	Bilaman	Bilishni istayman	Bilib oldim
1.			
2.			
3.			
4.			

Dars boshlanishida talabalarga yuqoridagi jadval tushirilgan kartochkalarni tarqatib, 1-2-jadvallarni to‘ldirishlari so‘raladi. Buni o‘zaro hamkorlikda amalga oshirish maqsadga muvofiq. Chunki o‘qituvchi doskada ham ushbu jadvalni to‘ldirib borsa, mohiyat yanada oydinlashadi va vaziyat osonlashadi. Mashg‘ulot avvalida shu usulda talabalarning mavzu doirasida mavjud bilimlari aniqlashtirilsa, vaqtdan unumli foydalanish hamda ko‘proq bilim berish, yangi ma’lumotlarni o‘zlashtirish imkoniyati yuzaga keladi.

Shuningdek, o‘quvchi-talablarning faolligini oshirish, dars jarayonini qiziqarli, bahs-munozarali tashkil qilish uchun “Klaster” metodidan ham foydalanish mumkin. Bunda o‘qituvchi ma’lumotlarni o‘quvchilar ishtirokida to‘ldiradi.

Quyida foydalanish uchun ayrim namunalarni keltiramiz.

Shuningdek, Abdulla Avloniy faoliyatining asosiy yo‘nalishlarini hamda har bir yo‘nalishga xos jihatlarni, ilmiy-ijodiy merosini ham ushbu “Klaster” usuldan foydalanib o‘rganish mumkin.

Alloma faoliyatining ma’naviy-axloqiy ustuvor jihatlarini o‘rganish samaradorligini oshirishda adib asarlarining mazmun-mohiyatini chuqur yoritish, obrazlarga yuklangan ma’rifiy-estetik vazifalarni talqin etishga yo‘naltiriladigan texnologiya va metodlardan foydalanish maqsadga muvofiqligini ta’kidlash joiz. Shunga asosan, bu borada “Adabiy qahramon portretiga chizgilar”, “Qiyosiy tahlil” va “Munozara” metodlarini tavsiya qilamiz.

Jumladan, “Adabiy qahramon portreti” metodi quyidagi tartibda tashkil qilinadi. Dastlab talabalarga Avloniy asarlaridan o‘ziga yoqqan, kuchli qiziqish uyg‘otgan, alohida ta’sir ko‘rsatgan biror bir qahramonni tanlash va unga tavsif berish vazifasi topshiriladi. Bunda vaqt va hajmni chegaralash maqsadga muvofiq albatta. Masalan, 5 daqiqada 3-5 ta gap bilan yoki 10 daqiqada 8-10 ta gap bilan ifodalash. Vaqtga ko‘ra topshiriqni bajarish to‘xtatiladi hamda belgilangan muddatda aniq va to‘liq bajargan 1-5

nafar talaba baholanadi.

Mazkur texnologiyani qo‘llashda tarqatmalardan foydalanish ham mumkin: tarqatma o‘qituvchi uchun mo‘ljallangan namuna uchun bo‘lib, o‘quvchilarga to‘ldirilmagan holatda taqdim qilinadi va ularga bo‘sh kataklarni qanday to‘ldirish yuzasidan tushuncha beriladi. Topshiriqni bajarish uchun belgilangan vaqt tugashi bilan o‘qituvchi birinchi bajargan 5 nafar talabadan og‘zaki javob qabul qiladi va baholaydi. Qolgan talabalarning tarqatmalarini ham yig‘ib, darsdan so‘ng baholaydi. Boshqa o‘quvchilar birinchi bajargan 5 nafar o‘quvchiga nisbatan pastroq baholanishi e’tiborga olinadi.

Avloniy asarlarini o‘rganish davomida bu kabi texnologiyalardan foydalanish bir darsda butun sinf o‘quvchilari faolligi, ularning o‘z harakati, bilimiga munosib baholanishini ta’minlash bilan bir qatorda, ularni yanada tezkor va hozirjavob bo‘lishga, ijodiy fikrlashlarini rivojlantirishga undaydi. Eng muhimi, o‘zi sevgan adabiy qahramonga tavsif berish jarayonlari o‘quvchi-talaba shaxsida ushbu qahramonga tegishli ijobiy fazilatlarni shakllantirish, axloqiy sifatlarni tarbiyalash imkoniyatini kuchaytiradi.

Abdulla Avloniy asarlarini o‘rganish jarayonida o‘quvchi-talabalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashga yo‘naltirish maqsadida “Qiyosiy tahlil” metodini ham tavsiya qilish mumkin.

Bunda Avloniyning muayyan asarlari (bir adabiy tur yoki bir adabiy janrga mansubligiga ko‘ra) yoki ularning qahramonlari (poetik ifodasi va vazifasi yaqinligiga ko‘ra) tanlab olinib, o‘zaro o‘xshash va farqli jihatlari, adabiy-estetik mavqei nuqtai nazaridan qiyoslanadi. Qiyosiy tahlil jarayonida ijobiy fazilatlari ustuvor, ma’naviy-axloqiy ahamiyati kuchli va ta’sirchan obrazlar (asarlar)ni tanlash maqsadga muvofiqdir. Ushbu metod adib dramalari yoki “Turkiy guliston yoxud axloq” asari va boshqa darsliklaridagi ixcham hikoyatlarni o‘rganishda muhim samardorlik kasb etadi. “Qiyosiy tahlil” metodi o‘tilgan mavzuni mustahkamlash bosqichi uchun tavsiya qilinadi.

Bu kabi tarqatmalardan foydalanish bir vaqtning o‘zida ham asarlar, ham qahramonlarning qiyosiy tavsifini amalga oshirish imkonini berib, o‘quvchi-talabalar faolligini kuchaytirish, ijodiy tafakkuri, muloqot madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, ta’lim muassasalarida Abdulla Avloniyning hayoti va faoliyatini o‘rganish bilan bir qatorda, ushbu jarayonlarda allomaning ma’naviy-axloqiy tarbiyaga oid qarashlaridan samarali foydalanish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. A. Avloniy, Tanlangan asarlar. // Turkiy guliston yoxud axloq. –T., 1995.

2. A. Avloniy, Toshkent tongi. G’. G’ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, – T., 1979.

3. A. Zunnunov, Pedagogika tarixi. // Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. – T.: “SHarq”, 2004.

4. K. Pardayeva, (2019). THE GREAT UZBEK WRITER ABDULLA AVLANI’S VIEWPOINTS CONCERNING EDUCATION AND UPBRINGING. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(12).

5. Pardayeva K., Tangirov A., Muxammadiyeva S. (2020). The Use Of The Humanistic Ideas Of Khoja Ahmad Yassavi I+-9n The Teaching Of Pedagogical Sciences. Архив Научных Публикаций JSPI.

6. K. Pardayeva, (2020). JADID MA’RIFATI AND ABDULLA AVLONI’S SOCIAL AND PEDAGOGICAL ACTIVITY. Архив Научных Публикаций JSPI.

Nigora BABABEKOVA,
A. Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti magistranti

MILLIY-MA’NAVIY QADRIYATLARNI O‘RGANISHNING IJTIMOIY ASOSLARI VA YO‘NALISHLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga milliy-ma’naviy qadriyatlarni an’ana va udumlarimiz asosida o‘rgatishga yo‘naltirilgan ta’lim jarayoni, ta’lim jarayonida o‘rgatishning mazmuni, shakli, usul va metodlari, pedagogik shart-sharoitlar tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar. Milliy qadriyat, milliy ong, g’oya, dunyoqarash, “Xalq pedagogikasi”.

В данной статье анализируются образовательный процесс, направленный на обучение будущих учителей начальных классов национально-духовным ценностям на основе наших традиций, содержание, форма, методы и методы обучения в образовательном процессе, условия педагогики.

Ключевые слова. Национальная ценность, национальное сознание, идея, мировоззрение, “Народная педагогика”.

In this article, the educational process aimed at teaching future primary school teachers national-spiritual values based on our traditions, the content, form, methods and methods of teaching in the educational process, pedagogy conditions are analyzed.

Key words. National value, national consciousness, idea, worldview, “People’s pedagogy”.

Milliy qadriyatlarni bilish g‘oyaviy-milliy tarbiyani samarali olib borishda asosiy nazariy ma’lumotlar manbai bo‘lib hisoblanadi Demak, biz o‘z taraqqiyotimizga, o‘zligimizga qayta-qayta muntazam ravishda murojaat etib turishimiz kerak.

Ta’lim-tarbiya bilan shug‘ullanadigan o‘qituvchi, qaysi fanni o‘qitishidan qat’iy nazar o‘z faoliyatining har daqiqasida milliy qadriyatlarga murojaat qilishiga to‘g‘ri keladi. Shuning uchun pedagogika oliy o‘quv yurtida, qaysi yo‘nalishda ta’lim olishidan qat’iy nazar har bir talaba ‘‘Xalq pedagogikasi’’ kursini chuqur o‘rganish kerak bo‘ladi. ‘‘Xalq pedagogikasi’’ kursidan olingan bilim, ko‘nikma va malakalar amaliyotda sinalib, maktabda o‘quv jarayoniga qo‘llanishga tayyor holda bo‘lishi kerak.

Buning uchun pedagog o‘zidagi bor imkoniyatlarni ishga solib, talabalarga ham o‘sha bilimlarni kompleks holda o‘rgatib ketishi juda zarurdir.

1. Ijtimoiy nuqtayi nazardan:
– milliy-ma’naviy qadriyatlar bo‘yicha olgan bilimlarining hayotga tadbiqi;
– o‘qituvchining milliy-ma’naviy qadriyatlar borasidagi bilimi;
– ma’naviy extiyojni shakllanishi va boshqalar.
2. Iqtisodiy nuqtayi nazardan:
– milliy-ma’naviy qadriyatlarning iqtisodga ta’sirini ko‘rsatish;
– iqtisodiy extiyoj bilan ma’naviy extiyojni uyg‘unlashtira olish;
– milliy-ma’naviy boylikning ustunligi;
– milliy-ma’naviy qadriyatlar doirasida izbilarmonlikni shakllantirish.
3. Pedagogik-psixologik nuqtayi nazardan:
– ta’lim va tarbiyani to‘g‘ri yo‘lga qo‘ya olish;
– talabalarni hayotga tayyorlashda milliy qadriyatlarning ahamiyati;

– talabalarni bilimli qilib tayyorlashda pedagogik-psixologik harakat;
– milliy qadriyatlarni talabalar ongiga singdirishda ijtimoiy muxitning roli;
– o‘qituvchi, yoshlarni bilimli qilishda yetakchi kuch bo‘lib qolishi.
4. Ijodiy nuqtayi nazardan:
– o‘qituvchi talabalarni ijodga yo‘naltirishi;
– ijodkorlik talaba uchun extiyojga aylanishi zarurligi;
– ijodkor yoshlarni rag‘batlantirish va xalqqa tanitish;
– ijodkorlik orqali milliy qadriyatlarni boyitish
masalalaridir.
5. Ekologik nuqtayi nazardan:
– ‘‘Avesto’’dagi ekologik muammolar;
– tozalik sog‘liqning bosh mezoni ekanligi to‘g‘risida milliy qadriyatlarda bayon qilingan fikrlar;
– ota-bobolarimizning ozodalik, tozalik to‘g‘risida keltirgan maqollari;
– kelin tanlashda ota-bobolarimizning tadbirlari;
– milliy qadriyatlarga tayanib sog‘lomlashtirish masalasi;
– talabalarni atrof-muhitga e’tibor berishga, uni saqlashga o‘rgatishda xalq pedagogikasining ahamiyati.

Axloqiy tarbiyaning asosi axloq va axloqiy me’yorlardir. Axloq (lotincha‘‘moralis’’ xulq-atvor ma’nosini bildiradi) ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soluvchi, muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo‘lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlari yig‘indisi. Axloqiy me’yorlar to‘g‘risidagi bilimlar o‘quvchilar ongiga ta’lim va tarbiya jarayonida singdirilib boriladi. Axloqiy tarbiyaning natijasi o‘quvchilarda axloqiy ong, axloqiy faoliyat ko‘nikmalari va axloqiy madaniyatning shakllanishida ko‘rinadi.

Axloqiy ong – ijtimoiy ong shakllaridan biri bo‘lib, jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo‘lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlari, shuningdek, milliy istiqlol g‘oyasining o‘quvchilar ongida aks etishidir.

Axloqiy ong, axloqiy faoliyat ko‘nikmalari hamda axloqiy madaniyat ta’lim-tarbiya jarayonida yo‘lga qo‘yilayotgan axloqiy, ijtimoiy-g‘oyaviy, iqtisodiy, huquqiy, estetik va ekologik mavzulardagi suhbat, bahs-munozara, debatlar xalq xo‘jaligining turli sohalarida fidokorona mehnat qilayotgan, ilm-fan, madaniyat, ishlab chiqarish hamda sport sohalarida yuksak darajadagi muvaffaqiyatlarni qo‘lga kirish bilan O‘zbekiston Respublikasi nomini jahonga mashhur qilayotgan, uning obro‘-e’tiborining oshishiga o‘zining munosib hissasini qo‘shayotgan shaxslar hayoti va faoliyat to‘g‘risidagi ma’lumotlardan samarali foydalanish, vatanparvarlik namunalarini ko‘rsatgan xalq qahramonlari namunasida shakllantiriladi.

Axloqiy tarbiya o‘quvchilarda dunyoqarashni shakllantirishda ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, uni samarali tashkil etishda ong, his-tuyg‘u hamda xulq atvor birligiga erishish maqsadga muvofiqdir. Zero, ular birligida ma’lum kamchiliklarning yuzaga kelishi ham o‘quvchilarning komil shaxs bo‘lib kamol topishlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Ming yillar mobaynida Markaziy Osiyo g‘oyat xilma-xil dinlar, madaniyatlar va turmush tarzlari tutashgan va tinch totuv yashagan markaz bo‘lib kelgan. Etnik sabr-toqat, bag‘rikenglik hayot bo‘ronlaridan omon qolish va rivojlanish uchun zarur tabiiy me’yorlarga aylandi. Hatto bu hududlarni bosib olganlar ham qimmatbaho an’analarini, shu hududda mavjud bo‘lgan davlatchilik an’analarini avaylab qabul qilganlar. Oila qadriyatlari va qon-qarindoshchilik munosabatlaring qayta tiklanishi o‘z umrini yashab

bo‘layotgan oila (urug’).

Har qanday ijtimoiy hodisaning, shu jumladan, milliy g‘oyani va milliy ma’naviy qadriyatlarning mohiyatini ochib berish uchun quyidagilarga aniqlik kiritish:

1. Tushunchaning ta’rifi (definisiyasi).
2. Tushunchaning tavsifi (xarakteristikasi).
3. Milliy-ma’naviy qadriyatlarning mazmuni.
4. Ularning kelib chiqishi va rivojlanishi (evolyutsiyasi).
5. Ijtimoiy maqsadi va vazifalari (funksiyalari).
6. Tuzilishi (strukturasi).
7. Amal qilish usul va vositalari (texnologiyasi).
8. Shakllari va ko‘rinishlari tasnifi (klassifikatsiyasi) va nihoyat, jamiyat hayotining boshqa sohalariga ta‘sirini bilish lozim.

Milliy qadriyatlar xalqning kundalik hayoti va turmush tarzida o‘ziga xos mezon vazifasini o‘taydi. Ushbu qadriyatlar vositasida turli hodisa va holatlarga, yangi paydo bo‘layotgan faoliyat turlari va rasm-rusumlarga baho beriladi. Yosh avlodning hayotiy mo`ljallari, ‘‘zamona qahramoni’’ haqidagi tasavvurlari ham ma’naviy qadriyatlardan kelib chiqib shakllanadi.

Milliy-ma’naviy meros, qadriyatlarning tarkibi va ko‘rinishlari. Milliy-ma‘naviy meros va qadriyatlar tushunchasi keng qamrovli tushuncha bo‘lib, uning tarkibi quyidagilardan iborat:

– tarixiy meros va tarixiy xotira;
– madaniy yodgorliklar, qadimiy qo‘lyozmalar;
– ilm-fan yutuqlari va falsafiy tafakkur durdonalari;
– san’at va milliy adabiyot;
– axloqiy fazilatlar;
– diniy qadriyatlar – urfodat, an’ana va marosimlar;
– ma’rifat, ta’lim-tarbiya va hokazolar.

Milliylik xalqning ruhiyati va ma’naviyati, ayniqsa, san’at va adabiyot rivojida yorqin ifodalanadi. Ezgulik va poklikni, insoniylik va haqqoniylikni kuylagan buyuk asarlar, qaysi janrda yoki qaysi tilda yaratilganidan qat’i nazar, jahonga taniladi, pirovardida yana shu millatning xalqaro nufuzini yuksaltiradi.

Milliy ma’naviy qadriyatlar tizimida axloqiy sifat, diniy qadriyatlar munosib o‘rin egallaydi va milliy o‘zlikni anglashning muhim sharti, omili sifatida namoyon bo‘ladi. Axloqiy va diniy qadriyatlar aksariyat hollarda o‘zaro bogliq bo‘lib, jamiyatning ma’naviy yuksalishida, yosh avlod tarbiyasida birdek muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonova D.A. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni axloqiy ruhda tarbiyalashda xalq ertaklaridan foydalanish. P.f.n. ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya. – T., 1998. – 171 b.

2. A. Avloniy, Turkiy guliston yoxud axloq. –T.: O‘qituvchi**,** 1992. – 160 b.

3. Asqar Zununov. Ulfat Maxkamov Didaktika (Ta’lim nazariyasi) Oliy o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘llanma. – T.: Sharq nashriyot – matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. – T., 2006 y. – 125 b.

4. Imomnazarov M. Milliy ma’naviyatimiz nazariyasiga chizgilar. Mas’ul muharrir: N. Komilov, –T.: Sharq 1998, – 66-70 b.

Eldor XUDOYBERDIYEV,
A. Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti maqsadli tayanch doktoranti

MAKTAB TA’LIMI SIFATINI OSHIRISHDA BOSHQARUV STRATEGIYASINING AHAMIYATI

Annotatsiya

Mazkur maqolada strategiya va konsepsiya tushunchalariga aniqlik kiritilgan. Shuningdek, boshqaruv strategiyasining maktab ta’limi sifatini oshirishdagi muhim xususiyatlari, maktabni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishda e’tibor berish zarur bo‘lgan omillar, strategik boshqaruv bo‘yicha xorijiy tajribalar haqida fikr-mulohaza yuritilgan.

Kalit so‘zlar. Maktab ta’limi, ta’lim sifati, rahbar, xodimlar, konsepsiya, strategiya, SMART maqsad, baholash, rejalashtirish, faoliyat, natija.

В данной статье разъяснены понятия стратегии и концепции. Также были рассмотрены важные особенности стратегии управления в повышении качества школьного образования, факторы, на которые необходимо обратить внимание при разработке стратегии развития школы, зарубежный опыт стратегического управления.

Ключевые слова. Школьное образование, качество образования, руководитель, коллектив, концепция, стратегия, SMART-цель, оценка, планирование, деятельность, результат.

This article clarified the concepts of strategy and concept. Also, the important features of the management strategy in improving the quality of school education, the factors that need to be paid attention to in the development of the school development strategy, and the foreign experiences of strategic management were discussed.

Key words. School education, quality of education, leader, staff, concept, strategy, SMART goal, assessment, planning, activity, result.

Dunyo qiyofasining tez o‘zgarishi, jamiyat hayotining jadal taraqqiyoti, ilm-fan, texnika va texnologiyaning shiddat bilan rivojlanishi ta’lim tizimini boshqarishda strategiyadan foydalanishni taqozo etmoqda. Strategiya ta’lim tizimidagi mavjud muammolarni aniqlab, ularni bosqichma-bosqich hal qilish, ta’lim jarayoniga innovatsiyalarni joriy etish hamda insonlarning ta’limga bo‘lgan bugungi va kelajakdagi ehtiyojlarini tasavvur qilish imkonini beradi.

Bugungi kunda mamlakatimizda maktab ta’limini isloh qilishga jiddiy e’tibor qaratilmoqda va umumiy o‘rta ta’lim uzluksiz ta’lim tizimining muhim bo‘g‘ini ekanligi belgilab qo‘yilgan. Shuningdek, maktablarda ta’lim sifatini oshirish, pedagog-kadrlarning bilimi va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish, xalq ta’limini boshqarishda strategik rejalashtirishning zamonaviy shakllaridan foydalanish, innovatsion g‘oyalar, ishlanmalar va texnologiyalar, xalqaro tajribalarni amaliyotga tatbiq etish, boshqaruv sohasiga ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatning zamonaviy yutuqlarini joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, xalq ta’limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini jalb etish davlat siyosati darajasida ustuvor vazifa hisoblanadi.

Ushbu vazifalarning barchasi ta’lim sifatining oshishiga xizmat qiladi. Buning uchun A. Shlyayxer ta’kidlaganidek, maktab ta’limning innovatsion sharoitlarini ishlab

chiqadigan joyga aylanishi zarur. O‘tmishda biz ta’lim sifatini nazorat qilish bilan cheklanardik, kelgusida ta’lim sifatini ta’minlashimiz kerak. Bu esa maktablarda ta’limni strategiya asosida boshqarishning dolzarbligini ko‘rsatmoqda.

Maktab ta’limi sifatini ta’minlashda boshqaruvning ahamiyati muhim ekanligiga xalqaro hamjamiyat va ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan doim e’tibor qaratiladi. Ta’lim rivojlangan mamlakatlarda maktab direktorlari davlatning umumiy ta’lim strategiyasidan kelib chiqib, mustaqil holda jamoa bilan birgalikda sifat samaradorligini oshirishga va maktabning imidjini ko‘tarishga xizmat qiladigan strategiyani belgilab olishini hamda shu asosida boshqaruvni amalga oshirishini kuzatish mumkin. Bu boshqaruvning samarali bo‘lishida strategiyaning muhim ahamiyat kasb etishini bildiradi.

Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, strategiya “qanday qilib” bu yerdan u yerga borishdir. Strategiya, shuningdek, “tashkilot intilayotgan maqsadlar va u o‘z maqsadiga erishish uchun boshqaradigan siyosatlarning kombinatsiyasi” sifatida qaraladi va strategik menejment bu strategiyani amalga oshirish mexanizmidir.

Strategiyani “tashkilotning asosiy uzoq muddatli maqsadlari va vazifalarini belgilash va harakat yo‘nalishlarini qabul qilish, shuningdek, ushbu maqsadlarga erishish uchun zarur resurslarni taqsimlash”, deb ta’riflash ham mumkin.

R.X. Djurayev va S.T. Turg‘unovlarning ta’kidlashicha, strategiya “strategos” grekcha so‘z bo‘lib, o‘zbek tilida “general san’ati” degan ma’noni anglatadi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida ham mazkur atama urish olib borish san’ati, ijtimoiy-siyosiy kurashga rahbarlik qilish san’ati va ilmi ma’nolarida talqin etilgan. Strategiya so‘zi bugungi kunda biron-bir faoliyatga rahbarlik qilish, korxona yoki muassasalar faoliyatini boshqarishda istiqbolni oldindan aniqlash, shuningdek, maqsadga erishish natijalarini avvaldan bilish va nazorat qilish yo‘nalishida keng qo‘llanilmoqda.

Sh. Po‘latov esa strategiya tashkilot maqsadiga erishish uchun intiluvchi rahbarning harakat tarzi ekanligini aytib o‘tadi. “Strategiya nima uchun kerak?” degan savolga Sh. Qurbonov va E. Seytxalilovlar shunday javob beradi: “Agar konseptual loyihada ko‘zda tutilgan turli yangiliklarni bir vaqtning o‘zida kiritish mumkin bo‘lsa-yu, buning uchun haddan ziyod katta sa’y-harakat talab etilsa yoki qandaydir cheklashlar mavjud bo‘lsa, unda “Nimani va qanday ketma-ketlikda qilish kerak?” degan savol yuzaga keladi. Bu savolga javob berish uchun o‘zgarishlar navbatini va sa’y-harakatining ular o‘rtasida taqsimlanishini aniqlash tamoyilini ta’riflash kerak. Ana shu narsa strategiya bo‘ladi. Shuningdek, ular “strategiya konsepsiya singari – umumiy g‘oya, biroq konsepsiya xohlanayotgan bo‘lajak ta’lim muassasasi g‘oyasini tashkil etsa, strategiya – unga o‘tish g‘oyasidan iborat bo‘ladi” deb, bu ikki tushunchani farqlab beradi.

Darhaqiqat, strategiya konsepsiya asosida shaklanadi. Agar konsepsiya va strategiya o‘zaro mos bo‘lmasa, boshqaruvda muammolar yuzaga keladi. Shu o‘rinda konsepsiya tushunchasiga aniqlik kiritib o‘tish kerak bo‘ladi:


Konsepsiya – izlanishlar jarayonida tadqiqot subyekti bo‘lgan maktab rahbarlari bilan o‘tkazilgan suhbatlar, savol-javoblar, olingan so‘rovnomalarning natijalari, ularning faoliyatini kuzatishdan chiqarilgan xulosalar, ta’lim menejmenti bo‘yicha adabiyotlar tahlillari maktab ta’limi sifatini oshirishda boshqaruv strategiyasining ahamiyati muhimligini, strategiyani belgilashda aniq maqsad qo‘ya olish muvaffaqiyatning kafolati ekanligini ko‘rsatmoqda.

Bosniya va Gersegovina tajribasi o‘rganilganda, ta’lim jarayonidagi o‘zgarishlar hisobga olinib, maktablar faoliyatini takomillashtirish umumiy strategiya asosida amalga oshirilishi maqsad qilinganligi ma’lum bo‘ldi. Bu mamlakatda asosiy e’tibor


shaxsdan konsepsiyani o‘zgartirishga, o‘quvchilarning yutuqlarini baholashdan maktabning umumiy natijalarini baholashga yo‘naltirilmoqda; o‘zgarishlar subyekti sifatida o‘qituvchilardan maktab rahbarlariga e’tibor qaratilmoqda. PISA xalqaro tadqiqotlarida ham shu jihatga alohida dolzarb muammo sifatida e’tibor berilgan. Unga ko‘ra, ta’lim islohatlarini amalga oshirishda maktab rahbarlarining tajribasiga suyanish va ularni yuqori darajadagi ta’lim siyosati va amaliyotini ishlab chiqishga jalb etish lozim. Bu ijtimoiy o‘zgarishlarga samimiy munosabatda bo‘ladigan siyosatni belgilashda ijobiy yondashadigan hamda samarador islohatlarni amalga oshirish uchun o‘zlari qozongan ishonchdan foydalana oladigan liderlar kerak bo‘ladi.

Boshqaruv tizimining har bir pog‘onasida turgan rahbarlar o‘z vakolatlari doirasidan kelib chiqib, oldida turga aniq maqsadlarni yaxshi anglashi kerak.

Maqsad – bu vaqtning aniq belgilangan davrida ta’lim muassasasi real erishishi mumkin bo‘lgan, istalgan natijaning muayyan, sifatli, ayrim hollarda esa sipolik bilan miqdoriy tavsiflangan qiyofasidir. Maqsadning bechta asosiy jihati 2-rasmda keltirilgan.



Ririvojlanishning harakat dasturini ishlab chiqishda 3-rasmdagi savolga javob topish lozim bo‘ladi.



3-rasm

Agar ushbu savollarni izohlaydigan bo‘lsak, “Nima?” – bu maqsad, uni aniqlab olish zarur. Maqsadga qachon, qanday erishish mumkinligini rejalshtirish, nima uchun shu maqsadga erishmoqchi ekanligini anglash, erishmoqchi bo‘lgan maqsadning qancha ekanligini, unga erishganligini o‘lchay olish va maqsad haqi-

da, uning turgan joyi to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lish muhim. Chunki ushbu savollarga javob topmasdan turib muvaffaqiyatga erishishning imkoni bo‘lmaydi. Bu savollarga javob bera oladigan maqsadlar esa SMART maqsad hisoblanadi.

Shu o‘rinda maktab rahbarlarining ta’limni boshqarish strategiyasini belgilashda SMART sxemadan foydalanishi muvaffaqiyat uchun tashlangan dastlabki qadam ekanligini aytib o‘tish joiz.

Strategik boshqaruv modellari dunyoning turli davlatlarida amal qiladi. Samaradorlik nuqtayi nazaridan eng muhimlari quyidagilardir: umumiy yetakchilik maktabi – qarorlarni markazsizlashtirish va inson resurslarini rag‘batlantirish; maktab boshqaruvi – ta’lim tizimini markazsizlashtirish; taqsimlangan yetakchilik – direktorlar mas’uliyati va javobgarligining qat’iyligi.

Ruminiya tajribasiga ko‘ra, maktablarda ta’limni strategik boshqarishda quyidagi o‘ziga xos xususiyatlar aniqlangan:

– “qo‘llaniladigan strategiyalar va siyosatlar, ayniqsa, izchillik nuqtai nazaridan, bir-biriga mos kelmay qolishi hamda maqsad va vositalar o‘rtasida nomuvofiqliklar kuzatilgan;

– “sifat madaniyati strategik fikrlashni va mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishni nazarda tutadi”;

– xususiy maktablarda o‘quvchilarning ko‘rsatkichlari yuqori;

– strategik chora-tadbirlar “poydevorsiz” emas, “poydevor” asosida shakllantirilishi maqsadga muvofiqdir.

Ushbu tajribadan bilish mumkinki, avvalo, ishlab chiqilayotgan strategiya davlatning maktab ta’limi siyosatiga mos bo‘lishi lozim. Buning uchun biz ikkita muhim jihatga e’tibor qaratishimiz kerak bo‘ladi. Birinchidan, maktab ta’limi siyosatini yuritadigan davlat orgonlarining xorijiy tajribalarga asoslangan, milliy manfaatlarni ifodalagan, zamon talablariga javob beradigan ta’lim strategiyasi bo‘lishi zarur. Muassasa o‘z strategiyasini belgilashda mana shu strategiya va maktab qadriyatlari, uning o‘ziga xos xususiyatlaridan “poydevor” sifatida foydalinishi maqsadga muvofiq. Ikkinchidan, maktab rahbari va jamoasi dunyo hamjamiyatining ta’limga munosabatini hamda davlatning ta’lim siyosatini to‘g‘ri anglagan, o‘zgarishlarga moslasha olish kompetentligiga ega bo‘lishi, mas’uliyatni o‘zida his qila olishi, ta’lim sifatining oshishidan manfaatdor bo‘lishi zarur.

Demak, ta’lim siyosatini belgilovchi davlat organlari va islohotlarni amalga oshiradigan maktab direktorlari va o‘qituvchilar “biz hozir qayerdamiz?”, “qayerda bo‘lish–ni xohlaymiz?” va “u yerga qanday boramiz?” kabi savollarga javob topishlari kerak. Birinchi savol, albatta, “biz qayerda bo‘lishni xohlaymiz?” Bu yerda biz o‘z maqsadlarimizni, xavf-xatarlarni, strategik tashabbuslarga resurslarni taqsimlashni va hokazolarni muhokama qilamiz va hal qilamiz. Bularning barchasi xodimlar tashkilotning strategik maqsadlari to‘g‘risida qanday fikrda ekanligiga va ular o‘zi uchun foydali bo‘lgan samaradorlikka erishishlarini sezishlariga bog‘liq. Bunda maktab ta’limini boshqarish strategiyasini ishlab chiqishda pedagog xodimlarning ishtiroki ta’minlanishi, strategiya butun jamoaniki ekanligini barcha his qilishi va ushbu strategiyani amalga oshirishda xodimlar o‘zini mas’ul deb hisoblashi muhim ahamiyatga ega.

Strategiya to‘rt bosqichli jarayon hisoblanib, quyidagi bosqichlardan iborat:

1. Strategik baholash. Strategik boshqaruv jarayoni ichki tashkiliy muhit va tash–qi muhitni chuqur baholashdan boshlanadi. Baholash SWOT tahlilining tarkibiy qismi bo‘lib, ichki kuchli va zaif tomonlar, tashqi imkoniyatlar va tahdidlar o‘rganib chiqiladi.

2. Strategik faoliyatni rejalashtirish. Har tomonlama strategik rejalar to‘plami bo‘lib, tashkilotning turli yo‘nalishlari strategiyalari uchun yo‘l xaritasini o‘z ichiga oladi.

3. Strategik faoliyatni amalga oshirish. Bu ikkita asosiy qobiliyatni talab qiladi: yetakchilik va korporativ boshqaruv. Strategik yetakchilik tashkilotning qarashlari va strategik rejalarning maqsadlarini boshqaruv darajasiga yetkazish uchun zarurdir. Yetakchilik xodimlarga motivatsiya berish, tashkilotni qiyin vaziyatlardan olib chiqish uchun zarur bo‘lgan ijodkorlik, imkoniyatlar va innovatsiyalardir. Korporativ boshqaruv – bu strategik harakatlarni amalga oshirish va nazorat qilishni osonlashtiradigan tashkilotning asosiy infratuzilmasi. U axloqiy xulq-atvor va me’yoriy hujjatlarga rioya qilish monitoringini ta’minlaydi. Korporativ boshqaruv samaradorligini baholash va manfaatdor tomonlarning fikr-mulohazalarini o‘z ichiga oladi.

4. Strategik faoliyat natijalari. Tashkilot faoliyatida samaradorlikning o‘sishida ko‘zga tashlanadi. Natijalar tashkilotning tashqi va ichki muhitiga ta’sir qiladi va o‘z aksini ko‘rsatadi.

Har bir maktab ushbu to‘rtta bosqichning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda SMART maqsadlar asosida boshqaruv strategiyasini ishlab chiqsa va amalga oshirsa, ushbu maktabda ta’lim sifatining ta’minlanishiga ishonish mumkin.

Strategiya rahbar yetakchiligida jamoa bilan birgalikda tashkilotning asosiy maqsadidan kelib chiqqan holda qadriyatlar va zamonaviy tendensiyalar asosiga qurilgan uzoq muddatli rivojlanish mexanizmidir.

Maktab ta’limini strategiya asosida boshqarish boshqaruv samaradorligi va ta’lim sifatining oshishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga ta’lim muassasasining raqobatbardoshligini, davlat ta’lim standartlarini va jamiyat ehtiyojlarini ta’minlashga xizmat qiladi. Yana bir bir muhim jihati shundaki, maktablarda ta’lim muhitini yaxshilashga, pedagoglarning kasbiy rivojlanishiga, o‘quvchilarning zamoniy ko‘nikmalarni egallashiga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida” gi Qonuni

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi “Xalq ta’limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3931-son Qarori.

5. ARACIP and MENCS, 2016. Activity report for the period: 01.09.2014-31.12.2015

6. Bloom N. et al., 2014. Does Management Matters in Schools. NBER Working Paper Series (20667).

7. Bytheway A., Venter I.M. 2014, ‘Strategies for information management in education: Some international experience’, SA Journal of Information Management 16(1), Art. #596, 11 pages, pp. 3. http:// dx.doi.org/10.4102/sajim. v16i1.596.

Timur KALMURATOV,
Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti mustaqil tadqiqotchi

BOSHQARUV FUNKSIYALARI ASOSIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK ASOSIDAGI NODAVLAT MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI FAOLIYATINI BOSHQARISH MEXANIZMI

Annotatsiya

Maqolada Davlat-xususiy sheriklik asosidagi nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini samarali tashkil etishda rahbar tomonidan boshqarish funksiyalarini bilish, shuningdek, zarur ko‘nikmalarga ega bo‘lish, ulardan maqsadga muvofiq foydalana olishning muhim ahamiyati va pedagogik jarayonlarni boshqarish masalalari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar. Davlat-xususiy sherikligi, ta’lim, ta’lim amaliyoti, ta’lim-tarbiya, pedagogika, funksiya, axborot-tahlil, rejalashtirish, tashkil etish va nazorat qilish.

В статье анализируется важность знания руководителем функций управления, а также наличия необходимых навыков, умения их целесообразно использовать и управлять педагогическими процессами в эффективной организации деятельности негосударственных дошкольных образовательных организаций на основе государственно-частное партнерство.

Ключевые слова. Государственно-частное партнерство, образование, образовательная практика, образование, педагогика, функция, информационный анализ, планирование, организация и контроль.

The article analyzes the importance of knowing the functions of management by the leader, as well as having the necessary skills, being able to use them appropriately, and managing pedagogical processes in the effective organization of the activities of non-governmental preschool educational organizations based on public-private partnership.

Key words. Public-private partnership, education, educational practice, education, pedagogy, function, information analysis, planning, organization and control.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da funksiya – erkin o‘zgaruvchi miqdorning o‘zgarishiga qarab o‘zgarib turadigan, bog‘liq (tobe) o‘zgaruvchan miqdor; biror a’zo yoki organizmning ishlab turishi, faoliyati; biror ijtimoiy tashkilot, kimsa yoki narsaning ish faoliyat doirasi yoki vazifasi sifatida talqin qilinadi .

Falsafa qomusiy lug‘atiga ko‘ra funksiya – faoliyat, ba’zi sistemalar doirasidagi obyektning unga mansubligi va roli; obyektlar o‘rtasidagi aloqalar ko‘rinishi bo‘lib birining o‘zgarishi ikkinchisining ham o‘zgarishiga olib keldi, bunda ikkinchi obyekt dastlabkisining funksiyasi deyiladi.

Menejmentning umumiy nazariy masalalari bilan shug‘ullangan S. G‘ulomov “funksiya” so‘zi lotin tilidan olinganligini, vazifa, faoliyat, majburiyat ma’nosini bildirishini, boshqaruv vazifalari biror bir obyektga rahbarlik qilish uchun zarur bo‘lgan faoliyat turi, deb tushunilishini qayd etadi.

Bizningcha, funksiya ta¸’lim-tarbiya jarayoni uchun belgilangan maqsadga erishish uchun amalga oshiriladigan faoliyat, harakatlar ketma-ketligi, deya talqin qilinishi maqsadga muvofiq.

Pedagogika fanidan izohli lug‘atda boshqaruv funksiyalari – ta’lim muassasasi rahbari boshqaruv faoliyatining asosiy vazifasi bo‘lib, unda ta’lim jarayonini tashkil etishda ijobiy natijalarga erishish uchun jamoada zaruriy sharoitlarni yaratish, raqobatbardosh bitiruvchilarni tayyorlash va ta’lim muassasasi faoliyatini takomillashtirish va rivojlantirish, shuningdek, boshqaruv faoliyatlarida ta’lim muassasasida mavjud barcha jarayonlarni tartibga solib turish muhim ahamiyat kasb etadi, deya izoh beriladi.

Tadqiqot ishi jarayonida biz davlat-xususiy sheriklik asosidagi nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini boshqarish funksiyalari orasida quyidagilarni alohida ajratib ko‘rsatamiz: axborot-tahlil, rejalashtirish, tashkil etish va nazorat qilish; Mazkur funksiyalar boshqaruv jarayonida o‘zaro bog‘liq hamda ulardan birining sifat jihatdan o‘zgarishi boshqalarining ham o‘zgarishiga olib keladi. Shundan kelib chiqib, boshqaruv samarador tashkil etilishi uchun har bir boshqaruv funksiyalari o‘z o‘rnida va sifatli amalga oshirilishi zarur.

Axborot-tahlil funksiyasi. Davlat-xususiy sheriklik asosidagi nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotini boshqarish mexanizmini takomillashtirish, uning samaradorligini oshirish birinchi navbatda, mavjud faoliyat yuzasidan axborot-tahliliy tizimni shakl–lantirishni talab qiladi.

Har qanday ta’lim tashkilotida uning faoliyati samaradorligini ta’lim-tarbiya jarayonlariga oid axborotlar, uning mazmuni, hajmi, sifati, uni tahlil qilish va kerakli xulosalarni chiqarish, boshqaruv qarorlarini qabul qilishda undan foydalanish darajasi belgilaydi.

Davlat-xususiy sheriklik asosidagi nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotining zamon talablariga va ta’lim iste’molchilari xohishiga muvofiq holda rivojlanishi, tadbirkorlik subyekti sifatida doimiy foyda olishi uchun rahbar doimiy ravishda pedagogika, psixologiya fanining yangi yutuqlari, maktabgacha ta’lim tizimidagi ilg‘or metodlar, tarbiyalanuvchilar rivojlanishiga mos variativ dastur va texnologiyalardan xabardor bo‘li–shi, bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan davrda tashkilot faoliyatini tartibga soluvchi yangi huquqiy-me’yoriy hujjatlar, faoliyatning barcha sohalariga oid ilg‘or pedagogik va moliyaviy munosabatlar to‘g‘risida o‘z vaqtida ma’lumot olib turishi muhim ahamiyatga ega.

Axborotni yig‘ish davlat-xususiy sheriklik asosidagi nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotining holati to‘g‘risida ma’lumot to‘plash, uni tahlil qilish va faoliyatga ta’sir qiluvchi omillarni aniqlash kabi bosqichlardan iborat. Maktabgacha ta’lim tashkilotida rahbar barcha pedagog va texnik xodimlarning faoliyati, ularning ishga munosabati, ta’lim-tarbiya jarayoni, tarbiyalanuvchilarni ovqatlantirish, ularga tibbiy xizmat ko‘rsatish, faoliyatning texnik-iqtisodiy, moliyaviy ta’minlanganligi bo‘yicha aniq ma’lumotlarga ega bo‘lishi va mazkur ma’lumotlarning tahliliga asosan tashkilotning maqsadga muvofiq faoliyati uchun boshqaruv qarorlari qabul qilinishi zarur.

Rejalashtirish funksiyasi. Mazkur funksiya boshqaruv jarayonidagi eng muhim bosqich hisoblanadi. DXSh asosidagi nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotining nizomiga asosan tashkilot ta’sischisi va rahbari davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi bitim shartlaridan chiqmagan holda tashkilot maqsadini mustaqil belgilashi, uni har tomonlama rivojlantirish bo‘yicha reja, yo‘l xaritasi, konsepsiya yoki dastur ishlab chiqishi mumkin.

DXSh asosidagi nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotini samarali boshqarishda rejalashtirish funksiyasi ma’lumotlar tahliliga asosan tashkilot maqsadini to‘g‘ri belgilash va unga erishish yo‘llarini rejalashtirish, loyihalashdan boshlanadi.

Rejalashtirish bir qator talablarga javob berishi kerak: uzoq va qisqa muddatli rejalashtirishning o‘zaro muvofiqligi; rasmiy hamda ijtimoiy talablarning uyg‘unligi; rejalashtirishning barqarorligi va moslashuvchanligini.

Rejalashtirish quyidagi holatlarda samarali amalga oshiriladi:

– rejalashtirish jarayonida DXSh asosidagi nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotidagi ta’lim-tarbiya jarayonining haqiqiy holatini xolis baholash;

– rejalashtirish jarayonida oraliq va yakuniy natijalarning aniq ifoda etilishi, rejalashtirilgan davr yakunida erishilishi kerak bo‘lgan natijani baholay olish imkoniyatining mavjudligi;

– rejalashtirish jarayonida qo‘yilgan maqsadlarga erishishga yordam beradigan eng maqbul yo‘llar, vositalar, usullarning to‘g‘ri tanlanishi;

– rejalashtirish jarayonida hududdagi maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar sonining, nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotiga bo‘lgan ehtiyojning, ota-onalar moliyaviy imkoniyatlarining to‘g‘ri baholanishi.

Qisqacha aytganda, rejalashtirishning mohiyati faoliyat maqsadi va vazifalarni aniq shakllantirish, moliyaviy manbalar, tegishli ijrochilar va bajarish muddatlarini belgilashdan iborat.

Tashkil etish funksiyasi. DXSh asosidagi nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiya jarayonlarini yo‘lga qo‘yish, tashkiliy shart-sharoitlarni ta’minlash, ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi tomonlar o‘rtasida o‘zaro aloqalarni o‘rnatish, boshqaruvchi va boshqariluvchi tomonlar o‘rtasida vazifalar taqsimotini belgilash, bajariladigan ishlarni o‘zaro muvofiqlashtirishda boshqaruvning tashkil etish funksiyasi muhim ahamiyatga ega.

Tashkil etish funksiyasi DXSh asosidagi nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotida rahbar tomonidan tashkilotning maqsadga muvofiq faoliyat yuritishiga yo‘naltirilgan faoliyati turi bo‘lib, unda xodimlarning samarali ishlashi orqali oldinga qo‘yilgan umumiy maqsadlarga erishilishiga imkoniyat yaratiladi. Shuning qatorida DXSh asosidagi nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotining uzoq va yaqin muddatlarga mo‘ljallangan rejasini amalga oshirish, maqsad va vazifalarini ro‘yobga chiqarish, vazifalarni bajarish uchun zarur faoliyat turlarini aniqlash, tashkilot xodimlarining mehnat qobiliyatlarini baholash va unga asosan vazifalarni taqsimlash, quyi boshqaruv va ijro etuvchi xodimlarni belgilash va ular faoliyatini baholash kabi vazifalarni amalga oshiradi.

DXSh asosidagi nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarining boshqaruv tizimida bugungi kunda uchta boshqaruv pog‘onasi mavjud: ta’sischi yoki ta’sischilar guruhi; tashkilot direktori; pedagog va boshqa xodimlar. Ta’lim amaliyotini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, boshqaruvning eng yuqori pog‘onasida turuvchi ta’sischi yoki ta’sischilar guruhi odatda moliyaviy masalalar bilan ko‘proq shug‘ullanadi va ta’lim-tarbiya jarayoni e’tibordan chetda qoladi. Mazkur holatda tashkilot ta’sischilarini ta’lim-tarbiya jarayoniga, boshqaruvni tashkil etish masalalariga keng jalb qilish ota-onalarning mavjud va kelajakdagi ehtiyojlari asosida o‘z imkoniyatlarini tahlil qilish hamda uzoq muddatli faoliyat maqsadlarini belgilash asosida tashkilot raqobatbardoshligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Nazorat qilish funksiyasi. Nazorat pedagogik jarayon va uning natijalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni to‘plash, rejalashtirilgan maqsad va vazifalarga erishilganligi yoki undan chetlanishlarni aniqlash, ularni bartaraf etish bo‘yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim ahamiyatga ega va boshqaruv jarayonidagi muhim bosqich bo‘lib hisoblanadi.

DXSh asosidagi nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida nazorat qilish funksiyasini “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti”da ta’kidlanganidek, “maktabgacha ta’lim tizimini zamonaviy talablarga asoslangan holda tashkil etish, bolalarni sog‘lom va har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazish, ta’lim-tarbiya jarayoniga samarali ta’lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etish hamda ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash, shuningdek, ta’lim-tarbiya jarayonining hajmiga, mazmuniga va sifatiga, maktabgacha ta’lim tashkilotini qurish va jihozlashga, maktabgacha yoshdagi bolalarning sog‘lom ovqatlanishini va xavfsizligini tashkil etishga doir majburiy minimum talablarni joriy etish”ni aniqlash bo‘yicha faoliyat deb baholash mumkin.

Mazkur davlat standartida belgilangan minimum talablarni bajarish O‘zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko‘rsatayotgan barcha davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun majburiy bo‘lib, uning qanday darajada amalga oshirilayotganligini aniqlash, tahlil qilish va baholash natijalaridan tashkilotni boshqarishda foydalanish nazorat funksiyasining asosiy vazifalaridan biridir.

Ta’lim amaliyotining tahlili shuni ko‘rsatadiki, aksariyat hollarda DXSh asosidagi nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida belgilangan maqsad va erishilgan yakuniy natija bir xil bo‘lmaydi. Mana shu vaziyatda, nazorat qilish funksiyasi olingan natijalarning belgilangan maqsadlardan chetlanishlarini, tarbiyalanuvchilarni har tomonlama rivojlantirish hamda maktabga tayyorlash natijalarini aniqlash va tahlil qilish jarayonini tashkil etadi. Mazkur tahlillarga asosan rahbar tomonidan kelgusidagi boshqaruv qarorlari ishlab chiqiladi.


Rahbar tomonidan nazorat qilish funksiyasini amalga oshirishda DXSh asosidagi nodavlat maktabgacha ta’lim tashkiloti faoliyatining barcha yo‘nalishlari ustidan nazorat tizimini yaratish hamda uni rejalashtirilgan vaqtda amalga oshirish, bunda o‘z-o‘zini nazorat qilish muhim ahamiyatga ega.

DXSh asosidagi nodavlat maktabgacha ta’lim tashkiloti faoliyatini nazorat qilishda davlat nazorati va o‘z-o‘zini nazorat qilish amalga oshiriladi. Davlat nazorati davlat-xususiy sheriklik bitimida ko‘zda tutilgan shartlarda davlat sherigi tomonidan amalga oshirilsa, o‘z-o‘zini nazorat qilish nodavlat maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbariyati va pedagog xodimlari tomonidan amalga oshiriladi. Bizning fikrimizcha, ushbu o‘rinda davlat nazorati ko‘proq ma’muriy yoki majburlovchi tavsifga ega bo‘lib, nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarining kelajak istiqboli ko‘proq o‘z-o‘zini xolis baholash, tahlil qilish va natijalarga asosan rivojlanish yo‘nalishlarini ishlab chiqishga bog‘liq. Mazkur omil tufayli nodavlat maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbari va pedagog xodimlarida o‘z-o‘zini nazorat qilish va tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish maqsadga muvofiq.

Yuqorida ta’kidlanganidek, nazorat natijasida DXSh asosidagi nodavlat maktab–gacha ta’lim tashkiloti faoliyatida maqsadlarni amalga oshirishga xalaqit beradigan sabablar aniqlangan holatda boshqaruv jarayonlariga tuzatishlar kiritiladi. Tuzatish jarayonida boshqaruv va ta’lim-tarbiya jarayonidagi og‘ishlar bartaraf etiladi. Mazkur og‘ishlar faoliyatni rejalashtirishdagi xatolar, boshqaruv ma’lumotlarining yetishmasligi, noto‘g‘ri qabul qilingan boshqaruv qarorlari, mas’ullarni belgilashdagi xatoliklar yoki boshqaruv pog‘onalari faoliyatining o‘zaro muvofiq emasligidan kelib chiqishi mumkin.

Boshqaruv funksiyalarini tahlil qilish, boshqaruv jarayonida ular o‘rtasidagi munosabatlarni ta’lim amaliyotiga tatbiq qilish asosida DXSh asosidagi nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini boshqarish mexanizmlari takomillashtirildi (1-rasm). Mazkur chizmada keltirilgan boshqaruv funksiyalari boshqaruv jarayonida bir-birini to‘ldiruvchi, birining o‘zgarishi ikkinchisining o‘zgarishiga olib keluvchi, o‘zaro mantiqan

bog‘langan bir butun tizim sifatida qaraldi.



1-rasm. Boshqaruv funksiyalari asosida DXSh asosidagi NMTTlari faoliyatini boshqarish mexanizmi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 802-son Qarori.

2. Falsafa: qomusiy lug‘at. – T.: Sharq, 2004. – 495 b. B-436.

3. G‘ulomov S.S. Menejment asoslari. – T.: Sharq, 2002. 370 –b. B-107.

4. Hasanboyev J., To‘raqulov X., Haydarov M., Hasanboyeva O., Usmanov N. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. – T.: Fan va texnologiya, 2009. – 672 b. B-89.

5. Djurayev R.X., Turg‘unov S.T. Ta’lim menejmenti. – T.: Voris-Nashriyot, 2006. – 264-b. B-33-36.

6. Qurbonov Sh., Seytxalilov E. Ta’lim sifatini boshqarish. –T.: ‘‘Turon-Iqbol’’, 2006. -592 b.

Otabek ODILOV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
"Jismoniy madaniyat metodikasi" kafedrasi o'qituvchisi

BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHILARIDA TASHKILOTCHILIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHAROITLARI

Annotatsiya

Ta'lim jarayonida o'qituvchining tashkilotchilik qobiliyati va kompetensiyasi tegishli bilim, ko'nikma, kasbiy va shaxsiy fazilatlarni o'z ichiga oladi. Ushbu maqolada jismoniy tarbiya o'qituvchilarida tashkilotchilik kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik sharoitlari yoritilgan.

Kalit so'zlar. Ta'lim jarayoni, jismoniy tarbiya, tashkilotchilik kompetensiyasi, bilim, ko'nikma, kasbiy fazilatlar, pedagogik sharoitlar.

В образовательном процессе организаторская способность и компетентность учителя включает в себя соответствующие знания, умения, профессиональные и личностные качества. В данной статье описаны педагогические условие развития организаторской компетентности учителей физической культуры.

Ключевые слова. Учебный процесс, физическое воспитание, организаторская компетентность, знания, умения, профессиональные качества, педагогическая условия.

In the educational process, the organizational ability and competence of a teacher includes the relevant knowledge, skills, professional and personal qualities. This article describes the features of the development of organizational competence of physical education teachers.

Key words. Educational process, physical education, organizational competence, knowledge, skills, professional qualities, pedagogical conditions.

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining tashkilotchilik kompetensiyasini rivojlantirishda o'qituvchining tashkilotchilik qobiliyati va kompetensiyasi tegishli bilim, ko'nikma, kasbiy va shaxsiy fazilatlarni o'z ichiga oladi.

Tashkiliy kompetensiya – o'qituvchining kasbiy faoliyatda bilim, ko'nikma va tashkiliy harakatlarni amalga oshirish usullarini safarbar qilish qobiliyati. Ta'lim jarayonida o'qituvchilarning tashkilotchilik kompetensiyasini rivojlantirishda jismoniy tarbiya o'qituvchisining o'ziga xos xususiyatlari: kuzatuvchanlik, bag'rikenglik, chidamlilik, hazil tuyg'usi, mehribonlik, tashkilotchilik, optimizm, mustaqillik, mas'uliyat, xushmuomalalik, hamdardlikka tayyorlik, hamdardlik, o'quvchilarning kayfiyatini tushuna olish, o'qish qobiliyati.

Al-Forobiy o'qituvchidan majburiy ilmiy ishlarni talab qilib, tarbiyaviy faoliyatda bilimlilarning kuzatishi va tajribasi bilan uyg'unlikda keng bilim va yuksak axloqiy fazilatlar (axloq, ezgulik, ezgu ishlar qilishga intilish) talab qiladi, deb hisoblagan.

Abu Ali ibn Sino (980-1037) o'qituvchining tashkilotchilik qobiliyatini shakllanishida bir nechta omillarni zarur, deb hisoblaydi. U o'z asarlarida inson kamolotida tarbiya muhim rol o'ynashini ta'kidlab, bunda mudarrislar bolalarga ta'lim berishdek mas'uliyatli burchni bajarib, tarbiya berishga javobgarlik hissi bilan yondashishini uqtiradi va mudarrislarga faoliyatda muvaffaqiyatga erishish garovi bo'lgan quyidagi tavsiyalarni beradi:

– bolalar bilan muomalada bosiq va jiddiy bo‘lish;

– berilayotgan bilimning o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilishiga e’tiborni qaratish;

– ta’limda turli shakl va metodlardan foydalanish;

– o‘quvchining xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini nazorat qilish;

– bolalarni fanga qiziqtira olish;

– berilayotgan bilimlarning eng muhimini ajratib bera olish;

– bilimlarni o‘quvchilarning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda tushunarli olib borish;

– har bir so‘zning bolalar hissiyotini uyg‘otish darajasida bo‘lishiga erishish zarur.

Ibn Sino maktabda bolalarni alohida-alohida o‘qitishdan ko‘ra, jamoaviy, ya’ni sinf tartibida o‘qitishni afzal, deb biladi va bu uslubning ustunligi quyidagilardan iboratligini ta’kidlaydi: “O‘quvchilar o‘qish va tarbiya davomida ilmga chanqoqlik sezadilar. O‘z bilimlari bilan g‘ururlanadilar, bir-birlarining bilimlariga havas qiladilar. G‘urur va o‘ziga e’tibor tarbiyalanuvchilarni bir-birlaridan orqada qolmaslikka undaydi. O‘quvchilar birga bo‘lganda, doim bir-birlari bilan gaplashadilar va bu bilan o‘z xotiralari va nutqlarini rivojlantiradilar”.

Yuqoridagi aytilgan fikrlardan shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, Sharqning buyuk allomalari o‘z asarlarida va pedagogik faoliyatlarida talabaning aqliy faolligini ta’minlaydigan, tashkilotchilik qobiliyatini yuksaltiradigan, ta’lim-tarbiya jarayoni samaradorligini kafolatlaydigan dunyoviy bilimlarni o‘qitish uslublarining yangicha shakllarini yaratish va ta’lim-tarbiya amaliyotida qo‘llash g‘oyasini ilgari surishgan.

Pedagogik ish ustalari ham o‘z-o‘zini tashkil etishning yuqori darajasi bilan ajralib turadi. Maktab o‘quvchilari bilan sinfdan tashqari ommaviy jismoniy tarbiya, sport va sog‘lomlashtirish va dam olish ishlarini olib borishda o‘qituvchining tashkilotchilik kompetensiyasining roli ayniqsa, muhim. Shuningdek, jismoniy tarbiya o‘qituvchisining tashkilotchilik (boshqaruv) kompetensiyasi o‘quv jarayonini, o‘quvchilarning jismoniy tarbiya faoliyatini va o‘qituvchining hulq-atvorini tashkil etish qobiliyatidan iborat. Masalan, darsda o‘quv materialini to‘g‘ri taqdim etish, o‘quvchilar oldiga aniq vazifalar qo‘yish, ularni yechish, mazmunini ochish, jismoniy mashqlarni ko‘rsatish va tushuntirish, ularni amalga oshirishda o‘quvchilarga yordam berishdan iborat. Talabalarni boshqarish ularning diqqatini safarbar qilishni, qurilish va qayta qurishni aniq amalga oshirishni, harakat faoliyatiga tayyorlash, mashqlarning ayrim turlarini ishlab chiqishni, jismoniy faoliyatning dozasini ta’minlaydi. O‘qituvchining kasbi, shu jumladan, jismoniy tarbiya o‘qituvchisining “nutq mas’uliyatini oshirish” kasblariga tegishli bo‘lib, bunda kasbiy mahoratning zaruriy sharti kommunikativ kompetensiyadir. Jismoniy tarbiya o‘qituvchisining tadqiqot malakasi kognitiv muammolarni hal qilish, nostandart echimlarni izlash, ijodiy innovatsiya qobiliyatini ta’minlaydigan ma’lumotlarni to‘plash va qayta ishlash bilan bog‘liq.

Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining tashkilotchilik kompetensiyasini rivojlantirishga subyektiv yondashishning ehtimolligi diqqatni qaratadigan darajada yuqori. Shu sababli, tadqiqot ishimizda pedagogik tashkilotchilik kompetensiyasini rivojlantirishning obyektiv va subyektiv sabablarini ajratib ko‘rsatishga harakat qildik.

Obyektiv sabablar	– o‘quvchida asosiy ehtiyojlarini qondirish darajasi etarli emasligi; – o‘qituvchi va o‘quvchining funksional-rol pozitsiyalarini taqqoslash; – erkinlik darajalarini cheklash (qat’iy intizom talablari, o‘qituvchini yoki fanni tanlash imkoniyati yo‘qligi, mashg‘ulotlarga majburiy qatnashish va boshqalar); – turli avlodlarga tegishli bo‘lgan g‘oyalar, qadriyatlar, hayotiy tajribadagi farqlar (“otalar va farzandlar” muammosi); – o‘quvchilarni o‘qituvchilar tomonidan baholash zarurati; – o‘quvchining ota-ona, o‘rtoqlar yoki boshqa biron bir muhim shaxs, shuningdek, ta’lim muassasasi tomonidan unga qo‘yilgan turli xil, ba’zan qarama-qarshi talablari tufayli majburan ijro etiladigan rollarning ko‘pligi; – o‘quv materiali va hodisalar, real hayot obyektlari o‘rtasidagi farq; – ijtimoiy beqarorlik.
Subyektiv sabablar	– o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi psixologik nomuvofiqlik; – birgalikdagi faoliyatda o‘zini tutish normalarini buzish (masalan, o‘quvchilar tomonidan guruhdagi intizomni buzish); – ta’lim jarayoni ishtirokchilari o‘rtasida kommunikativ madaniyatning etishmasligi; – o‘quvchining intellektual, jismoniy imkoniyatlari va unga qo‘yiladigan talablar o‘rtasidagi farq; – o‘qituvchilar malakasining yetishmasligi (tajribaning yetishmasligi, mavzuni chuqur bilishi, nizolarni hal qilishga tayyorligi va bosh.); – o‘quvchi yoki o‘qituvchida jiddiy jismoniy muammolari, kuchli asabiy, taranglik, shoshqaloqlik mavjudligi; – ta’lim jarayoni ishtirokchilarining ortiqcha jismoniy yuklama olishi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limga murojaat qilish pedagogik ta’limning yangi maqsadi, shu jumladan, jismoniy tarbiya paydo bo‘lishini belgilaydi. Agar ilgari o‘qituvchini tayyorlashning asosiy maqsadi texnologik o‘sish bo‘lsa, bugungi kunda uning shaxsiy rivojlanishiga yo‘naltirish, bu o‘z-o‘zini tashkil etish va faoliyat va shaxsiy tajribani umumlashtirish natijasidir. Ushbu nuqtai nazardan, kasbiy kompetensiya kasbiy ta’lim darajasi, o‘qituvchining tajribasi va individual qobiliyatlari bilan belgilanadigan kategoriya sifatida ko‘rib chiqiladi va kasbiy muammolarni echishga texno-pedagogik tayyorlik, uning insoniy pedagogik pozitsiyasi, pedagogik faoliyatga bo‘lgan qadriyat va umumiy va kasbiy madaniyatning yuqori darajasidir.

O‘quv va o‘quv jarayonlarining “mahsulotlari”, ya’ni shuning uchun olingan bilimlar, o‘qitilgan ko‘nikmalar, munosabat, tayyorgarlik va mavjud malakalar to‘g‘ridan-to‘g‘ri e’tiborga olinadi. Dastlab uzluksiz ta’lim va kasb-hunar ta’limi, so‘ngra umumiy maktab ta’limi va oliy ta’limda kompetensiyalar tushunchasi ta’lim va tarbiyaning “chiqishi” bo‘yicha munozaraning asosiy nuqtasiga aylandi. Kompetensiya tushunchasi bilan yanada murakkab talablar, masalan, kundalik vaziyatlarni matematik modellashtirish, ilmiy tajribalarni rejalashtirish va baholash, mavzuga oid muammolarni hal qilishda o‘zini o‘zi boshqarish va metakognitsiya muhim o‘rin tutadi.

Bugungi kunda o‘qituvchining shaxsiy, kasbiy shakllanishi, o‘z taqdirini o‘zi belgilashi va shaxsan yo‘naltirilgan ta’lim sharoitida kasbiy faoliyatni amalga oshirishga subyektiv tayyorgarligini ta’minlaydigan kasbiy tayyorgarlik tizimi ishlab chiqilmagan; kelajakdagi jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy mahoratini shakllantirish shartlari aniqlanmagan; ushbu sohada malaka uchun yangi talablarni hisobga olgan holda o‘qituvchining kasbiy malakasi mezonlari aniqlanmagan. Garchi kompetensiya tushunchasi hozirda xalqaro universitetlar nutqida mustahkamlangan bo‘lsa-da, ko‘pincha

texnik ta’rifi va nomuvofiq ishlatilishi tufayli u hali ham bahsli.

Maxsus ilmiy adabiyotlar va ijtimoiy-madaniy vaziyatning haqiqatlarini o‘rganish quyidagi qarama-qarshiliklar mavjudligini aniqladi:

– jamiyat va uning a’zolari tomonidan ta’lim sifati, shu jumladan, kasbiy va jismoniy tarbiya talablari va bugungi pedagogika universitetlari bitiruvchilarining malakasi darajasi oshdi;

– an’anaviy bilim paradigmasi asosida oliy ta’limda yuksak madaniy-ijodiy salohiyatga, faol hayotiy pozitsiyaga va pedagogik jarayonni tashkil etishga ega bo‘lgan mutaxassislarga jamiyatning real ehtiyojlari;

– ta’limni insonparvarlashtirish va kasbiy pedagogik ta’limning texnokratik turiga obyektiv ehtiyoj;

– ta’limga shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv sohasidagi nazariy ishlanmalarning mavjudligi va uni o‘quv jarayoniga, ayniqsa, oliy jismoniy tarbiya maktabida joriy etish mexanizmlarining rivojlanmaganligi;

– ta’lim jarayonida o‘qituvchi tomonidan hal qilinadigan kasbiy vazifalar tizimining yaxlitligi va ularni oliy maktabda blok-tipdagi o‘qitish orqali qisman o‘rganish.

“Jismoniy tarbiya o‘qituvchisining kasbiy mahorati” tushunchasi davlat ta’lim standartining qo‘shimcha qismi sifatida va kasbiy jismoniy tarbiya jarayonida shakllanadigan shaxsning murakkab xususiyatlari kasbiy, kommunikativ va shaxsiy xususiyatlarning uyg‘un kombinatsiyasini o‘z ichiga oladi va jismoniy tarbiya sohasidagi asosiy kasbiy faoliyat turlarida tipik muammolarni hal qilish jarayonida sifatli natijalarga eri–shishga imkon beradi. Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, tashkilotchilik kompetensiyasi jismoniy tarbiya darslarida va ta’lim muassasalarida bo‘lajak mutaxassisning ijtimoiy shakllanishi, uning jismoniy barkamollikka erishishi o‘quvchilar uchun muhim individual, shaxsiy va professional sifatlarni faol takomillashtirish vositasi sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Карпушин Б.А. Педагогика и профессионалная подготовка студентов вузов физической культуры // Теория и практика физической культуры. – 2001/-№ 10.– С. 11-14.

2. K. Xoshimov, S. Nishonova, M. Inomova, R. Xasanov. Pedagogika tarixi. O‘quv qo‘llanma. – T.: O‘qituvchi nashriyoti 1996 y. – 89 b.

3. Тютюков В.Г. Дидактико-акмеологическое преобразование спесиалного содержания учебного протсесса в высшей физкултурной школе // Теория и практика физической культуры. 2003. - № 16. - С.48-52.

4. Петунин О.В. Формирование профессионалного мастерства учителя физкултуры [Текст] / О.В. Петунин. – М.: Просвещение, 1980. – С. 112.

5. Рамазанова М.К. Конфликты между студентами и преподавателями в вузе // Наука на благо человечества - 2016: Материалы ежегодной всероссийской научно-практической конференции преподавателей, аспирантов и студентов, посвященной 85-летию МГОУ / Отв. ред. А.Н. Хаулин. – М.: 2016. – С. 63-64.

6. Ҳиер битте эинен Сатз зу Компетензен эинфӱген /М.-С. Фрегин, П. Ричтер, Б. Счреибер, С. Wӱстенҳаген, Ж. Диетрич, Р. Франкенбергер, У. Счмидт, П. Wалгенбач// Дас Ҳочсчулwесен. – 2016. - № 64 (4). – С. 117-123.

Alisher SULTONOV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, “Jismoniy madaniyat metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi
Mohira CHORIYEVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, “Jismoniy madaniyat” yo‘nalishi talabasi

BELBOG‘LI KURASH QOIDALARINING XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Belbog‘li kurashda raqibga nisbatan oyoqlar bilan harakatlanish man etiladi: chalish, oyoqni bosish, ilib olish, tizzaga bukish, oyoqlarni ushlab olish va hokazo. Ushbu maqolada kurash tushish qoidalari, harakatlar tartibi, ya’ni raqib belbog‘idan qo‘lni uzish, raqibni ko‘tarmasdan yiqitish, beldan yiqitish va gilamdan tashqariga yiqitishlar ham mumkin emasligi va qoidaga ko‘ra, raqibni belbog‘idan ushlash an’anaviy usulda bo‘lishi to‘g‘risida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar. Belbog‘li kurash, raqib, gilam, hakam, mashq, yakka, kuch, chalish, pahlavon.

В борьбе по поясу запрещается движение ногами по отношению к сопернику: удары, отжимание ногой, вис, сгибание коленей, захват ног и т.п. Кроме того, нельзя брать руку с пояса соперника, сбить соперника с ног, не поднимая его, сбить с пояса и выбить с ковра. Как правило, соперника принято хватать за талию.

Ключевые слова. Борьба по поясу, соперник, ковер, судья, упражнение, одиночка, сила, игра, борец.

In belt wrestling, it is forbidden to move with the legs in relation to the opponent: hitting, pressing the leg, hanging, bending the knees, grabbing the legs, etc. In addition, it is not possible to remove the hand from the opponent’s belt, knock down the opponent without lifting him, knock him down from the waist and knock him out of the mat. As a rule, it is customary to grab the opponent by the waist.

Key words. Belt wrestling, opponent, carpet, referee, exercise, single, power, play, wrestler.

Belbog‘li kurash qoidalarining xususiyatlari. Belbog‘li kurashda raqibni ushlab olganda, ko‘targanda oldinga, orqaga yoki yonga harakatlanish mumkin. Uni yerdan ko‘targan zahoti tezkor aylantirish, orqa-oldi, yon tomonlarga tashlash kerak. Yerdan ko‘tarishda chapga yoki o‘ngga tez o‘girilish shart va bunda raqibni yon tomonga yoki kurakka tashlanadi. Belbog‘li kurashda raqibga nisbatan oyoqlar bilan harakatlanish man etiladi: chalish, oyoqni bosish, ilib olish, tizzaga bukish, oyoqlarni ushlab olish va hokazo. Undan tashqari, raqib belbog‘idan qo‘lni uzish, raqibni ko‘tarmasdan yiqitish, beldan yiqitish va gilamdan tashqariga yiqitishlar ham mumkin emas. Qoidaga ko‘ra, raqibni belbog‘idan ushlash an’anaviy usulda bo‘ladi. Kurashchilar gilamning markaziga turishadi, har biri o‘ziga qulay bo‘lgan vaziyatda turadi, keyin har ikkalasi ham raqibining chap tomoni orqasiga o‘ng qo‘llarini olib borib belbog‘dan ushlashadi. So‘ngra xuddi shunday qilib, chap qo‘lda belbog‘ni ushlab olishadi. Hakam ikkala kurashchini ham bellashuvga tayyor yoki tayyormasligini so‘raydi va bellashuvni hushtak chalgan holda boshlaydi. Belbog‘dan ushlash shart hisoblanib, uni olishuv vaqtida qo‘yib yuborish, raqib oyog‘ini gilamdan ko‘tarmaguncha oyoqlar bilan harakatlanish mumkin emas. Belbog‘li kurash qoidalariga ko‘ra, kurash texni-

kasining bir qancha usullari mavjud. Eng ko‘p foydalanadiganlari — ko‘tarib oldinga tashlash, aylantirish, o‘ng va chap tomonga tashlash, ilma, raqibni tezkor harakat bilan gilamdan ko‘tarib yon tomonga tashlash, yarim egilma va egilma holatda yonga tashlash. E’tiboringizga kurashda qo‘llaniladigan usullarni o‘zlashtirish uchun mashqlar tizimini havola etamiz. Mashqlar yakka tartibda bajariladigan, juftlikda, qo‘g‘irchoqda, trenajorda chorak kuch bilan, yarim kuch bilan, to‘la kuch bilan bajariladigan, raqib usullaridan himoyalanish mashqlaridan iborat. Usullardan himoyalanishni mashqlarda o‘rganib olishdan avval „soya bilan kurashish“ ko‘rinishidagi usullarni mashq qilib olish lozim. Masalan, „Soya bilan kurashish“ usullarini aloqasiz ifodalash kerak: oldinga, orqaga, chapga, o‘ngga qadam tashlashlar bilan. Qadamlarni turli kenglikda, tezligi va maromini o‘lchab tashlash lozim (1 daqiqa). Holatni (baland, o‘rta, past) o‘zgartirib, aldamchi harakatlar va ushlab olishlarni ko‘rsatgan holda turli tomonlarga harakatlanish kerak (2 daqiqa). Va ushlab olish, aldash, muvozanatdan chiqarish, oyoqlar bilan harakatlanish, tashlash, usullardan himoyalanish kabilarni ifodalagan holda harakatlanish, shuningdek, kiyimdan ushlagan holda muvozanatdan chiqarish, chalish yoki tashlashni (raqibga jarohat yetkazmagan holda) ifodalab harakatlanishlar mavjud. ‘‘Soya bilan kurashish’’da xohlagan usulni qo‘llash mumkin. Orqa oyoqdan chalish usulini yaxshilab o‘rganib olish uchun quyidagi mashqlarni taklif etamiz:

1. Qatnashchilar o‘ng oyoq holatida turishadi. Sherigining kiyimidan ushlagan holda tana og‘irligini o‘ng oyoqqa o‘tkazib, ikki qo‘lning tezkor harakati bilan uni chapga, orqaga tortish lozim. Chapga o‘girilgan holda o‘ng oyoqni sherigining ikkala oyog‘i oldiga bir qadam qo‘yish. Qo‘llarning faol harakati, o‘ng oyoqning itarilishi va gavdaning chapga-oldinga harakati orqali raqib gilamga yiqitiladi.

2. Raqib qarshilik ko‘rsatadi (xuddi oldingi vazifa). Mashqlarni ketma-ketlik bilan bajarish talab etiladi.

3. Raqib yaqin kelganda orqa oyoqni chalish, o‘rtacha tezlikda orqa va oldinga harakatlanish.

4. Mashqni yarim kuch qarshiligida bajarish va xavfsizlikni ham unutmaslik kerak.

5. Mashqni boshqa sherik bilan bajarish. Keyinchalik oyoqlar bilan oldinga, orqaga, yonga qadam tashlab, qo‘llar harakati bilan raqibni qulay holatda ushlab olib, uni chalish mashqini bajarish mumkin.

Quyida sizlarga tezlik, abjirlik, harakatlaringizning uyg‘unligini yaxshilash uchun yakkakurash elementlari bo‘lgan maxsus mashqlarni havola etamiz: 1. Ikki oyoqda, bir oyoqda va tizzada turgan holda yoki gimnastik skameykada turgan holda kaftlarni raqib kaftlariga qo‘yib, uni muvozanatdan chiqarish. 2. Bir yoki ikki oyoqda turib, raqibni chiziq tashqarisiga tortish (chiqarib yuborish). 3. Chap oyoqni oldinga qo‘ygan holda turib, raqibning yelkasidan ushlab olishga urinib ko‘rish. Chap tizzada turgan holda o‘ng qo‘l barmoqlarini birlashtirib (bosh barmoq tepaga qarashi kerak), raqibni ushlab olishga harakat qilish. 4. Chalg‘itishni ifodalab, tezkor qo‘l harakati bilan raqib chap kaftini, sonini, tirsagini, boshini, kuragini, tizzasini urib qo‘yish. 5. Raqib qo‘lini yonga itarish yoki pastga tushirish. 6. Qo‘lning chalg‘itma harakatlari orqali raqibni orqaga o‘girib, gavdasidan ushlash (siqish) yoki oldidan bir qo‘lda gavdasini ushlash. 7. Raqibdan 1 qadam masofada orqasi bilan turgan holda qo‘llarni yonga qo‘yish. Raqib beldan ushlab olishga harakat qilganda qo‘llarni tezda pastga tushirish. 8. Raqibni gavda va qo‘l bilan aylanadan siqib chiqarish. Bir yoki ikki oyoqda sakrab turgan holda raqibni (kaftni kaftga qo‘yib) itarib chiqarish. 9. Ishora berilgandan keyin raqibning qo‘lidan to‘pni bir yoki ikki qo‘lda olib qo‘yish. Bu mashqni gimnastik tayoqcha bilan ham ba-

jarish mumkin. Yerdagi to‘pdan 1- 2 metr masofada turgan yoki o‘tirgan holda ishora berilishi bilan birinchi bo‘lib uni olib qo‘yish. 10. Diametri 1,5 metrli aylanada chalg‘ituvchi harakatlarni bajarish. Asosiy vazifa — qulay vaziyatni tanlab, raqibning qo‘lidan, belbog‘idan ushlab olib o‘ziga tortish. 11. Yon tomon bilan o‘tirgan holda qo‘llar tizzada turadi. Ishora berilishi bilan raqibning bel tomonidan ushlash (raqib yonga chap berib qolishi kerak). 12. Bir-biriga orqasi bilan o‘tirgan holda qo‘llarni tizzaga qo‘yib, ishoraga binoan o‘girilib, raqibni o‘ng qo‘l bilan bo‘ynidan (boshning orqasidan) ushlab olish. Chap qo‘lda himoyalanish lozim. 13. Bir-biriga yaqin yotgan holda (boshni bir tomonga qaratib) ishora berilishi bilan bir kishi turadi, ikkinchisi esa uni ushlab qolishga urinadi. 14. Yotgan holda ishora berilishi bilan tezda turib, raqibning belidan orqadan yoki oldindan ushlab olish.

Butun jahon nigohiga tushib, dovrug’ va shuhrat qozonayotgan, millionlarni o‘ziga mahliyo etgan kurash ham jahonning yuksak ma’naviy qadriyatlaridan biri sifatida o‘zining chuqur tarixiy ildizlariga egadir. IV asrda O‘rta Osiyoda yashagan xalqlar doirasida chaqqon akrobatdorbozlar mashhur bo‘lgan. Epchil, jismoniy jihatdan juda chiniqqan dorbozlar Yunoniston, Vizantiya va Eron kabi mamlakatlarga borib, o‘zlarining ajoyib va xatarli o‘yinlarini qiziqchi va masxarabozlarning o‘tkir satira va kulgu bilan boyitilgan turli sirk sahnalari, o‘qdek uchadigan muallaqchilar va kishi aqli bovar qilmaydigan pahlavonlarning o‘yinlari, yog‘och oyoqlarning jo‘shqin raqslar va ot o‘yinlarni chuqur ma’noli so‘zlari va baytlarini sozandalarning bu o‘yinlarga moslangan mashqlarini ko‘z-ko‘z qilganlar. Shunday ashyolardan biri silindr shaklidagi sopol idish bo‘lib, u qadimgi Baqtriya (Janubiy O‘zbeksiton) hududidan topilgan. Uning bir parchasida ikki kurashchi va ulardan birining o‘z raqibini oyog‘idan chalayotgani tasvirlangan. Yana bir idish gardishidagi haykalchalarda ham pahlavonlarning qo‘llarini ko‘tarib kurashga shaylanayotgani holda o‘z ifodasini topgan. Samarqand yaqinidagi Chelak qishlog‘idan topilgan ashyolar o‘tmishdan sado beradi. Ushbu idishlar orasida kumush bastali qadoqcha, ayniqsa, e‘tiborni tortadi. Uning dastasi sirtida ikki polvonning huddi O‘zbek Kurashi usulida olishayotgani ifodalangan. Mazkur topilma ilk o‘rta asrlar davriga oiddir. Etnograflarning tadqiqotlariga ko‘ra, eng qadimgi doston, ertak va rivoyatlarda ham kurash haqida lavhalar keltirilgan. Ularning mazmuniga diqqat bilan qarasangiz, matriarxat davriga tegishli ekanligini bilasiz. Bundan kelib chiqadiki, O‘zbek kurashining tarixi 5 ming yil oldingi moziyga borib taqaladi.

O‘zbek xalqida Kurash an’anasining uch turi mavjud bo‘lib, uning eng dastlabkisi jismoniy mashq sifatida – ekzogam nikoh marosimi bilan bog‘liq holda yuzaga kelgan. Nikoh marosimida bo‘lajak kelin-kuyovning kurash tushishini o‘sha davrdagi hukmron ayollar uyushtirgan. Tarixshunos, qadimshunos, elshunos va faylasuf olimlarning olib borgan tadqiqotlari, izlanishlari va arxeologik ilmiy qidiruvlari, kuzatishlari natijasida topilgan ashyoviy dalillar Kurashning yoshi kamida 2,5 - 3 ming yildan ziyodligini isbotlaydi. Surxon, Zarafshon vohalari hamda Farg‘ona vodiysining bir qator qadimgi aholi manzilgohlarida aniqlangan noyob topilmalari, qoyalarga bitiigan tasviriy san’at namunalari ham bunga to‘liq shohidlik beradi. “Kurashimiz tarixini ilmiy isbotlab beradigan 6 ta topilma-ashyoviy dalil mavjud. Chunonchi, Panjikentdan topilgan kurashayotgan ikki pahlavonning devoriy rasmi Sug‘diyona davlatchiligiga, ya’ni o‘rta asrlar davriga oid noyob yodgorlik sanaladi. O‘zbekiston hududida kurash milodiy IX-X asrlarda keng rivoj topgan bo‘lib, xalq sayillarida musobaqa o‘tkazish an’anaviy tus olgan. Mahalliy aholi turli marosimlarni nishonlashda, ayniqsa, Navro’z kunlarida kurash musobaqalarini o‘tkazishga alohida ahamiyat bergan», deb yozadi S.P. Tolstov. Bu bayramlarning

dastlabki uch kunida yurt keksalari, ulug‘lari rahbarligida kurash tomoshalari uyushtirilgan sayilgohlar odamlar bilan to‘lib toshgan. Shu munosabat bilan mahbuslar ozod qilingan ayibdorlarning gunohidan o‘tilgan. Muhimki, o‘tkazilgan kurashlar yosh avlod namayondalari uchun har tomonlama chinakam chiniqish maktabirni o‘tagan. O‘zbek halq ijodi namunalari bo‘lmish ‘‘Alpomish’’, ‘‘Go‘ro‘g‘li’’, ‘‘Avazxon’’, ‘‘Rustam’’, ‘‘To‘lg‘anoy’’, ‘‘Kuntug‘mish’’ kabi dostonlarda ham pahlavonlar kurashi madh etilib, epchil va chaqqon, zukko va donolar ulug‘langan. X asrda yashab o‘tgan arab geografi va sayyohi Muqaddasiy asarlarida ham Movarounnahirning Samarqand, Buxoro, Balx, singari yirik shaharlarida tez-tez kurash olishuvlari o‘tkazilgani ta’kidlanadi. Benazir alloma Abu Ali ibn Sino (980-1037) ham ‘‘Tib qonunlari’’ kitobida kurash insonning ruhiy va jismoniy holatlda alohida ahamiyat kasb etishiga urg‘u bergani bejis emas. Buyuk tabibning ta’kidicha, badan tarbiya bilan muntazam shug‘ullanuvchi kishilar kasallikning davosiga muhtoj bo‘lmaydi. Sharq adabiyoti durdonalari hisoblamnish ‘‘Shohnoma’’, ‘‘Qobusnoma’’, ‘‘Zafarnoma’’, ‘‘Boburnoma’’, singari asarlarda ham polvonlarning siyrati va qiyofasiga oid yorqin chizgilar, ularning ma’naviy olamini serjilo rangli tasvirlari aks etgan. Alisher Navoiy hazratlari ham kurashni, uning dovrug‘ini yetti iqlimga taratgan polvonlar baxsidan huzurlangan. Shu bois, ko‘plab asarlarda pahlavonlar hayoti va faoliyatiga oid ajoyib-g‘aroyib voqealar, lavhalarini yozib qoldirgan. Kurash tushishni kanda qilmagan buyuk polvon va bahodir Pahlavon Muhammad o‘z davrining tengsiz polvonzodasi bo‘lgan. Shuningdek, u she’riyatni nozik tushunganidan o‘sha davr shoirlari o‘z yangi asarlarini avvalo ul zodga ko‘rsatib, maslahat olishgan ekanlar. Kurashni to‘liq o‘rganishni istagan har bir yigit yoki qiz uning tarixini yaxshilab o‘rganishi, qonun-qoidaiariga, etikasi va axloq-odob tamoyillariga rioya qilmoqlari zarur. U o‘z xatti-harakatlari va axloqi bilan hech qachon o‘z vatanining va albatta kurashning obro‘sini to‘kmasliklari kerak hamda hayotining oxirgi daqiqasigacha xalqiga, yurtiga, har qanday holatda ham kurashga sodiq qolishi kerak. Shu bilan bir qatorda, kurashchilar mashg‘ulot vaqtida yoki olishuv paytlarida ortiqcha gapirmasliklari (agar bunga zaruriyat bo‘lmasa), diqqatlarini bir joyga to‘plab, boshqa narsalarga qaralmasliklari, bir-birlariga shikast yetkazmasliklari, biror usulni o‘rganish uchun yig‘ilayotgan vaqtlarida ham bir-birovlarini kurash yaktaklarida biror kamchilik bo‘lsa darrov sheriklariga bildirishlari zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kurash xalqaro qoidalari, texnikasi va taktikasi. K. Yusupov, G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot. – T., 2005 y.

2. Kurash A. Atayev. – T.: O‘qituvchi, 1987 y.

3. Belbog‘li Turkiston kurashi. N.X. Azizov. –T.: O‘qituvchi, 1998 y.

4. Dzyudo kurashi. A.A. Abdusattorov, A.A. Istomin. –T.: Ibn Sino, 1993 y.

5. Юнусова Ю.М. Основ методика физической култур. – T., 2005 г.

6. Yarashev K.D. Jismoniy tarbiya va sportni boshqarish. – T.: ‘‘Abu All ibn Sino’’ 2002 y.

7. Kerimov F.A. Sport kurashi nazariyasi va uslubiyati. – T., 2001 y.

8. Azizov N.X. Belbog‘li Turkiston kurashi. – T.: O‘qituvchi, 1998 y.

9. Atoyev A. Yosh o‘smirlar o‘zbek kurashini o‘rgatish uslubiyati. – T.: O‘qituvchi, 2005 y.

10. K. Yusupov. Kurash xalqaro qoidalari texnikasi va taktikasi. – T., 2005 y.

11. R.S. Salomov. “Sport mashg‘ulotlarining nazariy asoslari” O‘zbekiston Davlat jismoniy madaniyat institute/ – T., 2005 y. – 238 b.

U.Q. SHOYMUROTOV,
Nizomiy Nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti,
"Kechki ta'lim bo'limi" o'quv ishlar bo'yicha dekan muovini

TASVIRIY SAN'AT VA ADABIYOTNING ALOQADORLIK TA'LIM QONUNIYATLARINING AMALIYOTIDAGI HOLATI

Annotatsiya

Maqolada ta'lim muassasalari faoliyatini samarali tashkil etish, jamiyatda o'qituvchi nifuzini ko'tarish, uning sifatli amaliy faoliyat ko'rsatishi uchun sharoit yaratish, moddiy va ma'naviy rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratilishi haqida fikr yuriyilgan. Shuningdek, san'at voqelikning o'zida ifodalash uslubi va xarakteri, mazmuniga ko'ra har xil turlarga bo'linadi. San'atning eng ijobiy va muhim xususiyati shundaki, u fandan farqli o'laroq voqea va hodisalarni tushunchalarda emas, balki sezgi va his bilan idrok qilinadigan shakllarda, tipik-badiiy obrazlarda ifodalanishi aytib o'tilgan. Tasviriy san'at jahon xalqlarining o'tmishi, hozirgi kuni va kelajakdagi hayotini ifoda etuvchi, tabiat va jamiyatni tasvir etuvchi haqiqiy ko'zgu bo'lib qoladi.

Kalit so'zlar. San'at, ta'lim, kelajak, qadriyat, ma'naviy, estetika, tasvir, tarix, zamonaviylik, asar.

В статье рассматриваются вопросы эффективной организации деятельности образовательных учреждений, повышения престижа учителя в обществе, создания условий для его качественной практической деятельности, уделяется особое внимание материальному и моральному стимулированию. Также искусство делится на разные виды по способу и характеру выражения самой действительности, по содержанию. Наиболее положительной и важной особенностью искусства является то, что оно, в отличие от науки, выражает события и явления не в понятиях, а в формах, воспринимаемых интуицией и чувством, типично-в художественных образах. Изобразительное искусство остается настоящим зеркалом, выражающим прошлое, настоящее и будущее жизни народов мира, изображающим природу и общество.

Ключевые слова. Искусство, образование, будущее, ценность, духовность, эстетика, изображение, история, современность, произведение.

The article focuses on the effective organization of the activities of educational institutions, raising the nifuz of the teacher in society, creating conditions for its qualitative practical functioning, and on material and spiritual stimulation. Also, art is divided into different types according to the way and character of expression, content in reality itself. The most positive and important feature of art is that, unlike science, it is mentioned that events and phenomena are expressed not in concepts, but in forms perceived by intuition and feeling, in typical-artistic images. The visual arts remain a real mirror, representing the past, present and future life of the world's peoples, depicting nature and society.

Key words. Art, education, future, value, spiritual, yesthetics, image, history, modernity, work.

Respublikamiz maorif tizimida qilinayotgan yangi islohotlar ta'lim-tarbiya jarayonining ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-nazariy, iqtisodiy hamda tashkiliy asosi bo'lmish "Ta'lim to'g'risidagi Qonun"[1] va u bilan bog'liq me'yoriy hujjatlarni qayta ko'rib chiqishni talab qilmoqda. Ta'lim muassasalari faoliyatini samarali tashkil etish, jamiyatda o'qituvchi nifuzini ko'tarish, uning sifatli amaliy faoliyat ko'rsatishi uchun

[1] O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risidagi qonun". // O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-son.

sharoit yaratish, moddiy va ma’naviy rag‘batlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu harakatlarning barchasi kundalik ta’lim amaliyotini avvalo mazmun, shuningdek, shakliy jihatdan mukammallashtirib, oxir-oqibat o‘quvchilarning axloqiy tarbiyasi, bilim va saviyasida aks etmog‘i kerak. Mazkur vazifani ado etish uchun esa har bir fan, predmetning o‘qitilishidagi joriy holatni tahlil qilib, yutuq va kamchiliklarni aniqlab olish muhim. Ana shu nuqtayi nazardan maktablarimizda mumtoz adabiyot namunalarini o‘qitishning ayni paytdagi holatini o‘rganish, tahlil qilish muammoni hal etishning omili sanaladi desak, xato bo‘lmaydi.

Jahonda ijtimoiy taraqqiyot paradigmasining mafkuradan madaniyatga o‘zgari–shi, umuminsoniy va madaniy qadriyatlar tizimini qayta baholash, shaxsning o‘zini o‘zi qadrlashi bugungi kunda ma’naviyatga, ma’naviy madaniyatga, shaxs tafakkurining aynan, mantiqiy va badiiy shakllarining rivojlanishiga olib keldi.[2]

Natijada, ko‘pincha ma’lum bir qolipga solingan bilimlar, tor ixtisoslik ko‘nikmalari va qobiliyatlari bugungi kunning global muammolari oldida yetarli emas, ba’zan esa kuchsiz bo‘lib chiqdi. Ta’lim va amaliyot nazariyasida ‘‘qolgan hamma narsa (ijodkorlik, hissiy-qadriyat munosabatlari), axloqiy va boshqa ehtiyojlar hamda qiziqishlar o‘z-o‘zidan paydo bo‘ladi, rivojlanadi’’ deb hisoblangan. Biroq, ta’limning ijodiy faoliyatga va badiiy tafakkur usullariga o‘rgatish kabi tarkibiy qismlariga e’tibor bermaslik ‘‘Haddan tashqari intellektuallikka va natijada vositalarning maqsaddan, shaxsiy maqsadning ustuvorligi bilan tavsiflangan texnokratik tafakkurning hukmronligiga olib keladi ma’no va inson manfaatlari, texnologiya insoniy qadriyatlardan ustundir’’[5].

Bugungi kunda ta’lim va tarbiya jarayonida tafakkur, xususan, badiiy tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish muammolari ikkinchi darajali emas, balki asosiy o‘rinlardan birini egallashi kerakligiga alohida e’ribor qaratilmoqda[3].

Ijtimoiy ong shakllaridan biri – san’at – tabiat va jamiyatda bo‘lgan, bo‘layotgan va bo‘ladigan voqea-hodisalarni badiiy tasvirlarda ifodadanishidir. San’at o‘zida moddiy olamning umumiy holatini va rivojlanishini aks ettirib, odamlarga uni bildirishda muhim vosita bo‘ladi va ularni siyosiy, axloqiy va badiiy jihatdan tarbiyalashning qudratli omili bo‘lib xizmat qiladi. San’at voqelikning o‘zida ifodalash uslubi va xarakteri, mazmuniga ko‘ra har xil turlarga bo‘linadi. San’atning eng ijobiy va muhim xususiyati shundaki, u fandan farqli o‘laroq voqyea va hodisalarni tushunchalarda emas, balki sezgi va his bilan idrok qilinadigan shakllarda, tipik-badiiy obrazlarda ifodalaydi.[4.]

Tasviriy san’at jahon xalqlarining o‘tmishi, hozirgi kuni va kelajakdagi hayotini ifoda etuvchi, shuningdek, tabiat va jamiyatni tasvir etuvchi haqiqiy ko‘zgu bo‘lib qoladi. Biz undan o‘tmishni, bugunni va kelajakni ko‘ramiz. Shu boisdan ham realistik tasviriy san’ati ustalari o‘tmish tarixini ham, matriya va taraqqiyotni ham, matematika va tabiyotni ham, geografiya va biologiyani ham yaxshi bilishi lozim. Mustaqil O‘zbekiston xalqining estetik falsafasi, go‘zallikni san’atning ajralmas qismi va kategoriyasi, shakl va mazmuni, uning zaruriy sharti deb ko‘rsatadi. San’at juda qadimgi tarixga ega bo‘lib, u jamiyatning mehnat faoliyatini rivojlanishi, takomillashuvi va ijtimoiy faoliyatining taraqqiyoti asosida shakllandi. U moddiy ishlab chiqarishni jamiyatning iqdisodiy tuzumi va mehnat munosabatlari, qurollarini takomillashuvidan, jamiyat ongining evolyutsion taraqqiyoti jarayonida vujudga keldi va rivojlandi. Sinfiy jamiyatning vujudga kelishi bi-

[2] Bekmirov Ch.J. Manzara janrini tasviriy san’atdagi o‘rni va tarbiyaviy ahamiyati. // ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 2 | ISSUE 2 | 2021

[3] Oripov B.N. Tasviriy san'at va uni o‘qitish metodikasi. // – T., 2004 y.

[4] Normatov U., Karimov B. Adabiyotimiz faxri. // “O‘zbekiston” nashriyot, 2007. — 8 b., – 328 b.

lan san’at ham sinfiy xarakterga o‘tdi. Har bir jamiyatda turli sinflar mavjud bo‘lganidek, o‘sha jamiyatning san’atida ham turli sinflar manfaati, siyosati, dunyo qarashi bo‘ladi. San’atni sinfiy xarakteri – uning qaysi sinf vakilini qanday mazmunda ifodalashga va qaysi sinfning iqtisodiy va siyosiy manfaatini, hayotini himoya qilishiga qarab belgilanadi. I. Repinning ‘‘Volga Burlaklari’’ asarini kuzatar ekanmiz, unda mehnatkashlar ommasining hayoti, ularning og‘ir turmushi va mehnati ifodalanadi va ular manfaati himoya qilinadi. Tasviriy san’atning muhim xususiyatlaridan biri – inson uchun faqat borliqni, tabiat va jamiyatdagi voqea-hodisalar va narsalarni bildiribgina qolmay, odamlarga yangi bilim, tasavvur va tushunchalar berib, ma’naviy boyituvchi, ijodiy yuksalishga boshlovchi qudratli faktor bo‘lib, xizmat qiladi[3].

Yozuvchi va shoirlar kabi rassomlar ham o‘z asarlarida hayotni qanday ko‘rsalar o‘shanday emas, balki undagi xarakterli ko‘rinishlarni tanlab oladilar, kerakmas ikkinchi darajali ko‘rinishlarni tushurib qoldiradilar, muhimlarini bo‘rttirib ko‘rsatadilar. Tanishish va bo‘rttirish orqali rassomlar narsa va hodisalarni kishilarning tafakkuri va hissiyotlariga samarali ta’sir ko‘rsatishga erishadilar. Rassom borliqni shunchaki biladigan shaxs emas, balki u boy tasavvur va tafakkur qilish qobiliyatiga ega bo‘lgan kishidir. U o‘z ijodida borliqni shunchaki aks ettiribgina qolmay, balki unga asoslangan holda nimalarnidir o‘ylab topadi, tasavvur etadi va to‘qiydi. Eng muhimi, san’at asarlari o‘z mazmunida borliqni aks ettiribgina qolmasdan, u rassomning g‘oyalarini ifodalaydi, uni boyitadi, shu bilan birga bunday asarlar tomoshabinga emotsional ta’sir ko‘rsatish kuchiga ham egadir. Adabiyotda ham xuddi shunday metod, ijodiy yondashishi, voqelikni badiiylashtirish usullari borligi tasviriy san’at va adabiyotning aloqadorlik qonuniyatini mushtarakligini anglatadi. Shuning uchun ham talabalarning badiiy tafakkurini rivojlantirishda bu qonuniyatdan didaktik vosita sifatida foydalanishi tavsiya etiladi[4].

Bu jarayon tashkiliy-metodik jihatdan qanday sodir bo‘ladi? Buning eng samarali yo‘li qiyosiy taqqoslash metodidan foydalanishdir, ya’ni talabaga muayyan adabiy asardagi syujet, voqelik asosida tasviriy obraz yaratishi mashqlarini bajartirish uchun adabiyotdagi badiiy tafakkur elementlarini tasviriy san’atdagi aniq bir obrazga aylantirish mumkin bo‘ladi. Obraz esa faqat portret tariqasida tushunilmasligi kerak. U natyurmort yoki manzara ham bo‘lishi mumkin. Tasviriy san’atda tabiat ko‘rinishlarini tasvirlashi alohida joziba kasb etadi. Manzara janridagi asarlarning ayrimlari bevosita tabiat manzarasini haqiqiy ko‘rinishini tasvirlasa, boshqalari ijodiy tarzda xayolan ifodalangan bo‘ladi. Ba’zan bu ikki hol bir asarda bo‘lishligi ham mumkin[5].

Haqiqat qonuni – asosan uchta belgi bilan ifodalanadi. Birinchi belgi – bu badiiy asarda sodir bo‘layotgan voqeani vaziyatning o‘ziga xosligi. A. Savrasovning “Zag‘cha”, I. Levitaning ‘‘Oltin kuz’’, A. Kuindjining ‘‘Qayinzorda’’, A. Rilovning “Moviy kenglikda” manzaralarida mazmun, nafosat, bilan birga tabiatning o‘ziga xos obrazi tasvirlangan. Ikkinchi belgisi – bu sodir bo‘layotgan voqea mavzusini, harakat holati vaqtini tasvirlash bilan bog‘liq[2].

Yu. Pimenev uzining ‘‘Yangi Moskva’’, ‘‘Ertangi ko‘chalarda to‘y’’ asarlarida ko‘z oldimizda o‘zgarayotgan harakatdagi zamonaviy shahar hayotini ko‘rsatgan. To‘y marosimini yo‘nalishida kelajak hayotga shaxdam qadam tashlayotgan yoshlarning holatidir. Uchinchi belgisi bu – yangilikdir. O‘zbekiston tasviriy san’atida aynan yuzimizga xos tabiat manzaralarini Ugol Tansiqboyev, Ne’mat Qo‘ziboyev, Nikolay Karaxan, Muhammadiyor Toshmurodov, Dilorom Mamedova kabi rassomlarning manzaralarida

[5] Shoymurotov U.Q. Talabalarda badiiy tafakkurni rivojlantirish dolzarb muammo sifatida. // ‘‘O‘ZBEKISTONDA MILLIY TADQIQOTLAR: DAVRIY ANJUMANLAR.’ 2022/1

ko‘rish mumkin. Xuddi shunday manzaralar Hamid Olimjon, Oybek, Muhammad Yusuf, Azim Suyun she’riyatida ham tasvirlangan[2].

Realistik san’at xaqiqatni to‘g‘ri ifoda etib qolmay, rassom his tuyg‘ularini, estetik go‘zallikni, tasavvurni jozibali tarannum etadi.

Badiiy obrazdagi estetik sifatlar, kompozitsiya yechimidagi yangiliklar rassom tomonidan kashf etiladi.

Manzara san’ati tashqi dunyoning go‘zalligini aks ettirish bilan insonga ijobiy ta’sir etuvchi kuchga ega. Bu kuchning ta’siri tasavvurni, tasavvur esa taassurotni yuzaga keltiradi. Badiiy tafakkur esa taassurotni anglash, idrok etish, baholash, umumlashtirish hamda shaxsiy nuqtayi nazarni yuzaga kelishiga asos bo‘ladi. Shuning uchun rassom tabiat olamini eng nozik, tipik holatlarini, rang garmoniyalarini anglab, tabiatga nisbatan bo‘lgan estetik munosabatini bildiradi.

Manzara asarida inson shaxsi, aql-zakovati, ichki tuyg‘ularini tasvir orqali qo‘shiq qilib kuylaydi va tabiat obrazini yaratadi. Misol tariqasida I. Levitanning ‘‘Vladimiroka’’, ‘‘Abadiy sokinlik uzra’’, I.Shishkinning ‘‘O‘rmon kengliklari’’, V. Meshkovning ‘‘Ural haqida o‘ylar’’, o‘zbekistonlik rassomlaridan O‘. Tansiqboyevning “Mening qo‘shig‘im”, “Jonajon o‘lka”, “O‘zbekistonda mart”, G‘afur Abdurahmonovning “Sijjikka yo‘l”, Ortig‘ali Qozoqovning “Sirdaryo”, Muhammadiyor Toshmurodovning “G‘ilon”, kabi asarlarini keltirish mumkin[2].

Odatda, ifodaviylik va tasviriylik san’at turlarini farqlovchi xususiyatlar sifatida tilga olinadi. Ya’ni tasviriy san’at turlarida (rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik) badiiy obraz yaratishda tasvir yetakchilik qilsa, ifodaviy san’at turlarida voqelikni tasvirlashdan ko‘ra insonning ana shu voqelikdan olgan taassurotlari ifodasi birinchi planga chiqadi. Bu jihatdan badiiy adabiyot tasvirlash va ifodalash imkoniyatiga birdek ega ekani bilan boshqa san’at turlaridan ajralib turishi bois adabiyot va tasviriy san’atning aloqadorlik qonuniyati yaqqol namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risidagi qonun”. // O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 23.09.2020-yildagi O‘RQ-637-son.

2. Bekmirov Ch.J. Manzara janrini tasviriy san’atdagi o‘rni va tarbiyaviy ahamiyati. // ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 2 | ISSUE 2 | 2021

3. Oripov B.N. Tasviriy san’at va uni o‘qitish metodikasi. // – T., 2004 y.

4. Normatov U., Karimov B. Adabiyotimiz faxri. // O‘zbekiston nashriyot, 2007. – 328 b.

5. Shoymurotov U.Q. Talabalarda badiiy tafakkurni rivojlantirish dolzarb muammo sifatida. // ‘‘O‘ZBEKISTONDA MILLIY TADQIQOTLAR: DAVRIY ANJUMANLAR:’ 2022/1

Hulkar MIZAMOVA,
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti, "Maktabgacha va musiqiy ta'lim" kafedrasi katta o'qituvchisi

MUSIQA METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH PEDAGOGIK TAMOYILLAR TIZIMIDA

Annotatsiya

Maqolada musiqa san'atining o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadigan texnologiyalar, musiqa mashg'ulotlarida qo'llaniladigan umumiy pedagogik usullar, an'anaviy o'qitish usuli, noan'anaviy pedagogika, shuningdek, pedagogik usullardan muammoli vaziyat metodi va loyihalar metodining bugungi kunda dolzarbligi xususida tahlillar va bolalardagi iqtidorni erta aniqlash va rivojlantirish borasida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar. Musiqa, pedagogika, umumiy pedagogik usullar, vaziyat metodi, loyihalar metodi, an'anaviy o'qitish, noan'anaviy pedagogika.

В статье рассматриваются технологии, определяемые спецификой музыкального искусства, общепедагогические методы, применяемые на музыкальных занятиях, традиционные методы обучения, нетрадиционная педагогика, а также педагогические методы метода проблемных ситуаций и метода проектов, обсуждаются анализы актуальности и раннего выявления и развития детского таланта.

Ключевые слова. Музыка, педагогика, общепедагогические методы, кейс-метод, метод проектов, традиционное обучение, нетрадиционная педагогика.

In the article, the technologies determined by the specific characteristics of the art of music, general pedagogical methods used in music classes, traditional teaching methods, non-traditional pedagogy, as well as pedagogical methods of problem situation method and project method are discussed today, analyzes of relevance and early identification and development of children's talent are discussed.

Key words. Music, pedagogy, general pedagogical methods, case method, project method, traditional teaching, non-traditional pedagogy.

Bugungi uchunchi renesans avlodlarini tarbiyalash va bolajonlarni turli sohaga kirib borishini ta'minlash maqsadida maktabgacha ta'lim tashkilotlari tor mutaxassislik pedagoglari tomonidan yangicha uslubda bolaga yo'naltirilgan ta'lim tashkil etilmoqda. Bu mamlakatimizning ijtimoiy, iqtisodiy, ta'lim va madaniy hayotida ro'y berayotgan tub o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liq.

Albatta, hissiy rivojlanish musiqiy faoliyat uchun zarur bo'lgan qobiliyatlarni shakllantiradi. Bolaning badiiy tafakkuri atrof-muhitni amaliy o'zlashtirish bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu ularning ongi, badiiy g'oyalari, tushunchalari, hukmlarida namoyon bo'ladi. Aynan shuning uchun ham, maktabgacha yoshdagi bolalik bosqichida musiqa ta'limi va tarbiyasini musiqiy faoliyat sohasidagi malakali, ya'ni musiqiy pedagogik ma'lumotga ega bo'lgan, musiqaga o'qitishning zamonaviy uslublari va texnologiyalariga ega bo'lgan pedagog amalga oshirishi kerak.

Musiqa ta'limi nazariyasi va metodikasi o'qitish usullarni belgilashda umumiy pedagogikaga, shu bilan birga, musiqa ta'limining o'ziga xos xususiyatlari ish usullarini tanlash mezoni o'quv materiali mazmunining xususiyatlariga (uning murakkabligi va yangiligi), aniq pedagogik maqsadlarga, bolalarning tayyorgarligiga, shuningdek, pe-

dagogning shaxsiyatiga asoslanadi. “Musiqa ta’limi nazariyasi va metodikasi” umumpedagogik metodlar bilan bir qatorda musiqa san’atining estetik mohiyati va intonatsion xususiyatiga ko‘ra o‘ziga xos metodlarga ega.

Musiqa mashg‘ulotlarida qo‘llaniladigan umumiy pedagogik usullar quyidagicha: bilim manbaiga ko‘ra, amaliy (musiqa bo‘yicha ijodiy daftarda topshiriqlarni bajarish), vizual (pedagogning tinglash uchun asar parchasini tasvirlashi, o‘rganilayotgan asarning murakkab intonatsion xususiyatlarini ko‘rsatuvchi pedagogning ovozi), og‘zaki (musiqa bo‘yicha), musiqa rahbarining musiqiy ifoda vositalarining mohiyatini, kompozitor ijodining stilistik xususiyatlarini va boshqalarni tushuntirishi, kitob bilan ishlash (musiqa bo‘yicha adabiyotlar) video metod (balet, opera va hokazolarning ekran variantlaridan parchalarni ko‘rish)lardan kengroq foydalanishni taqozo etadi.

Maqsad – bilimlarni o‘zlashtirish (masalan, musiqiy ifoda vositalarini bolaga xos tarzda pedagog tomonidan tushuntirish), ko‘nikma va malakalarni shakllantirish (masalan, ovozli ta’limning vokal va xor mahorati, ansambl, janr va hokazo), bilimlarni qo‘llash, ijodiy faoliyat (taklif etilgan matnga ohang yaratish va boshqalar), bilim, ko‘nikmalarni mustahkamlash, tekshirish (ijodiy musiqa kitoblarida topshiriqlarni bajarish).

Kognitiv faoliyatning tabiati – tushuntirish va illustrativ (pedagog tomonidan musiqiy cholg‘ularida ijro etish mahoratini tushuntirish), reproduktiv (bolalarning o‘tilgan mavzu bo‘yicha savollariga javoblari), muammoni qo‘yish (yetakchi savollar orqali bolalar bilan haqiqatni birgalikda izlash), tadqiqot (muammo bo‘yicha loyihani amalga oshirish), o‘yin (mashg‘ulotda didaktik o‘yinlardan foydalanib, tovush yoki balandlik dinamikasi haqida g‘oyalarni shakllantirish va hokazo)larni o‘z ichiga qamrab oladi.

Didaktik maqsadlar – materialni birlamchi o‘zlashtirishga yordam beradigan usullar (bolalarni dinamik soyalar bilan tanishtirish va boshqalar), shuningdek, olingan bilimlarni mustahkamlash va takomillashtirishga yordam beradigan usullarni (janr, uslub haqida olingan g‘oyalarni birlashtirish) tinglash, ijro etish.

Umumiy pedagogik usullardan muammoli vaziyat metodi va loyihalar metodi bugungi kunda pedgogikani asosiy yo‘nalishlari nuqtai nazaridan ayniqsa dolzarbdir. **Muammoli vaziyat usuli** – nutqni qurishning so‘roq shaklini oladi. Bolalarning savoldan savolga bo‘lgan qiziqishi so‘nmasligi uchun Kabalevskiy ularni asta-sekin murakkablashtirishni taklif qildi, oddiyroq savollar, ‘‘baland ovozda’’ javobni talab qiladigan savollar va aqliy javoblar-mulohazalar bilan almashdi. “Pedagog hamma narsani o‘zi vaqtni tejagan holda aytib berishi mumkin, lekin shu bilan birga, mashg‘ulotga barcha ta’lim va tarbiyaning eng yovuz va eng xavfli dushmani bu tarbiyalanuvchilarning passivligidir. Shu bilan birga, atmosferada eng xavfli ‘‘zerikish mikrobi’’ paydo bo‘ladi”, degan edi Kabalevskiy. Musiqiy ta’limda muammoli vaziyat usulining harakat algoritmi ikki tomon harakatlar ketma-ketligidan iborat.

Loyiha faoliyati metodi – tarbiyalanuvchilarning haqiqiy bilimlarini umumlashtirish emas, balki ularni qo‘llash, shuningdek, o‘z-o‘zini tarbiyalash orqali yangi bilimlarni egallashdir. Loyihalar ommaviy, yakka tartibda yoki jamoaviy tarzda himoya qilinadi. Shartli ravishda ta’lim texnologiyalarini ikki turga bo‘lish mumkin: an’anaviy, noan’anaviy.

Ta’lim texnologiyasining an’anaviy turi – ta’lim jarayoni ko‘proq pedagog shaxsiga qaratilgan, muayyan muddatga mo‘ljallangan bo‘lib, ta’lim-tarbiya maqsadiga o‘qitishning an’anaviy uslubi, shakli va ta’lim vositalarining majmuidan foydalanib erishishdir[1].

[1] Баубекова Г.Д., Халикова Г.Т. Образование: опыт, проблемы, перспективы. Учебное пособие. – Т.: Yangi asr avlodi.

An'anaviy o'qitish usulida ta'lim maqsadi dastur talabiga binoan aniq ifodalanmaydi, tarbiyalanuvchining o'zlashtirish darajasi haqida pedagog aniq tasavvurga ega bo'lmaydi. An'anaviy ta'lim mamlakatimizning barcha o'quv tizimida keng tarqalgan, uning turli jihatlari pedagogika, metodika fanlarida ishlab chiqilgan, katta tajriba to'plangan. An'anaviy ta'lim usulini takomillashtirish sohasida izlanishlar hali hamon davom etmoqda. Lekin uning ob'ektiv imkoniyatlari cheklangan. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim sohasidagi islohotlar, tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan fan-texnika talablari-ta'lim usuli bilan jamiyatning raqobat bardosh, yuqori malakali kadrlar tayyorlash, barkamol avlodni shakllantirishga bo'lgan ehtiyoji o'rtasida nomutanosiblikni vujudga keltirdi. Uni ta'limda boshqa yangi yondashuvlarni qo'llash yo'li bilan hal etish lozim. An'anaviy pedagogikada pedagog dars o'tishi uchun uslubiy ishlanmalar tuzilsa, pedagogik texnologiya – tarbiyalanuvchini o'quv-bilish faoliyatining mazmuni va shakllarini tasvirlaydigan ta'lim jarayoni loyihasini ishlab chiqishni taklif etadi[2]

Noan'anaviy pedagogika – hozirgi kunda norasmiy fan sifatida ma'lum bo'lgan, biroq kun sayin butun jahon soha mutaxassislarining e'tiboriga tushib, jadal rivojlanib borayotgan bilimlar tizimidir. Uning ta'limiy ahamiyatini tan olgan pedagoglar jamoasi, olimlar, shu boisdan ham mavjud an'anaviy pedagogikaga tanqidiy yondashmoqdalar. Hozirgi kunlarda shakllanib, rivojlanib borayotgan mazkur yangi fan haqida jiddiy fikrlar bildirilyapti, uning asosiy vazifasi hukmron bo'lib turgan butun o'quv tarbiya tizimi nazariyasini innovatsiya asosida qayta tashkil etib o'zlashtirishdir. Noan'anaviy pedagogika – hukmron nazariya, nazariy va amaliy muammolarni hal etishning asosi qilib olingan. Innovatorlar fikriga asosan odatiy mumtoz pedagogik nazariyalar eskirib qolgan, yangi sharoitda hozirgi avlodni bu yo'l bilan tarbiyalash mumkin emas[3] Hozirgi kunlarda shakllanib, rivojlanib borayotgan mazkur yangi fan haqida jiddiy fikrlar bildirilyapti, uning asosiy vazifasi hukmron bo'lib turgan butun o'quv tarbiya tizimi nazariyasini innovatsiya asosida qayta tashkil etib o'zlashtirishdir.

Shuning uchun ham, bolalardagi iqtidorni erta aniqlash va rivojlantirish musiqiy ta'limda muhim sanaladi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining qobiliyatlarini yuzaga chiqarish, ularni musiqiy layoqatini rivojlantirishda pedagogik jarayonga kreativ yondashuv zarurdir.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti musiqa mashg'ulotlarini kreativ ruh bag'ishlash orqali olib borilishi turli metodlardan keng va unumli foydalanish bolajonlarning ma'lum bilimlar vositasida rivojlanishi, kelajakda ularni nafaqat kasbiy faoliyat bilan bog'liq bilimlarni egallashiga, balki, ijtimoiy hayotga estetik didli, komil inson bo'lib shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim tashkilotining Davlat o'quv dasturi". –T., 2018 y.

2. Баубекова Г.Д., Халикова Г.Т. Образование: опыт, проблемы, перспективы. Учебное пособие. – Т., Yangi asr avlodi, 2001.

3. Бордовская Н.В., Реан А.А. Педагогика. – СПб, 2000.

4. "Musiqa rahbarining ish faoliyati samaradorligini oshirish" O'quv qo'llanma. – T., 2021.

2001. – С. 144.

[2] Бордовская Н.В., Реан А.А. Педагогика. – СПб, 2000. – Гл. 4, 5.

[3] Шожалилов А. Таълимда педагогик технология // Халқ таълими. – Т., 2002. – № 6. – 77-79 b.

Amangul YUSUPBAYEVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
"Jismoniy madaniyat metodikasi" kafedrasi o'qituvchisi

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI JISMONIY TARBIYA DARSIGA TAYYORLASH

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni hayotga tayyorlash, ularni sog'lom turmush tarziga amal qilishga o'rgatish, jismoniy tarbiya darsiga moslashuvining harakatli o'yinlar bilan ketma-ketligi, shuningdek, jismoniy sifatlarni, qobiliyatlarni rivojlantirish, harakat, malaka va ko'nikmalarni shakllantirish, jismoniy madaniyat va sport sohasiga ta'luqli maxsus bilimlarni o'zlashtrib olish kabilar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar. Hayotga tayyorlash, harakatli o'yinlar, jismoniy tarbiya, sog'lom turmush, maxsus tayyorgarlik.

В статье освещается подготовка дошкольников к жизни, обучение их ведению здорового образа жизни, последовательность адаптации к уроку физической культуры с подвижными играми, а также развитие физических качеств, способностей, формирование движений, умений и навыков, усвоение специальных знаний в области физической культуры и спорта.

Ключевые слова. Подготовка к жизни, подвижные игры, физкультура, оздоровление, специальная подготовка.

The article highlights the preparation of preschoolers for life, teaching them to lead a healthy lifestyle, the sequence of adaptation to a physical education lesson with outdoor games, as well as the development of physical qualities, abilities, the formation of movements, skills and abilities, the assimilation of special knowledge in the field of physical culture and sports.

Key words. Preparation for life, outdoor games, physical education, health improvement,

Maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish va maktabga tayyorlash jarayoni oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarning bajarilishi "Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan Davlat talablari" orqali nazorat qilinadi. Davlat talablaridan maktabgacha yoshdagi bolalarga beriladigan ta'lim-tarbiya mazmunining asosiy yo'nalishlari hamda ularning maktabga tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan minimal talablar belgilab berilgan bo'lib, u davlat hujjati sifatida e'tirof etiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan Davlat talablarida belgilangan ko'rsatkichlarga erishish 6-7 yoshdagi bolalarni maktabga to'la-to'kis tayyorlashga, maktabda beriladigan ta'limni mukammal o'zlashtirishga, mustaqil O'zbekistonning ravnaqi uchun xizmat qiladigan barkamol inson bo'lib yetishishlariga zamin hozirlaydi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni rivojlantirish va maktabga tayyorlash jarayoni uch bosqichda amalga oshiriladi:

1. Bolalarni jismonan rivojlantirish.
2. Bolalarning nutqi va tafakkurini rivojlantirish.
3. Bolalarni ma'nan rivojlantirish.

Maktabgacha ta'limning maqsad va vazifalariga tayangan holda ''Bolalarni maktabga tayyorlash metodikasi'' fanining maqsadi talabalarni maktabgacha yoshdagi bola-

larni maktabga tayyorlashning metod va usullari bilan tanishtirishdan iborat.

‘‘Bolalarni maktabga tayyorlash metodikasi’’ fani quyidagi vazifalarni o‘z ichiga oladi:

1. Talabalar maktabgacha ta’limning maqsad va vazifalarini yaxshi bilishlari.

2. Bolalarning maktab ta’limiga umumiy va maxsus tayyorgarligi tushunchalarini bilishlari.

3. Bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashni aniqlash yo‘llari va metod, usullari to‘g‘risida bilimga ega bo‘lishlari lozim.

O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim to‘g‘risidagi Nizomga muvofiq bola maktabgacha ta’limni uyda, ota-onalarning mustaqil ta’lim berishi orqali yoki doimiy faoliyat kursatadigan maktabgacha ta’lim muassasalarida, shuningdek, maktabgacha ta’lim muassasalariga jalb qilinmagan bolalar uchun maktabgacha ta’lim muassasalarda, maktablarda, mahallalarda tashkil etilgan maxsus guruhlar yoki markazlarda oladi. Bu yerda ular haftada 2-3 marta shug‘ullanishadi. Ota-onalarga maktabgacha ta’lim shaklini tanlash huquqi beriladi. 6-7 yoshli bolaning maktab ta’limiga tayyorligini aniqlashda maktabgacha yoshdagi bolalar ta’lim-tarbiyasi bilan shug‘ullanuvchilar asosiy shart xisoblanmish – bolaning maktabga tayyorligi, maktabgacha va maktab davridagi hayot tarzi hamda faoliyati uchun ko‘prik vazifasini o‘tashini, oila yoki maktabgacha ta’lim muassasadagi ta’lim-tarbiya sharoitlarida maktab ta’limiga ozorsiz o‘tkazishni ta’minlash zarurligini hisobga olishlari lozim. Maktabgacha yoshdagi bolaning maktab ta’limiga o‘tishi hamisha uning hayoti, axloqi, qiziqishi va munosabatlarida anchayin jiddiy o‘zgarishlarni yuzaga chiqaradi. Shuning uchun bolani oilasidan boshlab maktab ta’limiga tayyorlash, uni uncha qiyin bo‘lmagan bilim, tushuncha, ko‘nikma va malakalar bilan tanishtirish kerak bo‘ladi. Yetakchi mutaxassislarning fikriga ko‘ra, ‘‘Maktabga tayyorgarlik’’ tushunchasi bolani maktabga tayyorlashning quyidagi yo‘nalishlarini o‘z ichiga oladi:

- jismoniy;
- shaxsiy (ruhiy);
- aqliy;
- maxsus tayyorgarlik.

Jismoniy tayyorgarlik bolaning sog‘lomligi, harakat ko‘nikmalari va sifati, qo‘l mu–shaklari va ko‘rish-motor muvofiqligi rivojlanganligi bilan izohlanadi. Shaxsiy tayyorligi, atrof-muhitga, kattalarga, tengdoshlariga, o‘simliklar dunyosiga, tabiiy hodisalarga, shaxsiy madaniyatni shakllanganligini nazarda tutadi. Aqliy tayyorgarlik bola obrazli va mantiqiy fikrlashi, tasavvurning, odamiylikning, bilimga qiziqishning, mustaqilligining, o‘zini o‘zi nazorat qilishga hamda o‘quv faoliyatini kuzatish, eshitish, eslab qolish, solishtirish kabi asosiy turlarini bilishni o‘z ichiga oladi. Bolani maktabda o‘qishga jismoniy tayyorligi o‘qishning muvaffaqiyatli bo‘lishida katta ahamiyatga egadir. Maktabga chiqish munosabati bilan bola turmush tarzining qayta qurilishi, kun tartibining o‘zgarishi, jiddiy o‘quv mehnati, darslarning davomiyligi undan sezilarli jismoniy zo‚r berishni talab qiladi. Maktabga jismoniy tayyorlik ko‘pgina tarkibiy qismlardan tarkib topadi. Bu birinchi navbatda bola salomatligining yaxshi bo‘lishi, organizimning chiniqqanligi, ma’lum darajada chidamliligi va ish qobiliyati, kasalliklarga qarshilik ko‘rsata olishidir. Bolalarni maktabga tayyorlashda barmoq mayda muskullarining rivojlanishi alohida o‘rin egallaydiki, bu yozuvni muvaffaqiyatli egallashning zaruriy sharti. Maktabga yetuklikni aniqlashda bola sog‘ligining holati va organizmning biologik yetukligini baholash (antropometrik ko‘rsatkichlar – suyak, mushak, nafas olish va yurak-tomir siste-

masining) rivojlanganligini nazarda tutuvchi ko‘p omilli tahlildan, maktabga funksional tayyorlikni ‘‘Maktabga yetuklik’’ni asosiy ko‘rsatkichi va eng avvalo bir qator fiziologik funksiyalarining rivojlanish darajasini baholashdan foydalaniladi. Bularga: partada anchagina uzoq muddat o‘tirish uchun zarur bo‘ladigan tormizlanish qobiliyatining rivojlanganligi; harakatlarni yaxshi boshqarish, jumladan, yozish va rasm solishga aloqador grafik vazifalarni bajarishda zarur bo‘ladigan barmoqlarning mayda harakatlari; ijobiy va tormozlanishiga xos shartli aloqalarni nisbatan tez hosil qilish hamda mustahkamlash, shuningdek, ikkinchi signal sistemaning yetarlicha rivojlanganligi taalluqlidir. Bolalarni maktabga jismoniy tayyorliklarini tekshirish natijasi ko‘pchilik bolalarda uning asosiy ko‘rsatkichlari norma atrofida ekanligini va hatto undan ilgarilashini ko‘rsatdi. Kun tartibi, chiniqtiruvchi muolajalar, muntazam jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari, xilma-xil harakatli o‘yinlar va jismoniy mashqlar faol harakat rejimi bolalarni maktabda o‘qishiga jismoniy tayyorligini ta’minlashning zaruriy shartlari hisoblanadi.

Jismoniy tarbiya – maktabgacha tarbiya pedagogikasining muhim bir bo‘limi bo‘lib bizda qaror topgan jismoniy tarbiya sistemasining dastlabki bo‘g‘inidir. Uning vazifasi, bola sog‘lig‘ini saqlash, jismoniy sifatlarini o‘stirish, yoshlarni mehnatga va Vatan himoyasiga tayyorlashdir. Jismoniy rivojlanish tor ma’noda bo‘yning o‘sishi, muskullarning ortishi, va shu kabi antropometrik va biometrik ko‘rsatkichlardir. Jismoniy rivojlanish kishi organizmini o‘rab turgan muhitga bog‘liqligi to‘g‘risidagi biologik qonuniyatlar asosida amalga oshiriladi. Masalan: hayot sharoitini jismoniy tarbiya metodini bir muncha o‘zgartirish orqali organizmning funktsional imkoniyat darajasini bir muncha ko‘tarish, jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlarini yaxshilash mumkin. Jismoniy tarbiya deganda organizmning morfologik va funksional rivojlanishini jamiyat talablari darajasida amalga oshirish, jismoniy sifatlarni qobiliyatlarni rivojlantirish, harakat malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish jismoniy madaniyat va sport sohasiga ta’luqli maxsus bilimlarni o‘zlash–trib olish tushuniladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning jismoniy tarbiyasi ular hayotini saqlash, sog‘lig‘ini mustahkamlash, harakat malakalarini shakllantirish va to‘la ma’nodagi jismoniy tarbiya berish madaniy genetik malakalarni shakllantirish batartib hayot kechirish odatini singdirishga qaratilgan. Kun tartibidagi aksariyat hollarda genetik va chiniqtiruvchi muolajalarni bajarish orqali bolaning bilim doirasi kengayadi. Aqliy faolligi ortadi. U jasurlik, hallolik, batartiblik, qat’iylik, mustaqillik va shunga o‘xshash ijobiy xulq normalari va qoidalarini ham egallab shakllanadi. Jismoniy tarbiya aksariyat xollarda butun guruh bilan bajariladi. Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida harakatli o‘yinlarda bolalarda jamoatchilik, uyushqoqlik, intizomlilik kabi xislatlar shakllanadi. Maktab yoshidagi bolalar organizmlari juda tez o‘sadi va rivojlanadi. Shu boisdan ularning organizm funktsiyalari va sistemalarining shakllanishi, hali tugallanmagan bo‘ladi. Shunga ko‘ra u tez jarohatlanadi. Shuning uchun bolalarga jismoniy tarbiya berishda quyidagilar birinchi darajali vazifalar hisoblanadi:

– sog‘lomlashtiruvchi vazifalar;

– ta’limiy vazifalar;

– tarbiyaviy vazifalar.

Jismoniy tayyorgarlik bolaning sog‘lomligi, harakat ko‘nikmalari, qo‘l mushaklari va ko‘rish-mator muvofiqligi rivojlanganligi bilan izohlanadi. ‘‘Rivojlanmaganlik’’ning asosiy belgilari o‘ziga hos jismoniy rivojlanishning alohida jihatlarida ko‘rinadi. Masalan, suyak tuzilishida past bo‘yli bolalarda o‘z yoshiga ko‘ra tana bo‘yi va og’irligidagi nomutanosiblik, tanadagi muvozanat buzilishlari, yurak qon tomir tuzilishidagi fiziologik yetishmovchiliklar tez toliqishlar, jismoniy yuklamalarni bajarishdagi imkoniyatlari

pastligi shular jumlasiga kiradi. Kasalliklar va ularga moyillik bo‘yicha o‘tkaziladigan tekshiruvlarga kelsak ular yashash joyidagi bolalar poliklinikalarida tor mutaxassis shifokorlar guruhi tomonidan olib boriladi. Jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlari.

1. Harakatning asosiy turlarini rivojlantirish:

• yurish va yugurishning barcha turlarini to‘g‘ri bajarish, shart-sharoitga muvofiq ulardan foydalanish;

• sakrash, irg‘itish, tirmashib chiqishning barcha turlarini to‘g‘ri bajarish;

• yumshoq joyda 40 sm balandlikka sakrash, joyidan turib 70 smdan kam bo‘lmagan uzunlikka sakrash, 100 metr masofani yugurib o‘tish predmetini turli vaziyatlardan turib otish 4-5 metr masofadagi vertikal va gorizontal nishonlarga tushirish;

• 2-3 doira yurib aylanib, 3-4 qatorga safni o‘zgartirib tizilish, ‘‘Birinchi, ikkinchi’’ hisob sanog‘idan keyin ikki qatorga tizilish, harakat davomida oraliq masofani saqlash.

• turli xil dastlabki holatlardan turib jismoniy mashqlarni aniq, ritmik ko‘rsatilgan maromda musiqaga mos og‘zaki ko‘rsatmalarda aytilganidek bajarish;

• sport o‘yinlari unsurlari ishtirok etadigan o‘yinlarda (voleybol, futbol, xokkey, basketbol, stol tennisi) faol ishtirok etish. 15 metrga erkin suzish.

2. Tana qismidagi mushakchalarni rivojlantirish:

• qo‘l panjasi va barmoqlar harakatchanligini ta‘minlash, barmoqlarni o‘ynatish;

• miriqib uyquga ketish va oromli uyqu;

• o‘zining jismoniy qiyofasi va sog‘lig‘i haqida tasavvurni shakllantirish, sog‘lom turmush tarziga erishish;

• antropometrik ko‘rsatkichlarning (buyi, vazni, boshining doirasi, ko‘krak kengligi) yosh ko‘rsatkichi standartlariga muvofiq kelishi.

3. Jismoniy rivojlanganlik darajasi.

Maktab yoshiga yetgan bolalarning jismoniy jihatdan rivojlanganlik darajasiga qo‘yiladigan minimal talablar:

• mustaqil tarzda jismoniy mashqlarni bajara olish.

• buyruqqa (start, stop) asoslanib yugura olish;

• narvon yordamida tepalikka chiqa olish va pastga tusha olish.

• narvon ustida o‘tirib oldinga siljiy olish.

• 5 sekund davomida arqonda osilib turish.

• arg‘imchoq ucha olish.

• cheklangan saf va chiziq bo‘ylab yura olish.

• qiya qo‘yiladigan taxta ustidan yurib o‘ta olish.

• bir oyoqda qaldirgoch bo‘lib tura olish.

• oyoq uchlari bilan buyumlarni qisib ko‘tarish, pastga surish va bir joydan ikkinchi joyga ko‘chira olish.

• joyidan turib 15-20 marta sakray olish, 70-8- sm uzunlikka sakray olish, 30 sm balandlikdagi to‘siqdan sakrab o‘tish.

• to‘xtamasdan 2-3 minut davomida yugura olish; 100 metr masofani to‘xtamasdan yugurib o‘tish.

• 10 metr masofani emaklab o‘tish.

• safda to‘g‘ri turish va safni uzunasiga yurish.

• saflanish va qayta saflanishni bilish.

• musiqa ohangiga mos holda xarakat qila bilish.

• koptokni irg‘itish va ilib olish.

• ilon izi shaklida yurish.

• tup-tup bo‘lib aylana bo‘ylab yura olish.

Xalq o‘yinlari ‘‘Kim chaqqon’’, ‘‘Oq terakmi-ko‘k terak?’’, ‘‘Quyonim, quyonim ne bo‘ldi?’’, ‘‘Chitti gul’’, ‘‘Bog‘lam-bog‘lam’’, ‘‘Kim oladiyo shuginaniyo’’. ‘‘Uchdi, chopdi, sakradi’’, ‘‘Qushim boshi’’, ‘‘Qoch bolam, qush keldi’’, ‘‘Tortishmachoq’’ kabi harakatli o‘yinlarda ishtirok eta olishdan iborat. 5 dan 7 yoshgacha bo‘lgan yosh davri ‘‘dast-labki bo‘y cho‘zilishi’’ darsi deb ataladi. Chunki bu davrda bola yil davomida 7-10 sm o‘sishi mumkin. Maktabgacha 5 yoshli bolaning bo‘yi 106,0-10,7 sm, vazni esa 17-18 kilogrammni tashkil etadi. Hayotining 6 yili davomida har oyda o‘rtacha vazniga 200,0 gr, bo‘yiga 0,5 sm qo‘shilib boradi. Tajribalar va maqsadga qaratilgan jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari natijasida 6 yoshli bolalar harakat texnikasiga doir mashqlarni to‘g‘ri va tushungan xolda bajaradilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining ‘‘Kadrlar tayyorlash milliy dasturi’’.Ma’rifat. – T., 1998. 1-aprel.

2. O‘zbekiston Respublikasining ‘‘Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida’’gi Qonuni (2015. 04.09). Xalq so‘zi. – T., 2015. 5-sentabr.

3. Юсупбаева А.С. Совершенствование педагогических механизмов формирования здорового образа жизни в дошколном образовании на основе физического воспитания. ‘‘Maktab va hayot’’ ilmiy-metodik jurnal. N°3 2020-yil.

5. Yusupbayeva A.S. Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy rivojlanishida harakatli o‘yinlarni tashkil etish usullari. ‘‘Xalq ta’limi’’ ilmiy-metodik jurnal. 2021-yil.

Nargiza MO‘MINOVA,
Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti, PhD
Madina ABDULAZIZOVA,
301-MTT

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING JISMONIY HARAKAT MASHQLARI

Annotatsiya

Ushbu uslubiy maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlari jismoniy tarbiya instruktorlar va uslubiy qo‘llanmada jismoniy tarbiyaning maqsadi, vazifalari va umumiy prinsiplari keltirilgan. Jismoniy tarbiyaning sog‘lomlashtirishga yo‘naltirilganlik tamoyili, tashqi muhit omillarining jismoniy tarbiya vositasi sifatidagi ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar. Yetuk, barkamol, o‘yin, mashg‘ulot, didaktik, harakat, prinsip, sog‘lomlashtirish.

В данной методической статье дошкольные образовательные организатции инструкторы по физической культуре. В методическом пособии изложены задачи и общие принципы физического воспитания. Раскрыт принцип оздоровительной направленности физического воспитания, значение факторов внешней среды как средства физического воспитания.

Ключевые слова. Зрелый, компетентный, игровой, тренировочный, дидактический, двигательный, принцип, оздоровительный.

In this methodological article, preschool educational organizations are physical education instructors. The methodological manual sets out the goals, objectives and general principles of physical education. The principle of health-improving orientation of physical education, the importance of environmental factors as a means of physical education is revealed.

Key words. Mature,competent, playful, training, didactic, motor, principle, wellness.

Nafas mashqlari, yurish turlari va sakrashlar, oyoq va qorin mushaklarini, gavda va umurtqani, oyoq va tovon bo‘g‘inlari mushaklarini tarbiyalashga qaratilgan mashqlar, chaqqonlik va jasurlik hamda muvozanat sifatlarini rivojlantiruvchi mashqlar, quvnoq bolalarning harakatli o‘yinlari.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy harakat turlarini rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. O‘rgatishning ushbu bosqichida harakat malakalari va ko‘nikmalari ko‘lamining kengayishi, jismoniy fazilatlar (tezlik, chidamlilik, tezkorlik va boshqalar)ning rivojlanishi bilan bog‘liq holda ham mashqlarni yaxlit, ham harakat texnikasi elementlarini alohida-alohida muvaffaqiyatliroq o‘zlashtirish imkoniyati yuzaga keladi.

Besh-olti yoshli bolalarda o‘z oldilariga qo‘yilgan vazifalarni ongli tushunib yetish, vaziyatni baholash, o‘z harakatlarini boshqara bilishga muayyan tayyorgarlik bo‘ladi, shuning uchun, og‘zaki ko‘rsatma berish va tushuntirish yordamida maktabgacha yoshdagi bolalarning harakat faoliyatida mustahkam bilim va ko‘nikma shakllantirish mumkin bo‘ladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun yaratilgan ta’lim-tarbiya dasturi, Maktabgacha ta’lim Davlat ta’lim standartlariga muvofiq barcha guruhda bolalar yurish, yugurish, muvozanat saqlash, sakrash, uloqtirish, tirmashib chiqishga o‘rganib, uni tako-

millashtirib boradilar, sport o‘yinlari: bastketbol, futbol, sport elementlari va hokazolarni egallaydilar.

Yurish va yugurish mashqlari. Yurish va yugurish mashqlarining vazifasi qo‘l va oyoqlar harakatlanayotganda muvozanatni yaxshi saqlagan holda yengil, erkin harakatlar qilishni o‘rgatishdir. Bolalar katta maktabgacha yoshda bir yo‘nalishda hamda bir me’yorda yurish va yugurish ko‘nikmasini egallay biladilar.

Bolalar olti yoshga yetganda yugurishda uchish holatini egallab olgan bo‘ladilar. Yurish va yugurishni takomillashtirish uchun oldingi guruhlarda egallangan harakat malakalari asosida turli mashqlarni asta-sekin murakkablashtirib borishdan foydalaniladi.

Keng erkin qadam bilan yurish va yugurish, harakat bir oz sekinlatilishi bilan harakterlanadi. Bunda qo‘l va oyoq odatdagidek o‘zaro muvofik, harakat qilib, oldin oyoq tovoni qo‘yilib, keyin uchiga o‘tiladi.

Sakrash mashqlari. Katta maktabgacha yoshida sakrashga oid mashqlar anchagina ko‘payadi. Yerdan anchagina kuchli itarilish, ko‘lni shiddat bilan silkish, yuqoriga, uzunlikka va hokazolarga sakrashni bajarishning barcha bosqichlarida juda yaxshi harakat muvofiqligi kuzatiladi.

Katta guruh bolalari beriladigan yuklamalarni bemalol uddalaydilar, bu o‘rinda mashqlar miqdorini ham oshirish mumkin, biroq mashqlarning bajarilish sifatiga e’tiborni ko‘proq qaratish lozim. Joyida turib yoki oldinga siljib ikki oyoqda sakrashni takrorlash bilan birga yugurib kelib uzunlikka va balandlikka sakrash, kalta arg‘amchidan joyida turib uzunlikka sakrash ham o‘rgatilib boriladi.

Uloqtirish mashqlari. Olti yoshga qadam qo‘ygan bolalar harakatlarni tahlil qilish qobiliyatiga ega bo‘ladilar, bu ularning turli topshiriqlarni o‘zlashtirib olishlariga yordam beradi: nishonga aniq tekkiza oladi, qo‘lini shiddat bilan harakatlantirib, to‘g‘ri dastlabki holatni egallab, to‘pni uzoqqa ota oladi. To‘p tashlab berishda, to‘pni olish va ilib olishda fazoda va vaqtda tashlab bera oladilar, uchib kelayotgan to‘pga tomon gavda holatini o‘zgartirib, qo‘llarini cho‘za oladilar, bular harakatlar muvofiqlashuvining anchagina takomillashganidan dalolat beradi.

Muvozanatni saqlash mashqlari. Ma’lumki muvozanat (uni saqlab turish va tutib turishga intilish) har qanday harakatlar uchun doimiy va zarur komponent bo‘lib hisoblanadi. Katta maktabgacha yoshda muvozanat saqlashni turli tuman mashqlar vositasida takomillashtirib borish davom ettiriladi.

Muvozanat saqlash funksiyasining kechiqishi yoki yetarli rivojlanmasligi harakat aniqligiga, sur’atiga, me’yoriga ta’sir ko‘rsatadi. Ular natijalarining yaxshilanishi 5-6 yoshli bolalarda mushak tonusi muvofiqligining yetarli darajada yaxshi rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘ladi.

Katta guruhlarda muvozanat mashqlarini tayanchni toraytirilgan va kengaytirilgan holatda bajarish taklif etiladi. Bunda topshiriqlar turli narsalar bilan bajariladi. Muvozanatni saqlashni rivojlantirish mashqlarining barchasi bolalardan diqqatni bir joyga to‘plashni, diqqat-e’tiborni, irodaviy zo‘r berishni talab qiladi; shuning uchun mashqlarni o‘rtacha va sekin sur’atda tarbiyachining kuzatuvi ostida o‘tkazish va zarur hollarda ayrim bolalarga yordam berish hamda ularni asrab-avaylash lozim .

Tirmashib chiqish mashqlari. Tirmashib chiqish mashqlari bajarilayotganda turli guruh mushaklari ishga solinadi. Katta guruhda topshiriqlar murakkablashtiriladi, ularni bajarish texnikasiga yuqoriroq talablar qo‘yila boshlaydi. Ilgari o‘rganib olingan mashqlar bilan bir qatorda, gimnastika devoriga sur’atni o‘zgartirgan holda chiqish,

yonma-yon turgan devorchaning biridan ikkinchisiga oshib o‘tish hamda zinapoyalar orasidan o‘tish taklif qilinadi va boshqalar.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiyalash tizimida bolalarga mo‘ljallangan asosiy gimnastika tarkibini asosiy harakatlar, umumrivojlantiruvchi va saflanish mashqlari tashkil etadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy harakat turlarini rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. O‘rgatishning ushbu bosqichida harakat malakalari va ko‘nikmalari ko‘lamining kengayishi, jismoniy fazilatlar (tezlik, chidamlilik, tezkorlik va boshqalar)ning rivojlanishi bilan bog‘liq holda ham mashqlarni yaxlit, ham harakat texnikasi elementlarini alohida-alohida muvaffaqiyatliroq o‘zlashtirish imkoniyati yuzaga keladi.

Besh-olti yoshli bolalarda o‘z oldilariga qo‘yilgan vazifalarni ongli tushunib yetish, vaziyatni baholash, o‘z harakatlarini boshqara bilishga muayyan tayyorgarlik bo‘ladi, shuning uchun, og‘zaki ko‘rsatma berish va tushuntirish yordamida maktabgacha yoshdagi bolalarning harakat faoliyatida mustahkam bilim va ko‘nikma shakllantirish mumkin bo‘ladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun yaratilgan ta’lim-tarbiya dasturi, Maktabgacha ta’limga qo‘yiladigan Davlat talbalariga muvofiq barcha guruhda bolalar yurish, yugurish, muvozanat saqlash, sakrash, uloqtirish, tirmashib chiqishga o‘rganib, uni takomillashtirib boradilar, sport o‘yinlari: bastketbol, futbol, sport elementlari va hokazolarni egallaydilar.

Yurish va yugurish mashqlari. Yurish va yugurish mashqlarining vazifasi qo‘l va oyoqlar harakatlanayotganda muvozanat yaxshi saqlagan holda yengil, erkin harakatlar qilishni o‘rgatishdir. Bolalar katta maktabgacha yoshda bir yo‘nalishda hamda bir me’yorda yurish va yugurish ko‘nikmasini egallay biladilar.

Bolalar olti yoshga yetganda yugurishda uchish holatini egallab olgan bo‘ladilar. Yurish va yugurishni takomillashtirish uchun oldingi guruhlarda egallangan harakat malakalari asosida turli mashqlarni asta-sekin murakkablashtirib borishdan foydalaniladi.

Tarbiyachi katta guruhda yurish va yugurishni navbatma-navbat o‘rgatib boradi,bunda topshiriqlarni asta-sekin murakkablashtirib boradi hamda bajarilayotgan mashqning texnikasiga talablar qo‘yadi.

Masalan, tizzalarni baland ko‘tarib yurish mashqini o‘zlashtirib olishni anchagina qiyin desa bo‘ladi. Yurishning ushbu ko‘rinishida qadamlar qisqa harakatlar aniq, avvaliga oyoqning oldingi qismi uchi, so‘ngra oyoq to‘liq qo‘yiladi. Keng erkin qadam bilan yurish va yugurish, harakat bir oz sekinlatilishi bilan harakterlanadi. Bunda qo‘l va oyoq odatdagidek o‘zaro muvofik, harakat qilib oldin oyoq tovoni qo‘yilib, uchiga o‘tiladi.

Tezkorlik sifatlarini rivojlantirish uchun tezlik bilan yugurish (20 m masofaga) taklif qilinsa, chaqqonlik va harakat muvofiqligini rivojlantirish uchun mokisimon yugurish beriladi va, nihoyat, chidamlilikni rivojlantirish uchun belgilangan masofaga sekin va o‘rtacha sur’atda 2.5 daqiqa davomida muntazam yugurish qo‘llaniladi.

Sakrash mashqlari. Katta maktabgacha yoshida sakrashga oid mashqlar anchagina ko‘payadi. Yerdan anchagina kuchli itarilish, qo‘lni shiddat bilan silkish, yuqoriga, uzunlikka va hokazolarga sakrashni bajarishning barcha bosqichlarida juda yaxshi harakat muvofiqligi kuzatiladi.

Katta guruh bolalari beriladigan yuklamalarni bemalol uddalaydilar, bu o‘rin-

da mashqlar miqdorini ham oshirish mumkin, biroq mashqlarning bajarilish sifatiga e’tiborni ko‘proq qaratish lozim. Joyida turib yoki oldinga siljib ikki oyoqda sakrashni takrorlash bilan birga yugurib kelib uzunlikka va balandlikka sakrash, kalta arg‘amchadan joyida turib uzunlikka sakrash ham o‘rgatilib boriladi.

Uloqtirish mashqlari. Olti yoshga qadam qo‘ygan bolalar harakatlarni tahlil qilish qobiliyatiga ega bo‘ladilar, bu ularning turli topshiriqlarni o‘zlashtirib olishlariga yordam beradi: nishonga aniq tekkiza oladi, qo‘lini shiddat bilan harakatlantirib, to‘g‘ri dastlabki holatni egallab, to‘pni uzoqqa ota oladi. To‘p tashlab berishda, to‘pni olish va ilib olishda fazoda va vaqtda tashlab bera oladilar, uchib kelayotgan to‘pga tomon gavda holatini o‘zgartirib, qo‘llarini cho‘za oladilar, bular harakatlar muvofiqlashuvining anchagina takomillashganidan dalolat beradi.

Muvozanatni saqlash mashqlari. Ma’lumki muvozanat (uni saqlab turish va tutib turishga intilish) har qanday harakatlar uchun doimiy va zarur komponet bo‘lib hisoblanadi. Katta maktabgacha yoshda muvozanat saqlashni turli tuman mashqlar vositasida takomillashtirib borish davom ettiriladi.

Muvozanat saqlash funksiyasining kechiqishi yoki yetarli rivojlanmasligi harakat aniqligiga, sur’atiga, me’yoriga ta’sir ko‘rsatadi. Ular natijalarining yaxshilanishi 5-6 yoshli bolalarda mushak tonusi muvofiqligining yetarli darajada yaxshi rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘ladi.

Katta guruhlarda muvozanat mashqlarini tayanchni toraytirilgan va kengaytirilgan holatda bajarish taklif etiladi. Bunda topshiriqlar turli narsalar bilan bajariladi. Muvozanatni saqlashni rivojlantirish mashqlarining barchasi bolalardan diqqatni bir joyga to‘plashni, diqqat-e’tiborni, irodaviy zo‘r berishni talab qiladi; shuning uchun mashqlarni o‘rtacha va sekin sur’atda tarbiyachining kuzatuvi ostida o‘tkazish va zarur hollarda ayrim bolalarga yordam berish hamda ularni asrab-avaylash lozim .

Tirmashib chiqish mashqlari. Tirmashib chiqish mashqlari bajarilayotganda turli guruh mushaklari ishga solinadi. Katta guruhda topshiriqlar murakkablashtiriladi, ularni bajarish texnikasiga yuqoriroq talablar qo‘yila boshlaydi. Ilgari o‘rganib olingan mashqlar bilan bir qatorda, gimnastika devoriga sur’atni o‘zgartirgan holda chiqish, yonma-yon turgan devorchaning biridan ikkinchisiga oshib o‘tish hamda zinapoyalar orasidan o‘tish taklif qilinadi va boshqalar.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiyalash tizimida bolalarga mo‘ljallangan asosiy gimnastika tarkibini asosiy harakatlar, umumrivojlantiruvchi va saflanish mashqlari tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Salomova R.S. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. – T., 2014.

2. Maxkamdjonov K.M. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi –T.: Iqtisod-moliya, 2008.

3. Fayzullayeva M. va boshqalar. Sog‘ tanda – sog‘lom aql. – T., 2014.

4. Usmonxo‘jayev T. va boshqalar. 500 harakatli o‘yinlar. –T.: Yangi asr avlodi, 2014

5. Djamilova N.N., Sharipova M.X “Jismoniy tarbiya” o‘quv uslubiy qo‘llanma – T., 2018

Ruhshona ISROILOVA,
Navoiy davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi, PhD

RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

(DOLZARB METODIK MUAMMO SIFATIDA)

Annotatsiya

Ushbu maqolada raqamli ta'lim texnologiyalari asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituv–chilarining kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish haqida batafsil yoritilgan.

Kalit so'zlar. Kompetensiya, kasbiy malaka, kasbiy kompetensiya, kasbiy fanlar bloki, tayanch kompetensiya, axborot, kompetent, o'quv fani, raqamli ta'lim texnologiyalari.

В данной статье подробно описано повышение профессиональной компетентности будущих учителей начальных классов на основе цифровых образовательных технологий.

Ключевые слова. Компетентность, профессиональная квалификация, профессиональная компетентность, блок профессиональных дисциплин, базовая компетентность, информация, компетентность, образовательный предмет, цифровые образовательные технологии.

This article describes in detail the improvement of the professional competence of future primary school teachers based on digital educational technologies.

Key words. Competence, professional qualification, professional competence, block of professional subjects, basic competence, information, competent, educational subject, digital educational technologies.

Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda raqamli texnologiya muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi kasbining ko'p predmetli xususiyati va uning faoliyatining ko'p funksiyali o'ziga xosligi bo'lajak o'qituvchidan boshlang'ich maktab kursining barcha fan sohalariga nisbatan ko'plab ko'nikmalarni, shu jumladan raqamli ko'nikmalarni rivojlantirishni talab qiladi. Demak, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligi jarayonini raqamli ta'lim muhitida o'rganish va modernizatsiya qilish g'oyat muhim muammo hisoblanadi.

Kasbiy kompetentlik - mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishidir.

Raqamli texnologiya – kompyuter texnikasi yordamida yaratilgan o'z dasturiy ta'minotiga ega texnologiyalar.

Raqamli ta'lim jarayonini qurish zarurati quyidagi omillar bilan bog'liq:

• talabalarning yangi avlodi (raqamli avlod) alohida ijtimoiy-psixologik xususiyatlarga ega;

• ta'limning raqamli transformatsiyasi raqamli iqtisodiyotni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi;

• axborot tizimlari to‘plami turli vazifalarni ta’minlash uchun maxsus ishlab chiqilgan ta’lim jarayoni.

O‘quv jarayonini raqamlashtirish axborot texnologiyalar va vositalarning jadal rivojlanishini hisobga olish imkonini beradi.

Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarini zamon darajasidagi kadr qilib tayyorlash uchun taqamli texnologiyalarning o‘rni katta ahamiyatga egadir.

Ta’limni raqamlashtirish aspektidagi asosiy tushunchalar raqamli savodxonlik, raqamli ta’lim muhiti, axborot-kommunikatsiya kompetensiyasidir. Rus olimlaridan N.P. Petrov, G.A. Bondareva mediasavodxonlik, innovatsiyalarga munosabat va kommunikativ kompyuter ko‘nikmalari, raqamli savodxonlikni ko‘p qirrali tushuncha sifatida izohlaydi. Raqamli ta’lim muhiti kontseptsiyasidan foydalanganda olimlar qiymat-semantik komponentni, dasturiy-uslubiy, axborot-bilim, aloqa va texnologik komponentlarni ajratib ko‘rsatishadi, shuningdek, baholash, diagnostika va tuzatish funktsiyalarini amalga oshiradigan samarali-tuzatuvchi komponentlarni ko‘rsatadilar.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, integrativ yondashuv asosida o‘qitishga tayyorgarligi, ilmiy-tadqiqot ishlari, fanlararo aloqadorlikning turli yo‘nalishlari va tamoyillari, ularning o‘quv jarayonida muayyan fanlarni o‘zlashtirishda qo‘llanishi, o‘quv fanlariaro aloqadorlik asosida ta’lim mazmuniga qo‘yiladigan talablarning ilmiy-amaliy jihatlari N.M. Abdullayeva, M. Ashirova, T. Dayanayeva, R.A. Mavlonova, A. Musurmonov, P. Musayev, R.G‘. Safarova, E.O. Turdiqulov, A.Ch. Choriyev, Sh.E. Qurbonov, Sh. Yusupovalarning ishlarida tadqiq etilgan.

Kasbiy pedagogik kompetensiyalarni alohida turlarga ajratish maqsadga muvoqdir:

– maxsus pedagogik kompetensiya;

– pedagogik faoliyatni zarur darajada amalga oshirish uchun yetarli ma’lumotga ega bo‘lish.

Bundan tashqari, pedagogning o‘z kasbiy darajasini munosib baholay olishi va mutaxassis sifatida o‘z rivojlanishini belgilash qobiliyati ushbu turga bog‘liq:

– ijtimoiy pedagogik kompetensiya;

– ijtimoiy vakolat darajasi pedagogning hamkasblari bilan munosabatlarni samarali qurishi, birgalikdagi harakatlarni rejalashtirish qobiliyatini belgilaydi.

Samarali aloqa ko‘nikmalari, pedagogik madaniyat va ish natijalari uchun javobgarlik:

– bularning barchasi ijtimoiy pedagogik kompetensiya tushunchasiga kiritilgan; - shaxsiy pedagogik kompetensiya;

– bu pedagogik ishni oqilona tashkil etish qobiliyati bo‘lib, vaqtni boshqarish, shaxsiy o‘sishga intilish uning asosiy tarkibiy qismlaridir.

Shaxsiy pedagogik kompetensiyaning yuqori darajasi ega bo‘lgan ishchilar charchashga kamroq moyil, vaqt bosimida ishlashga qodir.

O‘qituvchining kasbiy kompetentlik sifatlar:

• O‘quvchilarda motivatsiyani shakllantirish;
• Ta’lim jarayonini rejalashtirish, baholash, qayta aloqani o‘rnata olish;
• Axborot kommunikatsiya texnologiyalarini bilish;
• O‘z ustida ishlash;
• Pedagogika va psixologiyaga oid bilimlarga ega bo‘lish;
• O‘z fanini mukammal bilish;
• Ta’lim muhitiga yangilik kiritishi.

Kasbiy kompetentlikning tarkibiga kasbiy faoliyatdagi kompetentlik, kasbiy muloqotdagi kompetentlik, mutaxassisning o‘z kasbini nomoyon eta olishdagi kompetentligini kiritish mumkin.

Raqamli texnologiyalar asosida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun quyidagi tavsiyalarga amal qilish kerak:

1. O‘quv dasturlarida raqamli texnologiyalardan foydalanishni kengaytirish: O‘qituvchi, darsda raqamli texnologiyalardan foydalanishni talabalarga ko‘rsatishi kerak. Bu esa larni kasbiy kompetensiyalari yuqori bo‘lishiga yordam beradi.

2. Interaktiv darslar tashkil etish: O‘qituvchi interaktiv darslar tashkil etib, talabalarni bilimlarni amaliyotga joriy etishiga yordam berishi kerak. Shuningdek, talabalar interaktiv darslar orqali savollar berib, javoblar qaytarishi hamda boshqa talabalar bilimlari haqida gapirishi mumkin.

3. Onlayn platformalardan foydalanish: O‘quv dasturlarini onlayn platformalarda taqdim etish, talabalarning ma’lumotlarga kirishini yanada qulaylashtiradi.

4. Tayyorlov dasturlari ishlab chiqish: Talabalar tayyorlov dasturlari ishlab chiqish orqali kasbiy kompetensiyalarini yuqori darajaga ko‘tarishini osonlashtirishadi. Shuningdek, bu shaklda talabalar “amaliyot”da test topshirishi mumkin.

5. Qo‘llanmalar va videolar yaratish: O‘qituvchi qo‘llanmalar va videolar yaratib, shu bilimlarni talabalarga ta’lim berishi hamda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishi mumkin.

7. O‘zlashtirish: Talaba raqamli texnologiyalardan foydalanib, bilimlarini o‘zlashtirishi kerak. Shuningdek, o‘zlashtirishni ta’lim jarayonining mustaqil tashkili sifatida ko‘rinishga keltirilsa ham bo‘ladi.

Bizningcha, hozirgi kunda Oliy ta’lim muassasalariga o‘quv jarayonlarini mustaqil tashkil etish borasidagi imkoniyatlardan kelib chiqib ta’limda raqamli texnologiyalarini qo‘llashning asosiy yo‘nalishlari sifatida quyidagilarni belgilashimiz mumkin:

– ta’lim berishni samarali tashkil etish uchun o‘quv dasturlarini yaratishda bugungi zamonaviy axborot vositalaridan keng foydalanish;

– ta’lim berishga asoslangan raqobatbardosh, ko‘p tarmoqli Veb-saytlar tayyorlash;

– talabalar mustaql foydalanishlari uchun uslubiy va didaktik materiallarni kreativ fikrlash, axborot madaniyatini shakllantirish maqsadlari asosida ishlab chiqish;

– talabalarning axborotlardan foydalanishda uning realligini ta’minlash imkoniyatlarini oshirish;

– virtual modellar bilan kompyuter tajribalarini tashkil etish va o‘tkazish;

– maqsadli axborot izlashni tizimli tashkil etish.

Shunday qilib, raqamli texnologiyalar asosida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun juda ko‘p usullar mavjud. Bu usullar yordamida talabalar bilimlarni amaliyotga joriy etadi va kasbiy kompetensiyalarini yanada rivojlantirishi mumkin.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish juda muhimdir, chunki ular kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga imkon beradi va o‘quvchilar uchun qulaydir. Raqamli texnologiyalar asosida boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari kasbiy kompetensiyasini rivojlantirilganda zamon bilan hamnafas kadr bo‘lib yetishadi.

Xulosa qilib aytganda, raqamlashtirish talabalar bilim olishining ijtimoiy paradigmasini o‘zgartirib, takomillashtirish, kengaytirish imkoniyatlarini ochadi. Zamonaviy

dunyodagi raqamli texnologiyalar nafaqat vosita, balki yangi imkoniyatlarni ochadigan mavjudlik muhiti: har qanday qulay vaqtda o‘rganish, uzluksiz ta’lim imoniyatini oshiradi. Ta’limni raqamlashtirish talabalar tomonidan mobil va Internet texnologiyalaridan foydalanishni, ularning bilim doirasini kengaytirishga imkoniyat yaratadi.

Boshlang‘ich ta’limda raqamli texnologiyani qo‘llash, talabalarga mustaqil fikrlashni va ijodiy hamkorlikni rivojlantiradi. Bu xususiyatlar talabalarga tushunishni va fikrlashni osonlashtiradi. Raqamli texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash uchun ta’limning asosiy vositalaridan biri bo‘ladi.

Bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarini raqamli texnologiya asosida kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar quyidagi xulosalar chiqarish imkonini beradi:

1. Ta’lim jarayonini osonlashadi: Raqamli texnologiya o‘qituvchi va talabalar uchun ta’lim jarayonini osonlashtiradi. Bularning bir qismi veb-saytlar, elektron darsliklar, video va audio materiallaridan foydalanishni osonlashtiradi.

2. Mustaqil fikrlash: Raqamli texnologiyalarni boshlang‘ich ta’limda qo‘llash, talabalarga mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bu shunday ko‘nikma, talabalarni hayotdagi muammolarga yechim topishda imkin beradi.

3. Eng yaxshi xususiyatlarga ega bo‘lish: Raqamli texnologiya barcha turdagi talabalar uchun eng yaxshi xususiyatlarga ega bo‘ladi. Bu yordamida talabalar mutaxassislik sifatida uzoq muddatda ishlashlari kerak bo‘lgan sahifalarda tajriba va bilim orttirib borishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muslimov N.A., Urazova M.B., Eshpulatov Sh.N. (2013). Kasb ta’limi o‘qituv–chilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi.// – T.: Fan va texnologiya nashriyoti.

2. Петров Н.П. Цифровизация и технологии цифровизации и образования / Н.П. Петров, Г.А. Бондарева // Наука Мира, культура, образование. – 2019. – № 5 (78). – С. 353-355.

3. Xolmatov P.Q. Ta’limni raqamlashtirish asosida bo‘lajak o‘qituvchilar kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish imkoniyatlari. // Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 11 | 2022.

4. Rasulova Z. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari. // “Science and Education” Scientific Journal / ISSN 2181-0842 October 2021 / Volume 2 Issue 10.

5. Bayturayeva N. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy kompetentligini rivojlantirishda mustaqil ta’lim faoliyati. // «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601| Volume: 1, ISSUE: 6.

6. Toshxonov A.T “Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini integrativ yondashuv asosida takomillashtirish”. // Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi avtoreferati. – T., 2023. – 44 b.

7. Бабина С.А. Использование мультимедийных технологий в процессе предметно-методической подготовки будущих учителей начальных классов / С.А. Бабина, Н.В. Вершинина, Е.А. Кулебякина // Гуманитарные науки и образование. – 2020. – № 2, Т. 11. – С. 22-28.

Sayyora MUXAMMADIYEVA,
A. Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika instituti, "Umumiy pedagogika" kafedrasi katta o'qituvchisi

AHMAD YASSAVIYNING ASARLARI ORQALI E'TIQOD TARBIYASINI TALABALAR ONGIGA SINGDIRISH

Annotatsiya

Mazkur maqolada tarbiyaning tarixiy ildizlari, yurtimizda inson ma'naviy-axloqiy tarbiyasi muammosi bo'yicha olib borilgan izlanishlarda ilgari surilgan g'oyalar, xususan Xo'ja Ahmad Yassaviyning insonparvarlik g'oyalarining bugungi kunda yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati to'g'risida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar. Pedagogika, ta'lim, tarbiya, axloq, insonparvarlik, halollik, nafs tarbiyasi, ma'naviy meros.

В этой статье рассматриваются исторические корни образования, идеи, выдвинутые в исследованиях по проблеме духовно-нравственного воспитания в нашей стране, в частности, важность гуманитарных идей Ходжи Ахмада Яссави в воспитании молодежи сегодня.

Ключевые слова. Педагогика, образование, воспитание, этика, человечность, честность, самовоспитание, духовное наследие.

This article discusses the historical roots of education, the ideas put forward in research on the problems of spiritual and moral education in our country, in particular, the importance of the humanitarian ideas of Hodja Ahmad Yassavi in the education of young people today.

Key words. Pedagogy, education, upbringing, ethics, humanity, honesty, self-education, spiritual heritage

Xoja Ahmad Yassaviy so'fiylik ta'limotining aksariyat qismi imon-e'tiqod tarbiyasiga bag'ishlangandir. Unda 40 ta maqom ko'rsatilgan bo'lib, ulardan 10 ta maqomi logut, ya'ni ma'rifat va ilm olishga qaratilgan. Bunda, asosan, insonning aqliy jihatdan tarbiyalanishiga katta e'tibor qaratilgan. Shu nuqtayi nazardan buyuk alloma ma'rifat maqomida ilm, insonda aql va tafakkur shakllanishining poydevori ekanligini ko'rsatadi hamda bu maqom insonning axloqiy shakllanishini ham o'z ichiga qamrab oladi, deb tushuntiradi. Shuningdek, u aqliy tarbiya va axloqiy shakllanish jarayonlarini o'zaro uzviy bog'liqlikda asoslab bera olgan. Quyida ilm-ma'rifatga bag'ishlangan ushbu 10 ta maqomni ko'rsatib o'tamiz:

''Ma'rifat – bu avvalo fano bo'lmoq,
Ikkinchi – darveshlikni qabul qilmoq,
Uchinchi – har ishga tahammul qilmoq,
To'rtinchi – haloli tayyib talab qilmoq,
Beshinchi – ma'rifat qilmoq,
Oltinchi – shariat va tariqatni barpoy tutmoq,
Yettinchi – dunyoni tark qilmoq,
Sakkizinchi – oxiratni ixtiyor qilmoq,
To'qqizinchi – vujud maqomini bilmoq,

O‘ninchi – haqiqat asrorini bilmoq turar’’.

Xoja Ahmad Yassaviyning ‘‘Ma’rifat bu avvalo fano bo‘lmoq’’ deb ko‘rsatilgan birinchi maqomida ‘‘fano’’ tushunchasi o‘zidan va butun borliqdan kechib ilohiyatga sig‘inish ma’nosini anglatadi. Har bir insonning nafsu hirslardan tozalangan musaffo yuragida ilm olishga ehtiros, ijod qilishga ishtiyoq uyg‘onadi. Shu sababdan Yassaviy insonning ma’rifat manzilida Xudo mohiyatini to‘la anglab, ilmu axloqda komillikka yetishini, binobarin, u oriflik darajasiga ham ko‘tarilishini ta’kidlaydi. Bu bilan inson hayoti davomida murakkab kamolot yo‘lini tanlaydi va o‘zidan yaxshi va yomon nom qoldiradi.So‘fiylikning ikkinchi maqomi ‘‘darveshlikni qabul qilmoq’’, deb ko‘rsatiladi. Yassaviy darveshlik maqomini 40ta ekanligini ko‘rsatib, agar ularni bilib amal qilsa, darveshlik pok turur va agar bilmasa, o‘rganmasa, darveshlik maqomi unga harom va johil turur, deydi. Bu 40 ta maqomdan 10 tasi shariatda, 10 tasi tariqatda, 10 tasi ma’rifatda turur va keyingi 10 tasi haqiqatda turur, deb har biriga nisbatan o‘zining munosabatini ifodalaydi va ularni bajarish uchun 10 ta ulug‘ yo‘lni ko‘rsatadi.

Ushbu maqomda ‘‘darveshlikni qabul qilish’’ deganda dunyo noz-ne’matlari, uning lazzatlaridan kechish lozimligi tuhuniladi. Chunki bulardan xolos bo‘lmagan kishi nopok, nodon, zulmkor, molparast, mansabparast kabi illatlariga ega blib, o‘zini baxtsizlik va g‘urbatga ixtiyor etishi, ya’ni molparastlar mol-dunyo uchun bir-birlariga shafqat qilmasdan, nodonlik bilan johillik ko‘rsatishlari ham mumkin. Xuddi shu nuqtayi nazardan o‘quvchi va talabalarda mazkur maqomni singdirish ularda ijobiy insoniy fazilatlarni tarbiyalahda qo‘l keladi. Ya’ni mazkur maqomdan o‘quvchilarda qimmatbaho zebu ziynatlarni taqishga, rang-barang jiloli matolardan kiyim-kechaklar kiyishga va pul, mol-dunyoga nisbatan mehr uyg‘otmaslik kabi salbiy sifatlarni bartaraf etishda foydalanish mumkin.

Uchinchi maqomda ‘‘har ishga tahammul qilmoq’’, ya’ni bu so‘zdagi ‘‘tahammul qilmoq’’ tushunchasi ‘‘bardosh bermoq’’, ‘‘sabr-toqat bilan kutmoq’’ ma’nolarini anglatadi. Bunda o‘quvchi va talabalarga har qanday ishga, qiyinchiliklarga bardosh berish lozimligini o‘rgatish hamda sabr-toqat qilingan ishning natijasi esa ijobiy yakunlanishini uqtirib borish lozim. Bu bilan o‘quvchilar optimistik ruhda tarbiyalanib, ularda bardoshlilik, sabr-toqatlilik kabi xususiyatlar shakllantiriladi.

To‘rtinchi maqom ‘‘haloli tayyib talab qilmoq’’ deb nomlangan bo‘lib, bunda kishi halol deb hisoblangan narsalardan tanavvul qilishi, o‘zini gunoh ishlardan tiyib halol turmush kechirishi, o‘zgalar mol-dunyosiga ko‘z tikmasligi, dunyoga ishq uyg‘otmasligi, halol bilan haromni ajrata olishi, halollik, poklik va adolat kabi xususiyatlarni o‘ziga singdirishi lozim.

Beshinchi maqom ‘‘ma’rifat qilmoq’’ deb yuritilib, bunda insonning komillikka erishuvi to‘g‘risida fikr bildiriladi. Xoja Ahmad Yassaviy Muhammad payg‘ambarimizning “Ilm egallang, ilm sahroda – do‘st, hayot yo‘llarida – yo‘ldosh, baxtiyor daqiqalarda – rahbar, qayg‘uli onlarda – madadkor, odamlar orasida – zebu-ziynat, dushmanlarga qarshi kurashda – quroldir” degan hadisiga amal qilgan. Ya’ni bu bilan inson bilimga intilishi, o‘qish va o‘rganish orqali ushbu o‘tkinchi dunyoning yolg‘onchi huzurlaridan voz kecha olishligi hamda uni yomon yo‘llarga undovchi nafs qopqonidan o‘zini xolos qila olishga o‘zida kuch-quvvat, iroda to‘play olishligi ta’kidlanadi.

Oltinchi maqom ‘‘Shariat va tariqatni barpoy tutmoq’’ deb belgilanadi. Ya’ni bunda inson musulmonchilikning barcha qonun-qoidalarini o‘rganib rioya qilishi, undagi barcha farz qilingan amallarni bajarishi, o‘zini gunohlardan saqlashi, man qilingan ishlardan tiyishi, g‘araz va yomonliklardan tozalashi, o‘ziga berilgan ne’matlar uchun

shukronalar qilib yashashi va yolg‘iz Ollohgagina sig‘inishi lozimligi uqtiriladi.

Yettinchi maqom ‘‘dunyoni tark qilmoq’’ deb ko‘rsatilib, bunda bu yolg‘onchi dunyo lazzatlaridan voz kechish, kamtarona hayot kechirish g‘oyalari ilgari suriladi. Shuningdek, insonni baxtsizlikka eltuvchi nafsni engishga, ta’magirlik va g‘arazgo‘ylik kabi illatlardan yiroq bo‘lishga undaydi. Kamtarona hayot inson ruhini xotirjam qilib, uni tetiklashtiradi.

Sakkizinchi maqom ‘‘oxiratni ixtiyor qilmoq’’ deb nomlangan bo‘lib, unda bu o‘tkinchi dunyodagi barcha narsalar yolg‘onchi noz-ne’matlar ekanligi, oxiratdagi dunyo esa abadiy ekanligi tushuntiriladi. Ya’ni bu dunyoda har birimizga in’om etiladigan mol-dunyo, uy-joy, mashina, martaba, mansab va hatto farzand ham bizga quvonch bag‘ishlab, qalbimizni aldab imondan chiqaruvchi vositalardir. Shu sababdan Yassaviy ta’limotida kishining oxirat haqida ko‘p o‘ylashi, qayg‘urishi, ya’ni oxiratni ixtiyor etishi uni abadiy baxt-saodatga eltadi, deb e’tirof etiladi. Bizning ham o‘quvchi-yoshlarimiz va talabalarimiz qalbida oxirat haqida uylashga o‘rgatishimiz ularni kishilarga, ya’ni ota-onalariga, ustozlariga, opa-singilu aka-ukalariga nisbatan mehr-oqibatli va imon-e’tiqodli qilib tarbiyalashga undaydi.

To‘qqizinchi maqomda ‘‘vujud maqomini bilmoq’’ deb ko‘rsatiladi. Unda kishi vujudini, tanasini boshqara olishi, uni turli xil ofatlardan saqlashi mumkinligi uqtiriladi. Darhaqiqat, bu ota-bobolarimiz hayot tajribalarida isbotlangan fikr. Kishiga vaqtida uxlash, uning miya faoliyatini yaxshilashi, nafsga ortiqcha ruju qymasdan, kam yeb-ichishi, unda ichki kasalliklarning oldini olishi, kamtarona-oddiy kiyinish esa uni turli tana kasalliklari asoratidan saqlashi, tilovat va ibodat qilish esa uni ham jismoniy ham gigiyenik tarbiyalashi mumkin.

O‘ninchi maqomda ‘‘haqiqat asrorini bilmoq turar’’ deb belgilangan bo‘lib, bunda yuqorida aytib o‘tilgan maqomlarning barchasini to‘la egallagan kishi yetuk, komil shaxs bo‘lib shakllanishi bilan birga, uning ruhi ham poklanishini bildiriladi. Xuddi shu holatdagina inson Haqqa yetishligi, Olloh bilan bevosita muloqot qilish sharafiga muyassar bo‘lishligi uqtiriladi. Tarixiy manbalarda ko‘rsatilishicha, mazkur maqomlarga to‘la va mukammal amal qilgan ajdodlarimiz orasida ko‘plab valiylar, anbiyo-avliyolar yetishib chiqqan.

So‘fiylik maqomidagi ushbu tamoyillar tarbiya sohasida bugungi kunda ham o‘z qimmatini yo‘qotmagan. Ayniqsa, bugungi kunda ta’lim-tarbiya tizimida Xoja Ahmad Yassaviyning ‘‘Rasoil’’, ‘‘Faqrnoma’’, ‘‘Devoni hikmat’’ asarlaridagi diniy va dunyoviy bilimlarga oid hikmatlardan foydalanish o‘quvchi va talabalarni aqliy va axloqiy tarbiyalash bilan bir qatorda, ularni kuchli e’tiqod egasi qilib shakllantirish imkonini beradi. Imon-e’tiqodli kishi esa barcha yomon sifatlardan xoli ekani, ya’ni u pok, halol, to‘g‘riso‘z, o‘zgani moliga, omonatiga xiyonat qilmasligi, qanoatli, sabr-toqatli, saxovatli, diyonatli va sadoqatli bo‘lishi bilan boshqalardan ajralib turadi. Shu sababdan ham bugungi kunda ta’lim-tarbiya tizimida o‘quvchi-yoshlar va talabalarning e’tiqod tarbiyasi bilan shug‘ullanishimiz foydadan xoli bo‘lmaydi.

Endi esa biz e’tiqod tarbiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan va tarixiy manbalardan olingan Yassaviy tariqatiga tegishli ma’lumotlarni keltiramiz.

Tarixchilarning guvohlik berishicha, madrasa va maktablarda Qur’oni karim va Sunna, payg‘ambar hadislaridan keyin Xoja Ahmad Yassaviy hikmatlaridan o‘quv qo‘llanma sifatida yoshlarni tarbiyalashda keng foydalanilgan.

Bismilloh deb bayon aylab hikmat aytib,

Toliblarg‘a durru gavhar sochdim mano.

Riyozatni qattiq tortib, qonlar yutub,
Men daftari soniy so‘zin sochdim mano.

Ya’ni o‘z shogirdlariga qanday kiyinchiliklar, riyozatlar orqali bilim gavharini sochganligini aytib, so‘zni talab qilganlarga va qalb orqali seza bilganlarga, g‘arib, yetim, faqirlarning ko‘nglini olib, ilm berganligini quyidagicha tasdiqlaydi:

So‘zni aytdim har kim bo‘lsa diydor talab,
Jonni jonga payvand qilib, rangni ulab,
G‘arib, faqir, yetimlarni ko‘nglin ovlab,
Ko‘ngli qattiq xaloyiqdan qochtim mano.

Keyingi misraga hikmat majmuasi sifatida e’tibor qilsak, bu misrada ‘‘ko‘ngli butun xaloyiq’’ deb, ‘‘ilmning cho‘qqisiga etdim’’ degan, ya’ni ‘‘Ilm chegaraga ega’’ degan fikrlovchilardan qochganligini ko‘rsatib, ilmning cheksizligiga, uni qancha ko‘p bilsang ham, shuncha ko‘p narsani bilmasliging ma’lum bo‘lishligiga ishora qiladi. Bu fikrida Xoja Ahmad Yassaviy o‘zi shaxsiy namuna ko‘rsatib, aqlli, ilmli odam g‘ariblarning ko‘nglini olish, elni kezib ularni topish va dardlashish, dunyoparast bilimsiz kishilardan uzoq yurishga da’vat qiladi:

Oqil ersang, g‘ariblarni ko‘nglin ovla,
Mustafodek elni kezib, etim kovla,
Dunyoparast, nojinslardin bo‘yin tovla,
Bo‘yin tovlab, daryo bo‘lib toshtim ma’no.

Ayni paytda Yassaviy nodonlik, jaholat, va diniy aqidaparastlikni razolat deb qattiq qoralagan. Shuning uchun ham o‘tmishda hikmatlari singari o‘zining Shuhrati ham Turkistonda keng tarqalgan. Xalq orasida Yassaviyni donishmand, bashoratchi alloma sifatlaridan voqif etuvchi ko‘plab rivoyatlar yaratilgan.

